



ISLOM KARIMOV

ERISHGAN MARRALAR BILAN
CHEGARALANMASDAN,
BOSHLAGAN ISLOHOTLARIMIZNI
YANGI BOSQICHGA KO'TARISH-
BUGUNGI KUNDAGI ENG
DOLZARB VAZIFAMIZDIR

23





ISLOM KARIMOV

ERISHGAN MARRALAR BILAN
CHEGARALANMASDAN,
BOSHLAGAN ISLOHOTLARIMIZNI
YANGI BOSQICHGA KO'TARISH-
BUGUNGI KUNDAGI ENG
DOLZARB VAZIFAMIZDIR

23

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON» NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
2015

UO‘K: 323(575.1)

KBK 66.3(50‘)

K 25

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarining 23-jildidan davlatimiz rahbarining 2014–2015-yillarda mamlakatimiz parlamenti palatalari, Vazirlar Mahkamasining majlislarida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining VII syezdida, turli xalqaro anjumanlarda, marosimlarda so‘zlagan nutq va ma’ruzalar, tabriklari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuvlardagi chiqishlarining qisqa bayoni o‘rin olgan.

ISBN 978-9943-28-371-8

ISBN 978-9943-28-371-8



9 789943 283718

© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2015.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING YIGIRMA UCH YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!
Muhtaram mehmonlar!

Bugun xalqimiz ona yurtimizning buyuk tarixidagi haqiqatan ham biz uchun eng ulug‘, eng aziz bo‘lgan Vatanimiz mustaqillikka erishgan kunning yigirma uch yillik bayramini katta shod-u xurramlik bilan nishonlamoqda.

Ana shu qutlug‘ ayyom bilan siz, azizlarimni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklash, barcha-barchangizga o‘zimning chuqur hurmatim va ehtiromimni bildirishdan baxtiyormen.

Aziz yurtdoshlarim, qadrdonlarim!

Biz o‘ta og‘ir, mashaqqatli sinov va kurashlarda qo‘lga kiritgan Vatanimizning Mustaqillik kunini nishonlar ekanmiz, barchamizning hayotimizda chuqur iz qoldirgan, biz bosib o‘tgan tarixan qisqa davrda nimalarni boshimizdan kechirdik, nimalarga erishdik, ta’bir joiz bo‘lsa, «Biz kecha kim edigu bugun kim bo‘ldik?» degan fikr-mulohazalar beixtiyor xayolimizdan o‘tishi tabiiydir.

Mustaqillik, istiqlol degan ulug‘ ne’mat avvalo xalqimizga erkinlik va ozod hayotni bergen, insoniy sha’nimiz, milliy ongimiz, qadr-qimmatimizni tiklab, barchamizga o’zligimizni anglash tuyg‘usini, tilimiz, muqaddas dinimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni qaytarib bergen, Vatanimiz tarixida hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydigan buyuk sanadir.

Mustaqillik biz uchun – bu o‘z taqdirimizni qo‘lga olib, yurtimizning yer osti, yer usti boyliklariga ega bo‘lish, beqiyos moddiy va ma’naviy salohiyatimizni amalga oshirish, jahon miqyosida o‘zimizga munosib o‘rin egallash demakdir.

Kechagi mustabid tuzumda yashagan insonlar yaxshi biladi: o’sha paytda O‘zbekiston degan go‘zal bir diyorni, o‘zbek degan buyuk bir xalqni kim tanirdi? Bizni mustaqil davlat sifatida kim tanolardi?

Yurtimiz qanday ulkan va noyob boyliklar makoni, aziz-avliyolar, buyuk allomalar, olim va mufakkirlar vatani ekanini, biz qanday betakror meros, qanday ulug‘ zotlarning vorisi ekanimizni kim bilardi?

Milliy qadr-qimmatimizni, barchamiz uchun muqaddas diniy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni pisand qilmasdan, ular ayovsiz toptalgan zamонлarda bundan ortiq alam va bedodlik bo‘lishi mumkinmidi?

O‘zbekistonimiz faqatgina xomashyo yetka-zib beradigan, iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan o‘lkaga aylantirilgan, sobiq SSSR tarkibida eng qoloq agrar respublika emasmidi?

Xalqimizni boqish uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan, kimlargadir yalinib olib kelganimizni unutib bo‘ladimi?

Eski tuzum hukmronlik qilgan oxirgi kunlarda yurtimizda atigi bir hafta-o‘n kunga yetadigan un zaxirasi qolganini, deyarli ocharchilik yoqasida tur-ganimizni unutish mumkinmi?

Lekin mustabid tuzum qanday adolatsizlik, zulm va zo‘ravonligini o‘tkazmasin, xalqimiz o‘zligini, iyomon-e’tiqodini, din-u diyonatini aslo yo‘qotmadi va boshimizga qanday og‘ir va mashaqqatli sinovlar tushmasin, o‘z qadr-qimmatini yuksak saqlab kelmoqda. Bu haqiqatni hech kim hech qachon esidan chiqarmasligini istardim.

Muhtaram do‘sstar!

Bugun istiqlolimizning yigirma uch yillik to‘yini o‘tkazar ekanmiz, biz tanlagan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga kirish yo‘lida amalga oshirgan ishlarimizni baholar ekanmiz, hech ikkilansandan aytishni o‘zimning burchim deb bilaman:

yurtimizda yashayotgan har qaysi yosh-u qari inson, millati, tili va dinidan qat’i nazar, boshi-

ni baland ko'tarib, yagona Vatanimiz bo'lmish O'zbekistonimizning gullab-yashnashi yo'lidagi olamshumul ishlarda mening ham munosib hissam bor, deb aytishga haqlidir.

Haqiqatan ham, biz qo'lga kiritgan yutuqlar – milliy davlatchilik qurilishi, keng ko'lamli zamonaviy islohotlar natijasida iqtisodiyotimiz erishgan barqaror o'sish sur'atlari, aholimizning turmush darajasi va sifati yuksalib, yurtimiz qiyofasi tobora o'zgarib, chiroy ochib borayotgani – bularning bar-chasi xalqaro maydonda munosib tan olinayotgani, obro'-e'tiborimiz oshayotgani hammamizga katta iftixor bag'ishlaydi.

Mustaqil taraqqiyot yillarida mamlakatimiz iqtisodiyoti taxminan 5 karra, aholi jon boshiga hisoblaganda 3,7 martaga o'sgani, xalqimizning hayot darajasi va sifati oshganining dalili bo'lmish odamlarimizning jon boshiga oladigan daromadlari 8,7 barobar ko'paygani yurtimizning qisqa davrda kechagi, o'zini boqishga qurbi yetmagan respublikadan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonaviy davlatga aylanganining yaqqol tasdig'idir.

Mana shu yutuqlarning barchasini shu maydonda o'tirgan siz azizlar, sizlarning timsolin-gizda mehnatkash, fidoyi xalqimiz o'z qo'li bilan yaratib, bugun mustaqilligimizning 23 yillik qutlug' bayramini g'urur va iftixor bilan kutib ola-yotgani eng yuksak baholarga munosib emasmi?!

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganiga qaramasdan, O‘zbekiston iqtisodiyotining yillik o‘sishi oxirgi 10 yil davomida 8 foizdan oshib, barqaror rivojlanib borayotganini bugungi kunda kamdan kam davlatlar misolida ko‘rish, kuzatish mumkin.

Mamlakatimizni mana shunday yuksak sur’atlar bilan rivojlantirish, modernizatsiya qilish va keng ko‘lamli islohotlarni joriy etish maqsadida iqtisodiyotimizda o‘zlashtirilgan kapital mablag‘lar hajmi 180 milliard dollardan ortiq bo‘lib, buning 60 milliard dollardan ziyodi xorijiy sarmoyalardir.

Ana shu investitsiyalar hisobidan avvalo iqtisodiyotimizning tarkibini tubdan o‘zgartirish, yuksak texnologiyalarga ega bo‘lgan, havas qilishga arziydigan zamonaviy korxonalar qurish, jahon bozorida raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, O‘zbekiston salohiyatini yangi bosqichga ko‘tarish imkoniyati yaratilganini ko‘p-ko‘p misollarda kuzatish qiyin emas, albatta.

Ayni shu yillarning o‘zida aholimizning soni 10 million 300 ming kishiga ko‘payib, bugungi kunda 31 million kishini tashkil etayotgani O‘zbekistonimizning insoniy salohiyatini oshirib, yangi bosqich va marralarga erishish uchun nafaqt mustahkam zamin tug‘dirmoqda, kerak bo‘lsa, boshqalarni biz bilan hisoblashishga majbur qilmoqda.

Aziz yurtdoshlarim!

Biz eski, o‘zini oqlamagan tizimdan yangi tizimga o‘tishda, buning uchun mustahkam poydevor – fundament qurishda shoshilganimiz yo‘q. Ya’ni biz «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmang» degan hikmatli iboraga itoat qildik.

Biz tanlab olgan tadrijiy, evolutsion yo‘l – maqsad-muddaolarimizga bosqichma-bosqich, qadam-baqadam yetish yo‘lini o‘zimizga ma’qul topdik, uni katta sinovlardan o‘tkazdik.

Yillar o‘tishi bilan, oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlar sari yurishimizda chuqur va atroficha o‘ylangan, xalqaro maydonda «o‘zbek modeli» deb tan olingan demokratik islohotlar yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanini hayotimizning o‘zi oqlab, isbotlab bermoqda va bu haqiqatga bizga xayrixoh bo‘lмаган mutaxassis va ekspertlar, tegishli xalqaro institutlar ham iqror bo‘lmoqda.

Shular haqida gapirganda, mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqich va ufqlarni zabit etishda barchamizni quvontiradigan, eng katta mezon avvalo yurtimizda hukm surayotgan barqarorlik, osoyishtalik va hamkorlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhiti, vatandoshlarimizning tobora o‘sib borayotgan dunyoqarashi va ong-u tafakkuri, huquqiy va siyosiy madaniyati va faolligi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Xalqimizning ma'naviyatini yanada yuksaltish uchun amalga oshirayotgan ishlarimiz o'z hosilini bermoqda va shu fursatdan foydalanib, aytmoqchiman – bu sohada erishgan marralarimiz bilan biz hech kimdan kam bo'lmasdan, ko'pgina manaman degan davlatlardan o'zib ketganimizni eng muhim yutug'imiz, deb hisoblayman.

Bir payt bildirgan fikrimni yana takror aytaman: moddiy nuqtayi nazardan biz eng rivojlangan davlatlardan balki hali orqadadirmiz. Lekin biz o'z yo'limizni tanladik va bu yo'ldan qaytmasdan, qat'iy ishonch bilan ayta olamiz: moddiy nuqtayi nazardan ham bu marra albatta bizniki bo'ladi, ammo ma'naviy nuqtayi nazardan qaraganda, eng yengilmas kuch o'zi nima? Yuksak ma'naviyatli xalq emasmi? O'zingiz ayting, bunday xalqni yengib bo'ladimi?

Bu haqda so'z yuritganda, boshlagan ishlarimizning davomchilari bo'l mish aziz farzandlarimizni o'z fikriga, o'z qarashlariga ega, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, ertangi kunimizning mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi davr talab qiladigan sog'lom va barkamol avlod etib tarbiyalash masallasiga o'z vaqtida ustuvor ahamiyat berib, uni umum-milliy darajaga ko'targanimiz – eng to'g'ri, uzoqni ko'zlagan, hayotimizda o'zini to'la oqlagan tarixiy qadam bo'ldi.

Bir faraz qilaylik, biz bundan 17 yil oldin ta'lim sohasini mutlaqo o'zgartirgan, yangi, zamonaviy bosqichga olib chiqqan dasturlarni qabul qilmasak, bugun tez o'zgarayotgan globallashuv davri, hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgan Internet asrining o'tkir va murakkab talablariga munosib javob berish, mamlakatimizning taraqqiyotini, istiqbolini ta'minlash, biz ko'zlagan, kelajagi buyuk davlat qurish degan ulug' maqsadni oldimizga qo'yish mumkinmidi?

Aziz bolalarim, qadrdonlarim!

Bugun mana shu muhtasham maydonda jamul-jam bo'lib o'tirgan siz, yosh avlodimiz vakillariga, mening farzandlarim bo'lmish butun O'zbekiston yoshlariga qalbimda, yuragimda bo'lgan bir fikrni aytmoqchiman: har qachon sizlar bilan uchrashganda, sizlarning yonib turgan ko'zlariningizni, navqiron qaddi-qomatingizni, sizlar erishayotgan yutuqlarni kuzatganda, ko'pchilik qatori men ham o'zimda xuddiki qanot paydo bo'lgandek his etaman.

Sizlar qayerda, qaysi sohada bo'lmasin – bilim olish, ilm-u fan cho'qqilarini egallah, eng zamonaviy kasb-hunarlarini o'zlashtirish, biznes sohasini rivojlantirishda, sport maydonlari-da O'zbekistonning shuhratini tarannum etishda barchaga namuna bo'layotganingiz, so'zsiz, ham-mamizni quvontiradi.

Buning yaqqol tasdig‘ini kuni kecha Xitoy Xalq Respublikasining Nankin shahrida o‘tkazilgan o‘smirlar o‘rtasidagi Ikkinci Olimpiya o‘yinlarida 28 nafar yosh sportchimiz qatnashib, 4 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza, hammasi bo‘lib – 10 ta medalni qo‘lga kiritgani butun O‘zbekistonimiz yoshlaringin mustaqilligimizning 23 yillik bayramiga ulkan hissasi bo‘ldi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

O‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring, 28 nafar navqiron o‘g‘il-qizlarimiz ana shunday nufuzli xalqaro musobaqada hech kimga bo‘sish kelmasdan, azm-u shijoat ko‘rsatib, ilgari biz tasavvur qilishimiz ham qiyin bo‘lgan shunday ulkan marralarga erishgan ekan, bu butun Vatanimizning yutug‘i emasmi?

Aziz farzandlarim, hech qachon unutmang: siz erishgan marra va yutuqlaringiz xalqimiz, elimiz erishgan yutuqlar deb hisoblayman, sizning bugungi va ertangi kuningiz yanada yorug‘ bo‘lishi uchun bor kuchimni ayamayman.

Yoshlar haqida qancha gapirsam, charchamayman. Bu haqda gapirganda, ochig‘ini aytsam, o‘zimni ham xuddi yasharib ketgandek his qilaman.

Bugun biz boshlagan ulug‘ ishlarning davomchilari bo‘lmish mana shunday yigitlar, qizlarimizni, ularning baxt-u kamolini ko‘rib, shunday go‘zal yurtda, shunday yorug‘, musaffo osmon ostida yashash nasib etganiga barchamiz shukronalar ay-

tamiz. Bunday baxtli hayotni xalqimiz asrlar, ming yillar davomida havas va orzu qilib yashagan edi. Bizni mana shunday saodatlari kunlarga Xudo yetkaz-yapti. Har tongda pok bo‘lib, chin dildan so‘rasak, Yaratganimizning o‘zi albatta yo‘limizni ochib beradi. Ollohnning nazari tushgan mana shu muqadas yurtda hech kim hech qachon kam bo‘lmaydi, inshoollo.

Muhtaram do‘sstar!

Hozirgi kunda dunyoning turli hudud va mintaqalarida, yaqin va uzoq atrofimizda ekstremizm va terrorizm, qarama-qarshilik, qon to‘kilishi, xavfxatarlar ortib, umuman, vaziyat tobora keskinlashib borayotgani barchamizni xavotir va tashvishga solishi tabiiydir.

Ming afsuski, bunday qonli to‘qnashuvlar, nizo va ziddiyatlar o‘z yechimini topib, kamayish o‘rniga ko‘payib bormoqda.

Bunday o‘ta notinch, tahlikali sharoitda eng muhim masala – bu ham bo‘lsa, qayerda, dunyoning qaysi chekkasida bo‘lmisin, endi boshlanayotgan qarama-qarshilik va paydo bo‘layotgan mojarolarni e’tiborsiz qoldirmaslik, ular urushga aylanib ketishining oldini olish uchun vaziyat doimo jahon hamjamiyati nazoratida bo‘lishi darkor.

O‘zbekistonning pozitsiyasi bunday holatlar, keskin ziddiyat va to‘qnashuvlarni faqatgina siyosiy yo‘l, tinch vositalar bilan hal etish, Bir-

lashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida muhrlab qo‘yilgan asosiy prinsiplarga va xalqaro normalarga itoat qilgan holda, davlatlarning suvereniteti va chegaralarning daxlsizligini buzishga, zo‘ravonlik va kuch ishlatishga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Mana shunday o‘ta murakkab vaziyat barchamizdan avvalo ogoh, hushyor va sezgir bo‘lishni talab qilmoqda.

Yaqin va uzoq qo‘snilarimiz bilan til topib, bizlarni birlashtiradigan umumiylar maqsadlar yo‘lida hamkorlikni yanada kuchaytirish, o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish ustuvor vazifamiz bo‘lib qolishini zamonning o‘zi taqozo etmoqda.

Bizga tinchlik va omonlik kerak. Mana shunday ezgu fikr, ezgu intilish barcha-barchamizning yuragimiz, qalbimizdadir, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Fursatdan foydalaniib, bizning bugungi eng ulug‘, eng aziz bayramimizga tashrif buyurgan muhtaram mehmonlarimizga, xorijiy davlatlarning elchilarini, xalqaro tashkilotlarning vakillariga o‘zimning yus-sak hurmat va ehtiromimni bildirish menga katta mammuniyat yetkazadi.

Sizlarning O‘zbekistonga doimo xayrixoh bo‘lib, amaliy yordam ko‘rsatib kelayotganingiz uchun xalqimiz nomidan chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman, barchangizga sihat-salomatlik, yurtingizga ravnaq tilayman.

Muhtaram vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Shu munavvar oqshomda barchangizni bag‘rimga bosib, Mustaqillik bayrami bilan tabriklar ekanman, hammangizga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonardonlaringizga, el-yurtimizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

2014-yil 31-avgust

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIGA A'ZO MAMLAKATLAR DAVLAT RAHBARLARI KENGASHINING KENGAYTIRILGAN MAJLISIDAGI NUTQ

Muhtaram davlat rahbarlari!
Hurmatli majlis qatnashchilari!

Avvalambor, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari, SHHTda kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan davlatlar rahbarlari va mazkur sammitga taklif etilgan mehmonlarga o'zimning samimiy hurmatimni izhor etishga ruxsat bergaysiz. Fursatdan foydalanib, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmonga samimiy mehmondo'stlik va bugungi uchrashuv yuksak saviyada tashkil etilgani uchun minnatdorlik bildirmoqchiman.

Bugun bu yerda davlat rahbarlari tomonidan SHHTning o'tgan davr mobaynidagi faoliyati yuzasidan bildirilgan fikrlarga qo'shilaman. Shanxay hamkorlik tashkiloti nisbatan qisqa davrda jahon siyosatida muhim o'rin tutayotgan nufuzli xalqaro tuzilmaga aylandi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Keyingi vaqtda, dunyoning turli joylarida qarama-qarshilik va keskinliklar kuchayib borayotgan bir sharoitda tashkilotga a'zo mamlakatlar,

shuningdek, kuzatuvchi davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan mintaqada tinchlik va xavfsizlikni saqlash, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafik hamda boshqa xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi ishlar izchil davom etirildi.

SHHTning Milliy koordinatorlar kengashi, Xavfsizlik kotiblari va ekspertlar kengashi darajasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlarni ham alohida qayd etishni istardim.

Muhtaram davlat rahbarlari!

Imkoniyatdan foydalanib, quyidagi masalalarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Bugun Afg'onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat surunkali beqarorlik xususiyati va yanada keskin tus olish tendensiyasiga ega. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, afg'on muammosini bartaraf etishdan manfaatdor bo'lgan barcha tomonlar bir masalada yakdildir, ya'ni Afg'onistonda harbiy yo'l bilan tinchlikka erishib bo'lmaydi.

Afg'onistonda urush yillarida tinch hayot haqida tasavvurga ham ega bo'lмаган butun bir avlod voyaga yetdi. Joriy yilning iyun oyida Afg'onistonda o'tkazilgan prezident saylovi shuni ko'rsatdiki, afg'on xalqi to'xtovsiz qon to'kish va zo'ravonlikdan, ko'p yillik qashshoqlik, vayronagarchilikdan charchadi va bugungi kunda mamlakatda tinchlik va barqarorlik o'rnatilishini,

o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lishni istaydi.

Ayni paytda saylovchilarning ovozini qaytadan sanash va Afg‘oniston prezidentligiga saylov nati-jalarini e’lon qilish va davlatning yangi rahbarining o‘z vazifasini bajarishga rasman kirishish jarayoni cho‘zilayotgani mamlakatda kelgusida barqarorlik-ka erishish borasida kuchli xavotir uyg‘otmoqda.

Afg‘onistonda voqealarning bu tarzda rivojlanishi mamlakatda ichki siyosiy vaziyatni butunlay izdan chiqarishi, milliy xavfsizlikka va qarama-qarshiliklarni tinch yo‘l bilan hal etish istiqbol-lariga real xavf solishi, muzokaralar jarayonida murosaga erishish, o‘zaro kurashayotgan barcha tomonlar va Afg‘onistondagi milliy-diniy guruh-lar vakillaridan tashkil topishi mumkin bo‘lgan koalitsion hukumatni shakllantirishga xalaqit berishi mumkin.

Xavfsizlikka ko‘maklashuvchi xalqaro kuchlar-ning Afg‘onistondan olib chiqib ketilishi tahdidlar-ning kuchayishi va beqarorlikning o‘sishiga, ter-roristik va ekstremistik faoliyatning kengayishiga hamda narkotrafik ko‘lamining nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki undan uzoq bo‘lgan hududlarda ham ortishiga olib kelishini o‘zimizga tasavvur qilishimiz kerak.

Bunday vaziyatda Afg‘onistonda yuzaga kela-digan har qanday bo‘shliqni qisqa muddatda turli

buzg‘unchi va terroristik guruhlar egallab olishi mumkin.

Oqibatini oldindan aytib bo‘lmaydigan bunday sharoitda ayrim siyosiy kuchlar va ularni qo‘llab-quvvatlaydigan davlatlarning Afg‘onistonda tartibsizlikni yuzaga keltirish va vaziyatni yanada chigallashtirishga urinishlarini inkor etib bo‘lmaydi. **Qisqacha aytganda, Iroqdagi bugungi vaziyat takrorlanadi.**

O‘zbekiston Afg‘oniston bilan o‘zining barqaror va do‘stona munosabatlarini har ikki mamlakatning milliy manfaatlardan kelib chiqib va faqat ikki tomonlama hamkorlik asosida o‘rnatmoqda va bundan keyin ham shunday yo‘l tutadi. Afg‘on xalqining o‘zi saylaydigan hukumatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Dunyo iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan ahvolni tahlil qilar ekanmiz, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy oqibatlari hali to‘liq bartaraf etilmagan, deb aytish uchun barcha asoslарimiz bor.

Hech shubhasiz, bunday tendensiya SHHT faoliyatida ishtirok etayotgan barcha mamlakatlardagi vaziyat va ulardagi rivojlanish sur’atlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday sharoitda tashkilotga a’zo davlatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, aniq amaliy natijalarga erishish uchun iqtisodiyot, investitsiyalar va transport kommunikatsiyalari sohalarida mintqa mamlakatlari manfaatlariga javob

beradigan keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni yanada kengaytirish vazifasi alohida dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifani amalga oshirishda Xitoy Xalq Respublikasi va uning Raisi Si Szinpin tomonidan ilgari surilgan «Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab iqtisodiy koridor» tashkil etish borasidagi tashabbus muhim o‘rin tutadi, deb hisoblaymiz. Mazkur koridor mintaqadagi barcha mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy, ayniqsa, transmintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi manfaatlarini ilgari surishga, nafaqat ushbu loyiha ishtirokchilari, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy va iqtisodiy salohiyatini sezilarli ravishda kuchaytirishga ko‘maklashadi.

Ukrainadagi muammoni bartaraf etish bo‘yicha ham o‘z fikr-mulohazalarimizni qisqacha bayon etishni istardim.

Birinchi. Ukrainianadagi muammoni tinch yo‘l bilan hal etish bo‘yicha Minsk shahrida erishilgan kelishuvlarni, Ukraina va Rossiyaning ushbu masala yuzasidan bildirgan taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ikkinchi. Ishonchim komilki, O‘zbekiston tomonidan shu yilning 4-martida Ukrainianadagi qarama-qarshilikka barham berish va mamlakatda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha Ukraina va Rossiya o‘rtasida **to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokara jarayonini o‘tkazish**

yuzaga kelgan vaziyatni hal etishning eng maqbul va samarali yo‘li ekani haqida bildirilgan takliflar dolzarbligicha qolmoqda va bugun ham o‘z tasdiq‘ini topmoqda.

Uchinchi. Ukrainadagi muammo yuzasidan har qanday muzokara jarayonlarida Rossiyaning tarixan ko‘p asrlar davomida shakllangan azaliy manfaatlari ham e’tiborga olinishi darkor.

Ushbu manfaatlarni e’tiborga olmaslik jiddiy xato bo‘lgan bo‘lur edi.

Fursatdan foydalanim, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Vladimirovich Putinni SHHTga navbatdagi muddatga raislik bilan tabriklab, ushbu mas’uliyatli missiyani amalga oshirishda muvaffaqiyat tilashga ijozat bergaysiz.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

2014-yil 12-sentabr

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, sizlarni umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy tabriklab, barcha-barchangizga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni izhor etishdan baxtiyormen.

Bugun biz mana shu qutlug' ayyomni keng nishonlar ekanmiz, siz, azizlarning bolalarimiz, yosh avlodimizga bilim va tarbiya berishdek o'ta murakkab, o'z kasbiga mehr va sadoqatni, butun borlig'ini bag'ishlashni, fidoyilikni talab etadigan sharaflı mehnatingiz uchun siz, muhtaram muallimlar zoti oldida barchamiz chin qalbimizdan, yuragimizdan sizlarga minnatdorlik bildirishni o'z burchimiz deb bilamiz.

Ayni shu fikrlarni, ya'ni farzandlarimizni kamol toptirish, ularga ilm-u fan sirlarini o'rgatishdek g'oyat mas'uliyatli ishni ado etib kelayotgan insonlarning hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan oljanob mehnatini inobatga olib, bundan 18 yil muqaddam O'qituvchi va murab-

biylar kunini ta'sis etganimiz va uni umumxalq bayrami darajasiga ko'targanimiz jamoatchiligimiz, butun xalqimizning xohishi va intilishini o'zida mu-jassam etadi, desam, o'ylaymanki, haqiqatni aytgan bo'laman.

Aziz ustozlar, muallimlar!

Dunyoda «o'zbek modeli» deb tan olingan, mamlakatimiz milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini o'z vaqtida qabul qilib, amalga oshirganimiz yangi hayot, yangi jamiyat qurishda eng kuchli, aytish mumkinki, eng qudratli omil bo'lib, nafaqat ta'lim sohasini, balki odamlarimizning dunyoqarashini, butun hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborgani haqida bugun har qancha g'ururlanib, faxrlanib gapirsak, arziydi, albatta.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishish yo'lida, jumladan, eng murakkab, shu bilan birga, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasida g'oyat muhim masalani yechishda, ya'ni biz boshlagan ishlarni davom ettiradigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, yangilikka intilib yashaydigan, hech kimdan kam bo'lmaydigan yosh avlodni tarbiyalash borasida haqiqatan ham qiyin va mashaqqatli yo'lni bosib o'tganimiz, avval tajribamizda mutlaqo ko'rмаган мarralarni zabit etishga qanday katta mehnatimiz singganini alohida ta'kidlash o'rnlidir.

Ta’lim sohasidagi noyob dasturlarimizning ijrosi qancha kuch va imkoniyat, qancha mablag‘ni talab qilgani – bu o‘z yo‘li bilan, lekin mana shunday ulkan va ulug‘vor ishlarni amalga oshirishda aynan sizlar o‘zingizni ayamasdan, sidqidildan mehnat qilganingiz hisobidan biz yurtimizda bu sohada tub burilish va o‘zgarishlarga ham nazariy, ham amaliy poydevor yaratdik.

Qancha-qancha yangi ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, qo’llanma va darsliklarni ishlab chiqib, amalda joriy etish, ularni har bir o‘quvchi, har bir talabaning ong-u shuuriga singdirish uchun butun soha xodimlari, siz, hurmatli muallim va ustozlar bu maktabdan avvalo o‘zingiz o‘tganingiz, beminнат xizmat qilib kelayotganingizni haqiqiy fidoyilik namunasi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz, davlatimiz uchun hal qiluvchi murakkab bir davrda sizlar bilan birga ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirib, zamon talab qilayotgan darajaga ko’tarishga erishganimizni ko‘z o‘ngimizdan o’tkazar ekanmiz, bu yo‘lda siz, azizlarning qanday qiyin bo‘lmasin, qat’iyatlilik va fidoyilik ko‘rsatganingizni, bu buyuk maqsad uchun belni mahkam bog‘lab mehnat qilganingizni men chinakam jasorat deb baholayman va mana shunday olajanob fazilatlaringiz uchun barcha-barchangizga ta’zim qilaman.

Qadrli vatandoshlar!

Har bir inson, har bir ota-onaning ezgu orzusi bo‘lmish sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, shu maqsadda minglab zamonaviy o‘quv maskanlari, bolalar sporti inshootlarini barpo etganimiz, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar, soha xodimlarining mehnatini munosib qadrlash, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga qaratilgan samarali tizim ishlab chiqib, amalda tatbiq etganimiz va boshqa ko‘pgina chora-tadbirlar bugun o‘z ijobiy natijasini bermoqda. Xususan, birgina so‘nggi besh yilda oylik ish haqi xalq ta’limi muassasalarida 2,9 barobar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida qariyb 4 marta, oliy ta’lim sohasida 3,6 karra oshirilgani, minglab ustoz va murabbiylar, professor-o‘qituvchilarimiz Vatanimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlangani ham ana shundan dalolat beradi.

Hurmatli do‘sstar!

Barchamizga ayonki, bugungi global integratsiyalashuv sharoitida, kundalik hayotimizga kompyuter texnologiyalari va Internet tizimi jadal kirib kelayotgan bir paytda xorijiy tillarni har tomonlama puxta egallamasdan turib, jahon hamjamiyati bilan hamqadam bo‘lib yashashni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ayni shu maqsadda mamlakatimizda o'tgan yildan e'tiboran umumta'lim maktablarining 1-sinfi dan boshlab chet tillarni o'qitishning uzlusiz tizimi joriy qilingani yangi amaliy qadam bo'ldi. Bu sohada ishni to'g'ri tashkil etish, kutilgan samaraga erishish uchun avvalo mavjud o'quv-metodik bazani mustahkamlash, dastur va qo'llanmalarni yanada takomillashtirish, pedagog xodimlarning bilim va malakasini oshirish zarurligi haqida ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Shu bilan birga, ta'lim maskanlarida «Ziynet» tarmog'i yordamida o'quv-tarbiya jarayonlarini bugungi taraqqiyot, milliy va umumbashariy tafakkur yutuqlari bilan uzviy bog'liq ravishda olib borish, Multimediali umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi faoliyatini kuchaytirish, o'quv adabiyoti va qo'llanmalari elektron turlarining ilmiy-uslubiy saviyasini yuksaltirish muhim vazifamizdir.

Ayni shu yo'nalishdagi ishlarimizning uzviy davomi sifatida joriy yilda Janubiy Koreyaning dunyoda nom qozongan nufuzli Inha universitetining Toshkent filialini, shuningdek, ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lgan yangi o'quv va malaka oshirish markazlarini tashkil etganimiz yoshlarimiz uchun yangi imkoniyat va yangi ufqlar ochib berishi muqarrar.

Bugungi kunda dunyoda, yon-atrofimizda qarama-qarshilik va ziddiyatlar ko‘payib, inson qalbi va ongini egallash, birinchi navbatda, yoshlarning ma’naviy olamini izdan chiqarish, ularni o‘z otonasiga, el-yurtiga qarshi qo‘yishga qaratilgan tahlid va xurujlar kuchayib borayotgan murakkab va tahlikali zamonda o‘zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebahos meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadogat hissi bilan yashaydigan yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, baloqazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi.

Bu haqda gapirganda, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek asrashda, avvalambor, bolalarimizni mustaqil fikrga ega bo‘lib, oqni qoradan ajratishga qurbi yetadigan insonlar etib, bir so‘z bilan aytganda, yoshlarimizning irodasini mustahkam va baquvvat qilib tarbiyalashda siz, muhtaram o‘qituvchi va murabbiylar bundan buyon ham kuch-g‘ayratingiz, bilim va tajribangizni ayamaysiz, deb ishonaman.

Azizlarim, qadrdonlarim!

Davlatimiz, jamiyatimiz sizlarning Vatanimiz taraqqiyotiga qo‘shayotgan katta hissangizni, mas’uliyatli faoliyatingizni yuksak baholaydi

va qadrlaydi. Bu masala kelgusida ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi, deb ishontirib aytmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni qutlug‘ bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalarингизга baxt-u saodat, ezgu ishlaringizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Hech qachon kam bo'l mang, umringizdan baraka topping, aziz va mehribon ustozlar!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2014-yil 30-sentabr*

BMT JAHON SAYYOHLIK TASHKILOTI IJROIYA KENGASHI 99-SESSIYASINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQ

Muhtaram janob Taleb Rifai!
Hurmatli forum ishtirokchilari!
Xonimlar va janoblar!

Siz, muhtaram mehmonlarimizni – Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashi rahbarlari va a'zolarini, turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha vazirlik va idoralar, sayyohlik tashkilotlari boshliqlarini, olimlar va mutaxassislar, jahon turizm sanoati vakillarini qutlab, barchangizga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromimni bildirish, Ijroiya kengashining 99-sessiyasiga samarali va muvaffaqiyatli ish olib borishni tilash menga katta mammuniyat bag'ishlaydi.

Avvalambor, O'zbekiston Prezidentini mana shunday qarsaklar bilan, ochiq yuz bilan, ko'tarinki kayfiyatda kutib olganingiz uchun sizlarga katta rahmat aytmoqchiman. Bunga javoban men ham sizlarni aynan Samarqandda, O'zbekistonda ko'rib turganimdan chin dildan xursand ekanimni yana bir bor ta'kidlamoqchiman.

Sizlar bizning zaminimizga tashrifingizdan mammun va rozi bo'lsangiz – bu mening eng kat-

ta tilagim, desam, ayni ko‘nglimdagi gapni aytgan bo‘laman.

Bugun bu zalda 150 dan ortiq turizm sanoati va killari hozir bo‘lganidan xabardorman. Bu anjuman-da, shuningdek, bizning do‘sralarimiz – O‘zbekis-tonda akkreditatsiyadan o‘tgan xorijiy diplomatlar ham ishtirok etmoqda. Ular bizning mehmonlarimiz bilan birgalikda barcha muhim anjuman va tantanali marosimlarimizda doimo qatnashib kelishadi.

Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh kotibi janob Taleb Rifai va kengashning barcha a’zolariga mazkur kengashning navbatdagi sessiyasi majlisi o‘tkaziladigan joy sifatida turli madaniyatlar chorrahasi va jahon sivilizatsiyasi durdonasi bo‘lmish qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrini tanlagani uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Samarqand shahrining tarixiy ahamiyati, uning beqiyos go‘zalligi haqida albatta ko‘p gapi-rish mumkin.

Salkam uch ming yillik g‘oyat boy tarixga ega bo‘lgan bu azim shahar o‘zining ulug‘vor me’moriy yodgorliklari, moviy gumbazlari, betakror sharqona qiyofasi va ruhi bilan sayohatchilar, turistlar va mehmonlar e’tiborini tortib keladi.

Bu dilbar shahar har qanday insonni o‘ziga maf-tun etadi. Uni bir bor ko‘rgan odam hech qachon esidan chiqarmaydi.

Yaqinda Amerikaning xalqaro doiralarda tan olingan va katta nufuzga ega bo‘lgan «The Huffington Post» internet nashri Samarqandni inson o‘z umri davomida hech bo‘lmaganda bir marta borib ko‘rishi albatta zarur bo‘lgan dunyodagi 50 ta shaharning biri sifatida e’tirof etdi va ana shu shaharlar ro‘yxatiga kiritdi.

O‘zida eng qadimgi davrlar va bugungi hayotni uzviy ravishda uyg‘unlashtirgan ushbu shaharda tug‘ilib voyaga yetgan inson sifatida siz, aziz mehmonlarimizni mana shu mehmondo‘s zaminda ko‘rish va butun Samarqand ahli nomidan, shaxsan o‘z nomimdan «Samarqandga xush kelibsiz!» deb aytish menga alohida mammuniyat bag‘ishlaydi.

Qadrli do‘sstar!

Jahon sayyoqlik tashkiloti Ijroiya kengashining bugungi sessiyasi majlisining asosiy kungartibi g‘oyat muhim masalaga – «Buyuk Ipak yo‘li – xalqaro turizmni rivojlantirishning yangi istiqbollari» mavzusiga bag‘ishlangan.

Turizm qadim zamonlardan boshlab sayyoramiz xalqlari o‘rtasida do‘slik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Odamlar yangi o‘lkalarni kashf etish, dunyoni ko‘rish va bilish, savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o‘rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Savdo karvonlari yo‘llari kesishgan, madaniyatlar va sivi-

lizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o'rinni tutgan.

Nufuzli olimlarning fikriga ko'ra, O'zbekiston davlatchiligining shakllanish tarixi miloddan avvalgi ikki minginchi yillardan boshlangan va 3,5 ming yildan ziyod davrni qamrab oladi. Ko'hna Rim va Bobilning tengdoshi hisoblangan, o'rta asrlar ilmfani, san'ati va madaniyatining yirik markazlari si-fatida dunyoga dong taratgan va UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlari bu zaminda qadimgi davlatchilikning shakllanish va rivojlanish markazlari bo'lib kelgan.

Shu o'rinda biz keyingi yillarda jahon hamjamiyati bilan birgalikda Samarqand shahrining 2750 yilligini, Shahrisabzning 2700 yilligini, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini, Toshkent shahrining 2200 yilligini keng nishonlaganimizni aytib o'tish joizdir.

Qadimiy madaniyatlar beshigi bo'lgan bu shaharlarda ilk va keyingi o'rta asrlardayoq ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalari, hunarmandlik va savdo-sotiq keng rivojlangan, muhtasham saroylar, masjid va madrasalar barpo etilgan. Bunday go'zal shaharlarni bunyod etish uchun nafaqat mohir usta va quruvchilar, balki matematika, astronomiya, fizika,

arxitektura, geometriya, geodeziya, seysmologiya va kimyo kabi fundamental fanlarni chuqur biladigan olimlarning bilim va tajribasi ham kerak bo‘lgan.

Jahon tarixidagi eng muhim madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ta noyob hodisa – Buyuk Ipak yo‘li aynan ana shu shaharlar va madaniyatlar markazlari orqali o‘tgan. Miloddan oldingi III-II ming yilliklardoq vujudga kelgan kommunikatsiya tarmoqlari Mesopotamiya tekisliklaridan Hind vodiysigacha, O‘rta Osiyo vohalaridan Arab dengizigacha cho‘zilgan bepoyon O‘rta Sharq mintaqasidagi bir-biridan juda uzoqdagi madaniyatlar va mamlakatlar ni bog‘lagan. Keyinchalik ana shu hududlar Buyuk Ipak yo‘lining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylan-gan.

Savdo-sotiq aloqalarining kengayishi aholining ko‘chib yurishiga sabab bo‘lgan. Ular o‘zлari bilan birga me’morlik, madaniyat yodgorliklari, numizmatika va hunarmandlik mahsulotlarida aks etgan o‘z urf-odatlari va dunyoqarashini ham olib kelgan.

O‘sha zamonlarda eng yuqori daromad keltiradigan va sotish maqsadida uzoq masofalarga tashish uchun eng qulay tovar ipak bo‘lgan. Bundan tashqari, Buyuk Ipak yo‘li orqali yana ko‘plab boshqa tovar va buyumlar, jumladan, chinni, oyna, shisha, gilam, metall, qurol-yarog‘, turli taqinchoqlar,

choy, ziravorlar, shuningdek, mashhur xitoy qog‘ozi tashilgan.

Xalqaro turizmning paydo bo‘lish va shakllanish tarixini tahlil qilar ekanmiz, savdo munosabatlarini o‘rnatish, dam olish va sayohat bilan bir qatorda, dunyo xalqlarining tarixi, madaniyati, urfodat va an‘analarini o‘rganish, bilish va buning natijasida odamlar, el-u elatlар o‘rtasida hamjihatlik, bag‘rikenglik fazilatlarini mustahkamlash ham turizmning muhim tarkibiy qismi bo‘lganiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Aynan ma‘rifiy turizm bugungi kunda dunyoda tobora katta qiziqish uyg‘otmoqda va mening nazarimda, butun sayyoqlik sohasining eng muhim qadriyatlaridan biriga aylanmoqda.

Bugun biz turizmning o‘rni haqida, ayniqsa, xalqaro sayyoqlikning hozirgi bosqichdagi ahamiyati haqida gapirganda, eng dolzarb masalalar dan biri – bu tolerantlik tamoyili bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman.

Biz aynan turizm orqali tolerantlik nima ekanini bilamiz, anglaymiz. Bu xalqaro tushuncha bo‘lib, dunyodagi barcha millatlarga birdek qadrli va tushunarlidir. Tolerantlik avvalambor turli millatga mansub insonlarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini va eng asosiysi, bir-birini tushunishni anglatadi.

Bu ikki tushunchani ana shunday anglash qayerdaki turizm rivojlangan bo'lsa – o'sha yerda tolerantlik bor, deb aytishga imkon beradi, desam, o'yaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Bularning barchasi turli davrlarda Buyuk Ipak yo'li bo'y lab o'tgan mashhur sayohatchi va tadqiqotchilarining kundaliklarida o'z ifodasini topgan. Bu insonlar turli millat vakillari bo'lganlar, xususan, xitoylik Chjan Syan, italiyalik Marko Polo, ispaniyalik Klavixo, arabistonlik Ibn Fadlan va Ibn Battuta, amerikalik Pampelli, anglialik Jenkinson, germaniyalik Shiltberger, fransiyalik Marten va Bonvalo, vengriyalik Vamberi, shvetsiyalik Xedin va shveysariyalik Mayyar shular jumlasidandir. Ularning orasida turli kasb egalari – ziyoratchilar, missionerlar, savdogarlar, olimlar, diplomatlar, tadqiqotchi va adiblar bo'lgan. Ularning har biri xalqaro turizmning paydo bo'lismi va shakllanish tarixiga salmoqli hissa qo'shgan va buning uchun biz ulardan benihoya minnatdormiz.

Samarqand shahridagi devoriy rasmlarda O'rta Osiyoga dunyoning turli o'lkalaridan kelgan elchilar, savdogar va sayohatchilarining tashrifi o'z aksini topgan. Bu noyob tarixiy asarda bundan 2,5 ming yildan ziyod avvalgi davrda Afrosiyob hukmdorining saroyida Xitoy, Koreya, Janubiy va Shimoliy Osiyo va boshqa davlatlarning elchilarini qabul qilish marosimlari tasvirlangan.

Shuning uchun ham 20 yil avval Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sayyohlikni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro loyihaga a’zo mamlakatlarning Samarqand deklaratsiyasi aynan Samarqand shahrida qabul qilingani bejiz emas. Ushbu hujjatda 2–2,5 ming yil oldin O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning bepoyon mintaqalari orqali o‘tib, Osiyo va Yevropa mamlakatlarini savdo va madaniy aloqalar bilan bog‘lagan mana shu qadimiy transkontinental yo‘nalishda xalqaro turizmni qayta tiklash hamda rivojlantirish masalasi bayon qilingan edi.

Biz Juhon sayyohlik tashkilotining 2004-yilda Samarqand shahrida Juhon sayyohlik tashkilotining Ipak yo‘lidagi mintaqaviy markazini tashkil etish haqidagi qarori o‘z vaqtida qabul qilingan va har tomonlama to‘g‘ri qaror, deb hisoblaymiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan vaziyat, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, tez-tez takrorlanayotgan jahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozlari xalqaro turizm rivoji yo‘lida turli muammolar tug‘dirib, uning oldiga yangi-yangi talablar qo‘yayotganini, tabiiyki, biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Fursatdan foydalanib, ularning ayrimlariga qis-qacha to‘xtalib o‘tmoxchiman.

Xalqaro turizmni rivojlantirish va uning samaradorligini belgilaydigan **eng muhim omillar**, hech shubhasiz, butun dunyoda, turli mintaqalarda, sayyohlarni qabul qiladigan har bir davlatda tinchlik, xavfsizlik, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'lib qolmoqda.

Xalqaro terrorizm va ekstremizm, tobora avj olib borayotgan radikalizm, mahalliy urushlar va bir joydan ikkinchi joyga borishda xatarlar paydo bo'layotgani turizmni rivojlantirish borasidagi har qanday sa'y-harakatni yo'qqa chiqaradigan to'siqqa aylanganini isbotlab o'tirishning hojati yo'q va biz buni aniq misollarda ko'ryapmiz.

Ana shu sabablar oqibatida kechagina turizm gurkirab rivojlangan mamlakatlarda bugun sayyoohlar oqimi keskin kamaygani yoki butunlay to'xtab qolgani haqida misollar keltirishning zarurati bo'lmasa kerak – hamisha, ta'bir joiz bo'lsa, sayyoohlar oqimining chorrahasi bo'lib kelgan ayrim Yaqin Sharq mamlakatlari misolida buni ko'rib turibmiz.

O'zingiz qarang, Suriya va Iroqda, dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan, bizning ajdodlarimiz, masalan, Muhammad Xorazmiy faoliyat ko'rsatgan, «Bayt ul-hikma», ya'ni «Hikmatlar uyi» deb nom olgan jahondagi birinchi akademiya tashkil etilgan Bag'dodda bugungi kunda turizm bormi?

Hozirgi vaqtida Bag'dod qanday ahvolda, Damashq va bu mintaqadagi boshqa shaharlar qanday ahvolda? Bunday holatning sababi esa faqat bitta: avvalgi yodgorliklar, muzeylar saqlanib qolgan, ammo sayyohlar uchun kafolat yo'q, xavfsizlik yo'q. Tinchlik va xavfsizlik bo'limgan joyda esa hech qanday sayyohlik bo'lishi mumkin emas. Bu yodgorliklarni ko'rish uchun kim jonini xavf-xatarga qo'yadi? Agar ana shu nuqtayi nazar-dan qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda tinchlik-osoyishtalik va turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish qanday hal qiluvchi omil ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Ikkinchi muammo, turizm sohasidagi faoliyatni rivojlantirish aholining hayot darajasi, daromadi va farovonligining oshib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Bu haqiqatni jahonda turizmga talabning asosiy o'sish ko'rsatkichlari rivojlanayotgan davlatlar, birinchi navbatda, Osiyo mamlakatlarining jadal sur'atlar bilan yuksalib borayotgan iqtisodiyotida shakllanayotgani ham tasdiqlaydi. Boshqacha ayt-ganda, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, uning ko'rsatkichlari turizmda bamisolli ko'zgudagidek o'z aksini topmoqda.

Uchinchidan, bugungi kunda xalqaro turizm o'rta sinf uchun dam olishning keng tarqalgan turi-ga aylanib bormoqda.

Shunday bir qonuniyatni ko‘rish, kuzatish qiyin emas – qaysi mamlakatda o‘rta sinf qatlami qancha ko‘p va keng bo‘lsa, uning sayyohlik salohiyati ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Bu borada o‘rta sinfga mansub odamlarning juda harakatchan va tadbirkor bo‘lishi, ularning yangiliklarni izlab yashashga, o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini amalga oshirishga intilishi muhim o‘rin tutadi.

To‘rtinchidan, sayyohlik infratuzilmasining rivojlangani, sayyohlar uchun mo‘ljallangan obyektlarning har tomonlama maqbulligi, transport va mehmonxona xizmatlari va umuman, sayyohlik logistikasi bilan bog‘liq barcha xizmatlarning qulayligi, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilgani – biz har qadamda duch keladigan masalalarning hammasi bu borada katta ahamiyatga ega.

Beshinchidan, mazkur sohada ko‘p narsa turizm sanoatiga yo‘naltiriladigan investitsiyalar darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu budjet mablag‘larini va mazkur sohaga mablag‘ sarflashi uchun xususiy kapital va biznesga davlat tomonidan zarur imtiyoz, preferensiya va rag‘batlantiradigan omillar yaratilishini, infratuzilma, mehmonxona xo‘jaligi, transportni rivojlantirish, zamonaviy aloqa va boshqa xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Sayyohlik komplekslarini barpo etish, tarixiy obyektlar, turli davr va madaniyatlarga oid arxi-

tekatura va san'at yodgorliklarini o'rganish va asrab-avaylash, sayyohlik logistikasini rivojlantirish birinchi navbatda ayni shu yo'nalishdagi ishlarga bog'liq.

Oltinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi turizm sohasini rivojlantirishning eng muhim va hal qiluvchi omili bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda zamonaviy mutaxassislar tayyorlaydigan 5 ta oliy o'quv yurti, jumladan, Singapur menejmentni rivojlantirish institutining Toshkent filiali va shuningdek, 11 ta kasb-hunar kolleji faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugun sizlar bizning bir nechta kollej va litseylarimiz, xususan, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi akademik litsey bilan tanishdingiz. Jumladan, janob Rifai ham bu ta'lim maskanida bo'ldi. Men xursandmanki, bizning yoshlarimiz, farzandlarimiz aziz mehmonlarimizni munosib kutib olib, o'zlarining bilimi va qobiliyatlari, zamonaviy kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni qanday puxta o'zlashtirayotgani bilan sizlarda katta taassurot uyg'otdi.

Men butun O'zbekiston bolalarini o'zimning bolalarim deb atayman. Shu ma'noda, men dunyodagi eng boy insonman. Mazkur litsey o'quvchilarini Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh kotibi oldida o'z

iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishgan. Ayni vaqtda sizlarni ishontirib aytmoqchimanki, bu yoshlar yana ko'p narsalarga qodir.

Yettinchidan, viza masalasini va turizm bilan bog'liq boshqa byurokratik rasmiyatchiliklarni sod-dalashtirish, xususan, sayyohlik firmalari faoliyati uchun zarur moliyaviy kafolatlar berish hozirgi bosqichda xalqaro turizmni jadal rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi.

Bunday kafolatlarning yo'qligi ko'plab sayyohlik operatorlarining obro'siga putur yetkazayotgani, xalqaro turizmni rivojlantirish va uning jozibadorligi yo'lida jiddiy g'ov bo'layotganini biz ba'zi mamlakatlar misolida ko'rib turibmiz.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sayyohlar boshqa omillar qatorida o'zları istagan mamlakatga borish uchun tartib-qoidalarning oddiy va qulay bo'lishiga, bu boradagi barcha zarur rasmiylashtiruv ishlarini tez va arzon narxda amalga oshirish imkoniyatiga ham e'tibor qaratmoqda.

Bu yo'naliishda elektron texnologiyalarni joriy etish, viza olish muddatining imkon qadar qisqa bo'lishi, avia va temiryo'l chiptalarini xarid qilish, internet orqali «onlayn» rejimida sayyohlik yo'naliishlari va mehmonxonalarini oldindan band qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sayyohlar oqimi va umuman, har bir sayyohning kayfiyatini belgilaydigan ana shunday eng muhim

shart va kafolatlar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Aminmanki, bu borada, ya'ni, turizm sohasi va sayyohlik biznesida mayda narsaning o'zi bo'lmaydi.

Sayyohning kayfiyati turistlarni qabul qiladigan har qanday mamlakatning, aytish mumkinki, asosiy brendi, ya'ni, tovar belgisi bo'lishi kerak. Agar odamlar bizning diyorimizga yaxshi kayfiyat bilan kelib, shunday kayfiyat bilan ketadigan bo'lsa, O'zbekistonda turizm sohasi mustahkam asosga qo'yilgan, deb aytishga haqlimiz. Bordi-yu kimdir yomon kayfiyat bilan ketadigan bo'lsa, demak, biz uning oldida qarzdormiz. Demak, keyingi safar ayni shu sayyohni o'zimizning hisobimizdan yurtimizga taklif qilishimiz kerak.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Biz o'tgan davr mobaynida bajarilgan ishlarimizni baholar ekanmiz, O'zbekistonda turizm sohasini xalqaro zamonaviy norma va standartlar darajasiga ko'tarish uchun hali ko'p ish qilishimiz zarurligini yaxshi anglaymiz.

O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishning ayrim ko'rsatkichlari haqida qisqacha to'xtalmoqchiman.

Mamlakatimizga 2013-yilda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan sayyohlar tashrif buyurdi va ularning yillik soni 2 milliondan oshdi. O'tgan ikki yil mo-

baynida bu ko'rsatkich 43 foiz o'sdi, joriy yilning birinchi yarmida esa 1 milliondan ortiq chet ellik sayyoh yurtimizga tashrif buyurdi.

2013-yilda sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 615 million dollardan ziyodni tashkil etdi. Bugungi kunda turizm sohasida 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, bu tarmoqning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizdan oshdi.

O'zbekistonda 550 ta sayyohlik kompaniyasi – turoperatorlari faoliyat yuritmoqda, mamlakatimizdagi tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'rsatilmoxda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros obyektlari, 30 tasi tabiiy-rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizmi elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir.

Hozirgi paytda yurtimizda 50 mingdan ziyod o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda.

O'tgan davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Farg'ona va Navoiy shaharlari aeroportlari modernizatsiya qilindi va bugungi kunda O'zbekistonda 11 ta xalqaro aeroport faoliyat yuritmoqda. Milliy aviakompaniyamiz zamonaviy «Eyr-

bas» va «Boing» avialaynerlari bilan ta'minlangan. Ushbu samolyotlar Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Amerikaning 50 dan ortiq shaharlariga muntazam parvozlarni amalga oshirmoqda.

«Toshkent – Samarqand – Toshkent» yo'naliishi bo'ylab Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasida ish-lab chiqarilgan, yuqori tezlikda harakatlanadigan zamonaviy elektr poyezdlarining har kungi qatnovi yo'lga qo'yilgan. O'ylaymanki, sizlar buni reklama deb qabul qilmaysiz, lekin o'z tajribamizdan kelib chiqib, barcha mamlakatlarga, jumladan, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarga ana shu kompaniyaning poyezdlarini sotib olishni tavsiya etgan bo'lardim. Nega deganda, ular ham arzon, ham ishonchli, eng muhimmi, «Talgo» firmasi o'zining yaxshi hamkor ekanini amalda namoyon etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» poyezdi qatnay boshlaganidan buyon yurtimizda chet ellik sayyoohlar soni sezilarli darajada ko'paydi. Buxoro va Qarshi shaharlarigacha yuqori tezlikda harakatlanish uchun mo'ljallangan temiryo'l tarmoqlarini elektrlashtirish va qurish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa turizm rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda so'nggi 5 yilda umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarlik investitsiyalar hisobidan

uzunligi 2600 kilometr bo‘lgan zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi, shuningdek, kempinglar, yonilg‘i quyish shoxobchalari, ovqatlanish va maishiy xizmat ko‘rsatish maskanlarini o‘z ichiga olgan ko‘plab yo‘lbo‘yi infratuzilma obyektlari barpo etildi.

Faqatgina joriy yilning o‘zida xalqaro turizmning asosiy tuzilmasini rivojlantirish uchun jami investitsiyalarning 580 million dollardan ortig‘i yo‘naltirildi va bu boradagi o‘sish o‘tgan yilga nisbatan 19 foizdan ziyodni tashkil etdi.

Biz O‘zbekistonning ulkan sayyohlik salohiyati haqida gapirganda, birinchi navbatda, mam-lakatimiz hududida shakllangan va rivojlangan eng qadimiy sivilizatsiya va madaniyatlar, qoyatoshlardi yozuvlar va iyerogliblarni, noyob tarixiy obidalar, moddiy madaniyat va me’morlikning ulug‘vor hamda betakror namunalarini nazarda tutamiz. Ayni paytda ularni Yaponiya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarning ko‘plab olim va mutaxassislari o‘rganmoqda. Shu bilan birga, o‘zining jozibasi va tarovati bilan dunyodagi eng yaxshi dam olish va sayohat maskanlaridan qolishmaydigan go‘zal tabiatimizning boyligi va xilmayilligini ham bu boradagi eng katta imkoniyatlаримиз qatorida ko‘ramiz.

Bularning barchasi mamlakatimizni jahon turizmi markazlaridan biriga aylantirishi mumkin va zarur. Hozirgi kunda O‘zbekistonda turli davrlar va sivilizatsiyalarga oid 7 mingdan ortiq yodgorliklar bor.

Mamlakatimizda yuksak sifati va estetik jozi-basi, qadimgi san’at an’analarini o‘zida saqlab kelayotgani bilan ajralib turadigan milliy hunarmandlikni qayta tiklash va rivojlantirishni rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilayotganini ta’kidlamoqchiman. O‘zbekistonda milliy hunarmandlik sohasi soliqlardan to‘liq ozod etilganini alohida qayd etishni istardim.

Hunarmand ustalarimizning necha asrlik tajribasidan yurtimizdan tashqarida ham keng foy-dalanilmoqda.

O‘zbekistondagi me’moriy yodgorliklarning o’rta asrlarga xos naqsh va bezaklari Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yangi inshootlarni qurishda namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Kulollarimizning mahoratini Fransiya, Germaniya, Hindiston va boshqa mamlakatlar mutaxassislari o‘rganmoqda.

O‘zbekiston Parij, London, Berlin, Rim, Tokio, Madrid va dunyoning boshqa shaharlarida o’tkazilayotgan yirik sayyohlik ko‘rgazmalarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Joriy yilda yigirmanchi bor o'tkaziladigan va sayyohlik biznesi sohasida muloqot qilish uchun keng imkoniyat yaratadigan Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasiga dunyoning 40 dan ziyod mamlakatidan 12 mingdan ortiq kishi kelishi kutilmoqda.

Qadrli do'stlar!

Biz Jahon sayyohlik tashkiloti bilan samarali hamkorligimizni yuksak qadrlaymiz va ushbu aloqalarni yanada mustahkamlash, qo'shma dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirishga ishonamiz.

Bu o'rinda gap O'zbekistonning sayyohlik nufuzi va salohiyatini yanada mustahkamlash, internet orqali uning jozibadorligini oshirish, bunda Farg'ona vodiysining hali o'rganilmagan so'lim va go'zal go'shalari, Toshkent va Jizzax viloyatlari ning tog' yonbag'ridagi ekologik toza maskanlariidan foydalangan holda, «Buyuk Ipak yo'li» brendini keng joriy etish haqida bormoqda.

Biz sizlarni nafaqat Samarqand va Toshkent shaharlarida, balki boshqa shaharlarimizda ham ko'rish, o'zbekona samimiyl mehmondo'stlikdan bahramand bo'lishingizdan hamisha mammunmiz.

Bugun mana shu muhtasham zalda to'planganlarga yana bir bor yuksak hurmat-ehtiromimni izhor etaman, sessiya ishi samarali bo'lishini, bar-

changizga sihat-salomatlik, olijanob faoliyatingizda yangi-yangi yutuq va omadlar tilayman.

O‘zbekistonga ko‘rsatayotgan e’tibor va hurmatningiz uchun minnatdorlik bildiraman.

2014-yil 2-oktabr

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHINING MAJLISIDAGI NUTQ

Muhtaram rais!

Hurmatli davlat rahbarlari!

MDH davlat rahbarlarini qutlash, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoga mehmondo'stlik uchun samimiy minnatdorlik bildirish menga katta mammuniyat bag'ishlaydi.

Uchrashuvimiz, bu yerda ta'kidlanganidek, xalqaro vaziyat shiddat bilan o'zgarayotgan, geosiyosiy keskinlik va siyosiy qarama-qarshiliklar avj olayotgan, qachon tugashi yoki pasayishi noma'lum bo'lgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan, diniy fanatizm radikal-lashayotgan va faollashayotgan, yaqin va uzoq mamlakatlarda ziddiyatli vaziyatlar keskinlashib borayotgan bir sharoitda o'tmoqda.

Keng tarqalayotgan zo'ravonlik, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikning real tahdidlari kuchayib, ayrim mamlakatlardagi vaziyatni o'ta chigallash-tirib, yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni xunrezlikka aylantirayotgan va o'zini nazorat qila olmay qolgan ba'zi siyosatchi va siyosatdonlarning, ayniq-

sa, telekanallar orqali agressiv da'vatlar bilan chiqayotgani bizni tashvishga solmay qo'ymaydi, albatta.

Yuzaga kelayotgan tahlikali vaziyatni to'g'ri baho maslik qanday fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Masalan, Afg'onistonda qariyb 35 yildan buyon davom etayotgan birodarkushlik urushi millionlab odamlarning umriga zomin bo'ldi, yana millionlab insonlarni qochqinga aylantirdi. Mamlakat iqtisodiyotini butkul izdan chiqarib, vayronagarchilikka olib keldi. Bugun shunday bir avlod voyaga yetdiki, ular qurol tutish va undan foydalanishdan boshqa hech narsani bilmaydi. Bu mamlakatni bosib olish oson emasligi azaldan ma'lum edi. Bunga Afg'oniston tarixidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Biz, hammamiz bu misollarni yaxshi bilamiz va shunga qat'iy ishonamizki, Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi.

Biz Afg'onistonning yaqin qo'shnisi sifatida bugun qat'iy ishonamizki, ushbu mamlakatda bir-biriga qarshi kurashayotgan barcha asosiy etnik-diniy siyosiy kuchlar vakillaridan iborat yangi hukumat qanchalik tez shakllantirilsa, bu beqarorlikka, qashshoqlikka barham berish, izdan chiqqan iqtisodiyotni qayta tiklash, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash uchun yo'l ochib beradi.

Ukraina masalasiga kelsak, bizningcha, yuzaga kelgan muammolarni hal etish usuli sifatida kuch ishlatalishdan voz kechish, faqat xalqaro huquqning muhim normalariga va BMT Nizomiga asoslangan siyosiy vositalardan foydalanish, tomonlarning o‘t ochishni to‘xtatish va yarashish bo‘yicha Minsk kelishuvini so‘zda emas, amalda to‘la bajarishi Ukrainada tinchlik o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar jarayoni uchun zarur sharoit yaratishi mumkin.

Afsuski, bu borada ko‘zda tutilgan va muzokara jarayonlariga yordam beradigan jiddiy siyosiy masalalar muhokamasi hamon boshlangani yo‘q.

MDH davlat rahbarlarining bugungi uchrashuviga bevosita taalluqli bo‘lgan yana bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ikki kun avval bizning uchrashuvimizda Ukraina prezidenti janob P. Poroshenko ishtirok etishi haqidagi xabar muhim yangilik sifatida tarqatildi. Biroq kecha kechqurun janob P. Poroshenko uchrashuvga kelmasligi, uning rejalar o‘zgarib qolgani xabar qilindi. Bizningcha, bunday qarorni ma’qullab bo‘lmaydi. Salkam bir yillardiki, Ukrainadagi qarama-qarshiliklar eng dolzarb muammolardan biri sifatida butun dunyoda, jumladan, sobiq Ittifoq hududida muhokama etib kelinmoqda. Darvoqe, bugun eng chekka tumanlar, qishloqlar aholisi ham Ukrainada qanday voqealar ro‘y berayotganini televideniye orqali ko‘rib, bilib

turibdi. Bunday sharoitda ushbu voqealarga loqayd qaraydigan odam bo‘lmasa kerak. Ukrainada nimalar yuz berayotgani va bular qanday boshlanganidan deyarli barcha yaxshi xabardor. O‘zaro kurashayotgan tomonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar qachon va qanday tugashini hamma kutmoqda. Binobarin, bu muammo imkon qadar tezroq o‘z yechimini topishi darkor.

Shu o‘rinda o‘zimizga savol beraylik: MDH davlat rahbarlaridan qaysi birimiz janob P. Poroshenko bilan yuzma-yuz uchrashdik? Faqat ayrimlargina. O‘tgan vaqt mobaynida P. Poroshenko Yevropa-ning ko‘plab mamlakatlarida, ayniqsa, Bryusselda, boshqa davlatlarda bo‘ldi.

Holbuki, u MDHning bugungi sammiti majlisida ishtirok etib, imkoniyatdan foydalanishi mumkin edi. Darvoqe, Ukraina hali MDH tarkibidan chiqqani yo‘q. Shunday taassurot paydo bo‘lmoqdaki, janob P. Poroshenko ikkilanib turibdi va MDHdan chiqish foydami yoki zararmi ekanligini o‘ziga aniq tasavvur qila olmayapti. Eng muhimi, u bugungi majlissa ishtirok etib, o‘z fikrini bayon qilganida, Ukraina muammosini hal etish borasida biz uchun aniqlik kiritilgan bo‘lar edi. Afsuski, bunday bo‘lmadi.

Hurmatli do‘sstar!

Bugungi majlisimiz raisi Aleksandr Grigoryevich Lukashenko o‘z nutqining pirovardida MDHni

yanada rivojlantirish istiqbollarini oshkora muhokama qilish vaqtি kelganini ta'kidladi.

Biz uchun MDHning ahamiyati, barchamizning manfaatlarimiz hisobga olingan holda, sheriklar bilan o'zaro foydali va serqirra hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorligimiz aniq va ravshandir.

Hamdo'stlik – bu amaldagi mustahkam shartnomaviy-huquqiy bazaga ega, puxta ishlab chiqilgan vosita va mexanizmlari asosida bevosita xalqaro muloqot, dolzarb masalalarini muhokama qilish, unga a'zo davlatlar o'rtasidagi munozara va turli-cha qarashlarni hal etish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan tuzilmadir.

MDH mamlakatlarimizni barqaror rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi mavjud salohiyatdan keng foydalanish, terroristik va ekstremistik harakatlarning vaqtida oldini olish, ularga qarshi kurashish va bartaraf etish, eng muhim, sobiq Ittifoq hududida fuqarolarning o'zaro muloqot qilishiga ko'maklashish bo'yicha maqbul yonda-shuvlar, muvofiqlashtirilgan amaliy choralar ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Bugun ushbu hududda o'zining ertangi kunini MDHning shartnomaviy bazasi yaratgan muloqotsiz tasavvur qila oladigan mamlakat kam. Hatto Gruziya ham jiddiy xatoga yo'l qo'yganini bugun tushunib yetmoqda.

MDH makonida barqaror taraqqiyotni ta'minlash, birinchi navbatda, o'zimizga, ya'ni Hamdo'stlik davlatlariga bog'liq. Bu borada men barcha yaqin va uzoq qo'shnilar bilan bir-birimizni tushunish, puxta o'ylangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni samarali amalga oshirish, aholi uchun munosib hayot darajasini ta'minlash, o'z jamiyatimizni bунyodkorlik yo'lida birlashtirish zarurligini nazarda tutmoqdamman.

MDH hududida ayni paytda amalda qo'llanilayotgan savdo tartibiga zarar yetkazmaydigan prinsiplarga asoslangan mukammal erkin savdo zonasini tashkil etish va uni tezroq ishga tushirish ko'p jihatdan ushbu maqsadlarga erishish, mamlakatlarimiz o'rtasida o'zaro savdo va investitsiyalarni kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish imkonini beradi. Bugun Vladimir Vladimirovich Putinning o'zaro munosabatlarimizni yanada mustahkamlash uchun eng jozibador model sifatida ushbu tartibni ishga tushirish vaqt allaqachon yetgani haqidagi taklifini mamnuniyat bilan tingladim.

Bu xalqlarimizni yaqinlashtiradigan va jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan masalalarni uzil-kesil hal etishga yordam beradigan yagona iqtisodiy model bo'lib, bunga biz beziz alohida e'tibor qaratayotganimiz yo'q.

Fursatdan foydalanib, sobiq Ittifoq makonida boshqa integratsion birlashmalar shakllantirilishiga qaramay, MDH faoliyati yo‘lida biron-bir to‘siz yo‘qligini yana bir bor ta’kidlamoqchiman. Bu o‘rinda gap Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi haqida bormoqda. Bu yerda ham muhokamaga sabab bo‘ladigan hech qanday muammo ko‘rmayapmiz.

Shu bilan birga, ushbu davlatlararo birlashma-larning har biri, jumladan, negizida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tuzilayotgan MDH ham – darvoqe, ushbu ittifoq nima asosda tashkil etilayotgani ha-qida o‘ylab ko‘rish ham maqsadga muvofiq bo‘lur edi – bir-birini takrorlamasdan, o‘z faoliyatini mustaqil yo‘lga qo‘yishi, rivojlanish konsepsiysi va uzoq muddatli dasturiga ega bo‘lishi muhim, deb hisoblaymiz. Agar mazkur shartlarga rioya etilmasa, ushbu birlashmalarning o‘zaro muvofiq ravishda faoliyat ko‘rsatishiga umid qilish qiyin.

Shu o‘rinda MDH masalalarining bugungi muho-kamasi ularga bejiz e’tibor qaratmayotganimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Men avval ham aynan mana shu zalda bu masala bo‘yicha quyidagi fikrni bayon qilgan edim: mazkur jarayon shu zaylda davom etaversa, ya’ni MDH sammitlariga shunchaki borib-kelinaversa – bu o‘zini ko‘rsatishdan boshqa hech narsa emas. Shuning uchun ko‘plab hamkasb-

larimizning ushbu masalalar, ayniqsa, MDH istiqboli bilan bog‘liq masalalarga jiddiy e’tibor qaratish zarurligi haqidagi fikrlariga qo‘shilaman.
E’tiboringiz uchun tashakkur.

2014-yil 13-oktabr

O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA MEHNATKASHLARIGA

Aziz mirishkor paxtakorlar!

Qadrlı dehqon va fermerlar!

Siz, azizlarni shu kunlarda o'ta mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı mehnatingiz evaziga 3 million 400 ming tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bunyod etib, shartnomalı majburiyatizingizni ado etgанингиз bilan samimi tabriklashdan, chin qalbimdan hurmat va ehtiromimni bildirishdan baxtiyorman.

Paxta o'stirishning o'zi har qaysi dehqon, fermer va mutaxassisdan naqadar murakkab va og'ir mehnatni, chuqur bilim va tajribani, ona yerimizga mehrini berib, tuproq bilan tillashib yashashni, lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, kundalik fidoyilikni talab qilishini butun elimiz, xalqimiz yaxshi biladi va bu yilgi mavsumda qo'lga kiritgan zafarlariningizi yuksak baholaydi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Xalqimizda, dehqon uchun oson yilning o'zi bo'lmaydi, degan teran ma'noli ibora bor. Bu yilgi mavsum bu fikrni yana va yana bir bor tasdiqlab

bermoqda. Bahor faslida havo haroratining odatdagidan nisbatan past bo‘lgani, chigitning unib chiqishi 8–10 kunga kechikkani, ayrim hududlarda g‘o‘zani sel va do‘l urib ketgani, turli kasallik va zararkunandalar ko‘paygani, yozdagи suv tanqisligi, kuzning ancha erta va salqin kelgani dehqon va fermerlarimiz uchun jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirdi.

Joriy mavsumming mana shunday noqlay va murakkab kelishiga qaramasdan, birinchi navbatda, ko‘p yillar davomida to‘plangan tajriba va zamonaviy agrotexnikani samarali qo‘llaganimiz, shular qatorida o‘z vaqtida g‘o‘zani «sharbat» usulida sug‘orib, mahalliy o‘g‘itning orttirib berilgani, olim va mutaxassislarning tavsiya va maslahatlari tufayli, qanday og‘ir bo‘lmasin, hosilni saqlab qolishga erishganimiz, bir so‘z bilan aytganda, dehqon va fermerlarimizning mardligi va matonati, tashabbuskorligi bu yilgi yutug‘imizning qadr-qimmatini yanada oshiradi.

Shu ma’noda, bugungi yuksak xirmonni bunyod etishda o‘zini ayamasdan, jonbozlik ko‘rsatib, aytish mumkinki, qahramonona mehnat qilgan fermer va dehqonlarimizga o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan minnatdorchilik izhor etib, ularga tahsin va tasannolar bildirishni ham qarz, ham farz, deb hisoblayman.

Aziz do'stlar, muhtaram yurtdoshlar!

Hech kimga sir emas, yurtimiz dalalarida yetishtiriladigan hosilning, xususan, paxta xomashyosining taqdiri, birinchi navbatda, yer unumdorligiga bevosita bog'liq. Ayni vaqtda dehqonchilikda har qaysi ekin maydoni, har qanday tuproq unumdorligining ham chegarasi borligini unutmasligimiz kerak.

Shu bois barchamizni boqadigan ona zamini-mizning kelajagini o'ylab, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha qabul qilgan davlat dasturi doirasida amalga oshirgan ulkan ishlarimiz qishloq xo'jaligida qanday katta burilish yasaganini bugun ko'p-ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. O'tgan 6 yil davomida mamlakatimiz bo'yicha 1 trillion 300 milliard so'm mablag' hisobidan 1 million 750 ming hektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi. Faqatgina keyingi ikki yilda paxtachilik bo'yicha hosildorlik 24 sentnerdan 26,5 sentnerga oshgani ana shunday keng ko'lamli ishlarimizning muhim natijasi bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda yangi g'o'za navlarini yaratish, seleksioner olimlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli 100 dan ortiq yangi navlar yaratilgani, ularning

27 tasi davlat reyestriga kiritilib, amalda joriy etilayotgani ushbu tarmoqning izchil rivojlanib bora-yotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, e'tirof etishimiz kerakki, bugungi kunda O'zbekiston sharoitida har qaysi viloyat va tuman uchun mos keladigan, serhosil, yuqori sifatli tola beradigan, ertapishar g'o'za navlarini chiqarish va rayonlashtirish eng dolzarb, yechimini barcha dehqonlarimiz orziqib kutayotgan muammo bo'lib qolmoqda. Ana shu muhim masalani hal etish, avvalo, mutasaddi olimlar, seleksiya sohasida ishlayotgan mutaxassislarning asosiy vazifasi ekanini yaxshi bilamiz va ulardan bunday g'o'za navlarini tezroq yaratishlarini kutamiz.

Bu yilgi mavsum davomida biz duch kelgan murakkab sinov va qiyinchiliklarni bartaraf etishda intensiv agrotexnologiyalardan oqilona foydalanib, g'o'za qator oralari har yilidan 4–5 marta ko'p, o'rtacha 12 martadan ziyod sifatli kultivatsiya qilingani, gektariga 5 tonnadan, jami 13 million ton nadan ortiq mahalliy o'g'it berilgani alohida ahamiyat kasb etdi.

Bugun barchamizga ayon – biz qo'lga kiritayotgan yutuq va marralarning asosiy garovi va hal qiluvchi kuchi bo'lmish fermerlik harakatining oldida turgan muammolarni yechish, uning qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, qishloq hayo-

tidagi rolini kuchaytirish bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz, avvalo, bu yilgi mavsumni uyushqoqlik bilan o'tkazishda, yetishtirilgan mo'l hosilni yog'insochinli kunlarga qoldirmasdan yig'ib-terib olishda mustahkam zamin tug'dirdi, desak, har tomonlama o'rinli bo'ladi.

Buning yaqqol tasdig'ini respublikamiz paxta xirmonining qariyb 90 foizi yuqori sortlarga topshirilgani ham isbotlab beradi.

Nafaqat qishloq xo'jaligi, balki iqtisodiyotimizning barcha soha va tarmoqlarida erishayotgan marralarimiz, avvalambor, xalqimizga xos mehnatsevarlik, mardlik va matonat kabi fazilatlarda, hayot o'zgarishi bilan odamlarimizning ong-u tafakkuri tobora o'zgarib, ularning o'z yeriga egalik, mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usi, o'z mehnatidan manfaatdorlik hissiyoti ortib borayotganida namoyon bo'lmoqda va xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlamoqda.

Mana shu quvonchli ayyomda o'z shartnoma majburiyatlarini birinchilardan bo'lib ado etgan Andijon viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Xorazm, Buxoro viloyatlari, barcha viloyatlarimiz mehnatkashlari mamlakatimizning yusak paxta xirmoniga munosib hissa qo'shganini minnatdorlik bilan ta'kidlashni istardim.

Ayniqsa, Amudaryo, Ellikqal'a, Oltinko'l, Pax-

taobod, Baliqchi, Peshku, Olot, Muborak, Yakkabog‘, Qiziltepa, Navbahor, Namangan, Narpay, Qumqo‘rg‘on, Beshariq, Quva, Gurlan, Xonqa, Xiva tumanlari dehqon va fermerlari belgilangan rejani qisqa fursatda, 20–25 kunda bajarib, ko‘pchilikka o‘rnak va namuna bo‘lgani tahsinga loyiqdir.

Buxoro tumanidagi «Islom Narziobod», Jondor tumanidagi «Jonibek Farhod», Arnasoy tumanidagi «Sangzor», Do‘stlik tumanidagi «Eshniyoz bobo», Mirishkor tumanidagi «Kamalak», Shahrisabz tumanidagi «Umida ona o‘g‘li», Navbahor tumanidagi «Arslon bobo», Karmana tumanidagi «Avez bobo», Paxtachi tumanidagi «Mirzayev Shuhrat», Qumqo‘rg‘on tumanidagi «Munchoqtepa istiqboli», Bekobod tumanidagi «Komiljon», Hazorasp tumanidagi «G‘ofur Ruhiya», Xonqa tumanidagi «Madir Xonqa» singari hosildorlikni gektaridan 45–52 sentnerga yetkazib, yuksak natijalarga erishgan ilg‘or fermer xo‘jaliklariga samimiyl tashakkur bildiraman.

Shular qatorida fidokorona mehnat qilib, katta hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lgan fermer va dehqonlarimizga, Vatanimizning ulkan xirmoniga munosib hissa qo‘sghan barcha-barcha insonlarga «Balli sizga, azizlarim!» deb, ularni chin qalbdan tabriklash menga katta xursandchilik bag‘ishlaydi.

Muhtaram do'stlar!

Mustaqillik yillarda O'zbekistonning paxtachilik sohasida yetakchi mamlakatlardan biri sifatidagi obro'yi va nufuzi tobora ortib borayotgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Yaqinda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan o'ninchi Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasida 50 ga yaqin davlatdan dunyo bozorida nom qozongan 1000 dan ziyod yirik firma va kompaniyalarning vakillari ishtirok etib, dehqonlarimizning peshona teri bilan yetishtirilgan paxta tolasiga, avvalambor, uning yuksak sifatiga katta qiziqish bildirgani ham shundan dalolat beradi.

Ma'lumki, 90-yillarda yurtimizda yetishtirilgan jami paxta tolasining atigi 7 foizi o'zimizda qayta ishlanar edi. O'tgan qisqa davrda bu boradagi ko'rsatkich 6 barobardan ziyod ko'paygani hamda bugungi kunda 44 foizni tashkil etib, chet mamlakatlarga sotilayotgan paxta tolasiga yana qo'shimcha qiymat qo'shishga imkoniyat yaratayotgani shu yo'nalishda uzoqni ko'zlab olib borayotgan ishlarimizning amaliy samarasidir.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yilda paxtachilikdan olinadigan yalpi daromad o'tgan yilga nisbatan 12 foiz yoki 400 milliard so'mdan ortishi kutilmoqda. Bu yil paxta xomashyosini yuqori sortlarga sotishning o'zidan fermer xo'jaliklari 200 mil-

liard so‘mdan ziyod qo‘sishimcha daromad olishga muvaffaq bo‘lishdi. Buning hisobidan biz dehqon va fermerlarimizning, qishloq ahlining daromadlarini oshirishga, ko‘zlagan ezgu marralarimizga yetishga, el-yurtimizni yanada obod va farovon bo‘lishiga erishamiz, inshoollo.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Mana shunday xursandchilik kunlarda barchangizni mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida qo‘lga kiritilgan katta mehnat g‘alabasi bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

El-yurtimiz, xonodonlarimizdan fayz-u baraka, tinchlik-osoyishtalik arimasin!

Yaratganimizning o‘zi barchamizga doimo madadkor bo‘lsin!

Hech qachon kam bo‘lmang, halol mehnatin-gizning rohatini ko‘ring, azizlarim, qadrdonlarim!

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2014-yil 24-oktabr*

**«OROL DENGIZI MINTAQASIDAGI
EKOLOGIK OFAT OQIBATLARINI
YUMSHATISH BO‘YICHA HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH» MAVZUSIDAGI XALQARO
KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA
TABRIK SO‘ZI**

Hurmatli mehmonlar!

Muhtaram konferensiya ishtirokchilari!

«Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish» xalqaro konferensiyasida ishtirok etayotgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga a’zo davlatlar delegatsiyalarini, xalqaro tashkilotlar va moliya instituti, donor mamlakatlar hukumatlari, ekologiya tashkilotlari, diplomatik korpus vakillarini, taniqli olim va ekspertlarni qutlash menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Mazkur forum Markaziy Osiyo mintaqasi uchun eng murakkab muammolardan biri – Orol dengizining ekologik halokati va ushbu ofat oqibatida yuzaga kelgan aholi genofondi va salomatligi, turmush sharoiti va darajasi, Orolbo‘yining o‘simplik va hayvonot olami bilan bog‘liq o‘tkir muammolarni ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

Yaqin-yaqin vaqtlargacha Orol dengizi Markaziy Osiyo iqtisodiyotini rivojlantirish, oziq-ovqat ishlab

chiqarish, aholi bandligini ta'minlash va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishda muhim o'rincilar tutar edi. Orolbo'yi suv havzalarida yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlanar, Amudaryo va Sirdaryo deltalaridagi unumdor yerlar, yuqori samarali yaylov va suv havzalari millionlab odamlarning chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va qishloq xo'jaligi sohalarida ish bilan bandligini ta'minlar edi.

Biroq mintaqadagi yirik daryolarda o'yamasdan ulkan gidrotexnik inshootlar qurilgani, transchegaraviy daryolar hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning tabiiy oqimi noto'g'ri boshqarilishi eng yangi tarixda Yer yuzidagi g'oyat og'ir ekologik halokatlardan birini yuzaga keltirdi. Bir paytlar dunyodagi eng noyob, go'zal va yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lgan Orol dengizi bir avlod ko'z o'ngida batamom yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi. Bu esa mintaqada misli ko'rilmagan ofatga aylanib, Orolbo'yida yashayotgan aholi hayotiga, bu yerdagi ekotizim va bioxilma-xillikka o'nglab bo'lmaydigan darajada zarar yetkazmoqda.

Amudaryo va Sirdaryoning Orolga umumiyligi quyilish hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi 14 barobardan ko'proq kamaydi, uning sho'rланish darajasi esa deyarli 25 marta ortdi. Bu Orol dengizida ilgari bo'lgan baliq

va boshqa dengiz mavjudotlarining deyarli butkul yo‘qolishiga olib keldi.

Yaqin-yaqinlargacha o‘zining ulkan bioxilmaligini bilan mashhur bo‘lgan Orolbo‘yi mintaqasida o‘simliklar va yovvoyi hayvonlar turi keskin kamayib bormoqda, jumladan, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o‘simliklarning 11 turi butkul yo‘q bo‘lish xavfi ostida turibdi. Orolning qurigan qismi o‘rnida hosil bo‘lgan 5,5 million gektardan ortiq maydondagi yangi Orolqum sahrosi tobora butun Orolbo‘yi mintaqasiga yoyilmoqda. Bu yerdan har yili atmosferaga qariyb 100 million tonna chang va zaharli tuzlar ko‘tarilib, qum bo‘ronlari va kuchli shamollar bilan mazkur hududdan ancha olis bo‘lgan mintaqalarga ham tarqalmoqda.

Ammo Orolbo‘yida ro‘y berayotgan fofia ko‘lamin, bu yerda yashayotgan millionlab odamlarning dardi va orzu-armonlarini quruq raqamlar bilan ifoda etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonning Orol fojiasining kuchli ta’siri ostida qolgan mintaqalari aholisi har kuni suv resurslari yetishmasligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi va tuproq tarkibining buzilishi, iqlim o‘zgarishi, aholi, birinchi navbatda, bolalarning turli kasalliklarga chalinishi ko‘payib borayotgani bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammo larni boshdan kechirmoqda.

Orol dengizining qurishi butun Markaziy Osiyoda keskin iqlim o‘zgarishiga olib keldi, suv resurslari taqchilligi, mavsumiy qurg‘oqchilikning kuchayishi, qahraton qishning uzoq davom etishi, Pomir va Tyan-Shan tog‘lari muzliklari erishining tezlashishi va mintaqalarda qishloq xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanish sharoitlarining yomonlashishiga sabab bo‘ldi.

Ming afsuski, bugungi kunda Orol dengizini to‘liq qayta tiklash imkonini yo‘qligi tobora ayon bo‘lib bormoqda.

Orol inqirozining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan millionlab aholi hayotiga halokatli ta’sirini, xususan, puxta o‘ylangan, aniq manzilli va tegishli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlangan loyi-halarni amalga oshirish orqali kamaytirish bugungi kunning eng muhim vazifasidir.

Bizningcha, bu borada asosiy zaxiralar mavjud bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda tegishli tadbirlarni amalga oshirish zarur:

birinchidan – bugungi kunda Orolbo‘yida yuzaga kelgan omonat ekologik muvozanatni mustahkamlash, cho‘llanishga qarshi kurashish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ulardan tejab-tergab, oqilona foydalanish;

ikkinchidan – Orolbo‘yi aholisining genofondi va salomatligini saqlash va ta’minlash uchun sharoit

yaratish, ijtimoiy infratuzilmani, tibbiyat va ta’lim muassasalari tarmog‘ini keng rivojlantirish;

uchinchidan – aholi hayot darajasi va sifatini oshirish uchun zarur ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar va rag‘batlantiruvchi omillarni yaratish, asosiy infratuzilma va kommunikatsiyalarni rivojlantirish. Bu yerda yashayotgan aholida tushkunlik kayfiyatining yuzaga kelishiga yo‘l qo‘yishga bizning haqqimiz yo‘q va ularga munosib hayot kechirishi, o‘z biznesini rivojlantirishi, ularni yangi ish o‘rnlari va daromad manbalari bilan ta’minalash uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish zarur, desam, o‘ylaymanki, bu fikrga barchangiz qo‘shilasiz;

to‘rtinchidan – hayvonot va o‘simlik olami bioxilma-xilligini, jumladan, kichik suv havzalari yaratish orqali saqlash va qayta tiklash, mintaqaning noyob flora va faunasini asrab-avaylash darkor.

Ayni ushbu muhim masalalar O‘zbekiston tomonidan BMTning yuksak minbaridan taklif etilgan va BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida tarqatilgan «Orol dengizi qurishining oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo‘yida ekotizimlar halokatining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi»da qayd etilgan.

Bu jahon hamjamiyati Orol dengizi fojasiga global ekologik ofat sifatida qarayotgani va millionlab odamlar yashayotgan ushbu mintaqaning

ekologik va ijtimoiy xavfsizligiga tahdidlarni bataraf etish masalasiga zudlik bilan e'tibor qaratish g'oyat dolzarb ekanini e'tirof etayotganidan dalolat beradi.

BMT va rivojlanish bo'yicha boshqa hamkorlarimiz 1993-yil BMT va Markaziy Osiyoning besh davlati tomonidan tashkil etilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlayotgani ham buni tasdiqlaydi. O'tgan davrda mazkur jamg'arma xalqaro donorlar hamjamiyati yordamida Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha umumiy qiymati 2 milliard dollardan ziyod bo'lgan ikkita dasturni amalga oshirdi.

Shu munosabat bilan mintaqalari davlatlari va Orolbo'yi aholisi oldida turgan keskin muammo-larni hal etishda yordam ko'rsatayotgan institutlar va hamkor mamlakatlarga minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz. Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, BMT agentliklari, Islom taraqqiyot banki, USAID, Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Kuvayt va boshqalar bizning ana shunday faol hamkorlarimiz hisoblanadi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi 2013-yildan buyon BMT, Yevropa Ittifoqi, yetakchi xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari ko'magida Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam

ko'rsatish bo'yicha uch yuzdan ziyod loyihadan iborat uchinchi dasturni amalga oshirmoqda. Bu loyihalarni hayotga tatbiq etish uchun 8,5 milliard dollardan ziyod mablag'ni jalb qilish zarur.

Ayni paytda biz shuni ochiq tan olishimiz kerakki, bu borada amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlarga qaramasdan, hali yana ko'plab ishlarni bajarish talab etiladi. Mintaqalari Orol dengizi halokatining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan aholi hayoti va faoliyatiga yetkazayotgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlarini bartaraf etish uchun yetarlicha mablag' va moddiy-texnik imkoniyatlarga ega emas. Shu bois Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa xalqaro tashkilotlar va rivojlanish bo'yicha hamkor davlatlarning samarali amaliy yordamisiz dunyo miqyosidagi ushbu muammoni hal etib bo'lmaydi.

Orol dengizi fojiasining keng ko'lam kasb etgan og'ir oqibatlari Orolbo'yi aholisi, ushbu hududning iqtisodiyoti, ijtimoiy soha va atrof-muhitiga tahdid solayotgan ko'plab xavf-xatarlarni samarali bartaraf etishga qaratilgan yangi, keng qamrovli yordam dasturini ishlab chiqishni talab etadi.

Orolbo'yi mintaqasiga yordam ko'rsatish bo'yicha bunday kompleks dasturni ishlab chiqish va amalga oshirishda, avvalo, xalqaro tashkilotlar – BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi moliya institutlari va nufuzli

xalqaro ekologiya tashkilotlari hal qiluvchi o‘rin tutishi kerak. Bu mazkur dasturni hayotga tatbiq etishga nafaqat xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari resurslari, balki bizga do‘sit va hamkor mamlakatlar imkoniyatlarini ham jalb etishga ko‘mak beradi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga a’zo bo‘lgan deyarli barcha mamlakatlar Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi suvni tejash, Orolbo‘yini qayta tiklash va rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirmoqda. Suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish prinsiplari, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilinmoqda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilishga doir va boshqa ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Orolbo‘yida aholi hayot darajasi va sifatini yaxshilash, turarjoy, ijtimoiy va transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq joylarda zamonaviy uy-joylar, umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari, vrachlik punktlari barpo etish, avtomobil yo‘llari qurish va rekonstruksiya qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ishonchim komilki, Orolbo‘yi va uning aholisi taqdiridan tashvishga tushayotgan davlatlar, BMT tuzilmalari, xalqaro moliya va ekologiya tashkilot-

larining aniq maqsadli, ko‘p qirrali va tizimli o‘zaro hamkorligi Orolbo‘yi mintaqasining eng keskin muammolarini hal etishga qaratilgan amaliy dastur va loyihalarni ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari!

Orol dengizi qurishining halokatli oqibatlarini chuqur tushunib, Orolbo‘yi ekotizimini qutqarish ishiga qo‘shayotgan salmoqli hissangiz uchun sizlarning barchangizga samimiyl minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz.

Konferensiya ishi samarali bo‘lishini, uning barcha ishtirokchilariga esa sihat-salomatlik, oljanob faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi raisi.
2014-yil 29-oktabr.*

«O'ZBEKISTON TEMIRYO'LLARI» DAVLAT AKSIYADORLIK KOMPANIYASI JAMOASIGA

Hurmatli do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda yurtimizdagи barcha temiryo'l xodimlarini mammakatimiz hayotidagi qutlug' sana – «O'zbekiston temiryo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etilganining 20 yilligi bilan chin qalbimdan tabriklash menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

O'zbekiston temiryo'llari o'zining 20 yillik tarixi davomida murakkab shakllanish va jadal rivojlanish yo'lini bosib o'tdi va bugungi kunda yurtimizning barcha mintaqalarini ishonchli bog'lash uchun bamisoli qon tomirlari kabi hayotiy zarur bo'lgan temiryo'l transporti kommunikatsiyalarining mustaqil, yagona va yaxlit tizimi sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Agarki mana shunday temiryo'llar bo'lmasa, biz qanday hayot kechirishimiz, iqtisodiyotimizni qanday rivojlantirish mumkinligini tasavvur qilishning o'zi ham qiyin bo'lardi. Hozirgi vaqtda mammakatimiz bo'yicha yuklarning 60 foizdan ziyodi,

yo‘lovchilarning esa 75 foizdan ortig‘i temiryo‘l transporti orqali tashilmoqda.

O‘zbekiston temiryo‘llari transmintaqaviy transport koridorlarining eng muhim bo‘g‘ini sifatida xalqaro temiryo‘llar tashuvi tizimida munosib o‘rin egallamoqda. Ma’lumki, qadim zamonlardan boshlab hozirgi O‘zbekiston zamini bo‘ylab Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan va bu hududda ko‘plab savdo yo‘nalishlari tutashgan, turli sivilizatsiyalar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlik aloqalari amalga oshirilgan. Bugungi kunda ham O‘zbekiston magistral temiryo‘l tarmoqlari orqali Sharq va G‘arb, Janub va Shimolni birlashtiradigan salmoqli transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatiga ega.

Mamlakatimizda temiryo‘l transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va mustahkamlash, temiryo‘l tashuvlarining ishonchlilik va xavfsizlik darajasini oshirish bo‘yicha «O‘zbekiston temiryo‘llari» kompaniyasi tomonidan olib borilayotgan ishlarni alohida qayd etish zarur. Keyingi yillarda temiryo‘lchilarimizning kuch-g‘ayrati bilan 1 ming 100 kilometrdan ziyod yangi temiryo‘l tarmoqlari barpo etildi, 3 ming 800 kilometrlik yo‘l modernizatsiya qilindi va qaytadan ishga tushirildi, qariyb 1000 kilometrlik temiryo‘l magistrallari elektrlashtirildi. Ana shunday katta ishlarimiz natijasida temiryo‘llarning umumiyligi uzunligi 6 ming 500

kilometrga yetdi va ular respublikamizning barcha mintaqalarini qamrab olish imkoniga ega bo'ldi.

Amudaryo uzra avtomobil va temiryo'l qatnovi uchun mo'ljallangan zamonaviy ko'priki o'z ichiga olgan «Navoiy – Uchquduq – Nukus – Sulton Uvaystog'» va «Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on» yangi temiryo'l magistrallarining ishga tushirilishi mamlakatimizni uzoq istiqbolni ko'zlagan holda, barqaror rivojlantirish yo'lida strategik ahamiyatga egadir.

Yaponianing Xalqaro hamkorlik banki ishtirokida murakkab tabiiy va iqlim sharoitlarida barpo etilgan, dengiz sathidan 1 ming 500 metr balandlikda joylashgan tog' dovoni orqali o'tadigan 223 kilometr uzunlikdagi «Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on» yangi temiryo'li mohiyat e'tibori bilan Markaziy Osiyoda o'xshashi bo'l-magan noyob inshoot hisoblanadi.

Hozirgi kunda «Maroqand – Qarshi» va «Qarshi – Termiz» temiryo'l tarmoqlarini elektrlashtirish borasidagi ishlar ham jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Yangi temiryo'l magistrallarining ishga tushirilishi mamlakatimizning shimoliy va janubiy mintaqalarining iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlantirish, mineral resurslar, neft va gaz, rangli metallar, qurilish materiallari va boshqa qimmatbahо foydali qazilmalarning boy konlarini kom-

pleks o‘zlashtirish uchun, hech shubhasiz, katta imkoniyatlar ochadi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarini shakllantirish, shu asosda aholi bandligini ta’minlash, odamlarimizning daromadlari va moddiy farovonligini oshirish uchun sharoit yaratishga qanday muhim hissa qo‘sishini, o‘ylaymanki, izohlab o‘tirishning hojati yo‘q.

Biz transport kommunikatsiya sohasidagi yana bir yirik inshoot, ya’ni 19 kilometrlik temiryo‘l tonnelini o‘z ichiga oladigan «Angren – Pop» yo‘nalishidagi yangi elektrlashtirilgan temiryo‘l tarmog‘ini xitoylik hamkorlarimiz bilan bирgalikda barpo etishga katta istiqbolga ega bo‘lgan muhim loyiha sifatida qaramoqdamiz.

Ushbu temiryo‘l tarmog‘ining 2016-yil iyul oyida ishga tushirilishi Farg‘ona vodiysi viloyatlarini O‘zbekistonning markaziy qismi bilan ishonchli tarzda bog‘lashga imkon yaratadi, respublikamizning butun hududi bo‘ylab yagona temiryo‘l transport tizimini shakllantirish borasidagi ishlarni yakuniga yetkazadi, «Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa» yangi xalqaro tranzit temiryo‘l koridoring eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi.

Transport xizmatlarining darajasi va sifatini oshirishda temiryo‘l parkining harakatlanadigan tarkibini eng zamonaviy, yuksak samarali lokomotivlar va har tomonlama qulay vagonlar bilan yangilash bo‘yicha ishlar o‘ta muhim ahamiyat kasb

etadi. Faqatgina so‘nggi o‘n yilda 38 ta zamonaviy elektrovoz va 10 ta yo‘lovchi tashish teplovozi sotib olindi, 150 ta lokomotiv modernizatsiya qilindi.

Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasi tomonidan ish-lab chiqarilgan, zamonaviy, yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» elektropoyezdi O‘zbekistonning g‘urur-iftixori hisoblanadi. Shuni aytish joizki, bunday poyezdlar dunyoning atigi sakkizta mamlakatida mavjud. Bugungi kunda ushbu poyezd har kuni «Toshkent – Samarqand – Toshkent» yo‘nalishi bo‘yicha 344 kilometrlik masofani, boro‘g‘i ikki soatda bosib o‘tmoqda. Bu esa odamlarimizning ana shu transport turiga bo‘lgan munosabati va qarashlarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Yurtimizda 11 ta yangi temiryo‘l vokzali barpo etilishi va 7 ta vokzalning rekonstruksiya qilinishi natijasida ular butunlay yangicha qiyofa kasb etdi. Mazkur vokzallar yo‘lovchilarga eng yuqori xalqaro standart va talablar darajasida xizmat ko‘rsatish imkonini beradigan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganini qayd etish lozim.

O‘tgan yillar mobaynida temiryo‘l transporti kommunikatsiyalarini rivojlantirish va tegishli infratuzilmalarni obodonlashtirishga 6 milliard dollar-dan ortiq kapital qo‘yilmalar, jumladan, 1,8 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar yo‘naltirildi.

Kompaniyaning yo‘l xo‘jaligi, «O‘ztemiryo‘l-yo‘lovchi» ochiq aksiyadorlik jamiyati yo‘lovchilar

tashish bo‘linmasi va «O‘ztemiryo‘lkonteyner» yuk tashish tuzilmasi, shuningdek, qurilish tashkilotlari va boshqa tarkibiy qismlari mamlakatimiz temiryo‘l tizimini rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko‘rsatishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Kompaniya tashkil etilgan kundan buyon yuk tashishlar 1,5 barobar, yo‘lovchi tashish esa 1,3 barobar ko‘paygani, temiryo‘llar orqali 1 milliard 400 million tonna yuk tashilgani va 350 million yo‘lovchi o‘z manziliga yetkazilgani uning salohiyati va imkoniyatlari tobora kengayib borayotgandan dalolat beradi.

Bugungi kunda temiryo‘l tarmog‘ining jadal rivojlanayotgan, yuksak texnologiyalarga asoslangan Toshkent yo‘lovchi vagonlarni qurish va ta’mirlash zavodi, Quyuv-mexanika zavodi, «O‘ztemiryo‘lmashta’mir» unitar korxonasi kabi sanoat korxonalarini haqli ravishda kompaniyaning bayroqdlorlari va iftixori hisoblanadi. Ular Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlari va boshqa yetakchi xorijiy kompaniyalarining zamnaviy asbob-uskunalarini va yangi avlod texnologik tarmoqlari bilan jihozlangani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Mazkur korxonalarda lokomotiv va yo‘lovchi vagonlarini ta’mirlash, modernizatsiya qilish va qayta jihozlashdan tashqari, qisqa vaqt ichida o‘zimizning vagonsozlilik sanoatimizga mu-

vaffaqiyatli asos solindi va bu yerda 2,5 mingta yuk va 150 ta yangi yo‘lovchi vagonlari ishlab chiqarildi, 735 ta yo‘lovchi vagonlari modernizatsiya qilindi.

O‘z tarkibida yuqori malakali 70 ming nafar injener-texnik xodimlar va mutaxassislarni, yo‘lsozlar, mashinistlar, sanoat va qurilish korxonalari, ijtimoiy infratuzilma obyektlarining ishchi va xizmatchilarini birlashtirgan ahil mehnat jamoasi kompaniyaning bebaho boyligi, oltin fondi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Sizlarning fidokorona mehnatin-giz, bilim va tajribangiz xalqimiz orasida yuksak obro‘-e’tiborga ega bo‘lib, har tomonlama hurmat va ehtiromga munosibdir.

Barchamizga ayonki, kompaniyaning, butun temiryo‘l tarmog‘ining kelajagi, avvalo, sohaga zamonaviy bilimga ega, ilg‘or texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan, o‘z kasbiga sodiq, Vatanimizga farzandlik mehri bilan yashaydigan yosh mutaxassis va ishchilarni keng jalb etish bilan bevosita bog‘liqdir. Yurtimizdagи oltita kasb-hunar kolleji va Toshkent temiryo‘l transporti muhandislari institutini har yili uch mingdan ziyod yosh mutaxassislar aniq kasb yo‘nalishi bo‘yicha bitirib chiqib, hayotga yo‘llanma olayotgani mamlakatimiz temiryo‘l transportining kelgusi taraqqiyoti uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kun-

da temiryo‘lchilik kasbi mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida qiziqish va talab eng katta bo‘lgan, sharaflı kasbga aylanganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Aziz do‘stlar!

Sizlarni bugungi qutlug‘ ayyom bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklab, fidokorona mehnatingiz, Vatanimiz ravnaqi va farovonligiga qo‘sheyotgan munosib hissangiz uchun samimiyl minnatdorlik bildirib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etaman. Sizlarga va oilalar ringizga tinchlik, sihat-salomatlik, baxt va omad, ezgu ishlaringizda yangi-yangi muvaffaqiyatlar yor bo‘lishini tilayman.

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2014-yil 6-noyabr*

TERMIZ SHAHRIGA AMIR TEMUR ORDENINI TOPSHIRISHGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, qadrli do‘sstar!

Avvalo, bugun siz, aziz Surxon vohasi vakillari bilan diydor ko‘rishib, barchangizni sog‘-salomat, bardam-baquvvat ko‘rib turganimdan xursand bo‘lganimni bildirib, sizlarga, sizlar orqali butun viloyat ahliga o‘zimning chuqur hurmat va ehtiromim, ezgu tilaklarimni izhor etishga ruxsat ber-gaysiz.

Sizlar bilan qachon uchrashmaylik, Surxondaryo-ning bugungi hayoti, aholining hol-ahvoli, kayfiyati, erishilgan yutuqlar bilan birga, yo‘l qo‘yilgan kam-chiliklar va ularni bartaraf etish, viloyatning kelajagi haqidagi fikr-mulohazalar uchrashuvlarning asosiy mavzusini tashkil etishi hammamizga ma’lum.

Bunday muloqotlarning ma’no-mazmuni, av-valambor, viloyatni yanada rivojlantirish, uning noyob yer osti va yer usti boyliklaridan oqilon va samarali foydalanish, shu yurtda yashayotgan 3 millionga yaqin aholining talab va ehtiyojlarini ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda, odamlarimiz-

ning hayot darajasi va sifatini oshirish bilan uzviy bog‘liq ekanini ham barchamiz yaxshi anglaymiz.

Surxondaryo deganda, insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan biri, buyuk tarix va boy merosga ega bo‘lgan qadimiy va betakror o‘lka ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Afsuski, dunyoga qanday tengsiz madaniyat durdonalarini, ne-ne mumtoz zotlarni bergen bu zamin mustabid tuzum davrida sobiq Markazning bepisand siyosati, «Sizlarga bo‘laveradi» degan qarashi tufayli uzoq yillar davomida rivojlanishdan ortda qolib kelgani hech kimga sir emas.

Faqatgina mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizning barcha hududlari qatori Surxondaryo ham o‘tgan qisqa davrda juda katta, aytish mumkinki, ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Bu haqda gapirganda, so‘nggi yillarda bu yerda o‘nlab zamonaviy korxonalar, magistral yo‘l va ko‘priklar, savdo va maishiy xizmat obyektlari, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, yangi turarjoylar, maydon va xiyobonlar barpo etilganini ta’kidlash o‘rinlidir.

Bugungi kunda nafaqat viloyat markazi Termiz shahri, balki Denov bo‘ladimi, Sherobod, Muzrabot bo‘ladimi, boshqa tuman markazlari va qishloqlar bo‘ladimi, barchasining qiyofasi tubdan o‘zgarib,

har tomonlama obod bo‘lib borayotgani ham-mamizga, avvalo, shu zaminda yashayotgan odamlarga, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga katta g‘urur va ishonch bag‘ishlamoqda.

Asriy tog‘-u toshlar, dasht-u biyobonlar bag‘rida 223 kilometrlik «Toshguzar – Boysun – Qum-qo‘rg‘on» temiryo‘lining barpo etilgani faqat Surxon vohasi emas, butun mamlakatimiz hayotida, hech shubhasiz, ulkan, tarixiy bir voqeа bo‘ldi, desak, o‘ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

O‘z ishining haqiqiy ustasi bo‘lgan quruv-chilarimiz, jumladan, surxondaryolik bunyodkor-larning mahorati bilan dengiz sathidan 1500 metr balandlikda o‘nlab ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar kabi o‘ta murakkab injenerlik inshootlarini barpo etishga, katta mablag‘, kuch va imkoniyatni, yus-sak bilim va tajribani talab qiladigan shunday yirik va noyob loyihani amalga oshirishga erishganimiz har qanday odamni ham qoyil qoldirishi muqarrar.

Og‘ir iqlim sharoitiga qaramasdan, Surxon vohasi dehqon va fermerlarining keyingi yillarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlari barchamizni quvontiradi.

Bu haqda gapirganda, bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan paxta xomashyosining 10 foizi, g‘allaning qariyb 8 foizi mana shu saxovatli zamin hissasiga to‘g‘ri kelishini alohida ta’kidlash lozim. Viloyatda joriy yilda 335 ming tonnadan ziyod pax-

ta, 477 ming tonna g‘alla yetishtirilgani, so‘zsiz, mashaqqatli va mardona mehnat natijasidir.

Fursatdan foydalanib, viloyatning mirishkor dehqon va fermerlariga, barcha qishloq xo‘jaligi xodimlariga fidokorona mehnatlari uchun o‘z nomimidan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Biz uchun eng muhim, eng ustuvor vazifa bo‘lmish sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘lida Surxondaryoda ham o‘nlab yangi yangi maktablar, litsey va kollejlar, san’at va sport maskanlarini, ayniqsa, Termiz davlat universitetining zamonaviy, muhtasham binosi kabi ulkan inshootlarni bunyod etganimiz nafaqat viloyat qiyofasini, ayni vaqtda, odamlarimiz, farzandlarimizning ong-u tafakkurini, butun hayotimizni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilayotgani haqida har qancha to‘lqinlanib gapirsak, arziydi, albatta.

Shular qatorida Surxon vohasining qadimiy va betakror madaniyati, urf-odat va an‘analarini, nufuzli UNESCO xalqaro tashkiloti tomonidan yusakk e’tirof etilgan nomoddiy merosning noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish bo‘yicha qilgan ishlarimiz haqida ham ko‘p gapirish mumkin.

Bu borada O‘rta Osiyo mintaqasida yagona bo‘lgan Termiz davlat arxeologiya muzeyini bunyod etganimiz, «Alpomish» dostonining 1000

yillik to'yini, Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini qanday baland ruh va ko'tarinki kayfiyatda o'tkazganimiz barchamizga mammuniyat yetkazadi.

Termiz shahrida 2011-yili eng zamonaviy arxitektura talablariga javob beradigan muhtasham «Surxon» sport majmuasini vohaning o'ziga xos tabiiy va iqlim sharoitini hisobga olib barpo etganimiz shu yurtda ulg'ayib, uni jonidan aziz ko'radigan, jismoniy va ma'naviy kamolotga intilib yashayotgan ming-minglab yoshlarimiz uchun ahamiyati va mohiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan katta voqeа bo'lganini hech kim inkor etolmaydi.

Bugungi kunda bu yerda «Barkamol avlod» sport o'yinlari, kurash bo'yicha jahon chempionati kabi yirik va nufuzli bellashuvlar muntazam o'tkazilmoqda, bu noyob majmua qanchadan qancha yosh sportchilarimiz uchun parvoz maydoni bo'lib xizmat qilmoqda.

Men ilgari ham aytgan bir fikrni yana takrorlashni joiz deb bilaman: nafaqat yurtimizda, balki butun mintaqamizda ma'lum-u mashhur bo'lgan «Alpomish»dek qahramonlik dostonining aynan Surxon zaminida yaratilgani aslo tasodif emas.

Agar mendan, eng kuchli, eng baquvvat polvonlar qayerda yashaydi, deb so'rasha, hech ikkilansandan, avvalo Surxondaryoda, deb aytgan bo'lardim.

O‘zbek kurashining vatani, makoni ham aslida Surxon vohasidir. Hammamiz yaxshi bilamizki, mana shu kurash bellashuvlarida «halol» degan so‘z eng oliv baho sifatida yangraydi. Shaxsan menga bu ibora bamisoli butun xalqimizga, jumladan, Surxon eliga mansub eng ulug‘ fazilatni ifoda etayotgandek bo‘lib tuyuladi.

Aziz do‘sstar, chindan ham Surxon elining lafzi halol, mehnati halol ekanini tarixda ham, bugungi kunda ham ko‘p-ko‘p misollar yaqqol tasdiqlaydi. Bunday mard insonlarning tabiatida sira g‘irromlik bo‘limgan, chala ish bo‘limgan.

Umuman aytganda, Surxon zaminida voyaga yetgan, uning g‘urur va iftixorini ulug‘lab, bu yurt-ni butun dunyoga tanitib kelayotgan, Yaratganimiz ato etgan kuch-quvvati, iste’dodi va mahorati bilan uzoq va yaqin mamlakatlarda shuhrat qozongan sportchi o‘g‘il-qizlarimiz xalqimizning hurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Shular qatorida Abdulla Tangriyev, Davlat Choriyev, Sanjar To‘xtashev, Go‘zal Egamova, Suhrob Tursunov, Barno Mirzayeva, Yahyo Imomov, Ra’no Abduhalimova, Shohista Safarova kabi o‘nlab azm-u shijoatli yoshlarimiz bugungi kunda o‘zbek sportining, o‘zbek xalqining dovrug‘ini butun dunyoga taratayotgani barchamizni xursand qiladi.

«Algomish» dostonining qutlug‘ to‘yida men Surxon vohasining kuragi yerga tegmagan pah-

lavonlariga chin qalbdan hurmatimni bildirib, mashhur Toshtemir polvonni bag‘rimga bosib, dast ko‘targanimni hozir ham katta zavq bilan eslab yuraman.

Bularning barchasining zamirida faqat bitta narsa, ya’ni samimiylit, bir-birimizni yaqin ko‘rish, bir-birimizga hurmat va ehtirom mujassam, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Keyingi yillarda Surxondaryoda, uning markazi Termiz shahrida katta hajmdagi bunyodkorlik va obodonchilik ishlari amalga oshirilayotgani, avvalo, zahmatkash Surxon ahlining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida yangi-yangi uy-joylar, infratuzilma obyektlari barpo etilayotgani natijasida shaharning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib borayotganini barchamiz mammuniyat bilan e’tirof etamiz.

Buni so‘nggi paytda viloyatda namunaviy loyi-halar asosida qishloq joylarda 3 ming 772 ta shinam uy-joylar qurilgani, birgina Termiz shahrida mahalliy sharoitga har tomonlama mos bo‘lgan, 1 ming 41 ta kvartiradan iborat 36 ta zamonaviy ko‘p qavatli uylar bunyod etilgani ham tasdiqlaydi.

Ayni vaqtda shaharni ko‘kalamzorlashtirish, noyob manzarali daraxtlarni tanlab ekish va parvarish qilish, yashil hududlarni ko‘paytirish hisobidan

butun shahar yashil libosga burkanib, barchaning ko‘zini quvontiradigan, havasini tortadigan betakror qiyofa kasb etgani janubning jazirama quyoshi ostida yashaydigan odamlarga qanday qulaylik tug‘dirganini tasavvur qilish qiyin emas, deb o‘ylayman.

Aziz do‘srlar!

Surxon vohasining ko‘hna tarixi, ming yillar davomida shu zaminda yotgan va bugun o‘zbek olimlari bilan birga turli mamlakatlardan kelgan olimlarning arxeologik qazishmalar, ilmiy izlanishlari natijasida ochilayotgan va ilm-u fan olamini hayratda qoldirayotgan noyob ashyolar, qadimiy madaniyat yodgorliklari bu tuproq o‘z bag‘rida hali qancha-qancha sirlarni saqlab kelayotganidan dalo-lat beradi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Misol uchun, eramizdan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida Baqtrianing birinchi podshosi Zoroastr Termiz shahriga asos solgan. Termiz dastlab Taramata deb atalgan.

Shaharning g‘oyat qulay geografik sharoiti, Sharqni G‘arb bilan bog‘laydigan savdo chorrahsida joylashgani uning tez sur’atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratdi. Shu bois turli-turli bosqinchilar Termizni qo‘lga olish, unga egalik qilishga doimo intilib kelgan.

Eramizdan avvalgi 327-yilda Aleksandr Makedonskiy, ya’ni bizning tilimizda Iskandar Zulqar-

nayn shaharni bosib olib, unga Aleksandriya nomini bergen. Termiz qal'asi miloddan avvalgi davrlarda Yunon-Baqtriya davlati, Kushonlar imperiyasi, miloddan keyingi V–VI asrlarda Eftalitlar, Sosoniyalar hukmronligi ostida bo'lgan. VIII asr boshida esa bu yerni arablar zabit etgan.

Termiz tarixi haqida so'z yuritar ekanmiz, hech shubhasiz, bu shahar uning tarixiga yorqin sahifalar bitgan Amir Temur bobomizning muborak nomi bilan chambarchas bog'lanib ketganini esga olishimiz tabiiydir.

Termiz shahri Sohibqiron bobomiz Turon zaminida barpo etgan buyuk va qudratli davlatning mustahkam qo'rg'oniga, sultanat tayanchiga aylangan.

Bugungi kunda bu yerda yashayotgan barchabarcha insonlar Surxon tarixinining ana shunday shonli sahifalarini g'urur va iftixon bilan eslaydi.

Barchamiz uchun muqaddas bo'l mish Termiz tuprog'ida qanday ulug' alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar yashagani, ular Termiziylar degan nom bilan islom dunyosida qanday yorqin iz qoldirganchalar hammamizga yaxshi ma'lum.

Haqiqatan ham, bu tabarruk diyordan yetishib chiqqan buyuk alloma Hakim Termiziylar, dunyodagi eng ishonchli oltita hadis to'plamlaridan birini yaratgan mashhur muhaddis Abu Iso Termiziylar, te-

ran mazmunli asarlari bilan Sharqda nom qozongan Adib Sobir Termiziy, islom falsafasi rivojiga munosib hissa qo'shgan Abu Bakr Varroq Termiziy kabi mumtoz zotlar nainki xalqimiz, balki butun musulmon olamining faxr-u iftixori hisoblanadi.

Bu zaminning urush va bosqinlar tufayli necha bor vayron bo'lib, kultepalar uzra necha bor qayta tiklangani haqida ham albatta ko'p gapirish mumkin. Lekin barchamizga cheksiz iftixor yetkazadigan haqiqat shuki, bu yerni o'ziga muqaddas makon deb bilgan jasur ajdodlarimiz yovlarga hech qachon bosh egmagan.

Buyuk tarixchi alloma Sharafiddin Ali Yazdiy mashhur «Zafarnoma» kitobida Termiz ahlining mo'g'il bosqinchilariga matonat bilan, qahramonlarcha qarshilik ko'rsatganini tasvirlar ekan, bu shaharni «Mardlar shahri» deb ataganida chuqur hayotiy haqiqat mujassamdir.

Mustaqillik yillarda Termiz har tomonlama obod bo'lib, O'zbekistonimizning eng go'zal shahlaridan biriga, yurtimizning janubiy sarhadlari-dagi bosh istehkomiga, mustahkam darvozasiga aylandi.

Bugungi kunda Termiz shahri nafaqat Surxon vohasi, nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo mintaqasining iqtisodiy, madaniy va kommunikatsiya markazlaridan biri desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz bugun qanday murakkab va tahlikali zamonda yashayotganimizni, dunyoda notinchlik va qarama-qarshiliklar tobora kuchayib borayotganini hammangiz yaxshi bilasiz. Ayniqsa, bizning hududimizda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikka eng katta xavf-xatar – bu Afg'onistonda 35 yildan buyon davom etayotgan urush ekani hech kimga sir emas.

Biz Afg'oniston xalqi bilan necha-necha asrlardan buyon yonma-yon qo'shni bo'lib, ahil va inoq yashaganmiz. Qiz berib, qiz olib, quda-andachilik qilib kelganmiz. Amudaryoning ikki tomonida turib bir-birimizning holimizdan doimo xabar-dor bo'lib turganmiz. Shuning uchun ham, afg'on fojiasini boshqalardan ham ko'ra unga yaqin bo'lган bizning xalqimiz xayolidan, yuragidan mutlaqo boshqacha o'tkazadi. «Qo'shning tinch – sen tinch» degan naql albatta bejiz aytilmagan.

Men o'zimning juda ko'p chiqishlarimda, jumladan, nufuzli xalqaro minbarlardan turib, jahon hamjamiyati vakillariga murojaat qilib, afg'on mojarosini harbiy yo'l bilan hal etishning imkonini yo'q, deb ochiq aytganimni, o'ylaymanki, sizlar yaxshi bilasiz.

Agar afg'on xalqining o'ziga qo'yib bersa, shak-shubhasiz, bu urush hech qachon buncha uzoq

davom etmasdi. Afg'on xalqi – ko'pni ko'rgan xalq. Bu xalq ham biz kabi doimo tinchlik va omonlikni, oilasini tinch mehnat bilan boqishni, bolalarining baxtini ko'rishni xohlaydi.

Shunday ekan, nima uchun shuncha vaqtidan buyon bu yerda urush bormoqda? Bunga sabab albat-ta ko'p, lekin eng asosiy sabab – bu Afg'onistonda urushni davom ettirish kimgadir kerak. Bu urushni davom ettirishga urinayotganlar, birinchi navbatda, afg'on xalqining manfaatini emas, balki o'z manfaatini ko'zlaydi. Ming afsuski, dunyoda mana shunday siyosiy o'yinlar to'xtamayapti.

Afg'on zaminida urushni davom ettirish taraf-dori bo'lган kuchlar «Yiqilgan kurashga to'ymas» degan maqolni hech qachon esidan chiqarmasligini istardim. Jafokash afg'on yurtiga turli kuchlar kela-di-ketadi, afg'on xalqi esa abadiy qoladi. **Bu xalqni zo'ravonlik bilan bo'ysundirib bo'lmasligini XIX asrdan boshlab bugungi kungacha ba'zi yirik davlatlarning bu yerga quroq bilan kelib, oxir-oqibat-da yengilib ketgani ham yaqqol ko'rsatib turibdi.**

Taassufki, bugungi kunda faqat harbiy kuchga tayanib siyosat olib borayotganlar bu haqiqatni tu-shunmayapti.

Mana, yaqinda Afg'onistonda Prezident saylovi bo'lib o'tdi. Bu davlatning yangi rahbarlari ish boshladи. Lekin mamlakatdagi vaziyat ertaga qaysi

tomonga o‘zgaradi, degan savol, afsuski, hamon ochiqligicha, mavhumligicha qolmoqda.

O‘z-o‘zidan ayonki, «AYSAF» deb nom olgan xalqaro tinchlikparvar kuchlarning bu jafokash zaminda davom etayotgan to‘qnashuvlarni bartaraf etishni oxiriga yetkazmasdan turib va qarama-qarshi kuchlarni murosaga keltirmasdan turib, Afg‘onistonдан olib chiqib ketilishi bu mintaqada tinchlik va osoyishtalik o‘matishga olib kelishi guman, deb o‘ylayman.

Mana shunday murakkab bir vaziyatda O‘zbekistonning bu masala bo‘yicha pozitsiyasini yana bir bor eslatib o‘tishni zarur, deb hisoblayman.

Bu boradagi bizning yondashuvimiz, siyosatimiz aniq va ravshan: biz yon qo‘schnimiz bo‘lgan Afg‘oniston davlatining ichki ishlariga aralashmaslik, afg‘on xalqi ishonch bildirib saylagan hukumat bilan o‘zaro hurmat va hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, tinch-totuv bo‘lib yashashni o‘zimizga ma’qul deb bilamiz.

Tinchlik haqida, osoyishtalik haqida gapirganda, yurtimizdagi har qaysi odam avvalo o‘z ishonchini janubiy chegaralarimizda Vatanning sodiq posboni bo‘lib turgan Termiz ahliga, Surxon vohasining mardlariga qaratadi.

Chunki tarixning o‘zi Termiz shahriga, uning jasur xalqi zimmasiga yurtimiz tinchligi va ozodligi

yo‘lida metindek mustahkam qo‘rg‘on bo‘lish kabi og‘ir va mas’uliyatli vazifani yuklagan. Va sizlarning barchangiz bu muqaddas vazifani bugungi tahlikali davrda ham sharaf bilan ado etib kelmoqdasiz, desam, o‘ylaymanki, butun xalqimizning fikrini ifoda etgan bo‘laman.

Bunday yuksak ishonch so‘zlarini davom ettirib, shu tuproqda, shu zaminda xoklari yotgan ulug‘ ajdodlarimizning xotirasi oldida, mana shunday buyuk o‘tmishning vorislari bo‘lmish xalqimiz oldida bosh egib ta’zim qilishni ham qarz, ham farz, deb bila-man.

Qadrli yurtdoshlar!

Endi ruxsatingiz bilan menga yuklatilgan sharafla va quvonchli bir vazifani ado etishga o‘tsam.

Mustaqillik yillarida shahar ahlining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda erishgan muvaffaqiyatlari, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, millatlararo do‘slik va hamjihatlik munosabatlarini rivojlantirishga qo‘sghan munosib hissasi, xalqimizning tarixiy va ma’naviy merosini asrabavaylash, yoshlarimizni ulug‘ ajdodlarimizga xos ezgu qadriyatlar, mardlik va jasorat, Vatanga sadogat ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan xizmatlari uchun berilgan Amir Temur ordenini katta mamnuniyat bilan Termiz shahriga topshirishga ijozat bergaysiz.

Muhtaram do'stlar!

Termiz shahrining mana shunday yuksak davlat mukofotiga sazovor bo'lishida siz, azizlar-ning, shu go'zal yurtga farzandlik mehri va sado-qatini berib yashayotgan, o'z taqdiri va kelajagini o'z qo'li, fidokorona mehnati bilan yaratayotgan ezgu niyatli, oljanob barcha insonlarning hissa-si va xizmati beqiyosdir, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Bugun nafaqat Termiz ahli uchun, aytish mumkinki, butun O'zbekistonimiz uchun katta bayram. Qadimiylar va navqiron Termiz shahri hayotidagi bu qutlug' kun, hech shubhasiz, unutilmas bir voqeа bo'lib tarixda qoladi va barchamizni yangi-yangi ufqlarga da'vat etadi.

Mamlakatimizning barcha navqiron yoshlari qatorida surxondaryolik o'g'il-qizlarimga – mening bolalarimga aytadigan da'vatim shuki, sizlar bugun Amir Temur ordeniga sazovor bo'lgan shaharlar safiga qo'shilgan **Termizdek o'tmishi buyuk, kela-jagi sharaflı shaharda, qanday noyob, Xudoning nazari tushgan muqaddas zaminda yashayot-ganizingizni aslo unutmang, ota-bobolarimizning sha'n-u shavkatiga doimo munosib bo'ling.**

Sizlarni yana bir bor bag'rimga bosib, aziz farzandlarimiz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaydi, biz boshlagan buyuk ishlarni davom et-

tiradi, barcha sohalarda eng yuksak marralarni al-batta zabt etadi, deb katta ishonch va g'urur bilan aytmoqchiman.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Mana shu unutilmas lahzalarda sizlarni, butun Surxon ahlini davlatimizning yuksak mukofoti bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-osoyishtalik va qutbaraka tilayman.

Yurtimizning faxr-u iftixori bo‘lmish Termiz shahri dunyo turguncha tursin!

Termizdek buyuk shaharlarni bunyod etgan xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin!

2014-yil 28-noyabr

O'ZBEK MILLIY AKADEMİK DRAMA TEATRI JAMOASIGA

Aziz do'stlar!
Hurmatli san'at ahli!

Avvalambor, O'zbek Milliy akademik drama teatrining 100 yillik qutlug‘ to‘yi munosabati bilan siz, muhtaram teatr jamoasi va muxlislarini, sizlarning timsolingizda butun madaniy jamoatchiligidimizni chin qalbimdan samimiyl muborakbod etaman.

Ma'lumki, dunyodagi har qaysi xalq, har qaysi davlatning ma'naviy taraqqiyot darajasi, avvalo, uning madaniyati, san'at va adabiyotida, jumladan, teatr san'atida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bugun biz mamlakatimiz tarixidagi unutilmas sana – nafaqat yurtimiz, balki Turkiston zaminidagi birinchi professional teatrga asos solgan O'zbek Milliy akademik drama teatrining yuz yilligini nishonlar ekanmiz, uning shu davrda bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'li, erishgan yutuq va marralari ko'z o'ngimizdan o'tishi tabiiydir.

El-yurtimiz bu davrda qanday qiyinchilik va mashaqqatlarni, quvonchli va tashvishli kunlarni boshidan kechirgan bo'lsa, ularning barchasi o'zbek madaniyatining ko'zgusi bo'lmish ushbu teatr faoliyatida, uning sahnasida namoyish qilingan asarlar-

da o‘z aksini topgan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bugun biz Milliy teatrimizning tamal toshini qo‘ygan, bu yo‘lda qanday og‘ir sinov va to‘sqliqlarga duch kelmasin, o‘zligidan, o‘z maslagididan qaytmagan, «Teatr – bu ibratxonadir» degan hikmatga amal qilib, ma’naviy jasorat namunasini ko‘rsatib yashagan Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Cho‘lpon singari ma’rifatparvar bobolarimiz, sahna san’ati fidoyilarining so‘nmas xotirasi oldida bosh egib ta’zim qilamiz.

Mustabid tuzum mafkurasining tazyiqlariga qaramasdan, gumanistik g‘oyalar, yuksak ijodiy prinsiplarga sodiq qolgan Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Olim Xo‘jayev, Abror Hidoyatov, Nabi Rahimov, Shukur Burhonov, Obid Jalilov, Sora Eshonto‘rayeva, Zaynab Sadriyeva, Toshxo‘ja Xo‘jayev, Aleksandr Ginzburg, G‘ani A’zamov kabi o‘nlab atoqli ijodkorlarning nomlarini minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bu mo‘tabar sahnada yaratilgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi buyuk ajdodlarimizning barhayot siymolari ming-minglab tomoshabinlarga insoniylik, adolat va ezgulik, mehr-oqibat, olijanoblikdan saboq bergani, ularni go‘zallik va nafosat olamiga oshno etib kelayotgani tahsinga loyiqidir.

Bugungi kunda biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish yo'lida boshqalar havas qiladigan qanday katta natijalarga erishgan bo'lsak, hech shubhasiz, bu borada teatr san'ati, xususan, O'zbek Milliy akademik drama teatrining ham munosib hissasi borligini xalqimiz, jamoatchiligidan yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Ayni shu bois bundan o'n uch yil muqaddam ushbu ijod dargohiga O'zbek Milliy akademik drama teatri degan yuksak maqom berilgani uning tarixida yangi sahifani boshlab berdi, desam, o'ylaymanki, barchangizning fikringizni ifoda etgan bo'laman.

Yubiley munosabati bilan akademik teatr binosi tubdan kapital ta'mirlangani, eng zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangani, Milliy teatrimiz butunlay yangicha qiyofa kasb etib, dunyodagi rivojlangan davlatlarning san'at maskanlari bilan bellasha oladigan darajaga yetgani barchamizga mammuniyat bag'ishlaydi.

Aziz san'atkorlar!

Bugun biz bunyod etayotgan yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashda sizlar yaratgan va kelgusida yaradigan rang-barang asarlarni millionlab san'at ixlosmandlari hayrat va hayajon bilan tomosha qilishini, umr yo'llarida barchamiz duch keladigan, har bir insonni o'ylantiradigan murakkab savollarga teatr ibrati orqali javob topishni istaymiz.

Bu haqda gapirganda, xalqimiz teatr sahnasida bugungi hayotimizni teran aks ettiradigan, turli sinovlarda toblangan, o‘z kelajagini o‘z qo‘li, o‘z mehnati bilan yaratayotgan, Vatan taqdirini o‘z taqdiri deb biladigan fidoyi insonlar – zamonamiz qahramonlari qiyofasini yorqin ifoda etadigan yangi asarlarni orziqib kutayotganini yana bir bor ta’kidlash o‘rinlidir.

Siz, azizlar mamlakatimiz teatr san’atining eng yaxshi an’analarini boyitib, yangi avlodlarga bezavol yetkazasiz, yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan yetuk asarlaringiz bilan xalqimiz, avvalo, yoshlarimizning ma’naviy olamini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shasiz, deb ishonaman.

Qadrli do‘sstar!

Barchangizni bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor tabriklar ekanman, sizlarga yangi-yangi ijodiy yutuqlar, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga baxt-u saodat tilayman.

Muxlislaringiz, san’atsevar xalqimizning mehri va e’tibori sizlarni hech qachon tark etmasin.

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2014-yil 28-noyabr*

MAMLAKATIMIZNI DEMOKRATIK YANGILASH VA MODERNIZATSİYA QILISHGA QARATILGAN TARAQQIYOT YO'LIMIZNI QAT'İYAT BILAN DAVOM ETТИRISH – BOSH MAQSADIMIZDIR

Qadrli do'stlar!

Muhtaram yurtdoshlar!

Shu kunlarda Vatanimiz uchun mustaqil, erkin hayot kechirish, uni taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarish yo'lining asosiy prinsip va qoidalarini muhrlab bergen O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilganimizning 22 yilligini bayramona nishonlamoqdamiz.

Tariximizda chuqur iz qoldirgan ana shu buyuk sana bilan siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbimdan samimi tabriklash, barcha-barchangizga chuqur hurmat-ehtiromimni izhor etish men uchun katta baxtdir.

Konstitutsiyamizda belgilab berilgan asosiy maqsadlarimiz barchamizga yaxshi ma'lum. Ya'ni Bosh qomusimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat qurish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldi-

da tenglik tamoyili ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishning mustahkam poydevorini yaratib berdi.

Sobiq Ittifoq, SSSR degan imperiya parokanda bo'lib, tarqalib ketganidan so'ng, o'ta tahlikali bir zamonda biz «shok terapiyasi» kabi modellarning nomaqbul shakllaridan butunlay voz kechganimiz – shuni ta'kidlashimiz zarur – o'ta muhim va hal qiluvchi qadam bo'ldi.

O'zbekistonimizga mos tarixiy, milliy, an'anaviy va iqtisodiy vaziyat va xususiyatlarni inobatga olmasdan turib, «bozor iqtisodiyotining shiddatli girdobiga o'zingni tashlasang, uning o'zi ko'zlangan manzilga olib chiqadi» degan xomxayollardan butunlay voz kechdik. Va bugungi kunda butun dunyoda tan olingan, «o'zbek modeli» deb nom olgan, jamiyatimizni tubdan isloh etish, erkinlashtirish, demokratik yangi davlat qurish, uni modernizatsiya qilish bo'yicha puxta o'ylangan taraqqiyot yo'limizni tanlab oldik.

Taqdirimiz hal bo'layotgan o'sha og'ir paytda qancha soxta dohiylar maydonga chiqqani, qanday keskin tortishuvlar bo'lgani, tazyiq va zo'ravonlik ishlatilgani, yosh davlatimiz kemasini ag'darishga turli urinishlar sodir etilgani sizlarga yaxshi ma'lum, deb o'ylayman.

Lekin bunday urinishlar, harakat va xurujlarning puchga chiqqanini, biz tanlagan taraqqiyot strategiyasining naqadar to‘g‘ri bo‘lganini hayotning o‘zi yana va yana bir bor tasdiqlab bermoqda.

Shu fursatdan foydalanib, siz, azizlar, sizlarning timsolingizda butun xalqimiz aynan o‘zimizga xos, o‘zimizga mos bo‘lgan, «o‘zbek modeli» deb e’tirof etilgan rivojlanish yo‘limizni keng qo‘llab-quvvatlagani uchun yana bir bor o‘zimning chuqur minnatdorligimni bildirish, sizlarning oldingizda, el-yurtimiz oldida ta’zim qilishni o‘zim uchun ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Biz tanlagan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot modelining naqadar haqqoniy va samarali ekani biz qurayotgan yangi demokratik tizimda, iqtisodiyotimiz rivojlanishining barqaror, barchani hayratda qoldirayotgan sur’atlarida, xalqimizning hayot darajasi va sifati ortib borayotganda o‘zining amaliy tasdig‘ini topmoqda.

O‘tgan davrda biz duch kelgan og‘ir sinov va muammolarga qaramasdan, mustaqillik yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti qariyb 5 barobar, aholi daromadlari jon boshiga o‘rtacha 8,7 barobar o‘sganini, mamlakatimiz aholisi bu davrda 1,5 marta ko‘payib, 2015-yilning 1-yanvarida 31 million 500 ming kishini tashkil etishini inobatga oladigan bo‘lsak, bunday ulkan natijalarga erishganimizni,

ochig‘ini aytganda, ba’zan tasavvur qilishning o‘zi ham qiyin.

Bugungi kunda mamlakatimizning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15 foizdan oshmasligi, ichki qarzimiz umuman yo‘qligi, eksport hajmi, oltin-valuta zaxiralarimiz barqaror sur’atlar bilan oshib borayotganida ham erishgan ulkan nati-jalarimiz isbotini ko‘rish, kuzatish qiyin emas.

Jahon miqyosidagi global iqtisodiy inqiroz haliberi davom etayotganiga qaramasdan, dunyoning sanoqli davlatlari qatorida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’atlari so‘nggi 10 yil davomida 8 foizdan ziyod bo‘lib kelmoqda. Yangi – 2015-yilda ham ana shunday yuksak o‘sish sur’atlari ko‘zda tutilmoxda.

Qadrli vatandoshlarim!

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan olam-shumul o‘zgarishlar, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tobora chiroy ochib, aholimizning farovonligi yuksalib borayotgani haqida gapirganda, bunday yangilanishlarning g‘oyat muhim manbalari – avvalo, odamlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi va kayfiyati tubdan o‘zgarib, ularning yon-atrofimizda ro‘y berayotgan voqeahodisalarga daxldorlik hissi, ertangi kunga munosabati va ishonchi tobora mustahkamlanib, siyosiy

saviyasi va huquqiy madaniyati o'sib borayotgani ni alohida ta'kidlashni o'rini deb bilaman.

Shular haqida so'z yuritar ekanmiz, biz bundan 17 yil oldin qabul qilgan, qo'lga kiritayotgan barcha yutuq va marralarimizning omili va zamini bo'lgan, hammamizning, birinchi navbatda, bolalarimizning ong-u tafakkurini, hayotga munosabatini tubdan o'zgartirgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va istiqbolli maktab dasturi haqida alohida to'xtalib o'tishimiz zarur, deb o'ylayman.

Eski tizimning qolip va aqidalaridan xoli bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan va hayotga qaraydigan, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir kuch sifatida maydon ga chiqayotgan bugungi yosh avlodimiz ayni shu dasturlarning, biz amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarimizning mahsuli, desam, hech qanday xato bo'lmaydi.

Aziz yurtdoshlar, esingizda bo'lsa kerak, bu das turni qabul qilayotgan paytda biz vaqtি-soati kelib u albatta ijobjiy ma'nodagi «portlash effekti»ga sabab bo'ladi, deb ishonch bildirgan edik. Ming shukurki, haqiqatan ham, hayotimizni butunlay o'zgartirgan mana shunday dasturimizning, unda mujassam bo'lgan ezgu maqsadlarimizning ro'yobga chiqqanini ko'rish bizga nasib etdi va bu barchamizga katta g'urur va xursandchilik bag'ishlab, ko'nglimizni

tog‘dek ko‘taradi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Shu o‘rinda bir fikrni ta’kidlab aytmoqchiman. Hammamiz yaxshi tushunamizki, xorijiy mamlakatlar, investorlar tomonidan yurtimizga investitsiya kiritilishi albatta ko‘p-ko‘p sabablarga, kerak bo‘lsa, shartlarga bog‘liq.

Avvalo, qadim-qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan odatga, an’ anaga ko‘ra, sarmoyador amaliy foyda ko‘rmasa, daromad topmasa, hech qachon birovga o‘z-o‘zicha tekinga mablag‘ bermaydi.

Ikkinchidan, odamning mol-mulki, davlati qancha ko‘p bo‘lsa, u hisob-kitobni shuncha yaxshi ko‘radi va ishini puxta qiladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Mamlakatimizda mustaqillik bergen imkoniyatlar tufayli odamlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi butunlay o‘zgarib borayotgan ekan, mana endi biz ham zamon talablariga javob beradigan darajada hisob-kitob qilib yashashni nafaqat o‘rgandik, balki boshqalarga ham o‘rgatmoqdamiz.

Mablag‘, sarmoyalar bizga nima uchun kerak? Yangi hayot, yangi jamiyat qurish uchun, ertangi kunimiz hech kimdan kam bo‘lmasligi uchun kerak.

Albatta, xorijiy investorlar biron-bir loyiha uchun mablag‘ sarflamoqchi bo‘lsa, avvalo, O‘zbe-

kistonning imkoniyati qanday, bu mamlakat bilan hamkorlik qilsak, bergen pulimiz o‘zini oqlaydimi, qanday foyda olishimiz mumkin, umuman, bularga ishonish mumkinmi o‘zi yoki yo‘qmi, degan masalalarni o‘rtaga qo‘yib, juda ko‘p hisob-kitob qiladi. Hamma tomonini chuqur o‘ylab ko‘radi.

Ular bizning salohiyatimizni chمالаб ko‘rganida, tabiiyki, biz ertaga bu mamlakatda eng zamonaviy korxonalarни qurib, ishga tushiradigan bo‘lsak, ularda kim ishlaydi, bu ilg‘or texnika va texnologiyalarni kim boshqaradi, degan o‘tkir savollarni o‘ziga beradi.

Men bugun sizlarga qalbimda yuksak g‘urur va xursandchilik bilan aytmoqchimanki, biz bilan hamkorlik boshlayotgan nufuzli kompaniya va firmalar bunday savollarni bermaydi. Nima uchun? Chunki bizning yurtimizga hamkorlik qilish maqsadida kelayotgan insonlar faqat biznesni o‘ylaydigan, bizga chin dildan ishonadigan va eng muhimi, ular O‘zbekistonda bunday savollarga o‘rin yo‘q, deb hisoblaydigan odamlardir.

Ular bizning yoshlarimizni ko‘rib, ular bilan suhbatlashib, qani endi, o‘z kasbini puxta egallagan, xorijiy tillarda bemalol gaplasha oladigan bunday yoshlarni boshqa mamlakatlarda ham ko‘rsak va ular bilan ishlasak, deb orzu qiladi. Bir so‘z bilan

aytganda, ular O‘zbekiston yoshlarining salohiyatini yuksak baholaydi.

Bugungi kunda xorijiy hamkorlarimizning «Sizlarning yoshlaringiz, bolalaringizning ko‘zi yonib turadi» degan so‘zlarini har qadamda eshitish qiyin emas.

Men bu nimadan dalolat beradi, deb ko‘p o‘ylayman. «Ko‘zi yonib turadi» degani – bu, avvalo, qanday ish, qanday murakkab vazifa bo‘lsa, mana, biz bormiz, o‘z yurtimiz, o‘z Vatanimiz uchun ishlashga, uning nomini butun dunyoga tarannum etishga tayyormiz, degan azm-u shijoatli, biron-bir sohada hech kimdan kam bo‘lmagan, yangicha fikrlaydigan navqiron avlodning maydonga chiqayotganidan dalolat beradi. Bunday pok niyat bilan oldinga intilishga, o‘zining Olloh bergen imkoniyat va salohiyatini O‘zbekistonimiz ravnaqi uchun safarbar qilishga, shuning hisobidan avvalambor o‘zi rozi bo‘lib, hayotdan o‘rnini topib yashashga bel bog‘lagan ming-minglab yigit-qizlarimizga nisbatan ana shu iborani ishlatish, haqiqatan ham, har tomonlama o‘rinli bo‘ladi. Ya’ni bunday yoshlarning ko‘zi ham yonib turadi, harakati, intilishi ham shunday qat’iy va dadilki, menga imkoniyat bering, men o‘zimni ko‘rsataman, deb g‘urur bilan yashaydigan bunday bolalarni sevmaslik, yaxshi ko‘rmaslik, ular uchun barcha-bar-

cha shart-sharoitlarni yaratib bermaslik mumkinmi, deb men o‘zimga o‘zim savol beraman.

Shuning uchun qayerda bo‘lmasin, har doim ana shunday yoshlar bilan uchrashib, ularning orzu-intilishlari, erishgan natijalari, ish rejalar haqidagi suhbatlashishga, qo‘limdan kelganicha ularni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilaman va fursatdan foydalanib, barchangizni shunga da’vat etaman.

Muhtaram do‘stlar!

Jahon tarixi barchamizga bir haqiqatni doimo eslatib keladi – hayotimiz taraqqiyoti hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi, xuddi shu kabi jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilash bir muddatlik ish emas, balki muntazam davom etadigan uzlusiz jarayondir.

Ayniqsa, bugun biz XXI asrda – intellektual mehnat birlamchi ahamiyat kasb etayotgan globallashuv va internet asrida yashayotganimizni hisobga oladigan bo‘lsak, jahon bozorida raqobat kurashining miqyosi va keskinligi tobora ortib borayotgani bu haqiqatni yana tasdiqlab bermoqda.

Bundan qanday xulosa chiqarish kerak?

Javob bitta: bunday sharoitda faqat erishgan yutuqlari bilan cheklanib qolmasdan, jadal o‘zgarib borayotgan davr bilan hamnafas bo‘lib qadam

tashlaydigan mamlakatgina o‘z ezgu maqsadlariga erishishi mumkin.

Hayotning ana shunday qat’iy talabini qayd etgan holda, **biz tanlagan maqsad, ya’ni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz va ke-lajak avlodimiz uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlash, xalqaro hamjamiyatda yus-sak obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lish yo‘lida biz amalga oshirgan ishlarimiz ezgu niyatlarimizga erishishning faqatgina bir qismi ekanini anglab olishimiz darkor.**

Shuning uchun ham qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan chegaralanmasligimiz, xotirjamlik va havolanish kayfiyatiga berilmasligimiz, aksincha, yangi marralar sari intilishimiz, doimo izlanib yashashimiz, taraqqiyot va yangilanish yo‘lidan izchillik bilan yanada ilgarilab borishimiz zarur.

Ana shu fikr va xulosalardan kelib chiqqan holda, 2010-yilning noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma yig‘ilishida **Mamlakatimizda demokratik islo-hotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini, boshqa-cha qilib aytganda, o‘zimizning uzoq va davomli muddatga mo‘ljallangan strategiyamizni qabul qildik, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.**

O‘tgan davr mobaynida Konsepsiya belgi-

lab berilgan 27 ta qonun, o‘nlab me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotimizga tatbiq etilmoqda.

Shular qatorida, avvalo, har qanday demokratiyaning asosiy sharti bo‘lmish hokimiyatlar bo‘linishining konstitutsiyaviy prinsipi asosida tub demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirish bo‘yicha o‘zining ko‘lamni va ma’no-mazmuniga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Natijada Konstitutsiyamizga davlat hokimiyatining asosiy subyektlari – mamlakat Prezidenti, parlamenti, hukumati va sud hokimiyati o‘rtasida vakolatlar taqsimotini optimallashtirishni ta’minlashga qaratilgan tuzatish va o‘zgartirishlar kiritildi.

Ushbu tuzatishlar va ular asosida qabul qilin-gan qonunlar davlat hokimiyati organlari tizimida Oliy Majlisning roli va ahamiyatini sezilarli darajada kuchaytirdi, davlatimizning ichki va tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda mamlakatimiz oliy qonunchilik organining imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasи, ijro hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishning prinsip va tartibi o‘zgartirildi, hukumatning vakolatlari yanada kengaytirildi, uning parlament oldida, joylardagi davlat boshqaruvi organlarining Xalq deputatlari kengashlari oldidagi mas’uliyati oshirildi.

Konstitutsiyaviy qonunchilikka Bosh vazir lavozimiga nomzod Oliy Majlisning Qonunchilik

palatasida eng ko‘p deputatlik o‘rmini olgan siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi kabi muhim institutlar kiritildi.

Konstitutsiyada parlamentning hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi, barcha hokimiyat tarmoqlarining huquqlari tengligi va mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan boshqa ko‘plab qoidalarga aniqlik kiritildi.

Bosh qomusimizda parlament va jamoatchilik nazorati instituti, uni amalga oshirish mexanizmlarining mustahkamlangani ham hokimiyatni demokratik modernizatsiya qilishda ulkan ahamiyat kasb etdi.

Siyosiy partiyalarning yetuklik darajasi, fuqarolarimizning huquqiy ongi, siyosiy va huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotgani, hech shubhasiz, ushbu konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim asosi, ularni amalga oshirishning hal qiluvchi sharti va garoviga aylanmoqda.

Dastlabki tergov va surishtiruv jarayonida fuqarolarning protsessual huquqlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini kuchaytirishga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sudda jinoiy ishlarni ko‘rib chiqishda qonuniylik, adolatni ta’minlashning ushbu samarali mexanizmini izchil rivojlantirgan holda, «Habeas corpus» institutini qo‘llash doirasi kengaytirildi.

Ilgari bu institut faqat qamoqda saqlash kabi protsessual majburlov choralariga nisbatan qo'llanganini eslatib o'tmoqchiman. Endilikda shaxsni lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish ham faqat sudyaning sanksiyasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Umumiylar yurisdiksiya sudlarining tarkibiy tuzilmasi va faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, sud xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga doir chora-tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ishlarni ko'rib chiqish sifatini oshirish va muddatlarini qisqartirish maqsadida fuqarolik sudlari soni ko'paytirildi, sudya lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar kuchaytirildi.

Axborot sohasini isloh qilish, so'z va axborot erkinligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan demokratik o'zgarishlar fuqarolarning axborot olish va uni tarqatish borasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini mustahkamlashga, mamlakatni demokratlashtirish jarayonlarida ularning rolini oshirishga xizmat qilmoqda.

Keng miqyosda o'tkazilgan huquqiy tajriba yakunlari asosida joriy 2014-yilda qabul qilin-gan, xalqaro ekspertlar hamjamiyatida katta qizi-

qish uyg‘otgan va yuksak baholangan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi qonun, hech shubhasiz, qabul qilinayotgan qarorlar sifati uchun hokimiyat va boshqaruv organlari mas’uliyatini oshirganini ta’kidlashni istardim.

Yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni jadal o‘sib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 1991-yilga nisbatan 3,5 barobar, jumladan, gazetalar 2,5 marta, jurnallar esa 3,5 karra ko‘paydi.

Saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida ham chuqur demokratik o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Asosiy Qonunimizning 117-moddasiga kiritilgan so‘nggi tuzatishlarga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasini demokratik asosda shakllantirish tizimi va shuningdek, uning asosiy faoliyat prinsiplari konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi, hokimiyatning vakillik organlariga saylovlarni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan saylov organlarining butun tizimi mustaqilligining kafolatlari kuchaytirildi.

Ishonchim komil, saylov qonunchiligiga kiritilgan, saylash erkinligi va o‘z xohish-irodasini erkin bildirish borasidagi konstitutsiyaviy tamoyilni amalga oshirishga qaratilgan ana shunday va boshqa qator o‘zgartish va qo‘srimchalar shu

yil 21-dekabr kuni Oliy Majlisga hamda mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tadigan deputatlar saylovinii Konstitutsiyamiz va saylov qonunchiligi va o'z-o'zidan ravshanki, xalqaro demokratik qonunchilik talablariga to'la mos tarzda o'tkazish imkonini beradi. Bunga hech kimda hech qanday shubha bo'lmasligi kerak.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

So'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olish, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini tubdan soddalashtirishni ta'minladi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirdi.

Fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish, ularning siyosiy ongi va tafakkurini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, ishga joylashtirish, aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va boshqa sohalarda ularning roli yanada oshdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatimiz hayotining turli sohalarida 8 ming 100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Bu 2010-yilga nisbatan 1,6 marta ko'pdir.

Iqtisodiyotni demokratlashtirish va erkinlashtirish sohasiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida», «Raqobat to'g'risida», yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kaflatlari to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur ruxsat berish tartib-taomillarining ro'yxati va turlari izchil qisqartirildi.

Keyingi yillarda ruxsat berishga oid tartib-taomillarning 160 dan ortig'i yoki 44 foizi, litsenziyalash talab qilinadigan faoliyatning 19 turi yoki 25 foizi bekor qilinganini aytishning o'zi kifoya, deb o'ylayman. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga taqdim etiladigan statistika, soliq va moliyaviy hisobotlarning shakli va davriyligi 1,5–2 marta kamaytirildi.

Mana shu zalda o'tirganlarning ko'pchiligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. O'zbekistonda hozir bu soha vakillarning yalpi ichki mahsulotga qo'shayotgan hissasi 54 foizga yetdi. Bu raqam Rossiyada 20 foizni tashkil etadi. Agar rivojlangan davlatlarni oladigan bo'lsak, bu boradagi ko'rsatkich AQSHda 50 foiz, Buyuk Britaniyada 60 foizdan iborat.

Bularning barchasini hisobga olib, aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda ushbu soha rivojiga naqa-

dar katta e'tibor qaratilayotgani, tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularga keng imkoniyatlar tug'dirib berganimiz, ularning yo'lida turgan to'siq va g'ovlarni bartaraf etganimiz qanday ulkan ahamiyatga ega ekani yaqqol ayon bo'ladi. Albat-ta, hammamiz yaxshi tushunamizki, bunday keng ko'lamli o'zgarishlar bir kunda bo'ladigan ish emas.

Aynan ana shu ishlarimiz hisobidan bozor va do'konlarimiz o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'lmoqda, odamlarimizning talab va ehtiyojlari ta'minlanmoqda, yurtimizda tayyorlangan tovarlarni nafaqat xalqimiz, balki xorijlik iste'molchilar ham sotib olmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiyotimizdagi ulushi shu darajaga yetganini mammuniyat bilan ta'kidlar ekanmiz, uning yo'lini yanada keng ochib berib, yanada katta imkoniyatlar yaratish barchamizning burchimizdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'tgan davrda tadbirkorlikning milliy an'ana va urf-odatlarimizga to'la mos keladigan yangi shakli – oilaviy biznesni rivojlantirish uchun keng shart-sharoitlar yaratilgani e'tiborga molik.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o'sib, geosiyosiy qarama-

qarshiliklar, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning kuchayib borayotgani, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlar bizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi, albatta.

Global makonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamon davom etayotgani, tovar bozorlarida talabning keskin kamayib borayotgani va konyunkturaning beqarorligi ko‘pgina davlatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishiga, investitsiya faolligining susayishi va chetga kapital chiqib ketishining kuchayishiga olib kelmoqda.

Mana shunday keskinlashuv va jahon bozoridagi noaniq vaziyat keyingi yillarda ham davom etishi mumkin. O‘z-o‘zidan ayonki, kuti layotgan barcha salbiy holatlarning oldini olish, ularni bartaraf qilish uchun barchamizdan hushyorlik, sezgirlik, safarbarlik va rejalarimizga, avvalo, **Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish talab qilinadi.**

Bugungi kunda yaqin va uzoq atrofimizda, butunjahon miqyosida siyosiy, iqtisodiy vaziyat tobora keskinlashib borayotganini inobatga olgan holda, eng muhim ustuvor vazifalarimiz qatorida **iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil chuqur lashtirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik**

jihatdan uzluksiz yangilab borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etishni asosiy maqsadimiz sifatida ko‘rishimiz kerak.

Albatta, O‘zbekistonda mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridan boshlab ishlab chiqarishni tarkibiy yangilash, uni zamonaviy va yuqori texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilganini qayd etish o‘rinlidir.

Biz uchun mutlaqo yangi bo‘lgan tarmoqlar va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalari butunlay yangitdan tashkil etildi. Hozirgi kunda bu korxonalarining tayyor mahsulotlari jahon bozorida munosib o‘rin egallamoqda.

Bu borada gap avtomobilsozlik sanoati, jumladan, yengil avtomobillar, yuk va maxsus mashinalar, dvigatellar va asosiy butlovchi qismlar ishlab chiqarish haqida, shuningdek, yangi modeldagi xorijiy texnikalarni o‘zlashtirish negizida zamonaviy qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, neft-kimyo va neft-gaz sanoatini rivojlantirish, temiryo‘l vagonlari, maishiy elektronika, farmatsevtika va mikrobiologiya tarmoqlari haqida bormoqda.

Aynan tub tarkibiy o‘zgarishlar, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi va zamonaviy korxonalarini barpo etish, faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini keng miqyosda yangilash va modernizatsiya qilish borasida puxta o‘ylangan

strategiya tufayli mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi 1991-yildagi 14 foizdan bugungi kunda qariyb 25 foizga o'sdi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarishning ulushi 34 foizdan 17 foizga kamaydi. Lekin bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari kamaydi, degani emas. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi oshib bormoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1991-yilga nisbatan 5 karra o'sdi.

Shunday ekan, biz, hech shubhasiz, iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish bo'yicha olib borayotgan ishlarni aslo susaytirmasligimiz, investitsiya siyosati va dasturlarimizni ham ana shu maqsadlarga mos holda amalga oshirishimiz darkor.

Ishlab chiqarayotgan mahsulotlari bugun xalqaro bozorda, ertaga esa ichki bozorda hech qanday qiziqish uyg'otmaydigan eski ishlab chiqarish quvvatlaridan voz kechish, iqtisodiy taraqqiyotimizning lokomotivlari bo'lган zamonaviy korxonalar va yuqori texnologiyalarga asoslangan komplekslarni barpo etish bilan birga, yetakchi tarmoq va zarur infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha chuqur va puxta o'ylangan dasturlarni izchil amalga oshirish kerak.

Bizning jahon eksport bozorida mustahkam o'rinn olishimiz uchun, mamlakatimizda moliyaviy

va iqtisodiy barqarorlikni, aholining turmush darajasi va sifatini ta'minlash uchun ishonchli zamin yaratib beradigan, bugun hayotning o'zi talab qilayotgan eng zarur siyosat ana shundan iborat.

Bir so'z bilan aytganda – sifati past, narxi baland mahsulotga yo'l qo'ymaslik kerak.

Bizning e'tiborimiz markazida turishi kerak bo'lgan eng muhim masalalardan yana biri – bu Konstitutsiyamizga muvofiq ko'ptarmoqli iqtisodiyotimizning ustuvor sohalari bo'lmish xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni tez sur'atlar bilan rivojlantirish yo'lidan barcha g'ov va to'siqlarni yo'q qilish, ularning erkinligini ta'minlashdir.

Hozirgi vaqtda ayni mana shunday o'ta dolzarb masalaning kun tartibiga keskin qo'yilishi, hech shubhasiz, shu zalda o'tirgan mulkdorlar, kichik biznes egalari va xususiy tadbirkorlar, umuman, butun xalqimizning ruhini ko'tarishga, ertangi kunga yanada katta ishonch bilan qarashiga asos beradi, desam, sizlar bunga qanday qaraysiz?

O'tgan yillar davomida yurtimizda xususiy mulk va investitsiyalar daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan ishonchli me'yoriy-huquqiy asoslar yaratish, xususiy mulkdorlar uchun zarur sharoit va kafolatlar tug'dirib berish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Shu yillar mobaynida iqtisodiyotimizning turli tarmoqlaridagi davlat mulki hisoblangan –

shunga e'tibor bering – 31 mingdan ziyod korxona xususiy mulkdorlar va aksiyadorlar ixtiyoriga berildi. Qishloq xo'jaligi, savdo, xizmat turlarining barchasi va boshqa ko'plab tarmoqlar deyarli to'liq xususiy mulk sohasiga o'tkazildi.

Xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarayotgan to'qimachilik, trikotaj, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, mebel sanoati, uy-joy sektorida davlat mulkining ulushi keskin kamaydi.

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish haqidagi fikrlarni davom ettirib aytmoqchiman: biz bu borada birinchi navbatda xususiy mulk uchun barcha yo'llarni ohib berishimiz, xususiylashtirish mexanizmlarini soddalashtirishimiz kerak.

Bir ish uchun mingta hujjat talab qiladigan vaqtlar o'tib ketdi. Biznes degani oson ish emas. Biznes bilan shug'ullanadigan inson o'z yelkasiiga katta mas'uliyat oladi. Tadbirkor, avvalambor, o'zini, oilasi va bolalarini boqadi, shu bilan birga, mamlakatimiz taraqqiyotiga ham o'z hissasini qo'shami.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yurtimizda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning aynan xususiy mulk ustuvor bo'lgan soha va tarmoqlarida o'sish sur'atlari va mehnat unumdarligi boshqa

tarmoqlarga qaraganda barqaror ravishda yuqori bo‘lib kelmoqda.

Xususiy sektoring ulushi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xizmatlari, mobil aloqa tarmoqlari, qurilish ishlari va boshqa sohalarda ham yuqoridir. Bu esa, o‘z navbatida, ko‘p narsadan dalolat beradi.

Shundan yana bir xulosa chiqishi darkor. Ya’ni, biz iqtisodiyotimizda davlatning ulushi va o‘rnı qanday bo‘lishini tanqidiy ko‘z bilan baholab, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan dara-jaga qadar qisqartirishimiz lozim.

Bu borada ma’muriy-buyruqbozlik tizimining hamon saqlanib qolayotgan har qanday shakllaridan voz kechib, davlat organlari, biznes va xususiy sektor o‘rtasidagi vazifalarni aniq belgilab qo‘yishimiz, savdo operatsiyalarini asosan birja orqali amalga oshirish tizimiga o‘tishimiz zarur.

Korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalari faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash ham g‘oyat jiddiy e’tiborni talab qilmoqda. Rivojlan-gan davlatlarda, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarish sohasida, mulkchilikning ana shu shakli asosiy o‘rin egallaydi.

Bu boradagi amaliy tajribamiz shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda mahalliy aksiyadorlar bilan birga chet ellik investorlarning ham ak-

siyalarga ega bo‘layotgani mulkchilikning eng maqbul va o‘zini oqlayotgan shaklidir.

Hozirgi vaqtida yurtimizda 90 dan ortiq mammalakatning xorijiy kapitali ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Albatta, bunday yirik loyihalar ko‘p, lekin men ularning ayrimlari haqida to‘xtalib, ularning nomini tilga olib o‘tmoqchiman, ta’bir joiz bo‘lsa, ularni sizlarga reklama qilmoqchiman. Bunday korxonalar bizga faqat amaliy yordam va ko‘mak beryapti. Ana shunday korxonalar haqida yuksak minbarlaridan turib, ko‘proq gapirsak, o‘ylaymanki, ularning faoliyatiga, mahsulotiga e’tibor kuchayadi.

Bunday samarali loyihalar haqida gapirganda, mashinasozlik sohasida AQSHning «General motors», Germaniyaning «MAN», «Class», Yaponiyaning «Isuzu» kompaniyalari, neft-gaz sohasida Janubiy Koreyaning «Lotte chemikal» va «Kogas» kompaniyalari, kimyo sanoatida Ispaniyaning «Maksam» kompaniyasi, to‘qimachilik sanoatida Singapurning «Indorama», Janubiy Koreyaning «Deu tekstil», «Yang von», Shveysariyaning «Rieter» kompaniyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida Xitoyning «Xuavey» va «ZTE», oziq-ovqat sanoatida Shveysariyaning «Nestle» kompaniyasi, qurilish materiallari ishlab chiqarishda

Germaniyaning «Knauf», Xitoyning «Peng Sheng», farmatsevtika sanoatida Shveysariyaning «Nobel» kompaniyalari va shuningdek, boshqa ko‘plab xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar haqida so‘z yuritish mumkin.

Dunyoda nom qozongan bunday kompaniyalar bilan olib borayotgan hamkorligimiz qisqa vaqt ichida iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tubdan modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va uning turini ko‘paytirish, jahon bozorlariga raqobatdosh yangi mahsulotlar bilan chiqish imkonini bermoqda.

«Navoiy», «Angren» va «Jizzax» maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish hisobidan chet ellik investorlar bilan yo‘lga qo‘ygan hamkorligimiz o‘zining yuksak samarasini ko‘rsatmoqda.

Eng muhimi, O‘zbekistonda mahalliy va chet ellik investorlar nafaqat mablag‘ sarflab, daromad olmoqda, balki korxonalarini birgalikda boshqarmoqda, xorijlik muassislar qo‘shma korxonaga, avvalo, ilg‘or texnologiyalarni olib kirmoqda, ishlab chiqarishni zamонавија asosda tashkil etish va boshqarishni joriy qilmoqda.

Bu boradagi tajriba hamkorlikning aynan mana shu shakli eng ko‘p samara berayotgani va eng yaxshi istiqbolga ega ekanini ko‘rsatmoqda. **Biz bunday korxonalar faoliyatini imkon qadar kengaytirishga tayyormiz.**

Mana, bugungi majlisimizda chet mamlakat-larning muhtaram elchilar, vakillari qatnashyapti. Shuni inobatga olgan holda, men o‘z chiqishlarimda samarali faoliyat ko‘rsatayotgan bunday kompaniya va korxonalarining nomlarini kelgusida yanada ko‘proq keltirishga tayyorman.

Bu bilan nima demoqchiman? O‘zaro manfaatli hamkorlikdan hamma yutadi. Chet mamlakatdan kelgan ishbilarmonlar, avvalambor, kimga ishonadi? O‘zining bu yerdagи vakillariga, elchilariga ishonadi.

Agar biz xorijlik hamkorlarimiz bilan mana shunday hamjihat, yelkadosh bo‘lib ishlamaganimizda – buni ham ochiq tan olishimiz kerak – O‘zbekiston bugungidek ulkan marralarni egal-lamagan, shunday yuksak rivojlanish darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lardi.

Albatta, O‘zbekistonda xizmat qilayotgan chet el davlatlarining vakillari, birinchi navbatda, o‘z mamlakatining manfaatini ko‘zlaydi. Bu tabiiy hol. Biz o‘z manfaatimizni, ular o‘z yurtining vakili sifatida o‘z manfaatini ko‘zlaydi. To‘g‘ri, ba’zida kelisha olmaymiz. Lekin, men aminmanki, hamkorlik hech qachon hech qayerda zarar keltirgani yo‘q.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz muayyan bir davlat bilan, u dunyoning qaysi chekka-

sida joylashganidan qat'i nazar, o'zaro tenglik va manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish yo'lidan boramiz. Bu borada avval – iqtisod, keyin – siyosat degan tamoyilimizga bundan buyon ham qat'iy amal qilamiz.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushining mavjudligi va samaradorligini, boshqacha aytganda, «iqtisodiyotdagi davlat»ning rolini keng miqyosda tanqidiy tahlil qilish va shu asosda **xususiy sektorning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishtirokini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha yangi chora-tadbirlarni belgilash vaqtি keldi.**

Bunday korxonalardagi davlat ulushini xususiy sektorga, jumladan, yangi investorlarga, ular tomonidan ana shu korxonalar negizida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyatini qabul qilish sharti bilan nol qiymatida sotish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, demokratik va bozor islohotlari yo'lidagi izchil harakatlarimizning mantiqi bizdan doimo ilgarilab borishni talab qilmoqda. Bu borada jahon bozorida keskin raqobat kuchayib borayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bunday vaziyat O'zbekistonda xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal

rivojlantirish uchun ularning yo‘lidagi, shuni yana ta’kidlash kerak, har qanday qarshilikni olib tashlashni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

Bu vazifalarni amalga oshirish, o‘z navbatida, biz mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining ishonchli tayanchi va poydevori deb biladigan o‘rta sinf – mulkdorlar sinfini shakllantirish va uning mavqeyini mustahkamlash uchun yangi rag‘batlantiruvchi omillar va istiqbollarni yaratib beradi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Hurmatli yurtdoshlar!

«Sog‘lom bola yili» deb nom olgan joriy 2014-yilimiz ham o‘z yakuniga yetmoqda. Bar-chamiz uchun, butun xalqimiz uchun chuqur amaliy ma’no-mazmunga ega bo‘lgan maqsadlarni, sog‘lom avlodni tarbiyalashdek ezgu va pok niyatlarimizni o‘ziga qamrab olgan ana shu yil munosabati bilan qabul qilgan umummilliy Dasturimizning bajarishi bo‘yicha qisqacha to‘xtalib o‘tsak, ayni muddao bo‘lar edi.

Dastur doirasida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan **amaldagi huquqiy-me-yoriy bazani yanada takomillashtirish** bo‘yicha 3 ta qonun loyihasi ishlab chiqilganini qayd etish lozim.

Shular qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2014–2018-yillarda O‘zbekistonda

aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to'g'risida» qabul qilingan Qarori mohiyat e'tibori bilan bolalarimizni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish va yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Sog'lom bola – avvalo, sog'lom va ahil oilaning mevasidir, degan hayotiy hikmatdan kelib chiqqan holda, yil davomida **oilada o'zaro hurmat muhitini, uning iqtisodiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni himoyalash, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish** bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Sog'lom va mustahkam oilalarni barpo etish sog'lom kelajak poydevori ekanini nazarda tutib, turmush qurayotgan yoshlarning nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan to'liq o'tishlarini ta'minlash, shu asosda irsiy va tug'ma kasalliklarning oldini olish bo'yicha sezilarli ishlar qilindi. Jumladan, bo'lajak kelin-kuyovlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazadigan poliklinikalar zamonaviy tibbiyot va diagnostika asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Eng muhimi, yangi oila qurayotgan 2 mingdan ortiq yoshlarda turli

kasalliklar aniqlanib, ular ambulator va statsionar sharoitda davolandi.

«Sog‘lom ona – sog‘lom bola» loyihasi doira-sida jami 13 million 600 mingdan ziyod ayollar va bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Buning natija-sida 2 million 800 ming ayol va 2 million 500 ming bola sog‘lomlashtirilgani bu yo‘ldagi katta qadam bo‘ldi.

Muhim amaliy masalalardan biri – ayollarimizni tadbirkorlik sohasiga jalg etish va ularni moli-yaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida kamida 50 foiz ishchi-xizmatchilari xotin-qizlardan iborat bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari-ga tijorat banklari tomonidan 770 milliard so‘mlik kreditlar ajratildi.

Aholimiz, avvalo, muhtaram opa-singillarimizning talabiga muvofiq, yurtimizda, shu jum-ladan, chekka qishloqlarda «Go‘zallik salon»lari, ta’mirlash va tikuv sexlari, maishiy texnikalarni tuzatish shoxobchalaridan iborat 150 dan ortiq xiz-mat ko‘rsatish kompleksi barpo etilgani turmush madaniyatini oshirishga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Esingizda bo‘lsa, bunday «Go‘zallik salon»-larini tashkil etishni avvalo Farg‘ona viloyatida boshlagan edik. Bugun ana shu ezgu ishlarimizni davom ettirish yanada dolzarb ahamiyat kasb et-moqda. Albatta, televideniyening, ommaviy ax-

borot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanib, bu sohaga mas’ul bo‘lgan katta-kichik rahbarlar oldiga qat’iy talablar qo‘yib, ularning faoliyatidan jamoatchilikni xabardor qilib borishimiz zarur. Mamlakatimiz bo‘yicha qaysi tuman yoki hududda hokimlar bu masalaga jiddiy e’tibor qaratmoqda, qaysi hokim bundan umuman uzoq bo‘lib yurganini aniqlab, bu haqda ham ochiq gapirishimiz kerak.

Men doimo muhtarama opa-singillarimizga hurmat-e’tibor ko‘rsatish haqida gapirib, ularni dunyodagi eng go‘zal ayollar deb, hayotimiz charog‘boni deb ulug‘layman, har doim ularning og‘irini yengil, hayotini mazmunli qilish ustida o‘ylab yuraman. Biz xotin-qizlarimizga o‘zining Xudo bergen go‘zalligi va nafosatini namoyish qilishi uchun imkoniyat tug‘dirib berishimiz kerak.

G‘arb mamlakatlarida yashaydigan ayollarni olib qaraydigan bo‘lsak, ular o‘ziga zeb berishga, o‘zini parvarish qilishga bir kunda qancha vaqt sarflaydi? Kamida ikki soat. Endi bu zalda o‘tirgan erkaklarimizdan so‘ramoqchiman: bizning ayollarimiz ham o‘ziga oro berishi uchun ozgina vaqt ajratsa, nima bo‘ladi? Men ishonaman, ozgina o‘ziga pardoz bersa, o‘z turmush o‘rtog‘ingizni tanimay qolasiz.

Shunday ekan, tumanlarimizda, hatto uzoq-uzoq qishloqlarimizda yashayotgan ayollarni juda

bo‘lmasa haftada bir marta go‘zallik saloniga o‘zi olib borib, onasi, men bir soatdan keyin sizni olib ketaman, deydigan erkaklarni men haqiqiy mard deb atagan bo‘lardim.

Aziz do‘sstar!

Bizning e’tiborimiz markazida turgan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari orasidan o‘z biznesini tashkil qilishga intilayotgan yigit-qizlarga 170 milliard 700 million so‘m miqdorida kreditlar ajratib berilgani va ular o‘z xususiy ishini ochish imkoniga ega bo‘lganining o‘zi, hech shubhasiz, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan o‘ta muhim muammolarni yechishga imkon berdi.

Shu bilan birga, yosh oilalarga uy-joy sotib olish, uni qurish va rekonstruksiya qilish, uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan tovarlarni xarid qilish uchun qariyb 215 milliard so‘mlik imtiyozli ipoteka kreditlari va 57 milliard so‘mlik foizsiz qarz mablag‘lari ajratildi. Ana shunday tadbirlar qatorida Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 1 milliard 500 ming so‘m qiymatidagi maishiy elektr texnika vositalari kam ta’minlangan oilalarga bepul tarqatilganini qayd etish lozim.

Sog‘lom bola yili davomida o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan **tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash** borasida 137 ta tibbiyot muassa-

sasida, jumladan, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlari ko‘ptarmoqli bolalar tibbiyot markazlari, Andijon shahridagi tug‘uruq kompleksi, Toshkent shahridagi bolalar sanatoriyisi, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining bolalar xirurgiyasi bo‘limi va boshqa sog‘liqni saqlash maskanlarida qariyb 410 milliard so‘mlik qurilish, rekonstruksiya va jihozlash ishlari amalga oshirilganini ta’kidlash zarur.

Shuningdek, xorijiy moliya institutlarining 28 million 500 ming dollarlik kredit va grant mablag‘lari hisobidan tuman tibbiyot birlashmalari, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi, onkologiya muassasalari, viloyat shifoxonalari zamnaviy davolash asbob-uskunalarini bilan jihozlandi.

Shu bilan birga, yana bir o‘ta muhim masalaga e’tiboringizni jalb etmoqchi edim.

Bugungi kunda yurtimizdagi yetakchi klinika va tibbiyot markazlarida eng ilg‘or texnologiyalar yordamida noyob operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida o‘tkazilgan murakkab operatsiyalar tufayli 100 nafar bolaning eshitish qobiliyati tiklandi. Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazining kar-

dioxirurgiya majmuasida esa so‘nggi ikki yilda 5 ming 200 nafardan ortiq bemor jarrohlik operatsiyalarini bajarmasdan turib davolandi.

O‘yaymanki, mana shu fursatdan foydalanib, katta bilim va malaka talab etadigan ayni shunday o‘ta nozik operatsiyalarni amalga oshirayotgan, noyob iste’dodga ega bo‘lgan, o‘zimizdan chiqqan mohir xirurglarga, boshqa mutaxassislarimizga minnatdorlik bildirishimiz, ularga kerak bo‘lgan yordamimizni yanada kuchaytirish, yangi imkoniyatlarni ochib berish uchun hech qanday mablag‘larni ayamasligimiz zarur, desam, barchamizning fikrimizni bildirgan bo‘lar edim.

Farzandlarimiz o‘rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida bu yil milliy emlash kalendariга rotavirus vaksinasi kiritilib, qariyb 300 ming bola ushbu vaksina bilan emlandi.

Mamlakatimizda nogiron bolalar tug‘ilishining oldini olishdek olajanob maqsadni amalga oshirishda respublikamizning barcha hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan, nufuzi va samarasi tobora ortib borayotgan skrining markazlarining rolini alohida ta’kidlashni xohlardim.

Bugungi kunda ana shunday o‘ta muhim muammoni yechishda bu markazlar katta o‘rin tutmoqda. Birgina joriy yilning o‘zida ushbu markazlar tomonidan 20 mingdan ortiq nuqsonli bola tug‘ilishi-

ning oldi olinganini hech narsa bilan o‘lchab-qiyoslab bo‘lmaydi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘silasiz.

Shu yo‘lda amalga oshirayotgan ishlarimiz, sarflangan mablag‘, kuch va imkoniyatlarimiz natijasida qanchadan qancha go‘daklarning benuqson dunyoga kelishi, sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetishi, avvalo, shu bolaning o‘zi, ota-onasi va oilasi uchun, butun jamiyatimiz uchun qanday quvonch va baxt keltirishini tasavvur qilishning o‘zi qiyin, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Fursatdan foydalanib, sog‘lom bola, sog‘lom avlodni kamol toptirishdek ezgu ishga o‘zini bag‘ishlagan va shu yo‘lda fidokorona mehnat qilayotgan barcha tibbiyot xodimlariga samimiyl minnatdorlik bildiraman.

Bu sohada chet mamlakatlardagi nufuzli tibbiyot markazlari bilan hamkorlikda ishlashimiz va ulardagi ilg‘or tajribalarni O‘zbekistonimizga olib kelib, joriy qilishimiz – bu barchamizning burchimiz. Bundan hech qachon hech kim tortinmasligi kerak. Bugungi globallashuv davrida dunyoning qaysi bir chekkasida bizga foydasi tegadigan yangilik bo‘lsa, uni yurtimizga olib kelish kerak. Buning uchun mana shu zalda o‘tirgan chet mamlakatlarning elchilari bilan ham bamaslahat ish olib borishimiz, muntazam ravishda o‘zaro ma’lumot va

axborot almashishni yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Juhondagi eng ilg‘or tibbiy texnologiyalarni nafaqat shaharlarimizda, balki uzoq qishloqlarimizda ham keng joriy etish lozim. Dunyoda inson salomatligini asrashdan ham savobli ish bormi o‘zi?

Ana shunday yuksak maqsadlar yo‘lida chet davlatlar bilan samarali hamkorlikni yanada kuchaytirish bo‘yicha 2014-yilda amalga oshirgan ishlrimizni alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Toshkent shahrida to‘rtinchi, ya’ni eng yuqori darajali ko‘ptarmoqli zamonaviy bolalar shifoxonasini qurish va jihozlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Koreya Respublikasi Iqtisodiy hamkorlik jamg‘armasi o‘rtasida kredit shartnomasi imzolangani buning yaqqol dalilidir. Qariyb 103 million dollar hisobidan barpo etish ko‘zda tutilayotgan, har jihatdan noyob ushbu tibbiy markazni, nasib etsa, 2017-yilda ishga tushiramiz.

Qadrli vatandoshlar!

O‘tgan davr mobaynida zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan, Internetdan keng foydalanish hisobidan ta’lim-tarbiya samarasini kuchaytirish, bolalar, ayniqsa, qiz bolalar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamdagи ishlarimiz davom ettirildi.

Dunyodagi turli-tuman nufuzli bellashuvlarda Vatanimiz shuhratini tarannum etib kelayotgan

yoshlarimiz safi tobora kengayib bormoqda. Misol uchun, bu yil yurtimiz o'quvchilaridan 10 nafari xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan yirik xalqaro musiqa va san'at festivallarida «Gran-pri» deb ataladigan eng yuqori sovrinni, 60 nafari esa birinchi o'rinni qo'lga kiritgani buning yaqqol tasdig'idir.

Sport sohasini oladigan bo'lsak, futbol bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasi Osiyo championating chorak finalida g'alaba qozonib, qit'amizdagi to'rtta davlatdan biri sifatida kelgusi yili Yangi Zelandiyada bo'ladigan Jahon championatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani barchamizni albatta quvontiradi.

Xitoy Xalq Respublikasining Nankin shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi ikkinchi Olimpiya o'yinlarida 28 nafar yosh sportchimiz 4 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza, jami o'nta medalga erishgani ham yil davomidagi katta sport yutuqlarimiz qatoriga kiradi. Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida esa yurtimiz farzandlari 9 ta oltin, 14 ta kumush, 21 ta bronza, jami 44 ta medalga sazovor bo'lib, yuksak shohsupsaga ko'tarildi.

Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Bunday yutuqlar zamirida, birinchi navbatda, mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishga berilayotgan doimiy e'tibor mujassam ekani bar-chamizga yaxshi ayon.

Dastur doirasida qizlarimizni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish maqsadi da ularga 6 milliard so‘mlik sport kiyimlari to‘plami bepul berilgani ana shunday g‘amxo‘rlikning yana bir amaliy namunasidir. Shular qatorida maktab o‘quvchilari uchun 34 million 500 ming nusxadagi darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalar yurtimizdag‘i ta’lim olib boriladigan 7 tilda nashr qilinganini alohida qayd etish lozim.

Hammamizga ma’lumki, mamlakatimizda ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘yadigan o‘g‘il-qizlarimizni darslik va boshqa o‘quv qurollari bilan bepul ta’minalash yaxshi an‘anaga aylangan. Joriy yilda ham qariyb 587 ming 1-sinf o‘quvchisi salkam 28 milliard so‘m qiymatidagi darslik va o‘quv anjomlari bilan ta’minlandi. Shuningdek, umumta’lim maktablaridagi chet tili fani, avvalo, ingliz tilini o‘rganish uchun mo‘ljallangan o‘quv xonalari 45 milliard so‘mlik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, texnik vositalar bilan jihozlangani farzandlarimizning bilim va ko‘nikmalarini yanada chuqurlashtirishga puxta zamin yaratmoqda.

Aziz yurtdoshlar!

Biz uchun eng ustuvor va ulug‘vor vazifa bo‘lgan barkamol va yetuk, hech kimdan kam bo‘lmaydigan yosh avlodni tarbiyalash borasida

joylarda nafaqat davlat, balki nodavlat va jamoat tashkilotlari, biznes tuzilmalari ishtirokida katta-katta ijtimoiy obyektlar qurilayotganini mamnuniyat bilan e'tirof etamiz.

Avvalambor, «Mehribonlik» uylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yordam berish maqsadida amalga oshirgan ishlarimiz, ayniqsa, e'tiborga loyiqidir.

Shu o'rinda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan «Savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak» degan shiorimizni yana bir bor eslab o'tishni istardim. Chunki, bu dunyoda hech bir narsa izsiz ketmaydi. Yaxshilik qilgan odamga albatta yaxshilik qaytadi. O'ziga qaytmasa, bolalari, nabiralariga qaytadi. **Muqaddas kitoblarimizda aytilganidek, yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir.**

Albatta, «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida amalga oshirgan ishlarimiz haqida yana uzoq gapirish, ko'pgina raqam va misollarni olib kelish mumkin. Lekin ularning barchasini muxtasar qilib ifoda etadigan bo'lsak, ana shu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 4 trillion 795 milliard so'm va 260 million AQSH dollaridan ziyod mablag' sarflanganining o'zi, o'ylaymanki, bu boradagi faoliyatimizning

ko‘lami va miqyosi naqadar ulkan ekanidan dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, mana shunday ezgu ishda faol qatnashgan yurtimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlarga, xorijiy va xalqaro tuzilmalarga, mana shu zalda o‘tirgan chet davlatlarning muhtaram elchilariga, bu savobli ishga hissa qo‘shgan, xolis xizmat qilgan barcha-barcha insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Qadrli do‘sstar!

Endi mamlakatimizda yaxshi an’ana va odatga aylanib qolgan tajribamiz asosida kirib kelayotgan yangi – 2015-yilga nom berish haqida siz, azizlar bilan maslahatlashib olsak, ayni muddao bo‘lardi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, o‘tgan davr mobaynida yurtimizda yillarga qanday nom bermaylik – bu «Oila» yoki «Ayollar» yili bo‘ladimi, «Sog‘lom avlod» yoki «Sog‘lom bola» yili bo‘ladimi, «Obod mahalla» yoki «Obod turmush» yili bo‘ladimi – bularning barchasi, hech shubhasiz, chuqur ma’no va mazmunga ega.

Boshqacha aytganda, bu kabi oljanob maqsadlarni ko‘zda tutib amalga oshirgan tadbirimiz avvalo jamiyatimizni yanada erkinlashtirish,

hayotimizni yanada obod va farovon qilish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlashda, Vatanimizning obro‘-e’tiborini xalqaro maydonda yuksaltirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘lganini hech kim inkor etolmaydi.

Shu bilan birga, mana shunday ezgu tadbirlarni o‘tkazish tufayli xalqimizni yanada jipslashtirish, mehr-oqibat va hamjihatlikni, oilani yanada mustahkamlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ayol zotiga, avvalambor, onalarga cheksiz mehr va ehtirom singari qadriyatlar aholimiz, xususan, yoshlarimizning qalbi va shuuridan chuqur o‘rin olayotganini hisobga oladigan bo‘lsak – bularning barchasining ahamiyati va mohiyatini baholash o‘zi qiyin, deb o‘ylayman. Lo‘nda qilib aytganda, bizning e’tiborimiz markazida turgan ayni shu xususiyat va fazilatlar, bugungi zamon va hayotimizning o‘zi talab qilayotgan o‘tkir va dolzarb masalalar kirib kelayotgan yangi yillarga nom berish bo‘yicha bizning ro‘yxatimizda tursa, hech shubhasiz, xalqimizning xohishi va talabiga javob beradigan ish bo‘lar edi.

Ayni shu shartlarni hisobga olgan holda, men kirib kelayotgan 2015-yilga mamlakatimizda **Keksalarni e’zozlash yili**, deb nom berishni taklif etaman.

Aziz yurtdoshlar!

Har qanday jamiyatning yoshi ulug‘ odamlarga bo‘lgan e’tibori va g‘amxo‘rligi uning madaniy darajasini belgilaydi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Soddagina, o‘zbekona qilib aytganda, keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko‘rsatish ma’naviy hayotimizning tom ma’noda ajralmas qismiga aylangan.

Bir o‘ylab ko‘raylik, «Qarisi bor uyning parisi bor», «Qariyalar – xonadonlarimizning fayzi va farishtasi» degan maqol va hikmatli so‘zlarimizda qanday chuqur ma’no bor.

Haqiqatan ham, qaysi xonadonda nuroniy otaxon yoki onaxon bo‘lsa, bu oilada albatta fayz-u baraka, farovonlik, ahillik bo‘lishini barchamiz yaxshi bilamiz.

Shu bois bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo‘tabar qariyalarimizning unutilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qo‘limizdan kelganicha ularning og‘irini yengil, umrini uzoq qilishni o‘zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim.

Vatanimizning musaffo osmonini asrashda, har qanday ofatlarni ostonamizga yo‘latmaslik, ona yurtimizni fashizm balosidan himoya qilishda keksa avlod vakillarining qanday jasorat ko‘rsatgani,

front ortida mehnat qilib, g‘alabaga munosib hissa qo‘shgani, mamlakatimizni tiklash, uning ham harbiy, ham iqtisodiy, ham madaniy-ma’naviy salohiyatini oshirishda nuroniy keksalarimiz namoyon etgan fidoyilikni biz hamisha katta minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bugun faxriyalarimizning hurmatini joyiga qo‘yish, har qaysi keksa odamning yuragiga yetib borish, ko‘nglini ko‘tarish, shu bilan birga, ularning hayotini mazmunli qilish yo‘lida olib borayotgan ishlarimizni kuchaytirish, samarasini oshirish zarur.

Xalqimizning qadimiylari shonli tarixini uzviy davom ettirishga, shu tarixning o‘chmas sahifalarini, ajdodlarimizning buyuk merosini, qadriyat va urf-odatlarini yoshlarimizga yetkazish, hayotimizni tobora poklash va fayz-u barakali qilishda, bir so‘z bilan aytganda, uni ma’naviy yuksaltirishda, bugun Yaratganning bizga bergen har bir kunini ma’noli va sermazmun o‘tkazishda beqiyos hissa qo‘sheyotgan ota-bobolarimizga har tomonlama hurmat, e’zoz va ehtirom ko‘rsatish barchamiz uchun ham qarz, ham farz, deb o‘playman.

Bugungi kunda mamlakatimizda **60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko‘proq kishini tashkil etadi**. Mustaqillik yillarda xalqimizning o‘rtacha yoshi 1990-yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 75,8 yoshga yetdi.

Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar – shunga e’tibor bering – 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ortida mehnat qilgan insonlar borligini alohida ta’kidlash lozim.

Bu nimaning isboti? Bu avvalo, istiqlol davrida xalqimizning turmush darajasi va sifati tobora ortib borayotganidan, yoshi ulug‘ odamlarimiz yaxshi niyat, ertangi kunimizga katta umid bilan yashayotganidan, ularning qalbi sofligidan dalolat beradi.

Xonardonlarimiz ko’rki bo’lgan piri badavlat keksalarimizni har tomonlama qadrlash maqsadida mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu yilning o’zida ularga davlat budgeti hisobidan 11 trillion 618 milliard so‘mdan ortiq pensiya, 105 milliard so‘mdan ziyod nafaqalar to‘langani buning amaliy tasdig‘idir.

Dunyodagi kamdan kam davlatlar qatorida bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag‘ning miqdori o‘rtacha oylikning 41 foizdan ziyodini tashkil etishi ham shundan dalolat beradi.

Bu borada 2014-yil 13-oktabrda qabul qilin-gan «1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti

faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoniga asosan ularni ijtimoiy himoyalash, xususan, yilda bir marta o'zлari uchun maqbul muddatlarda sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalarida davlat hisobidan davolanish imkonи yaratilgani sizlarga yaxshi ma'lum, deb o'layman.

Ayni vaqtida keksa avlod vakillariga nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tuzilmalar tomonidan ham moddiy va ma'naviy ko'mak berilayotgani va bunday yordamning miqyosi kengayib borayotgani e'tiborga sazovor. Xususan, 2013-yilda «Nuroniy» jamg'armasi tomonidan shu maqsadda 610 million so'm, joriy yilning 9 oyida esa 553 million so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani, «Mahalla» xayriya jamoat fondi tomonidan 2013-yilda 1 milliard 597 million so'mdan ziyod, shu yilning o'tgan 9 oyida esa 1 milliard 614 million so'mlik yordam ko'rsatilgani ham bunga misol bo'la oladi.

Tabiiyki, an'anaga aylanib qolgan tartib bo'yicha, 2015-yilga Keksalarni e'zozlash yili deb nom berishimiz munosabati bilan davlat dasturi qabul qilnadi va bu dasturni amalga oshirish uchun maxsus hukumat komissiyasi tuziladi.

Mazkur dasturni ishlab chiqishda bugungi kunda keksa avlod vakillarining hayotiga daxldor bo'lgan, hali-beri yechilmagan muammolarni hal qilish, bir

so‘z bilan aytganda, yilga shunday nom berganimiz o‘zini amalda oqlashini dasturning asosiy maqsadi sifatida ko‘rish kerak.

Aziz vatandoshlar!

Barchamizni oq yuvib, oq taragan, ona yurtimizning og‘ir yukini, uning quvonch va tashvishini umr bo‘yi yelkasida ko‘tarib kelgan mo‘tabar bobolarimiz va momolarimizni, ota-onalarimizni rozi qilish, ularning duosini olish – dunyodagi eng ulug‘, eng savobli ish desam, o‘ylaymanki, barchangizning fikringizni ifoda etgan bo‘laman.

Kirib kelayotgan yangi yilga «Keksalarni e’zozlash yili» deb nom berib, uni mana shunday pok niyat va harakatlar bilan boshlayotganimiz 2015-yilning tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va to‘kinlik yili bo‘lishiga, uning yanada mazmunli o‘tishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi, inshoollo.

So‘zimni yakunlar ekanman, barchangizga, mana shu go‘zal zalda to‘plangan siz, azizlarimga, sizlar orqali butun el-yurtimizga qarata aytmoqchiman: **asrlar sinovidan o‘tgan mana shunday o‘lmas qadriyatlarga tayanib, o‘z kuchi va qudratiga ishonib-inonib yashayotgan xalqimizni o‘z tanlagan yo‘lidan hech kim, hech qachon qaytara olmaydi. Biz o‘z maqsadlarimizga albatta erishamiz va ko‘zlagan marralarimizga albatta yetamiz.**

Aziz va qadrli vatandoshlarim!

Sizlarni Konstitutsiyamizning 22 yillik bayrami bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

*O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag'ishlangan tanta-nali marosimdag'i ma'ruza.*

2014-yil 5-dekabr

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Qadrli vatandoshlarim!

Mana shu fayzli damlarda siz, aziz yurtdoshlarimga avvalo o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etib, qutlug' qadamlari bilan kirib kelayotgan Yangi yil bilan tabriklab, barchangizga chin qalbimdan sihat-salomatlik, tinchlik-omonlik, baxt-saodat, xonardonlaringizga xotirjamlik va farovonlik tilashni o'zim uchun katta baxt deb bilaman.

Ayni shu daqiqalarda yakuniga yetib borayotgan yilni kuzatar ekanmiz, yil davomida bosib o'tgan yo'limizni va ro'y bergan voqealarni, qo'lga kiritgan marra va yutuqlarni shukronalik bilan ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, 2014-yil biz uchun samarali va xosiyatli bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor, deb o'ylayman.

Buning isbotini avvalo biz ko'zlagan buyuk maqsad bo'lmish – dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, buning uchun olib borayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirayotgan ulkan ishlrimizda ko'rshimiz mumkin.

Ayniqsa, iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlar bilan yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishda, hech shubhasiz, o'tayotgan yil hayotimizda chuqu iz qoldirishi muqarrar.

Buning tasdig'ini yurtimizda ro'y berayotgan olamshumul o'zgarish va yangilanishlarda, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi yanada chiroy ochayotganida, qad rostlayotgan, eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarda, dehqon va fermerlarimizning mardona mehnati evaziga dalalarimizning unumidorligi va hosildorligi yildan yilga oshib, xalqimizning hayot darajasi yuksalib borayotganida, O'zbekistonimizning dunyodagi obro'-e'tibori tobora ortib, uning xalqaro maydonda munosib o'rin olayotganida ko'rib-kuzatib, shu yurda yashayotgan har qaysi insonning ko'ngli, haqiqatan ham, g'urur va iftixorga to'ladi.

Aytish kerak – o'tgan davrda biz erishgan ayrim ko'rsatkichlarni tasavvur qilishning o'zi qiyin. Jahanon miqyosida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotganiga qaramasdan, O'zbekistonimizning sanoqli davlatlar qatorida oxirgi 10 yil davomidagi iqtisodiy o'sishi, ya'ni, sodda qilib aytganda, farovonligimizning yuksalish sur'atlari uzlusiz ravishda 8 foizdan kam bo'lmasdan kelmoqda va

2015-yilda ham bu ko'rsatkichdan kam bo'lmaydi, inshoollo.

Aziz yurtdoshlarim!

O'zbekistonning bugungi kunda taraqqiyot yo'lida barqaror sur'atlar bilan qadam qo'yayotganida, obod va farovon hayot qurayotganida bu saxovatli zaminda yashayotgan har qaysi insonning, uning millati, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, munosib hissasi borligini, butun xalqimizning mashaqqatli mehnati, mardligi va matonati, bag'rikengligi, bir oila bo'lib yashayotgani, qisqacha aytganda, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik va mehr-oqibatlik tuyg'usi naqadar katta boylik ekani ni barchamiz minnatdorlik bilan qayd etamiz.

Bunga iqror bo'lish uchun avvalo hozirgi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni, yaqin va uzoq atrofimizda xavf-xatarlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar avjiga chiqib, terrorizm va ekstremizm harakatlarini, qon to'kilishlarni ko'rib-kuzatib turganimiz hech kimni tinch va beparvo qoldirmaydi, albatta.

Ming afsuski, bunday keskinlashuvlar, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, dunyo bozorlaridagi noaniq vaziyat va tanglik davom etishining kutilishi – bunday tahlikali ahvol barchamizdan hushyorlik, sezgirlik va safarbarligimizni oshirishni,

sodda qilib aytganda – bo‘sh kelmasligimizni talab qiladi.

Bir muhim masalani esimizdan, xayolimizdan aslo chiqarmasligimiz kerak. Hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi. Ayniqsa, biz XXI asrda, globallashuv, intellektual taraqqiyot va internet zamonida yashayotganimizni inobatga oladigan bo‘lsak, erishgan marra va yutuqlar bilan chegaralanmasdan, havolanish kayfiyatiga berilmasdan, aksincha, doim yangilikka intilishimiz, ertangi kuminizni, oldimizda turgan muammo va qiyinchiliklarni o‘zimizga yaqqol tasavvur qilib yashashimiz lozim. Faqat shunday jamiyat, qolaversa, davlatgina jadal sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan zamon bilan hamqadam bo‘lib yashashi mumkin.

Ayni shu haqiqatni anglagan holda, 2015 va kelgusi yillarning rejalarini va yangi marralarni egallah haqida so‘z yuritar ekanmiz, biz avvalo demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida erishgan yutuqlarimizga, to‘plagan tajribamizga suyanib, kelajagimiz strategiyasiga aylangan Konsepsiymiz asosida olib borayotgan ishlarimizni izchil sur’atlar bilan davom ettirishimiz zarur.

Shu borada amalga oshirayotgan barcha islohotlarimizning tub ildizi – tomirida yotgan masalalarga e’tiboringizni jalb etmoqchiman.

So‘z ko‘ptarmoqli iqtisodiyotimizning ustuvor sohasi haqida – xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni tez sur’atlar bilan rivojlantirish yo‘lidan barcha g‘ov va to‘sirlarni olib tashlash, ularning erkinligini ta’minlash haqida bormoqda.

Yana bir ustuvor masala – butun jahon miqyosida iqtisodiy va siyosiy vaziyat tobora keskinlashib borayotganini inobatga olgan holda, **iqtisodiyotimizdagи tarkibiy o‘zgarishlarni izchil chuqurlashtirish, ishlab chiqarish sohasini uzlucksiz texnik, texnologik yangilab borish va modernizatsiya qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etishdir.**

Shu masalalar bilan chambarchas bog‘langan yana bir vazifa – **iqtisodiyotimizda davlatning ulushi va o‘rni qay darajada bo‘lishini tanqidiy ko‘z bilan baholab, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirishdan iborat.** Ochig‘ini aytganda, mana shu o‘ta muhim islohotlarimizni yarim yo‘lda qoldirmasdan, mantiqiy yakuniga yetkazsak – marra bizniki.

Boshqacha aytganda, ayni shu asosda eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan hali-hamon meros bo‘lib kelayotgan, odamlarning noroziligini qo‘zg‘ayotgan barcha qoldiqlardan voz kechishga imkon tug‘diramiz, ulardan ozod bo‘lamiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

Yangi – 2015-yilda mamlakatimiz davlat budjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilganini alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman. Ya’ni sog‘liqni saqlash, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport sohalarini, muxtasar aytganda, inson omilini yanada yuksaltirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorining o‘rtacha o‘sishi 22 foizdan kam bo‘lmasdan, aholimizning real daromadlari 10 foizga ko‘payishi belgilanmoqda.

Kichik biznes va fermer xo‘jaliklari uchun yangi yilda yagona sotsial to‘lovlar stavkasi 25 foizdan 15 foizga tushiriladi. Shu tariqa 440 milliard so‘mdan ko‘proq mablag‘ ularning ixtiyorida qoldiriladi. 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab jismoniy shaxslarning bir minimal oylik hajmidagi maoshidan soliq olinmaydi. Barcha ishchilarga tegishli bo‘lgan bu yangilik avvalambor boshqalarga nisbatan oyligi eng kam bo‘lgan fuqarolarga ko‘proq naf berishini alohida qayd etish lozim.

Ayni shu tadbirlar hisobidan mehnatkashlarimiz kamida 120 milliard so‘m naf ko‘radi. Yangi yilda beriladigan bunday imtiyozlarning ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

Inflatsiya darajasi, ya’ni narx-navoning o’sishi taxminan 5,5–6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kelgusi yilda odamlarimizning turarjoy sharoitlarini yaxshilash, yanada obod etish, kommunalmaishiy xizmat sifatini tubdan oshirishga alohida e’tibor beriladi.

2015-yilda qishloq joylarda yashayotgan 12 mingta oila shahar sharoitidan qolishmaydigan, namunaviy loyihalar asosida qurilgan yangi uy-joylariga ko‘chib kirishi mo‘ljallanmoqda.

Qadrli do’stlarim!

Kirib kelayotgan yangi yilga mamlakatimizda «Keksalarni e’zozlash yili» deb nom bergenimizdan xalqimiz albatta yaxshi xabardordir.

Buning zamirida hammamizni oq yuvib, oq taragan, muqaddas yurtimizning tashvish va muammolarini o‘z yelkasida ko‘tarib kelayotgan, xonadonlarimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan keksa avlod vakillarini hayotdan rozi qilish, ularning duosini olishdek savobli va oljanob maqsadlar mujassam ekanini, o‘ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Biz mehribon ota-onalarimiz, muhtaram keksalarimiz oldidagi ana shu qarzimizni yanada teran anglagan holda, ularga har tomonlama e’tibor va

g‘amxo‘rlik ko‘rsatishdek olijanob maqsadlar bilan 2015-yilga qadam qo‘yar ekanmiz, biz uchun milliy o‘zligimiz timsoliga aylanib ketgan kattaga – hurmat, kichikka – izzat, mehr-oqibat, shafqat va muruvvat kabi ezgu fazilatlarni yanada mustah-kamlab, ularni jondan aziz farzandlarimizning ong-u shuuriga singdirishda kirib kelayotgan yil muhim, yuksak bir bosqich bo‘lishiga ishonaman.

Ayni shunday noyob fazilatlarga ega bo‘layotganimiz yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik pala-tasi va mahalliy Kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylov-larda yaqqol namoyon bo‘lganining guvohi bo‘ldik.

Bularning barchasi odamlarimizning, avvalo, hal qiluvchi kuchga aylanayotgan yosh avlodimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi, siyosiy va fuqarolik saviyasi, huquqiy madaniyati yuksalib va eng muhi-mi – ertangi kunimizni biz o‘zimiz, ona yurtimiz uchun quryapmiz, deb dadil maydonga chiqayot-ganining namoyishi, desam, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Men yaqinda, Konstitutsiyamiz bayramiga ba-g‘ishlangan tantanali majlisda kimki asl demokra-tiyani ko‘rmoqchi bo‘lsa, O‘zbekistonimizga kelsin, deb aytganim beziz emas.

Haqiqatan ham, bunday xalq oldida bosh egib, har qancha ta’zim qilsak arziydi, albatta, azizlarim.

Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Yangi yil kirib kelishiga sanoqli daqiqalar qolgan mana shu hayajonli damlarda barchamiz Yaratganimizdan ezgu maqsadlarimiz ro'yobga chiqishini, xonadonlarimizning qut-barakasi, fayzini berishini chin qalbimizdan so'raymiz.

Kirib kelayotgan yangi yilimiz yurtimizga, barcha-barcha oilalarga baxt-u saodat va omad kelтирсин!

Har birimizning pok niyat va tilaklarimiz ijobat bo'lsin!

Vatanimiz tinch, xalqimiz omon, osmonimiz musaffo bo'lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.*

2014-yil 31-dekabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING BIRINCHI TASHKILIY YIG'ILISHIDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!
Aziz do'stlar!

Avvalambor, yurtimizda Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz asosida, qizg'in kurashlar ruhida bo'lib o'tgan saylovlarda el-yurtimizning ishonchini qozonib, Qonunchilik palatasi deputati degan yusak sharafga sazovor bo'lgan siz, muhtaram xalq vakillarini chin qalbimdan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, faoliyatingizda yangi-yangi yutuq va omadlar tilashga ijozat bergaysiz.

Men ko'pchilik mana shu muhtasham zalda o'tirganlarni yaqindan bilmasam ham, bugun sizlarning issiq yuzingizni, ochiq chehrangizni ko'rib, o'zimni xuddiki sizlar bilan yaqindan tanishgandek his qilmoqdaman.

Har qaysi insonning hayotida uning xayolida, xotirasida umrbod saqlanib qoladigan unutilmas voqealar bo'ladi.

Sizlarning barchangiz uchun bugun ana shunday katta xursandchilik kuni, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Sizlar tuyassar bo'lgan, yurtimiz

hayotida ulkan voqealari bo‘lgan bunday sharafga erishish, ya’ni xalq vakili bo‘lib, besh yil davomida parlamentda ish olib borish, saylovchilar bildirgan yuksak ishonchni oqlash – **bu katta baxt, shu bilan birga, katta mas’uliyat demakdir.**

Haqiqatan ham, el-yurt ishonchiga munosib bo‘lib, oldimizda turgan buyuk maqsadlar uchun, O‘zbekistonimizning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, xalqimiz farovonligini yanada oshirish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘sisi va nufuzini yuksaltirish yo‘lida o‘zini baxshida qilish, vaqt kelganda, Vatanimizni yanada ravnaq toptirishda mening ham qo‘sghan hissam bor, deb mammun bo‘lib, rozi bo‘lib yashash hammaga ham buyurmaydi.

Shu ma’noda, bugun mana shu go‘zal va hashamatli, yangi tariximizdagi ko‘p unutilmas voqealariga guvoh bo‘lgan binoga ayni shunday hissiyotlar bilan qadam qo‘yayotgan siz, muhtaram deputatlaraga jamoatchiligidan, saylovchilarimiz, o‘ttiz bir yarim million xalqimiz go‘yoki oq fotiha bermoqda, desam, o‘ylaymanki, adashmagan bo‘lamani.

Mening sizlar bilan bugungi uchrashuv, bugungi chiqishimdan asosiy maqsad – Oliy Majlisning avvalgi tarkibida ish olib borgan deputatlar faoliyatiga baho berish, yangi saylangan parlamentning vazifalari haqida so‘z yuritish emas.

Nasib etsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining yaqinda bo‘ladigan qo‘shma majlisida bu haqda atroflicha, chuqurroq gaplashib olamiz.

Men bugungi fursatdan foydalananib, avvalo, siz, azizlarim bilan ko‘rishib, sizlarni chin qalbimdan tabriklab, mamlakatimizni zamon talablari asosida, barqaror sur’atlar bilan taraqqiy ettirish, buning uchun keng ko‘lamli demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, shu borada oldimizda turgan eng dolzarb masalalar haqidagi ayrim fikr-mulohazalaram bilan o‘rtoqlashishni istardim.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugun biz g‘oyat murakkab, tahlikali va qaltis bir zamonda yashayotganimizni barchangiz yaxshi bilasiz.

Hozirgi vaqtida dunyoning uzoq-yaqin turli huddularida yuz berayotgan tashvishli voqealar, jumladan, bizning mintaqamizda, yon-atrofimizda kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, qonli to‘qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avj olayotgani tinchlik va barqarorlikka qanday katta tahdid tug‘dirayotgani haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirib o‘tirishning hojati yo‘q.

Mana shunday tobora keskinlashib borayotgan bir vaziyatda biz hushyorlik va sergakligimizni yo‘qotmasdan, kimlar bizga xayrixoh, kimlar

g‘arazli ko‘z bilan qarayotganini, bugungi hayot, bugungi davr bizning oldimizga qanday o‘tkir talab va vazifalarni qo‘yayotganini chuqur anglab, ogoh, sezgir va safarbar bo‘lib yashashimiz talab qilinmoqda.

Mana, sobiq Ittifoqning parchalanib ketganiga 23 yildan oshdi. Bir paytlar uning tarkibida bo‘lgan respublikalar asta-sekin oyoqqa turib, qad rostlab, mustaqil taraqqiyot yo‘lida qadam qo‘yishga intilmoqda.

Aynan bizning Vatanimiz – O‘zbekistonimizni oladigan bo‘lsak, Yaratganga ming bora shukurlar bo‘lsinkim, bugungi kunda, avvalo, xalqimizning mashaqqatli va fidokorona mehnati hisobidan erishayotgan yutuq va marralarimizni do‘stilarimiz ham, muxoliflarimiz ham tan olmoqda, islohotlarimiz samarasini jahon hamjamiyati e’tirof etmoqda. **Ba’zi davlatlar, qani, biz ham shunday natijalarga erishsak, deb bizga havas bilan qarayotgani ham hech kimga sir emas.**

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ayrim sobiq ittifoqdosh respublikalarning bugungi rivojlanish darajasi va ular duch kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni O‘zbekistonning hozirgi taraqqiyoti bilan solishtiradigan bo‘lsak, o‘rtada qanday katta farq borligini yaqqol ko‘rish, kuza-tish qiyin emas.

Biz tarixan qisqa davrda, o'tgan asrning 90-yillarda, eng og'ir va tahlikali bir sharoitda ortiqcha hissiyotlarga berilmasdan, chetdan bo'lgan turli tazyiqlar va soxta va'dalarga uchmasdan, O'zbekistonimiz uchun yakka-yu yagona to'g'ri, ya'ni tadrijiy, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanlab olganimiz, uzoqni ko'zlab, yetti o'lchab bir kesgan holda, boshqacha aytganda, shoshmashosharlikka berilmasdan, «Men mintaqada birinchiman, men dunyoda birinchilar qatoridaman», degan maqtov so'zlarni ishlatmasdan turib, **puxta o'ylangan vazmin siyosat olib borganimizni bugun hayotning o'zi qayta-qayta isbotlab bermoqda.**

Aynan ana shunday to'g'ri yo'lni tanlaganimiz tufayli mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, rivojlangan demokratik davlatlar safidan munosib o'rinni egallash, xalqimiz va kelgusi avlodlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lмаган hayot sharoitlarini yaratish, O'zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro'e'tiborini yanada yuksaltirish bo'yicha **ulkan, aytish mumkinki, asrlarga teng bo'lgan yo'lni bosib o'tdik.**

Bugun mustaqil taraqqiyot yo'limizni, amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor, bir haqiqatni takror va takror aytishni o'rinni deb bilaman. Ya'ni yangi hayot, yangi jamiyat qu'rish yo'lida biz ilgari hech qachon duch kelmagan,

tajribamizda uchramagan o‘ta og‘ir va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishimizga to‘g‘ri keldi.

Hech shubhasiz, bu borada qanday muammo va sinovlarni, qiyinchilik va to‘sqliarni yengishga to‘g‘ri kelgan bo‘lmasin, qanday suronli va to‘fonli kunlarni boshimizdan kechirgan bo‘lmaylik, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlagan va dadil qadamlar bilan borayotgan yo‘limizdan, **o‘z oлdimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizdan qaytmadik va hech qachon qaytmaymiz, desam, o‘ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo‘shilasiz.**

Mana shunday o‘ta tahlikali vaziyatda bar-chamiz bir yoqadan bosh chiqarib, belni mahkam bog‘lab, qanday og‘ir bo‘lmasin, o‘z yo‘limizda qat’iyat bilan davom etganimiz, chet mamlakatlardan taklif qilinayotgan sarmoyalarni el-yurtimiz manfaatini ko‘zda tutib, chuqur o‘ylab ishlatganimiz, takror aytishim kerak, biz uchun eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ldi. Shu tariqa biz nafaqat siyosiy, avvalo, iqtisodiy mustaqilligimizni saqlashga va mustah-kamlashga erishdik.

Ma’lumki, o‘tgan asrning 90-yillarida boshqa sovet respublikalari qatori O‘zbekiston ham mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tdi. Mustabid tuzumdan bizga qanday og‘ir, qanday nochor meros qolgani, xalqimiz qancha azob-uqubatlar tortganini hech qachon unutmasligimiz kerak. «Paxta ishi» degan

uydirma va bo‘htonlar, Markazdan yuborilgan, o‘zini «desantchilar» deb atagan yovuz kuchlarning qonunni,adolatni,xalqimizning sha’ni va g‘ururini oyog‘osti qilib amalga oshirgan kirdikorlari haqidagi bor haqiqatni to‘la ochib berish lozim. Afsuski, tarixchilarimiz, adiblarimiz bu haqda kam yozadi. Holbuki, biz uchun olis tarix bo‘lgan Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek davri haqida qancha kitoblar yozilgan. Yozilishi kerak ham. Ayni paytda biz boshimizdan kechirgan kechagi kun, yaqin tariximizda ro‘y bergen mana shunday fofiali voqealarni ham bugungi va kelajak avlodlarimizning ong-u shuuriya yetkazish haqida ham bosh qotirishimiz zarur. Unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozim. Maktablarimizda, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarimizda ayni shu mavzularni xolis va haqqoni yoritib berishga yanada ko‘proq e’tibor qaratishimiz kerak. Buning uchun avvalo mustaqillikka erishish arafasidagi og‘ir kunlarni bevosita ko‘rgan, shu voqealarning guvoysi bo‘lgan odamlarning esdalik va xotiralarini yozib olish zarur.

Shuni esda tutish kerakki, tarixni unutgan xalq, jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo‘q.

Bugungi kunda ba’zi mamlakatlarda eski sovet davrini qo‘msash, o‘sha zamonga qaytish uchun

turli urinishlar bo‘lyapti. Ayrim xorijiy telekanallarda Lenin davrini, Stalin davrini, SSSRni ulug‘lash kayfiyatları kuchayib boryapti. Bunday qarash, bunday yondashuv bizga aslo ma’qul emas. Bizning o‘z aqlimiz, bilim va tajribamiz, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan yo‘limiz bor. Biz qaramlik va tutqunlikka qaytishga hech qachon rozi bo‘lmaymiz. Ota-bobolarimiz aytganidek, ko‘r has-sasini bir marta yo‘qotadi.

Men Konstitutsiyamizning 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda bildirgan fikrimni yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman – biz eski tuzumni tiklashga qaratilgan hech qanday ittifoqqa hech qachon kirmaymiz, mustabid sovet davriga aslo qaytmaymiz. Shaxsan men butun hayotimni, butun umrimni xalqimizning ozodligiga, Vatanimiz mustaqilligiga bag‘ishladim va bu yo‘ldan hech qachon qaytmayman.

Ma’lumki, iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib siyosiy mustaqillikka erishib bo‘lmaydi. Yodingizda bo‘lsa, 90-yillarda chetdan bizga maslahat beradigan, aql o‘rgatadigan qanday «dohiy»lar, qanday iqtisodchilar maydonga chiqqan edi. Ular boshqalarning tajribasidan ko‘r-ko‘rona nusxa olishga, mavjud vaziyat, milliy xususiyat va an’analarni chetga surib qo‘yib, qanchalik uringani hali-hamon esimizda.

Xalqimizda bir eshikka kirishdan oldin chiqishni o'ylash kerak, degan maqol bor. O'zingiz o'ylang, qarz hisobida olgan sarmoyalarni qayyoqqa ishlatishni oldindan puxta o'yamasdan, aniq strategik loyihalarni amalga oshirish o'mniga boshqalarga o'xshab, yeb qo'ygan bo'lqanimizda, bugun qanday ahvolda bo'lardik? **Bu haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur deb bilaman.**

Lekin hammamizga yaxshi ma'lumki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi, shiddat bilan, jadal sur'atlar bilan doimo oldinga intiladi. Kimki hayotning taraqqiyot sur'atlari bilan hamqadam bo'lmasa, unga loqayd va bepisand qarasa, erishgan yutuqlariga mahliyo bo'lib, xotirjamlik va havolanish kayfiyatiga berilsa, hech shubhasiz, tez o'zgarib borayotgan tarixning bir chekkasida, qoloqlik va armonda qolib ketadi. **Bu – hayotning beshafqat, achchiq haqiqati va biz buni aslo unutmasligimiz kerak.**

Bugungi kunda biz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan olis va og'ir yo'lning faqat bir qisminigina bosib o'tdik, xolos. Uning hal qiluvchi qismi hali oldinda. Ya'ni bu yo'lda o'z yechimini kutib turgan vazifalarimiz kamaygani yo'q, aksincha, zamon talabi bilan ularning ko'lami va miqyosi tobora kengayib bormoqda. Albatta,

barchamiz bu haqiqatni yaxshi tushunamiz va bu yo‘lda yana qanchadan qancha kutilmagan qiyinchiliklar, turli sinovlar bo‘lishi mumkinligini ham o‘zimizga tasavvur qilamiz.

Bu borada hayotning ana shunday talab va mezonlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va o‘tgan davr mobaynida izchil joriy etib kelinayotgan, amalda o‘zini oqlagan, «o‘zbek modeli» deb nom olgan taraqqiyot yo‘limiz va «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanтиш концепсијаси» о‘rta va uzoq istiqbolda biz uchun kelajak Strategiyasi bo‘lib xizmat qilmoqda, aniq yo‘lni ko‘rsatmoqda.

Qadrli deputatlar!

Sizlar o‘z zimmangizga olgan vazifalarni ado etishda, albatta, ko‘p jihatdan o‘rganishga, tajriba topishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham o‘rganishga, o‘z ustingizda ishlashga, professional darajangizni oshirishga doim tayyor bo‘lishingiz kerak. Har birimiz o‘qish-o‘rganishdan hech qachon tortinmasligimiz zarur. Hamma narsani bilaman, degan odam yanglishadi. Qarang, bugun bolalarimiz o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlab har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib ulg‘aymoqda. Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o‘z yurti, o‘z xalqiga fidoyi, biz

boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan bunday avlodni yengib bo‘ladimi? Bugun biz o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Yana bir bor ta’kidlayman, doimo o‘rganish, izlanish, yangilikka intilib yashash kerak. Bungungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo‘lsa – bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo‘ladimi, Yevropa davlatlari bo‘ladimi – bularning barchasidan o‘rganish kerak. Bu borada biz uchun hech qanday mafkuraviy cheklashlar yo‘q. Biz uchun yagona mafkura – bu O‘zbekistonning taraqqiyoti, O‘zbekistonning ravnaqi, O‘zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligidir.

Biz, davlatimizning tashqi siyosat strategiyasiga amal qilgan holda, turli siyosiy-harbiy bloklarga qo‘silmaymiz, o‘z hududimizda xorijiy harbiy bazalar tashkil qilishga yo‘l qo‘ymaymiz. Bizning maqsadimiz bitta, u ham bo‘lsa, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, uzoq va yaqin qo‘shnilarimiz bilan til topishib, ahil va inoq bo‘lib yashashdan iborat.

Barchamizga ma’lumki, deputat qaysi partiyaga mansub bo‘lmasin, bиринчи navbatda, saylovchilar oldida, el-yurt oldida javob beradi. Partiya-

lar jamiyatning ma'lum bir qatlami manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan kuch sifatida parlamentda bir-biriga raqib yoki muxolif bo'lishi tabiiydir.

Lekin yagona Vatanimiz bo'lmish O'zbekiston manfaati, yagona xalq manfaatlari haqida so'z borganda, **ularning barchasi bir musht bo'lib birlashishi darkorligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur**. Bugungi kunda mammakatimizda milliy g'oyamiz – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar ana shunday birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qilayotganidan sizlar albatta yaxshi xabardorsiz.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarish va yangilanishlar tutayli parlamentning vakolat doirasi yanada kengaydi. Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartishlar kiritdik. Hokimiyatning uchta bo'g'inga, ya'ni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi, ular o'rtaсидagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini yaratish bo'yicha aniq ishlар qilindi.

Ayni vaqtida parlament tarkibi – strukturasi, uning ba'zi bir tashkiliy jihatlari eski zamonni eslatishini, hali-beri rasmiyatchilik alomatlari saqlanib qolayotganini ham ochiq aytishimiz va bu muammo-larni hal qilish ustida ishlashimiz kerak.

Muhtaram do'stlar!

O'zingiz ko'rib turibsiz, dunyoda oldin hech so-dir bo'limgan, uchramagan o'ta og'ir, o'ta murakkab ziddiyat va nizolar, siyosiy qarama-qarshiliklar, jahon miqyosida 2008-yili boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari davom etayotgan, bir so'z bilan aytganda, noaniqlik va oxirini oldindan aytib bo'lmaydigan voqealar yuz berishining guvohi bo'lmoqdamiz.

Mana shunday g'oyat murakkab vaziyatda yangi – 2015-yil va undan keyingi yillarda biz o'z oldimizga qo'yayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichda davom ettirish, iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish, lo'nda qilib aytganda, yurtimizni, Vatanimizni yanada obod va farovon etishdek aniq va ezgu maqsadlarga erishish mumkinmi, degan bezovtalik paydo bo'lishi mumkin.

Buni ham to'g'ri tushunish kerak. Lekin mana shunday o'ta mas'uliyatli paytda bir chekkada to-moshabin bo'lib o'tirish aslo mumkin emas. Faylasuflar aytganidek, bu dunyoda dushmanidan emas, avvalo, loqayd, beparvo va betaraf odamlardan qo'rqish kerak. Mening sizlarga tilagim, da'vatim shuki, xalq vakillari avvalo kurashchi bo'lishi kerak. Mana shu muqaddas zamin uchun, O'zbekistonimiz uchun, xalqimizning tinchligi, farzandlarimizning

baxtli kelajagi uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib ishlashimiz, kurashishimiz zarur.

Men chet ellik siyosiy arboblar, katta ishbilarmonlar bilan uchrashganda, ular bizning farzandlarimiz haqida havas bilan «Yoshlaringizning ko‘zi yonib turadi» degan fikrni ko‘p eshitaman. Haqiqatan ham, hayotda Vatani, xalqi uchun kurashga bel bog‘lagan, sofdil, irodasi mustahkam yoshlarning ko‘zлari yonib turadi. Bugun mana shu zalda ham ko‘zлari ana shunday yonib turgan odamlarni ko‘rib, «Balli, sizlarga!» deb aytmoqchiman.

Yuqorida zikr etilgan xavotirli savollarga nisbatan, o‘ylaymanki, barchamizning javobimiz bitta, ya’ni, biz bosib o’tgan rivojlanish yo‘lini, erishgan marra va yutuqlarimiz, eng muhimi, bizning bugungi salohiyatimiz, kuch-qudratimizni 90-yillardagi davr bilan mutlaqo solishtirib bo‘lmaydi. Chunki bizning bugungi xalqimiz, bizning bugungi jamiyatimiz – bundan o‘n yil, yigirma yil oldingi xalq va jamiyat emas.

Bugungi kunda odamlarimizning fikri-zikri, dunyoga, hayotga qarashi tubdan o‘zgarib, ularning tobora yuksalib borayotgan siyosiy saviyasi va huquqiy madaniyati, faol grajdanilik pozitsiyasi, biz hech kimdan kam emasmiz va hech qachon kam bo‘lmaymiz, degan azm-u qaror bilan oldinga intilayotgani biz erishgan va kel-

gusida qo‘lga kiritadigan katta-katta yutuq va marralarning mustahkam poydevoriga aylana-yotganini ko‘rmaslik, anglamaslik va buni tan olmaslik mumkin emas.

Yillar, asrlar sinovida toblangan, ko‘pni ko‘rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o‘z qadr-qimmatini, insoniy sha-nini, ne-ne ulug‘ zotlarning vorislari ekanini, o‘zligini anglagan, milliy g‘urur va iftixorini tik-lagan, xalqaro maydonda o‘ziga munosib o‘rin egallab borayotgan, o‘z kuchi va ertangi kuniga ishongan, o‘z yurti, o‘z farzandlarining kelaja-gi farovon bo‘lishiga intiladigan bunday xalqni hech qanday kuch to‘xtatolmaydi.

Mana shunday mehnatkash, olijanob va bag‘-rikeng xalqqa farzandlik sadoqati bilan xizmat qilish – barchamiz uchun yuksak sharaf, oliv saodatdir.

Aziz yurtdoshlarim, hurmatli deputatlar, mana shu ezgu maqsadlarga erishish yo‘lida barchangizga yana bir bor baxt va omad tilayman.

2015-yil 12-yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 23 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar,
Qurolli Kuchlarimiz faxriylari, qadrli yurdoshlar!

Sizlarni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana –
Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz
tashkil etilganining 23 yilligi bilan chin qalbimdan
samimiyl muborakbod etish menga ulkan mammuni-
yat bag'ishlaydi.

Mustaqil demokratik O'zbekiston davlatini bar-
po etish va rivojlantirish bo'yicha biz bosib o'tgan
buyuk va shonli yo'l milliy armiyamizning – yon-
atrofimizdagи murakkab va tahlikali vaziyatda
toblangan, Vatanimiz mustaqilligi, suvereniteti,
uning hududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch-oso-
yishta hayotining hamisha ishonchli kafolati bo'lib
kelgan va bugungi kunda ham shunday bo'lib
qolayotganini necha bor isbotlab bergen mam-
lakatimiz Qurolli Kuchlarining shakllanishi bilan
uzviy va chambarchas bog'liq holda kechdi, deb
aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Har qan-
day davlatning kuch-qudrati va imkoniyatlariga
uning armiyasining jangovar qobiliyati va jangovar

tayyorgarligiga qarab baho berilishi bejiz emas va bunday qarash mustahkam asosga egadir.

Biz suveren O'zbekistonning Qurolli Kuchlarini tashkil etish jarayonida harbiy qurilish sohasida meros bo'lib qolgan tajribadan to'g'ridan to'g'ri nusxa ko'chirishdan voz kechib, aniq va real geo-strategik va geosiyosiy sharoitni, zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning qanday xususiyatlarga ega ekanini har tomonlama hisobga oldik, Markazi Osiyo mintaqasida yuz berishi mumkin bo'lgan harbiy harakatlar teatrining o'ziga xos jihatlari tahlilidan kelib chiqib ish tutdik va shuningdek, o'zimizning azaliy milliy fazilat va an'analarimizga tayandik.

Harbiy qurilish, qo'shinlarning xizmat-jangovar faoliyatini tashkil etish sohasidagi ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy harbiy san'at yutuqlarini chuqur o'rganish va ulardan foydalanish asosida ishlab chiqilgan, bosqichma-bosqich va o'zaro bog'liq islohotlar dasturlarini samarali va izchil amalga oshirish armiyamizni tashkil etishning ko'p jihatdan hal qiluvchi sharti va garovi bo'ldi.

Shu ma'noda, xorijiy davlatlarning mudofaa idoralari bilan o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish bizning eng muhim ustuvor vazifamiz bo'lib qolmoqda. Ana shunday xorijiy mudofaa idoralari bilan o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlari o'rnatilgan bo'lib, bunday hamkorlik kengayib

bormoqda, ikki tomonlama harbiy va harbiy-texni-kaviy hamkorlik doirasidagi yillik rejalar amalga oshirilmoqda.

Bizning Qurolli Kuchlar qurilishi borasidagi rejalarimizga muvofiq, harbiy qo'shinchilarni modernizatsiya qilish va ularni eng yangi qurol-yarog' va texnika, jumladan, havo hujumidan mudofaa vositalari va vertolyotlar, bronetank qurollari, artilleriya tizimlari, aloqa vositalari, alohida va guruh bo'lib himoyalanish vositalari bilan qayta qurollantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqdamiz.

Hech shubhasiz, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi zamonaviy yutuqlardan foydalangan holda, o'quv jarayonlariga ta'limning innovatsion shakl va usullarini joriy etish orqali Qurolli Kuchlar akademiyasi, harbiy bilim yurtlari, serjantlar tayyorlash maktablarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini eng yangi metodlar asosida takomillashtirish borasidagi uzluksiz ishlarimiz dolsarbz ahamiyatga egadir.

Shu ma'noda, ofitser va serjantlar tarkibining professional malakasini oshirishda yetakchi xorijiy davlatlar armiyalaridagi harbiy xizmatchilarni tayyorlash va ularning xizmat faoliyatini tashkil etish tizimini chuqur o'rganish hamda bu tizimni bizning sharoitimizga moslab joriy etish katta ijobiy rol o'yaganini qayd etish lozim.

Bu sohada amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlar tufayli mamlakatimiz ofitserlar tarkibi o'zining dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirib, yuksak kasbiy malaka va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib bormoqda va o'z oldida turgan vazifalarni hal etishda nostandard yondashuvlarni faol qo'llashga qodir bo'lmoqda. Serjantlar so'zda emas, amalda ofitserlarning eng ishonchli va yaqin yordamchisi hamda tayanchiga, askarlarimizning mehribon murabbiysiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Mudofaa qurilishi sohasida boshqaruv organlari va qo'shinlarning operativ va jangovar tayyorgarlik tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi harbiy o'quv mashg'ulotlari mustaqillikning birinchi yillarida o'tkazilgan mashqlardan tubdan farq qiladi. Yildan yilga jangovar sharoitlarga eng ko'p darajada yaqinlashtirilgan holda o'tkazilayotgan bunday o'quv mashg'ulotlari qo'shinlar tayyorgarligining butun tizimini tanqidiy tahlil qilish, har bir batalyon va vzzvodning imkoniyatlarini, shuningdek, jangovar vazifalarni bajarishda tanlangan usullarning maqsadga muvofiqligi va mavjud vaziyatga aynan mos kelishini bo'linmalarning bir-birining o'rnini qay darajada bosa olishi va shaxsiy tarkibning o'zaro yaqin bo'lgan turdosh mutaxassisliklar-

ni qanchalik puxta egallagani nuqtayi nazaridan bahoresh imkonini beradi.

Milliy armiyamizni shakllantirish va isloh qilish jarayonida to‘plangan tajribani barcha toifadagi harbiy xizmatchilar, chaqiriq yoshiga yetmagan o‘g‘lonlarimiz o‘rtasida har tomonlama targ‘ib qilish va aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni tashkil etishda keng qo‘llash faoliyatimizning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Armiya-da xizmat qilish yosh avlodimiz uchun alohida ma’no-mazmunga ega bo‘lib, uning nufuzi tobora ortib bormoqda. Bunday xizmatning jozibadorligi faqat yaratib berilayotgan imtiyozlar va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va moddiy jihatdan yuqori darajada ta’minlangani bilangina bog‘liq emas, albatta. Bu, avvalambor, armiya yosh avlodimiz uchun haqiqatan ham mardlik va mustahkam irodani, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini, Vatanimizga sevgi va sadoqat hislarini tarbiyalaydigan hayot maktabiga aylangani bilan izohlanadi.

Mustaqillik yillarda har tomonlama tayyorgarlikka ega va armiyada chiniqish mактабини о‘таган, har qanday fursatda Vatan himoyasi uchun tayyor bo‘lgan butun bir avlod voyaga yetdi va mustahkam oyoqqa turdi, deb g‘urur va iftixor bilan ta’kidlashimiz mumkin.

Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta’minalash, ularning ijtimoiy-maishiy, yashash va xizmatni

o'tash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish alohida ahamiyatga molik vazifa bo'lib qolmoqda. O'z hayotini ushbu sharaflı kasbga bag'ishlagan har bir harbiy xizmatchi yaxshi bilishi shart: uning muammolari e'tiborsiz qolmaydi va oilasining tinchligi va farovonligi ishonchli ravishda kafolatlangan.

Yurtimizda 2015-yilning «Keksalarни e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi bizdan urush qatnashchilari va Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik, chinakam insонiy mehr va e'tibor ko'rsatishga qaratilgan humumat qarorlari va davlat dasturlarini so'zsiz bajarishni talab qiladi.

Bugungi kunda ko'plab muhtaram faxriylar va ustozlarimiz o'zining noyob tajribasi, bilim va malakasini Vatan himoyachilarining yangi avlodiga o'rgatib, mamlakatimizni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda.

Shuni unutmasligimiz kerakki, harbiy xizmatchilarning har jihatdan farovon hayoti – mamlakatimizda harbiy xizmatning nufuzi va obro'-e'tibori naqadar yuksak ekanini namoyon etadigan eng yorqin ko'rsatkichdir.

Hurmatli vatandoshlar!

Bugungi kunda bizning yaqin va olis yon-attrofimizda vujudga kelayotgan vaziyatga baho berar

ekanmiz, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahlidlarning ko'lami kengayib borayotganini, ya'ni, paydo bo'layotgan qarama-qarshiliklarni hal etishda kuch ishlatishga zo'r berish ustunlik qilayotgani, xomashyo resurslari va kommunikatsiyalar ustdan nazorat qilish bo'yicha geosiyosiy raqobatning oshgani, yadro texnologiyalari va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, xalqaro terrorizm va ekstremizmning keng tarqalayotgan ekspansiyasining faollashuvi, millatlar va konfessiyalararo mojarolarning kuchayayotganini e'tirof etmaslik mumkin emas.

Dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelayotgan xavf-xatar, nizo va ziddiyatlar hamda qarama-qarshiliklar tobora kuchayib borayotganini, ular tinch yo'l bilan hal etilmasdan, aksincha, keskinlaysayotganini afsus bilan tan olishga majburmiz.

AYSAF deb nom olgan tinchlikparvar kuchlarining Afg'onistondan olib chiqib ketilishi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar uchun jiddiy sinovga aylanmoqda. Iroqdagi achchiq tajriba yaqqol ko'rsatganidek, Afg'onistonda yuzaga keladigan har qanday bo'shliqni bu mintaqaning katta hududiga o'zining vayronkor ta'sirini yoyishga qodir bo'lgan turli buzg'unchi va terrorchi guruhlar, fanatik kuchlar qisqa fursatda egallab olishi mumkin.

Bugungi kunda noan'anaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o'zgartirmoqda

va informatsion-psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug‘dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma’naviy-axloqiy asoslariga ta’sir o’tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalardan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma’naviy qadriyat va an’analaramizga mutlaqo zid bo‘lgan buzg‘unchi g‘oya va tushunchalar ni yoshlarimizning ong-u tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.

Shuning uchun mintaqamizda va butun dunyoda murakkab va oldindan aytib bo‘lmaydigan vaziyat vujudga kelgan bir sharoitda hushyor va ogoh bo‘lish, erishilgan natijalardan xotirjamlik tuyg‘usiga berilmaslik, Qurolli Kuchlarimizni yanada izchil isloh qilish bo‘yicha qat’iy sa’y-harakatlarmizni davom ettirish, chegaralarimizda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan barcha urinislarning oldini olish borasida milliy armiyamizning tayyorgarligini kuchaytirish, biz tanlab olgan taraqqiyot yo‘liga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzkor harakatlarga o‘z vaqtida va munosib zarba berish o‘ta muhim, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tinchliksevar siyosatiga hamisha sodiq bo‘lib kelganini va shunday bo‘lib qolishini yana bir bor ta’kidlash zarur. Bizning Harbiy doktrinamiz mudofaa xususiyatiga ega bo‘lib, Qurolli

Kuchlarimizni mustahkamlash, birinchi navbatda, davlat suvereniteti va mamlakatimiz hududiy yaxlitligini, odamlarimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilishga yo'naltirilgandir. Mamlakatimiz Mudofaa doktrinasiga ko'ra, bizning armiyamiz O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi harbiy harakatlar va operatsiyalarda ishtirok etmaydi.

Qadrl do'stlar!

Mana shu qutlug' bayram ayyomida siz, azizlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 23 yilligi bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman. Barcha harbiy xizmatchilar – askar va serjantlar, ofitser va general-larga, shuningdek, Qurolli Kuchlarimiz faxriylariga, mutaxassis fuqarolarga, o'z taqdirini ona Vatanimizni himoya qilishdek muqaddas, sharaflı va mas'uliyatli burchni ado etishga bag'ishlagan barcha-barcha insonlarga fidokorona xizmatlari uchun samimiyl minnatdorlik bildiraman.

Yangi – 2015-yilda barchangizga mustahkam sog'liq, baxt va omad yor bo'lsin!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni.
2015-yil 13-yanvar*

**2015-YILDA IQTISODIYOTIMIZDA TUB
TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA
OSHIRISH, MODERNIZATSIYA VA
DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARINI
IZCHIL DAVOM ETTIRISH HISOBIDAN
XUSUSIY MULK VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKKA KENG YO'L OCHIB
BERISH – USTUVOR VAZIFAMIZDIR**

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga qo'yilgan asosiy masala – bu O'zbekistonning o'tgan 2014-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va mamlakatimizning 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlab olishdan iborat.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb

70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat budgeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014-yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash das-turlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma

mablag‘larni to‘ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi.

So‘nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, agar 2011-yilda mammalakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko‘rildi.

O‘tgan 2014-yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mammalakatimizning oltin-valuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko‘paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda.

2014-yilda mazkur Jamg‘arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik subyektiga o‘z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo‘yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatildi.

Jamg‘arma ko‘magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida o‘tgan yili qiymati 840 million dollardan zi-yod tovarlar eksport qilindi.

Jamg‘arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o‘rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha faol yordam berilmogda.

Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz.

Mulkni ro‘yxatga olish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta‘minoti tarmoqlariga ulanishda «yagona darcha» tamoyilini amaliyatga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlari sezilarli darajada soddalashtirildi. **Bugungi**

kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.

Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko‘p soni ilgarigi 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo‘ldi.

2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so‘mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p, shu jumladan, 2 trillion so‘mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o‘tgan yilga qaraganda 39 foiz ko‘pdir. So‘nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko‘paydi.

Xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslari dan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini ko‘paytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, 2014-yilda ular tomonidan Respublika Tovar-xomashyo birjasida qariyb 3 trillion so‘mlik yoki 2013-yilga nisbatan 1,6

barobar ko‘p xomashyo va materiallar sotib olindi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlar birja savdolari orqali o‘zлari ishlab chiqargan 1 trillion 500 milliard so‘mlik mahsulotni sotdi, bu ko‘rsatkich 2013-yilga qaraganda 1,7 barobar ko‘pdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlan-tirishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili, fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi, ular-ning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000-yilga nisbatan 2 barobar ko‘pdir.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o‘sdi.

2014-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o‘rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o‘rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu soha-sida ish bilan band bo‘lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000-yilda bu ko‘rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirla-rimiz o‘zining yuksak samarasini bermoqda.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan yalpi ichki mahsulot hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning 190 ta davlati orasida 2010-yildagi 72-o'rindan 66-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimiz 2014-yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish borasida esa 61 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi o'nta mamlakat qatoridan joy oldi.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan **investitsiya siyosati** yuritish eng muhim omil hisoblanadi.

2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan zi-yodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtdan uch qismi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy investitsiyalarning yildan yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag‘ishlaydi. Birgina o‘tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o‘sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi.

O‘tgan yili tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati ham kengaydi. Ular tomonidan 1 milliard 700 million dollar yoki 2013-yilga nisbatan 20 foiz ko‘p investitsiyalar yo‘naltirildi.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig‘i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta’minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda.

2014-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiyligi qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng

bo‘lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Ularning qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas’uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo‘yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to‘liq miqyosda modernizatsiya qilish», «Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi «Mang‘it» mas’uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa obyektlarni tilga olish mumkin.

O‘tgan yilda yiliga 25 milliard kub metr gazni uzatish imkonini beradigan «Markaziy Osiyo – Xitoy» gaz quvurining 1 ming 830 kilometr uzunlikdagi uchinchi tarmog‘i ishga tushirildi.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi,

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonası, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarни rivojlan-tirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to‘liq respublikamiz mablag‘lari hisobidan barpo etilmoqda.

Yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy etti-rish sanoatni jadal rivojlantirish va uning salo-hiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 2014-yilda umumiy foydalanish uchun mo‘ljallangan 540 kilometr avtomobil yo‘lini qurish va rekonstruk-siya qilish ishlari yakunlandi. 116 kilometrdan iborat ikki polosali yo‘l kengaytirilib, to‘rt po-losali qilib qayta qurildi, bu esa, o‘z navbatida, ushbu yo‘llarda qatnovni 3 barobar oshirish im-konini berdi.

O‘tgan yili temiryo‘llar qurish, rekonstruk-siya qilish va elektrlashtirish, yuk va yo‘lovchi tashiydigan temiryo‘l transportini qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalgalashish maqsadida 630 million dollardan ziyod mablag‘ o‘zlashtirildi.

Bu mablag‘ning yarmidan ko‘pi «Angren – Pop» elektrlashtirilgan temiryo‘l liniyasini barpo etish loyihasini jadal sur’atlarda davom ettirishga yo‘nal-

tirildi. Shu bilan birga, 240 kilometrlik temiryo‘l qayta tiklandi, o‘zimizda 650 ta yuk va 20 ta yo‘lovchi tashish vagonlari ishlab chiqarildi, Qarshi temiryo‘l vokzali rekonstruksiya qilindi. «Toshkent – Samarqand» va «Samarqand – Toshkent» yo‘nalishi bo‘yicha qatnaydigan «Afrosiyob» tezyurar poyezdida 2014-yilda 180 mingdan ziyod yo‘lovchi o‘z manziliga yetkazildi.

Aviatsiya transportida yuk tashish hajmi 126 million 300 ming tonna-kilometrni tashkil qildi yoki 2013-yilga nisbatan 8,5 foizga oshdi. 2014-yilda «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasi dunyodagi 270 dan ortiq avia-kompaniyani o‘zida birlashtirgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA)ning teng huquqli a’zosi bo‘ldi.

Navoiy shahri aeroporti negizida tashkil qilin-gan xalqaro logistika markazi Yevropa, Hindiston, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoga aviatsiya orqali yuk tashishni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu markaz foydalanishga topshirilganidan buyon o‘tgan vaqt mobaynida 200 ming tonnadan zi-yod yuk tashildi.

Qadrli do‘srlar!

Qishloq xo‘jaligida erishilgan yutuqlar haqida gapirganda, shuni alohida ta’kidlashni istardim-

ki, bu sohada biz qo‘lga kiritgan ulkan marralar, avvalo, fermerlarimiz, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari va qishloq taraqqiyoti bilan bog‘liq tarmoqlarda mehnat qilayotgan yuz minglab yurt-doshlarimizning fidokorona mehnati, bilim va tajribasining samarasidir.

2014-yilda qishloq mehnatkashlari qanday og‘ir sinovlarga duch kelganini hammamiz yaxshi bilamiz. Sovuq kunlar odatdagidan ko‘proq bo‘ldi. Bu, ayniqsa, bahor oylarida yanada ko‘proq sezildi. Yozdagи suv tanqisligi, vegetatsiya davridagi kuchli shamol va bo‘ronlar, kuzning ancha erta va salqin kelgani soha mehnatkashlari uchun ko‘plab jiddiy muammolarni tug‘dirdi.

Ana shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, dehqon va fermerlarimizning mardonavor mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarixida birinchi marta 8 million 50 ming tonnalik yuksak g‘alla xirmoni bunyod etildi.

Fursatdan foydalanim, ushbu yuksak minbardan turib, paxtakor va g‘allakorlarimizga, barcha-barcha qishloq mehnatkashlariga qahramonlik namunasi bo‘lgan, mashaqqatli va sharafli mehnati uchun o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan yana bir bor

chuqur minnatdorlik izhor etishni ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Ma'lumki, biz qishloq xo'jaligini isloh etishda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashga alohida e'tibor bermoqdamiz. Bu vazifa eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq mehnatkashlari, balki butun O'zbekistonimiz aholisining moddiy farovonligini oshirish beba ho boyligimiz bo'lgan yerimizning unum dorligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir.

O'tgan davrda bu borada ko'rilgan choralar natijasida 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandı. Bu jami ekin ekiladigan maydonlarning yaridan ziyodi demakdir. Ana shunday ishlar tufayli sizot suvlari eng og'ir darajada, ya'ni, 2 metrgacha yuzada joylashgan yerlar qariyb 500 ming gektarga yoki uchdan biriga kamaydi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan yerlar esa 100 ming gektarga yoki 12 foizga qisqardi. **Melioratsiya tadbirlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 2–3 sentner, boshoqli don**

ekinlari bo‘yicha esa 3–4 sentnerga oshgani bu borada erishgan eng muhim natijamizdir.

Agarki bu raqamlarni gektarlarga ko‘paytiradigan bo‘lsak, amalga oshirgan ishlarimizning samarasi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligini tarkibiy o‘zgartirish haqida so‘z yuritganda, avvalo, paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish va boshoqli don ekinlari, sabza-votchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan **ekin maydonlari tarkibida o‘zgarishlar** amalga oshirilganini qayd etish joiz.

Masalan, Andijon, Kosonsoy, Chortoq, O‘rta Chirchiq, O‘zbekiston va Buvayda tumanlarida paxta ekin maydonlari qisman qisqartirildi, Asaka, Yangiyo‘l va Jomboy tumanlarida paxta ekishdan butunlay voz kechildi. Shu asosda paxtadan bo‘sagan 30 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan yerda don ekinlari, sabzavot, kartoshka yetishtirish yo‘lga qo‘yildi, bog‘ va uzumzorlar barpo etildi. **Natijada 2012–2014-yillarda paxta yetishtirish hajmi saqlangan holda, sabzavot yetishtirish 16,3 foiz, poliz ekinlari 16,6 va meva yetishtirish qariyb 21 foizga o‘sdi.**

Yangi bog‘ va uzumzorlar barpo etish bora-sida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to‘xtalib o‘tmoxchiman.

2010–2014-yillar davomida qariyb 50 ming hektar maydonda yangi bog‘lar, jumladan, 14 ming gektardan ortiq maydonda intensiv bog‘lar, 23 ming gektarda uzumzorlar yaratildi. Intensiv bog‘lar tashkil etish uchun Polsha, Serbiya va boshqa mamlakatlardan 6 milliondan ziyod ko‘chat olib kelindi.

Bunday bog‘larning ko‘plab afzalliklarga ega ekani bugungi kunda amalda namoyon bo‘lmoqda. Misol uchun, oddiy mevali daraxt ekilganidan boshlab dastlabki hosilini berguniga qadar odatda 4–5 yil o‘tadi. Intensiv bog‘dorchilikda esa daraxt ikkinchi – uchinchi yildayoq hosilga kiradi. 2011-yilda yaratilgan bog‘larning har gektaridan 2014-yilning o‘zida o‘rtacha 300 sentnerdan hosil olingani va hosildorlik yil sayin ko‘payib borayotgani buni tasdiqlaydi.

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash hisobidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o‘tish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Shu maqsadda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tizimi butunlay qayta tashkil etildi, «O‘zagrosanoatmashxolding» kompaniyasi tuzildi, soha kor-

xonalari optimallashtirilib, ular qishloq xo‘jaligida talab etilayotgan aniq turdagি texnika va mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi.

Toshkent traktor zavodining optimallashtirilgan ishlab chiqarish maydonlarida yangi korxona – «Toshkent qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodi» mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi. Bu yerda traktorlar, tirkama va paxta terish mashinalarining yangi modellari ishlab chiqarilmoqda.

Hurmatli majlis qatnashchilar!

Barchamizga ayonki, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda.

2014-yilda bozor xizmatlari ko‘rsatish hajmi 15,7 foizga o‘sdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 foizdan 54 foizga oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 50 foizdan ortig‘i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda. Har yili yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining, avvalambor, kasb-hunar kollejлari bitiruvchilari uchun tashkil etilayotgan ish

o‘rinlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i aynan mazkur soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bu borada xizmatlar tarkibi ham tubdan o‘zgarib borayotganini ta’kidlash joiz. Mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, kabelli televizion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo‘jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarни ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi xizmat turlari aholi o‘rtasida tobora ommalashib bormoqda.

So‘nggi besh yilda an’anaviy maishiy va komunal xizmatlar ulushi 16 foizdan 9,5 foizga tushdi, yuqori texnologiyalar asosidagi xizmatlar ulushi esa 21,2 foizga qadar ko‘tarildi.

Yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar orasida keyingi yillarda **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** boshqa sohalarga nisbatan jadal rivojlanayotganini alohida ta’kidlash joiz. Ushbu xizmatlar hajmi so‘nggi besh yilda 3,3 barobar, o‘tgan yili esa 24,5 foizga o‘sdi.

Iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining alohida va muhim o‘rin tutishini hisobga olib, 2013-yilda 2013–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. **Ushbu**

dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyi-halar 2014-yilda mamlakatimizda barcha avtomat telefon stansiyalarini raqamli tizimga o'tkazishni yakunlash uchun zamin yaratdi. Bu esa xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Aholi, jumladan, mamlakatimizning olis hududlarida yashayotgan aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2014-yilda yurtimizda, xususan, Qo'ng'irot, Boysun, Uzun, Mo'ynoq kabi olis tumanlarda 2 ming kilometrdan ziyod optik tolali aloqa tarmoqlari barpo etildi.

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Bugungi kunda ular 10 million 200 ming kishidan oshdi yoki mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Respublikamizda internetning o'tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, internetga ulanish tezligi esa 1,5 marta ortdi. Shu bilan birga, undan foydalanish narxi 2013-yilga nisbatan 11,6 foizga kamaydi.

O'tgan yili 500 dan ortiq yangi bazaviy mobil aloqa stansiyalari o'rnatilishi hisobidan aloqanining ushbu zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslan-

gan tizimi abonentlari soni qariyb 20 million kishini tashkil etdi, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi qariyb 26 foizga ko'paydi.

Ayni paytda qishloq joylarda xizmatlar sohasi hali-beri yetarlicha rivojlanmaganini ham aytish joiz. Qishloqda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi shahardagidan hali-hamon sezilarli darajada ortda qolmoqda. Ayni paytda qishloq joylarda aloqa xizmati, bank-moliya va kommunal xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ham unutmaslik darkor.

Qadrli do'stlar!

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darjasini va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi.

Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi to-bora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Bu haqda so‘z yuritganda, sobiq Ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O‘zbekistonda daromadlar darajasi bo‘yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta’kidlash lozim. Eng ko‘p va eng kam daromad oladigan aholi o‘rtasidagi farq 2000-yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Bu o‘rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni hisoblangan bu ko‘rsatkich xalqaro me’yorlarga ko‘ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o‘tish lozim.

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalilanadi. Misol uchun, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko‘rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35–0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o‘zgarib bormoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, bugungi kunda yurtimizdagi oilalarning 94 foizi xolodilniklar, 84 foizi turli oshxona elektr jihozlariga, 63 foizi

kir yuvish mashinalari, yarmidan ko'pi kompyuter, changyutkich, mikroto'lqinli pechlarga ega, uchdan bir qismi esa konditsionerlardan foydalanmoqda.

Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari – plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6 barobar, yengil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5 marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdig'idir. **Bugungi kunda deyarli har ikki oiladan biri shaxsiy transport vositasiga ega va bu mashinalar aynan yurtimizda ishlab chiqarilgani barchamizga mammuniyat va g'urur bag'ishlaydi.**

Qisqa vaqt ichida hayotimizga, deyarli har bir oilaga eng zamonaviy mobil telefonlarning bir necha yangi avlodi, noutbuklar, tyuneler, DVD pristavkalari, sun'iy yo'ldosh orqali faoliyat ko'rsatadigan va kabelli televideniye, duxovkali elektr pechlar, muzlatkich kameralar, suv isitish boylerlari va boshqa mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar kirib keldi. Bugun biz bu narsalarga unchalik e'tibor ham bermaymiz va ularni odadagi buyumlar sifatida qabul qilamiz. Holbuki, yigirma yil avval bunday ashyolar haqida hech narsa bilmasdik, hozirgi kunda esa ularsiz hayo-

timizni tasavvur ham qilolmaymiz. Eng muhimi, ushbu mahsulotlarning aksariyatini mamlakatimiz korxonalarida o‘zimiz ishlab chiqarayapmiz.

Fuqarolarimizning uy-joy sharoitlari ham tubdan yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimizning barcha hududlarida uy-joylar qurish sur’ati va ko‘lami yil sayin kengaymoqda. Mustaqillik yillarida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,9 barobar oshdi.

Aholi soni ko‘payib borayotganiga qaramasdan, **odamlarni uy-joy bilan ta’milashda jon boshiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydonini 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshirishga erishildi.** Uy-joy fondining deyarli barchasi xususiy mulk sifatida aholi tasarrufida ekanini aytish lozim. Vaholanki, ko‘plab rivojlangan davlatlarda oilalarning yarmidan ko‘pi ijaraga olingan xonodon va uylarda yashaydi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibda uy-joylar qurish bo‘yicha maqsadli davlat dasturining amalga oshirilishi alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu dastur doirasida **2014-yilda 11 mingta yangi turarjoylar barpo etildi.**

Bugungi kunda shaharlar, ayniqsa, qishloqlarda barpo etilgan, shiftlari baland, xonalari shinam va yorug‘ yangi uylar pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, ularni bunyod etishda zamonaviy qurilish va tom

yopish materiallaridan foydalanilmoqda, ular zarur xo‘jalik binolariga ega. Bunday qishloq uylari sifati va sharoitining qulayligi bilan hech bir jihatdan shahardagi uy-joylardan aslo qolishmaydi.

Shaharlarimizni kompleks qurish bo‘yicha qabul qilingan dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Urganch, Qarshi, Termiz, Samarqand va boshqa ko‘plab shaharlarimiz qiyofasi tubdan o‘zgarib bormoqda.

Buyuk Britaniyaning nufuzli «Ekonomist» jurnalining bergen bahosiga ko‘ra, O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 shahar orasida 58-o‘rinni egalladi va jahon tasnifida yashash uchun eng qulay bo‘lgan yirik shaharlar qatoriga kiritildi.

2014-yilda ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta’minalash va rivojlantirishga davlat budjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo‘naltirilmoqda.

Ta’lim sohasida o‘quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O‘tgan yili hammasi bo‘lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar

uchun qariyb 550 milliard so‘m sarflandi. Ushbu mablag‘larning 120 milliard so‘mdan ortig‘i ta’lim muassasalarini o‘quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta’minlash uchun ajratildi.

2011–2016-yillarda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta’lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha qiymati 230 milliard so‘mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O‘zbekiston Milliy universitetida yangi o‘quv binolari barpo etildi.

2014-yilda bir qator yangi institut va fakultetlar, o‘quv-ilmiy markazlar ochildi. Toshkent tibbiyat akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlardagi tibbiyat oliy o‘quv yurtlari negizida Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarda filiallariga ega bo‘lgan Toshkent davlat stomatologiya instituti tashkil etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti ochildi, shuningdek, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari markazi tashkil qilindi.

Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Inha universiteti tashkil etildi.

Mazkur oliy o‘quv yurtida axborot-kommunika-tsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy ta’midot mahsulotlari ishlab chiqarish, ax-borot tizimlari va kompyuter tarmoqlarini boshqa-rish bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

O‘tgan yili **oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi, ya’ni test sinovlariga informatika bo‘yicha savol-lar kiritildi, mutaxassislikka oid fanlar bo‘yicha baholash ballari oshirildi.** Bu esa oliy o‘quv yurtlariga tanlagan kasbini hisobga olgan holda, eng yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan abituriyentlarni saralab olish imkonini beradi.

Sog‘liqni saqlash sohasida qishloq vrachlik punktlarining faoliyati tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Bunday tibbiyat maskanlarining sonini yanada optimallashtirish, zamonaviy diagnostika va tib-biyot asbob-uskunalari bilan jihozlash, malakali kadrlar bilan ta’minlash va ularning mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish bo‘yicha chora-tad-birlar amalga oshirildi. Optimallashtirish natijasida kamquvvatli va samarasiz faoliyat ko‘rsatayotgan 243 ta qishloq vrachlik punkti tugatildi.

Tajriba tariqasida Bo‘stonliq, O‘zbekiston, Shah-risabz, Xiva va Jomboy tumanlarida patronaj tib-

biyot hamshirasining o‘z funksional vazifalarini nechog‘liq to‘liq bajarishi va faoliyatining yakuniy natijalaridan kelib chiqqan holda, uning ish samaradorligini reyting asosida baholash tizimi joriy etildi. Bu yil ushbu tajribani mamlakatimizning yana 18 ta tumanida qo‘llash mo‘ljallanmoqda.

Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, sog‘-lom avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz va jamiyatimizning eng muhim ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu borada skrining markazlari, viloyat ko‘ptarmoqli bolalar shifoxonalari, shuningdek, ix-tisoslashtirilgan pediatriya tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va zarur jihozlar bilan ta’minalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Onalar va bolalar tizimli asosda tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilmoqda.

Faqat 2014-yilda 6 million 500 ming nafar maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o‘quvchilari chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Bu esa kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularni samarali davolash imkonini bermoqda.

Ana shunday amaliy ishlarimiz natijasida so‘nggi o‘n yilda rivojlanishida tug‘ma nuqsonlari bo‘lgan bolalar soni 1,3 barobar kamaydi. 6–15 yoshli bolalar orasida o‘tkir yuqumli kasalliklar bilan og‘rish

34,4 foizga, pnevmoniyaga chalinish 49,7 foizga, bronxit bilan xastalanish 32,8 va skolioz bilan kasal-lanish 32,7 foizga kamaydi.

2014-yilda 133 ta tibbiyot muassasasi yangit-dan qurildi va rekonstruksiya qilindi. Guliston shahridagi viloyat onkologiya dispanseri, Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy markazi, Andijon shahridagi ko‘ptarmoqli viloyat tibbiyot markazi, Nukus shahridagi Respublika silga qarshi kurash dispanseri va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ushbu maqsadlar uchun budgetdan 400 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ va qariyb 30 million dollarlik xorijiy kredit va grant mablag‘lari yo‘naltirildi.

Koreya Respublikasi bilan yaqin hamkorlikda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlari hududida yagona bo‘lgan, eng yuqori texnologiyalar asosidagi tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlanadigan ko‘ptarmoqli zamonaviy bolar tibbiyot markazi qurilishi boshlanganidan xabaringiz bor, albatta.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim o‘rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e’tibor qaratmoq-damiz. Bu borada sport inshootlarini har tomonlama rivojlantirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan

jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda.

2014-yil mobaynida faqat Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan 18 ta namunaviy sport obyekti va 73 ta maktab sport zali barpo etildi, 24 ta obyektda qariyb 100 milliard so‘mlik rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda.

Nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilarini erishayotgan g‘alabalar tobora ko‘payib bormoqda. 2014-yilda sportchilarimiz 849 ta medalni qo‘lga kiritdi, ularning 266 tasi oltin medallardir.

Bu haqda gapirganda, o‘tgan yilning kuzida Janubiy Koreyada bo‘lib o‘tgan, 45 davlatdan 13 ming sportchi qatnashgan XVII Osiyo o‘yinlarida sportchilarimiz 61 ta, jumladan, 12 ta oltin medalni qo‘lga kiritib, O‘zbekiston terma ja-moasi eng kuchli o‘nta mamlakat qatoridan joy olganini mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardim. Sportchilarimiz ana shunday yutuqlari bilan Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga munosib hissa qo‘shdilar va ularning qo‘lga kirit-

gan marralari bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Aholi bandligini ta'minlash, avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha zarur sharoitlar yaratish ijtimoiy siyosatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida **2014-yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir.**

O'tgan yilda mamlakatimiz ta'lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. Shunisi quvonarlik, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o'z kelajagini kichik biznesda ko'rmoqda.

O'zingiz o'ylang, bir yilning o'zida shuncha yoshlarimizni, o'zimizning farzandlarimizni hayotda o'z o'rmini topishi uchun sharoit yaratib, qo'llab-quvvatlaganimiz – bu bizning eng katta yutug'imiz emasmi?

Biz o‘tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, «Kecha kim edigu bugun kim bo‘ldik?» degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o‘zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtida «Ertaga kim bo‘lishimiz, qanday yangi, yuksak marralarni egallashimiz kerak?» degan savol ustida o‘ylashimiz, nafaqat o‘ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim.

Bu borada, ish beruvchilar va o‘quvchilarni keng jalb etgan holda, mehnat yarmarkalari, biznes g‘oyalar tanlovlari o‘tkazilayotgani hamda ularning g‘oliblariga o‘z xususiy ishini boshlash imkonini beradigan imtiyozli kreditlar ajratilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘z biznesini yo‘lga qo‘yishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga qariyb 200 milliard so‘mlik imtiyozli mikrokreditlar ajratildi. Bu 2013-yilga nisbatan 1,4 barobar ko‘pdir.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo‘layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o‘zgarayotgani, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, dunyoning ko‘plab davlatlarida investitsiya faol-

ligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Shundan kelib chiqib, 2015-yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sa-noat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Biz o'z oldimizga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini qo'ymoqdamiz.

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54,5 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Ayni paytda inflatsiya darajasi 5,5–6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2014-yilga qaraganda sezilarli darajada pastdir.

2015-yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AQSH dollari hisobida 15 milliard 960 million dollarni yoki 2014-yilga nisbatan 110,1

foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagি ulushi esa 23,1 foizga yetadi.

Ushbu mablag‘larning 74,5 foizga yaqini ish-lab chiqarish obyektlari qurilishiga, 43,1 foizi as-bob-uskunalar sotib olishga yo‘naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo‘yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko‘-payadi.

Yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari har tomonlama chuqur va puxta o‘ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga daromad solig‘i stavkasini 7,5 foizga kamaytirish kiradi. Shu bilan birga, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi, sanoat korxonalarida bo‘lganidek, 6 foizdan 5 foizga tushiriladi.

2010-yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga

muvofig demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat va ijtimoiy institutlar hamda sud tizimini isloh etish borasidagi vazifalarni izchil amalga oshirish eng ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valuta daromadlari tushumini ta’minalash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o‘rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o‘sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikasiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo‘lgan tarmoq va korxonalarini jadal rivojlantirish hamda aniq yo‘naltirilgan holda qo‘llab-quvvatlashni ta’minalash zarur.

Ma’lumki, O‘zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagи xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko‘p marotaba boshidan kechirgan.

Shu bilan birga, to‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta’minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o‘zlashtirish asosida, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz.

Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko‘plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin.

Bu o‘rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarimtayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo‘lgan tayyor to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash materiallari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish haqida bormoqda.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda tegishli vazirlik va idoralar, uyushmalar, kompaniyalar,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ishtiroki-da 2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qiliшни ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va qabul qilsin.

Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to‘liq erkinlik berish, bu yo‘lda g‘ov bo‘lib turgan barcha to‘sinq va cheklowlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir. Barqaror iqtisodiy o‘sish va mamlakatimizning kelajak istiqboli, aholining hayot darajasi va sifati ko‘p jihatdan ayni mana shu eng ustuvor vazifaning qanday hal etilishiga bog‘liq.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida xususiy mulk va investitsiyalar daxlsizligini ta’minalashning ishonchli huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratish va ularning himoyasi uchun ko‘p ish qilindi. Mulk-dorlarga zarur sharoit va kafolatlar berish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko‘rsatish sohasi singari tarmoqlar, uy-joy fondi to‘liq xususiy mulk egalari tasarrufiga o‘tkazildi. Iste’mol tovarlari ishlab chiqaradigan, oziq-ovqat, tikuvchilik mahsulotlari, to‘qimachilik, charm-poyabzal, mebel

va farmatsevtika sanoati tarmoqlarida davlatning ulushi anchaga kamaytirildi.

Hurmatli do'stlar!

Bugun hech kimga sir emaski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan har tomonlama ustunligini ko'rsatmoqda.

Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas'uliyat hissi butunlay boshqacha ekani bar-chamizga yaxshi ma'lum.

Xususiy sektorda mablag'lardan samarali foy-dalanilmoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdarligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishila-yotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarining asosiy maqsadidir.

Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hanuz turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda,

mansabdorlar tomonidan ularning qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog‘liq ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Shu sababdan biz xususiy mulk munosabatlari borasidagi qarashlarimizni mutlaqo o‘zgartirish masalalarini qayta ko‘rib chiqishimiz zarur. Shu asosda mustahkam huquqiy bazani xususiy mulk manfaatlariga moslashtirishimiz, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirishimiz, davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy tayanchiga aylanadigan xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishimiz kerak.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish yo‘lidagi g‘ov va to‘sqliarni olib tashlashga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida, avvalambor, xususiy tadbirkorlar uchun xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq va oshkora bo‘lishini ta’minlash zarur. Buning uchun esa resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish lozim.

Yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan muntazam chop etiladigan, birinchi navbatda, Juhon bankining «Biznes yuritish» deb nomlangan ma’ruzasida e’lon qilinayotgan bizning biznes yuritish bo‘yicha ko‘rsatkichlarimizni tizimli asosda

chuqur o‘rganish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir aniq chora va takliflar ishlab chiqish, avvalo, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqa manfaatdor idoralarning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. **Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lishi lozim.**

Shuni tan olishimiz kerakki, xususiy mulkni rivojlantirish uchun uning ochiqlik darajasini va bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini aniqlash borasidagi baholash mezonlari haligacha ishlab chiqilmagan. Iqtisodiyot vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Markaziy bank, Davlat statistika qo‘mitasi va boshqa iqtisodiy idoralar bu masala bilan jiddiy shug‘ullanishi zarur.

Ishonchim komilki, bu vazifalarning amalga oshirilishi, o‘z navbatida, xususiy biznesni rivojlantirish, jamiyatimizdagi barqarorlikning mustahkam asosi hisoblangan mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirishda va mustahkamlashda rag‘batlanti-ruvchi yangi omil va imkoniyatlar yaratadi.

Uchinchidan. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta’kidlashni o‘rinli, deb bilaman.

Iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushining mavjudligi va samaradorligini, boshqacha aytganda, «iqtisodiyotda davlat ishtiroki»ni har tomonlama tanqidiy tahlil qilish va shu asosda iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy sektor ishtirokinin sezilarli darajada kengaytirish bo‘yicha vazifalarimizni belgilab olish vaqt keldi.

Birinchi navbatda, avvalo, zarar ko‘rib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor, mahsulotlariga talab yo‘qligi sababli to‘la quvvat bilan faoliyat ko‘rsatmayotgan davlat korxonalarini professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan «nol» qiymatida sotish zarur.

Bu o'rinda so'z iqtisodiyotning real tarmoqlaridagi texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish va ularning raqobatdoshligini oshirish talab etiladigan korxonalardagi davlat aktivlari haqida bormoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu toifaga kiradigan tarmoqlar, birlashma va korxonalarining ro'yxati tasdiqlanishi lozim.

Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi davlat ulushi mavjud bo'lган barcha korxona va obyektlarni yana bir marta tanqidiy nuqtayi nazardan qayta inventarizatsiya qilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yili qabul qilingan «Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga qanday obyektlar kiritilmaganini aniqlashi va real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida davlat ishtirokini tubdan qisqartirishni nazarda tutgan holda, 2015–2016-yillarda davlat mulkini xususiy lashtirish bo'yicha yangi dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi zarur.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamонавиъ xalqaro

korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Eng avvalo, korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar-da, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda ham mulkchilikning mazkur shakli tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-lashtirish natijasida ayni paytda respublikamizda 1 ming 100 dan ortiq aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiylustav kapitali 11 trillion 700 milliard so'mdan ortiq bo'lib, so'nggi o'n yilda 5,3 barobar o'sdi.

Bugun shuni tan olish zarurki, aksiyalashtirish jarayonini rivojlantirish ko'laming o'sib borayotgani korporativ boshqaruv va aksiyadorlik jamiyat-lari faoliyatidan tushadigan daromadlarni taqsimlash tizimi hamda xususiy lashtirish jarayonining boshqa bir qator yo'nalishlarida hal etilmagan ko'plab muammolar mavjudligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bu, ayniqsa, aksiyalar paketlariga davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga taalluqlidir.

Bunday jamiyatlarda aksiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar kam hajmdagi aksiyalarga egaligi va aksiyalar paketlarining tarqoqligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda.

Buning natijasida ishlab chiqarish ustidan boshqaruvni ilgarigidek direktorlik korpusi amalga oshirmoqda. Ko‘p hollarda direktorlik korpusi, shuni ta’kidlashimiz kerakki, o‘z faoliyatida hali-beri eski tizim qolipidan chiqolmasligi, ishni zamon talab qiladigan usulda tashkil qilishdan uzoq bo‘lishi ko‘zga tashlanadi. Bunday holat boshqaruvchi kadrlarning yuqorida buyruq kutib o‘tirishiga, sustkashligi va tashabbus ko‘rsatmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Bugun mamlakatimizda shunday amaliy tajriba to‘plandiki, unga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida yurtimiz sarmoyadorlari bilan bir qatorda chet ellik investorlar aksiyalarga ega bo‘lgan multkchilik shakli eng maqbul bo‘lib, har jihatdan o‘zini oqlamoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning xorijiy investorlari ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxona muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ushbu kompaniyalar O‘zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma’lum.

O'zbekiston hududida to'liq chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Mazkur xorijiy kompaniyalar tajribalarini chuqur o'rghanishimiz va ularning tahlili asosida korxonalarimiz uchun korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalarini yaratishimiz, real iqtisodiyotning barsha tarmoq va sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini ayni shu asosda isloh qilgan holda, ularni amaliyotga faol joriy qilishimiz zarur.

Allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan, boshqaruvning sovet davriga xos eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi va lavozimlar nomenklaturasidan qat'iy voz kechishimiz, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan tijorat direktori, moliya direktori, mijozlar bilan ishlash va xaridlar bo'yicha loyiha menejeri va boshqa yangi lavozimlarni xalqaro amaliyotga mos ravishda, ularning mansab majburiyati va vazifalarini aniq belgilagan holda, keng joriy etishimiz lozim.

Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi barcha manfaatdor tuzilmalar ishtirokida asosiy lavozim va kasblarning yangi klassifikatorini ishlab chiqishi kerak. Aynan ana shunday klassifikator bugungi yangi avlod pro-

fessional kadrlarini tayyorlashning asosiy mezoniga aylanishi darkor.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahalliy-lashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishning eng muhim manbai va omilidir.

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar mavjud mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'mini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlay olishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mahalliylashtirish dasturlarini amalga oshirish borasida to'plagan tajribamiz bizning tashqi omil-larga bog'liqligimizni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarimizni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, valuta resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim rol o'ynashini amalda tasdiqlamoqda.

Sanoat ishlab chiqarishida mahalliylashtirilgan mahsulotlar hajmining jadal o'sib borayotgani buning amaliy tasdig'idir. 2005-yilda mahalliylashtiril-

gan mahsulotlar 9,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilda bu ko‘rsatkich qariyb 20 foizga yetdi.

Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga barcha manfaat-dor vazirlik, idora, uyushma va kompaniyalarni keng jalb etgan holda, 2015–2019-yillarga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va material-larni mahalliylashtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha dastur tayyorlash vazifasi topshiriladi.

Oltinchidan. Rivojlangan infratuzilmani tashkil etmasdan, birinchi navbatda, axborot-kommunikatsiya tizimi, yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya qurilishini taraqqiy ettirmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishga erishish mumkin emas.

Shu nuqtayi nazardan biz O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini 2013–2020-yillarda kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratishimiz darkor. Internet tarmog‘idan foydalanishning texnik imkoniyatlarini yanada oshirish, keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish va optik tolali aloqa tarmoqlarini qurish ishlarini davom ettirish, barcha hududlarni, shu jumladan, uzoq va chekka hududlarni raqamli televideniyega o‘tkazish ishlarini oxi-riга yetkazish zarur.

Vazirlar Mahkamasi ushbu dastur ijrosini qat’iy nazoratga olishi hamda vazirlik va idoralar, pudratchi tashkilotlar tomonidan 2015-yilga belgilangan vazifalarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlashi dar-kor.

O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kি radigan avtomobil yo‘llari uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayot-gan ishlarning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, «O‘zavtoyo‘l» davlat-aksiyadorlik kompaniya-si, Respublika yo‘l jamg‘armasi, Qoraqalpog‘is-ton Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga avtomobil yo‘llari qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, yo‘llar bo‘yidagi infratuzilmalarni rivojlantirish yuzasidan 2015-yil uchun belgilangan vazifalarni so‘zsiz bajarish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish vazifasi top-shiriladi.

Temiryo‘l kommunikatsiyalarini rivojlantirish borasida ham muhim vazifalar oldimizda turibdi. Yo‘lovchi va yuklarni ishonchli hamda uzlusiz tashishni ta’minlash maqsadida 2015-yilda 260 kilometr temiryo‘llarni qayta tiklash ko‘zda tutilmoqda. Sohada 13 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo‘ljallanmoqda. 124,1 kilometrlik «Angren – Pop» elektrlashtirilgan yangi temiryo‘lining qurili-

shi, 140 kilometrlik «Maroqand – Qarshi» va 325 kilometrlik «Qarshi – Termiz» temiryo'l uchast-kalarini elektrlashtirish, ikki tomonlama qatnovga ega bo'lgan «Jizzax – Yangiyer» elektrlashtirilgan temiryo'l tarmog'i qurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish kabi loyihalar shular jumlasidandir.

«O'zbekiston temiryo'llari» davlat aksiyadorlik temiryo'l kompaniyasi Iqtisodiyot vazirligi, Toshkent va Namangan viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda «Angren – Pop» temiryo'lining o'z vaqtida va sifatli qurilishi ustidan alohida nazorat o'rnatsin.

Hurmatli majlis qatnashchilar!

Ko'rib turganingizdek, oldimizda o'ta muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Ularni faqat o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga tayangan holda hal qilmasak, chetdan birov kelib hal qilib bermaydi. Eng muhimi, shu borada eskicha qolip va yondashuvlardan butunlay voz kechishimiz kerak. Bugungi zamonning talabi shuki, endi eskicha ishlab, eskicha yashab bo'lmaydi.

Bunday kayfiyat bilan yurgan odamlarni, avvalambor, rahbarlarni hayotning o'zi qabul qilmaydi. Bugungi kunda katta umid, orzu-maqsadlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deb belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan, mustaqil

fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo'lllab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak.

Ishonchim komilki, biz iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish hisobidan o'z oldimizga qo'ygan marralarga albatta erishamiz.

Qadrli do'stlar!

Aholi farovonligi va turmush darajasini muttasil oshirish bilan bog'liq masalalar doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalarini yana-da rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va bugungi kun talablari asosida jihozlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal rivojlantirish, aholini sifatli ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya tozalash tizimlari bilan ta'minlash biz uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlar uchun davlat budgeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltiriladi. Bu

o'tgan yilga nisbatan 4 trillion 100 million so'm yoki 22,5 foiz ko'p demakdir. Jumladan, ta'lif va ilm-fan sohasini rivojlantirishga 34,3 foiz, sog'liqni saqlash tizimiga 14,2 foiz mablag' sarflanadi.

Joriy yilda keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga, muhtaram faxriyalarimiz hayotiga daxldor muammolarni hal etishga alohida ahamiyat qaratiladi.

2015-yilga mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb nom berganimiz zamirida ham mohiyat e'tibori bilan ana shunday ezgu maqsadlar mujassam ekani, o'ylaymanki, barchamizga yaxshi ma'lum.

Hukumatimiz tayyorlayotgan dasturda keksa avlod vakillari, avvalo, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga ko'rsatiladigan tibbiy va ijtimoiy xizmat darajasi va sifatini oshirish, muhtojlarni yordamchi va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash, tumanlar va mahallalarda qariyalarimiz uchun muloqot markazlari, ularning qiziqishlariidan kelib chiqqan holda, turli klublar tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilishi lozim.

Muxtasar aytganda, bugungi tinch va obod hajotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo‘lgan mo‘tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insонiy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor.

Shu borada mahallalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining keksalar va nogiron-larga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatadigan tuzilmalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Bunda turli muassasa va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy ta’midot va tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur darajada nazorat qilish masalalari nazarda tutilishi kerak.

Aziz vatandoshlar!

Biz mamlakatimizni isloh etish va yangilash borasidagi ishlarimizni davom ettirish va yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini izchil yuksaltirib borish bo‘yicha 2015-yilda va undan keyingi yillarda o‘z oldimizga yuksak, ayni vaqtda aniq maqsad va vazifalarni qo‘ymoqdamiz.

Ishonchim komilki, ularning barchasi muqaddas va saxovatli zaminimizda yashayotgan, millati, tili

va dinidan qat'i nazar, har qaysi insonning manfaatlarga to'la javob beradigan, chuqur hayotiy asosga, amalga oshirishning real imkoniyatlariga ega bo'lgan vazifalardir.

Ana shunday maqsad-muddaolarimizning ro'yobga chiqishi, mamlakatimizda tinchlik-oso-yishtalik va totuvlik muhitining barqaror bo'lishi barchamizga, har birimizning o'z joyimizda bizga ishonib topshirilgan vazifani qay darajada mas'uliyat bilan ado etishimizga bog'liq ekanini unutmasligimizni istardim.

Mana shu ezgu maqsad yo'lida barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad yor bo'lishini tilayman.

*Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza.
2015-yil 16-yanvar*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING BIRINCHI MAJLISIDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, qadrli do'stlar!

Hurmatli Senat a'zolari!

Avvalambor, bugun siz, azizlar bilan uchrashib turganimidan va shu fursatdan foydalanib, barchangizga o'zimning chuqur hurmatimni bildirish, sihat-salomatlik, bardamlik, tinchlik-omonlik tilashdan baxtiyormen.

Sizlarni saylovchilarimiz, xalqimizning yuksak ishonchini qozonib, senator degan sharaflı nomga sazovor bo'lganingiz bilan samimiy tabriklab, faoliyatizingizda yangi omadlar tilayman.

Hammamizga ma'lum: roppa-rosa o'n yil oldin parlamentimizni – bir palatali Oliy Majlisimizni ikki palatali parlamentga o'zgartirgan edik. Ya'ni quyi palata – professional asosda doimiy faoliyat ko'rsatadigan Qonunchilik palatasi va yuqori palata – vakillik asosida ish olib boradigan Senating viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari hisobidan, O'zbekistonimizning har qaysi 14 ta subyekti – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan saylanishi belgilab qo'yildi.

Bunday o‘zgarish va islohotlarni amalga oshirishda chuqur ma’no-mazmun borligidan barchangiz albatta xabardorsiz.

Bu haqda gapirganda, quyidagi masalaga e’tibor ringizni jalb etmoqchiman.

Avvalo. O‘zbekistonimizning uzoq va boy o‘tmishini, uning o‘ziga xos, o‘ziga mos tomonlarini va jug‘rofiy xususiyatlarini hisobga oladigan bo‘lsak, mamlakatimiz tarkibiga kira digan 14 ta subyekt – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biri o‘z tarixi, kerak bo‘lsa, boshqalardan farq qiladigan iqtisodiy-ijtimoiy belgi va alomatlari, betakror madaniyati, an‘analari bilan ajralib turishi hech kimga sir emas. Va bu haqiqatni hech qachon yodimizdan, xayolimizdan chiqarmaslikni hayotning o‘zi talab qiladi.

Iqtisodiyotimiz qonuniyatları shuni taqozo etadiki, agar har qaysi hudud – bu viloyat, tuman yoki shahar bo‘ladimi – ularning talab va ehtiyojlarini ta’minlash bo‘yicha rejalarimizni tuzish va tasdiqlash paytida avvalambor ayni shu jihatlarni inobatga olmasak, bunday siyosat hech kimni qoniqtirmaydi va ertaga turli muammolarga duchor bo‘lishimiz turgan gap.

Ikkinchidan, parlamentimiz o‘z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo‘lgan, zamonaviy parlamentarizm faoliyatining

asosiy maqsadini tashkil etadigan **muvozanat va tiyib turish tizimini yaratishni** biz o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘ygan edik.

Uchinchidan, Qonunchilik palatasi o‘z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini e’tiborga olgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish nazarda tutilgan edi.

To‘rtinchidan, Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo‘lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish ko‘zda tutilgan edi.

Beshinchidan, aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko‘lamini yanada kengaytirishni maqsad qilib, shu borada yuqori palata – Senatning viloyat, tuman va shahar vakillik organlari deputatlaridan saylanishi belgilab qo‘yilgan edi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, barchamizga ayonki, Senat a’zolari avvalo joylardagi mahalliy Kengashlarning deputatlari – vakillari sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ya’ni siz, hurmatli senatorlar, shuni yaxshi tushunib olishingiz kerakki, birinchi navbatda, sizlarga ishonch bildirib, deputat etib saylagan o‘z saylovchilaringiz oldida mas’ul va javobgarsiz.

Nega deganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy Kengash-

larining har biri 6 nafar deputatni Senatga vakil qilib yuborgan ekan, ularning hisobotini eshitish va faoliyati haqida xulosa chiqarishga albatta haqlidir.

Shu ma'noda, qabul qilinayotgan qonunlarning sifati va ta'sirchanligini oshirishda Senatning o'rni va ahamiyati, shu bilan birga, mas'uliyati nechog'liq katta ekanini doimo yodda saqlashingiz lozim. Chunki biz qayerda, qaysi lavozimda ishlamaylik, qaysi siyosiy partiyaga a'zo bo'lmaylik, umum davlat manfaati, O'zbekiston kelajagi barchamizni birlashtiradi.

Siz, hurmatli Senat a'zolari, bu muhim masalanning mohiyatini to'g'ri tushunib, o'z faoliyatizingizni aynan shu asosda tashkil etasiz, deb ishonaman.

Qadrli do'stlar!

Ma'lumki, mamlakatimizda ikki palatali parlament ish boshlashi bilan Prezidentning ba'zi vakovatlari Senatga o'tkazildi. Senat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan amnistiya e'lon qilish, O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalarini hal qilish vakolatiga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, Senat ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirmoqda. U har yili davlat budgeti loyi-halarini ko'rib chiqadi, uning bajarilishini nazorat

qiladi, davlat idoralari rahbarlarining hisobotlarini tinglaydi.

Bugungi kunda Senat tomonidan xalq deputatlarini mahalliy Kengashlari faoliyatining samarasini oshirish va ularga uslubiy yordam ko'rsatish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov-larni yuksak demokratik saviyada o'tkazish borasida katta ish olib borilmoqda.

Shu bilan birga, hayotning shiddat bilan o'zgarib borayotgani, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida biz amalga oshirayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifasi Senat faoliyatini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Ayni shu masalalar bo'yicha Oliy Majlis pala-talarining ertaga bo'ladigan qo'shma yig'ilishida atroflicha gaplashib olamiz.

Endi kun tartibiga kiritilgan tashkiliy masalaga o'tadigan bo'lsak, avvalo, Senat raisi va uning o'rribbosarlarini saylash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishimiz zarur.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizning 93-moddasi-ga muvofiq, Senat raisligiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilishi belgilangan. Ana shu normaga binoan, ko'pgina maslahatlarga asoslanib, men Oliy Majlis Senati raisi lavozimiga senator Nig'matilla To'lqinovich Yo'ldoshev nomzodini taqdim etmoqchiman.

Nig‘matilla Yo‘ldoshev 1962-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan, huquqshunos.

2011-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri lavozimida ishlab kelmoqda.

N. Yo‘ldoshev mehnat faoliyatini Olmaliq shahar prokuraturasining ish o‘rganuvchisi lavozimidan boshlab, prokuratura idoralarida katta tergovchi, boshqarma prokurori, bo‘lim boshlig‘i, Bosh prokuratura huzuridagi departament boshlig‘i, Bosh prokuror o‘rnbosari lavozimlarida xizmat qilgan.

Mehnat faoliyati davomida orttirgan katta amaliy va hayotiy tajribasi, bilimi, kasbiy mahorati hamda tashkilotchiлик va talabchanlik qobiliyatini e’tiborga olgan holda, Nig‘matilla To‘lqinovich Yo‘ldoshev Oliy Majlis Senati raisi lavozimiga har tomonlama munosib nomzod, deb hisoblayman.

Endi Senat raisining o‘rnbosarlari lavozimiga nomzodlar haqida gapiradigan bo‘lsak, men bu vazifalarga quyidagi nomzodlarni tavsiya etmoqchiman.

Senat raisi o‘rnbosari lavozimiga senator Svetlana Boymirzayevna Ortiqovaning nomzodini tavsiya etaman.

Svetlana Ortiqova 1962-yili Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. 1987-yili hozirgi Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlagan. Mutaxassisligi bo‘yicha huquqshunos, ko‘p yillar O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi idoralari-

da xizmat qilgan, 2010–2014-yillari Oliy Majlis Senatining Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi vazifasida faoliyat ko‘rsatgan.

2014-yildan buyon Markaziy saylov komissiyasi raisining o‘rinbosari vazifasida ishlab kelmoqda.

O‘ylaymanki, bu kishini ham ko‘pchilik, shu zalda o‘tirganlarning barchasi yaxshi biladi. Avvalo, uning yetarli bilim va tajribasini, malaka va mahoratini, obro‘-e’tiborini yuksak baholaydi, desam, xato bo‘lmaydi.

Ma’lumki, Konstitutsiyamizning 86-moddasi-ga asosan Senat raisi o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Men bu lavozimga hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi vazifasida ishlab kelayotgan senator Musa Tadjetdinovich Erniyazov nomzodini tavsiya etaman. O‘ylaymanki, bu nomzodni ham barchangiz yaxshi taniysiz, uning mehnat va ijtimoiy faoliyati haqida atroficha ma’lumotga egasiz.

Musa Erniyazov 1947-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Kegeyli tumanida tug‘ilgan, muhandis-elektrik. Mehnat faoliyati davomida turli mas‘uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritgan hamda katta amaliy tajriba to‘plagan. Jumladan, qurilish trestida muhandis, uchastka boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi uy-joy-kommunal xo‘jaligi vaziri, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-

quvvatlash davlat qo‘mitasining raisi, Chimboy tumani hokimi, Vazirlar Kengashi raisining o‘rnbosari lavozimlarida ishlagan.

Musa Erniyazov Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, Oliy Majlis Senati raisining o‘rnbosari lavozimida ishlagan davrida o‘zining tashkilotchilik va talabchanlik xususiyatlarni ko‘rsatgan.

Hurmatli Senat a’zolari!

Senat raisi va uning o‘rnbosarlari lavozimiga ko‘rsatilgan nomzodlarni qo‘llab-quvvatlaysizlar, deb ishonch bildirishga ruxsat bergaysiz.

2015-yil 22-yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI VA SENATINING QO'SHMA MAJLISIDAGI MA'RUZA

Hurmatli deputatlar!
Muhtaram senatorlar!
Qadrli do'stlar!

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'lib o'tgan saylovda erishgan g'alabangiz bilan, xalqimiz tomonidan ko'rsatilgan yuksak ishonch bilan sizlarni tabriklash, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, faoliyattingizda yangi omadlar tilashga ruxsat bergaysiz.

Bo'lib o'tgan saylovlarni kuzatishda ishtirok etgan 70 mingdan ortiq mahalliy va 340 dan ziyod chet elliq kuzatuvchilar, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillarining aksariyat ko'pchiligining fikricha, **bu saylovlar ochiqlik va oshkoraliq sharoitida, xalqaro huquq normalari va standartlariga to'la muvofiq ravishda o'tdi.**

Mazkur saylovlar avvalambor jamoatchiligimiz, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi, siyosiy partiyalar, fuqarolik institutlarining obro'-e'tibori va nufuzi, yetuklik darajasi sezilarli ravishda oshganini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan saylovlар мамлакатимизда демократик давлат ва кучли fuqarоlik jamiyati qurishga qaratilgan, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadida hayotimizga joriy etilayotgan demokratik o'zgarish va islohotlarning amaliy natijalarini namoyish etdi.

Bularning barchasini saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonining o'zi, ularning yakunlari ham yaqqol tasdiqlab turibdi. Bo'lib o'tgan saylovlarda 18 million 500 mingga yaqin fuqaro yoki saylovchilarning 88,9 foizi ishtirok etdi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Qonunchilik pala-tasi deputatligiga nomzodlarning saylovoldi kurashi keskin o'tgan 135 ta saylov okrugining 22 tasida birinchi bosqichda nomzodlar yetarlicha ovoz ololmadi va bu okruglarda takroriy ovoz berishni o'tkazishga to'g'ri keldi. Bu esa saylovlarning demokratik asosda o'tkazilganidan dalolat beradi.

Fursatdan foydalaniб, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi va joylardagi barcha saylov komissiyalariga, saylovlarning qonunlarga, Konstitutsiyamiz normalari, umume'tirof etilgan xalqaro demokratik prinsip va talablarga mos ravishda o'tishi uchun kuch-g'ayratini safarbar etgan minglab faollarga minnatdorlik bildiraman.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, ko'pgina davlatlarning milliy saylov komissiyalari vakillari, xorijiy mamlakatlardan kelib qatnashgan siyosatchi va kuzatuvchilarga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan alohida chuqur minnatdorlik bildirish barchamizga katta mammuniyat yetkazadi.

Hurmatli do'stlar!

Bugun Oliy Majlisimizning avvalgi tarkibi faoliyatiga yakun yasar ekanmiz, xolisona ta'kidlashimiz darkor – parlamentimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar demokratik islohotlarni hayotimizga joriy etishda, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida qo'ygan qadamlarimizda munosib hissa bo'ldi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

O'tgan davr mobaynida hammasi bo'lib 140 dan ortiq qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Oliy Majlis tomonidan 2010-yilning noyabr oyida qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi, hech shubhasiz, bizning ertangi kunimizni belgilab beradigan, ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarimizning Strategik dasturiga aylandi.

Konsepsiya doirasida bugungi kungacha qabul qilingan 27 ta qonun, ularni keng miqyosda muhokama etish va qabul qilish jarayonining o‘zi davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini, so‘z va axborot hamda saylov erkinligini ta’minlash, saylov tizimi va fuqarolik institutlarini rivojlantirishda muhim omil va katta amaliy hissa bo‘ldi.

Mazkur Konsepsiyaaga muvofiq, 2011-yilda va 2014-yilda Konstitutsiyamizga kiritilgan tuzatishlar, davlat qurilishi sohasida qabul qilingan boshqa qator qonunchilik hujjatlari davlat hokimiyatining asosiy subyektlari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mamlakat hukumati vakolatlarini, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o‘rtasida **o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati mexanizmlarini yanada rivojlantirish va optimallashtirishni ta’minladi**.

Davlat hokimiyati tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va joylardagi vakillik organlarining rolini sezilarli ravishda oshirish, hukumat, ijro hokimiyati organlarining mustaqilligi va vakolatlarini kengaytirish va ayni paytda qabul qilingan qonunlarning bajarilishi va ta’sirchanligini yanada kuchaytirishga imkon yaratdi.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasini demokratik asosda yanada isloh etish, mustahkamlash va erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarda parlamentning alohida o'rin tutganini ta'kidlash zarur.

Ana shu davrda parlament tomonidan qabul qilingan 30 ga yaqin qonunchilik hujjatlari qonun ustuvorligini ta'minlash, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ldi.

Parlament fuqarolik jamiyatini institutlarini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini mustahkamlashga ham salmoqli hissa qo'shdi. Bu sohada qabul qilingan o'nga yaqin qonunchilik hujjatlari, jumladan, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatimizda manfaatlar muvozanatini ta'minlash kabi eng muhim vazifalarni hal etishda **fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini yanada kuchaytirdi.**

Shu borada O‘zbekiston ekologik harakatining faoliyatini alohida qayd etishni istardim. 2008-yilda Qonunchilik palatasida ushbu harakat vakillariga o‘n beshta deputatlik o‘rnini ajratish haqida qabul qilingan qaror naqadar to‘g‘ri bo‘lganini hayotning o‘zi tasdiqladi.

So‘nggi yillarda mazkur harakatning Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhi sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu sohaga fuqarolik institutlarini faol jalg qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan **9 ta qonun, xususan, «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonunni qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi.**

Parlament tomonidan demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tarkibiy o‘zgartirish, kichik biznes, tadbirkorlik, fermerlik harakatini keng rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilayotgan 30 dan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilindi.

Bugungi kunda **Oliy Majlis har yili, hukumat taqdimnomasiga ko‘ra, ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturini ko‘rib chiqib, tasdiqlamoqda**, uning hayotga tatbiq etilishi ustidan parlament nazoratini olib bormoqda.

2014-yilgi dasturni amalga oshirish natijasida mamlakatimizda 980 mingdan ortiq, jumladan, yoshlar, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun yangi ish o'rirlari tashkil etildi.

Bir so'z bilan aytganda, o'tgan davrda yaratilgan mustahkam me'yoriy-huquqiy baza, ayniqsa, dunyoda hali-beri davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishning muhim omiliga aylandi. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari so'nggi 10 yilda dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida 8 foizdan kam bo'lmasdan kelmoqda. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar hajmi va aholining real daromadlari jadal ravishda o'sib bormoqda.

Bunday natijalar bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Oliy Majlis palatalarining qonun ijodkorligini amalga oshirish bo'yicha yangi, zamonaviy faoliyat shakllarini joriy etishga qaratilgan ishlarini alohida qayd etish joiz.

Qonunchilik palatasi tomonidan «Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonun loyihasini sinovdan o'tkazish bo'yicha birinchi marta huquqiy tajriba amalga oshirildi. Xorijiy ekspertlarning fikriga

ko‘ra, noyob xususiyatga ega bo‘lgan ushbu tajriba sifatli, hayotning bugungi talablariga javob bera-digan qonunchilik hujjatlarini tayyorlash va qabul qilishning zamonaviy usullarini sinab ko‘rish im-konini berdi.

Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutini o‘z vaqtida tashkil etganimiz parlament faoliyati samaradorligini oshirishga katta hissa bo‘lib qo‘silganini qayd etmoqchiman. Mustaqil tuzilma bo‘lgan mazkur institut qonunchilik, qonun ijodkorligi faoliyatini sifat jihatdan yaxshilashga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Institut tomonidan amaldagi qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish, qonun ijodkorligi sohasidagi xorijiy tajribani o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu ishlar qonun ijodkorligi borasida oldimizda turgan vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi va ularni yanada rivojlantirishni, buning uchun zarur tashkiliy-texnik sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Biz bundan roppa-rosa o‘n yil oldin tarkibida deputatlar doimiy ravishda, professional asosda ishlaydigan Qonunchilik palatasi va shuning-dek, hududiy vakillardan iborat qonunchilik organi bo‘lmish Senat faoliyat ko‘rsatadigan ikki palatali parlamentni tashkil etishni o‘z ol-

dimizga maqsad qilib qo‘ygan edik. Bugun ana shu maqsadimiz to‘liq ro‘yobga chiqdi, deb ishonch bilan aytishimiz mumkin. Natijada qabul qilayotgan qonunlarimiz sifati sezilarli derajada oshdi, mintaqalar, tarmoqlar va davlatning umumiy manfaatlari mutanosibligi tobora samarali ta’minlanmoqda.

Ayni paytda biz parlament faoliyatini zamонавиј талабларни инобатга олган holda tubdan yaxshilash, qonun ijodkorligi va qonunchilik faoliyati sifatini oshirishni maqsad qilib qo‘yar ekanmiz, Oliy Majlisning o‘tgan davrdagi faoliyatini xolisona baholab, ko‘zga tashlanadigan kamchilik va jiddiy nuqsonlar ustida alohida to‘xtalib o‘tishni zarur, deb bilaman.

Nega deganda, yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatolarni tan olmasdan, iqror bo‘imasdan turib, ularni yo‘q qilish og‘ir kechadi.

Birinchidan. Oliy Majlisimiz qonunni, huquqni qo‘llash amaliyotiga yetarlicha e’tibor bermayotganini e’tirof etish kerak.

Qonunlar qabul qilinishi bilan hayotimizda nima o‘zgardi, ular taraqqiyotga, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining borishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi, degan savollarga kamdan kam e’tibor beramiz.

Masalan, biz qonunchilikni erkinlashtirish haqida ko‘p gapiramiz. Shu bilan birga, odamlar o‘z hayotida bunday erkinlashtirish jarayonini qanday his etayotganiga, bu haqda jurnalistlar, sharhlovchilar nimalarni gapirayotganiga qarab, bu ishlarning natijasiga eng aniq baho berish mumkin.

Ayni vaqtda shuni ham tan olishimiz kerakki, qabul qilinayotgan qonunlar odamlar hayotiga, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani haqida joylardan kelib turadigan, parlamentga o‘z faoliyatini yanada takomillashtirish imkonini bera-digan axborot almashish mexanizmi deyarli ishlama-yapti.

Shu bois Oliy Majlis palatalarining qonunchilik faoliyatini tartibga soladigan huquqiy hujjatlarda qonunlarni ijrochilarga yetkazish va shuningdek, huquqni qo‘llash va amalga oshirish samaradorligini albatta o‘rganishni va shu asosda parlament palatalarining qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil ishlari dasturlariga zudlik bilan tuzatishlar kiritishni ko‘zda tutadigan me’yoriy-huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash – bugungi kunda dolzarb vazifaga aylanishi darkor.

Ikkinchidan. O‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘pincha qabul qilinayotgan qonunlar, ularga kiritilayotgan o‘zgartish va

qo'shimchalar ishlamayapti. Buning sababi, birinchidan, ushbu qonunlarda ulardagি normallarni amalga oshirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilmagani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mazkur qonunlarning samarali ishlasiga yordam beradigan tegishli qonunosti hujjatlari chiqarilmayotganida bo'lib, ularsiz esa bu qonunlarda belgilangan qoidalar umuman ishla-mayotganini anglab olishimiz darkor.

Endi o'zimizga bir savol berib ko'raylik: parlamentimiz qabul qilishni «yaxshi ko'radigan», ijro mexanizmlariga ega bo'lmanan qonunlar nima uchun «havoda osilib, muallaq bo'lib» qolmoqda? Nima uchun ular mantiqiy yakuniga yetkazilmayapti, huquqni qo'llash bosqichigacha olib borilmayapti?

O'ylaymanki, bu boradagi asosiy sabablardan biri shuki, biz **qonunlarni qabul qilar ekanmiz**, ularni ishlab chiqish jarayonidayoq qo'yishimiz kerak bo'lgan savolni, ya'ni bu qonunga real hayotda qay darajada ehtiyoj bor va u qanchalik samarali ishlaydi, degan savolni o'z oldimizga qo'yaymiz. Bu esa qonunchiligidan takrorlar va ziddiyatli holatlarning uchrab turishiga, uning samaradorligi pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Shu o'rinda bir misol keltirmoqchiman. 2014-yilning may oyida Konsepsiya muvofiq «Aksiya-

dorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunni yangi tahrirda qabul qildik. Ochiq tan olish kerak, korporativ boshqaruv sohasida **muhim hujjat bo‘lgan bu qonun haligacha to‘liq ishlagani yo‘q.**

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, aksiyadorlar, avvalambor, aksiyalarning minoritar ega-lari o‘z huquqlaridan to‘liq foydalanmayapti, ular aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatmayapti.

Buning asosiy sabablaridan biri shuki, huquqning boshqa sohalari, xususan, ma’muriy, jinoyat, xo‘jalik qonunchiligidagi ushbu qonun qabul qilinishi bilan bir paytning o‘zida uning ijrosini ta’minlaydigan ma’muriy-huquqiy, sud-huquq mexanizmlari ko‘zda tutilmagan. Xususan, aksiyadorlarning huquqlarini buzgani uchun mansabdar shaxslarning ma’muriy javobgarligi belgilanmagan.

Ayni paytda korporativ boshqaruv tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ularning qonunchiligidagi javobgarlik, sud himoyasi korporativ munosabatlar va ular bilan bog‘liq tartib-taomillarning deyarli barchasini qamrab olgan.

Bir haqiqat hammamizga aniq va ravshan bo‘lishi kerak – bozor islohotlarini chuqurlashti-

rish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida biz qonunlarimizda belgilab qo'yayotgan rag'batlantiruvchi omillar, preferensiylar qachon ishlaydi? Qachonki huquqning yuqorida qayd etilgan boshqa tarmoqlariga tegishli bo'lgan huquqiy institutlar, avvalo, sud-huquq sohasining ta'sir ko'rsatish mexanizmlari bilan mustahkamlab qo'yilgan taqdirdagina ular o'z samarasini beradi.

Hozirgi sharoitda to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan qonunlar, kodifikatsiya qilingan qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, yangi qonunlarda belgilangan qoidalarni to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan qonunosti hujjatlarini o'z vaqtida e'lon qilish muhim ahamiyatga ega.

Ana shu masalalarning barchasi Oliy Majlis palatalarining doimiy diqqat-e'tiborida bo'lishi darkor. **Takror va takror aytishni zarur deb bilaman – birinchi navbatda, aynan qonun qabul qiladigan oliy qonunchilik organi nafaqat bu qonunlarining so'zsiz bajarilishidan, ayni paytda ularning bir-biriga zid kelib qolmasligi, qonunchilikning aniq tizimga asoslanishi, umuman, huquqiy taribga solish tizimining mukammal bo'lishini ta'minlashdan manfaatdor bo'lishi zarur.**

Uchinchidan. Qonun loyihalarini davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlarining turli bo‘g‘inlarida keng va amaliy muhokama qilishni ta’minlash muhimdir. Aytish kerakki, biz bu ish bilan deyarli shug‘ullanmaymiz yoki nomigagina shug‘ullanamiz.

Buning sabablari juda ko‘p. Balki bunday muhokamalar chog‘ida qonun loyihasi yangi qoidalar bilan kengayib ketishidan va bu qoidalar asosida qonun loyihasini o‘zgartirish, uni qayta ishlashga to‘g‘ri kelishidan qo‘rqarmiz? Shu bilan birga, bu masalada qonun loyihasini ishlab chiquvchilarning o‘ziga bino qo‘yishi, professional darajasining pastligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Hech kimga sir emas, amaliyotchilar tajribasi ko‘proq bo‘lgani uchun qonunlarning mohiyatini qonun chiqaruvchilardan ko‘ra yaxshiroq biladi. Ishimiz samarali bo‘lishi, qonunchilikning sifati va ta’sirchanligini oshirish uchun **olimlar, yuqori malakali mutaxassis va ekspertlarni keng jalb etgan holda, qonun loyihasini albatta atroficha muhokama etish shart, deb o‘ylayman.**

Qonunlar loyihalari, ayniqsa, aholining hayotiy muhim manfaatlari, ijtimoiy huquqlariga bevosita daxldor bo‘lgan qonunchilik hujjatlari muhokama-

siga jamoatchilikni, fuqarolik institutlari vakillarini ham keng jalg etish lozim.

Avvalambor, so‘z mamlakatni boshqarishda fuqarolarning ishtirokini har tomonlama kuchaytirish haqida bormoqda. **Davlat boshqaruvi asosini qonunlar tashkil etar ekan, qonun ijodkorligi sohasida fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirok etishi zarur.** Shu munosabat bilan bu boradagi ishlarning ochiqligini ta’minlash, jamoatchilikni parlament palatalarining qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyatidan har tomonlama xabardor qilib borish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi.

To‘rtinchidan. Qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyot bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish asosida ularni muhokama etish, tayyorlash ishlarini sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko‘tarish darkor. Tan olishimiz kerak, biz bu masalaga ham yetarlicha e’tibor bermayapmiz.

Demokratik davlatlarning qonun ijodkorligi tajribasini o‘rganishga, shuningdek, tayyorlanayotgan qonun loyihalarini rivojlangan xorijiy mamlakatlar-da qabul qilingan shunday qonunlar loyihalari bilan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan turli konfrensiya va seminarlar, davra suhbatlarini o‘tkazish

muayyan qonun loyihasini va umuman, qonunchiligidizni boyitish uchun yangi materialga ega bo‘lish imkonini beradi. Aynan shu sababdan bunday tadbirlar biz uchun qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishda samarali vosita bo‘lishi darkor.

Yuqorida bayon qilingan ana shu fikrlar, o‘z navbatida, parlamentda olib borilayotgan tahliliy ishlar samaradorligini, deputatlarning tayyorgarlik, xabardorlik va malaka darajasini, boshqacha aytganda, professional saviyasini sezilarli ravishda oshirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan **deputatlarning professional darajasini muntazam oshirish Oliy Majlisning kelgusi besh yildagi butun faoliyati davomida eng muhim yo‘nalishga aylanishi** darkor.

Beshinchidan. Qonunchilik palatosi faoliyatida siyosiy partiyalar fraksiyalarining o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish, ko‘ppartiyaviylik tizimini izchil rivojlantirish ham muhim vazifalardandir.

2007-yilda qabul qilingan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning bu boradagi ahamiyatini ta’kidlashga barcha asoslarimiz bor.

Mazkur qonunda fraksiyalarning huquqiy maqomi, jumladan, parlamentdagi ko‘pchilik va parlamentdagi muxolifat maqomi, ularning alohida huquqlari va faoliyati samaradorligining kafolatlari aniq belgilangan. Joylardagi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha hokimiyat vakillik organlarida deputatlar guruhlarining roli sezilarli ravishda oshirilgan. Qonundagi shu va boshqa qator muhim qoidalari mamlakatimizda amaldagi ko‘ppartiyaviylik tizimini mustahkamlash va rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Oliy Majlis – parlamentimizda va mahalliy vakillik organlarida fraksiyalar yoki ayrim deputatlar o‘rtasida doimo fikrlar qarama-qarshiliği, munozaralar bo‘lishi kerak, aynan shu yerda siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlari, manfaatlari ifoda etilib, deputatlar o‘z fikrlarini ilgari suradigan kuchli bahs va raqobat bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Bahs-munozaralar, g‘oya va dasturlar, muqobil qonun loyihalari o‘rtasidagi raqobat eng muhim, prinsipial ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammojar bo‘yicha haqiqiy professional asosda amalga oshirilishi lozimligini barchamiz tushunamiz, albatta.

Oltinchidan. Siyosiy fraksiyalar hamda deputatlarning faolligi, tashabbuskorligi haqida alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

O‘tgan besh yil mobaynida parlament tomonidan qabul qilingan 140 dan ziyod qonunning atigi 19 tasi Qonunchilik palatasi deputatlari tashabbusi bilan qabul qilinganini qoniqarli, deb bo‘lmaydi. Qolaversa, ana shu qonunlarning bor-yo‘g‘i 3 tasi yangi qonunchilik hujjatlari bo‘lib, 16 tasi amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish bilan bog‘liq, asosan yuridik-texnik xususiyatga ega bo‘lgan qonun hujjatlaridir.

Bugungi sharoitda fraksiyalar va deputatlarning mamlakatimiz uchun zarur bo‘lgan qonunlarni **ishlab chiqishda tashabbus ko‘rsatish va ularni qabul qilish bo‘yicha faoliyatini prinsipial jihatdan qayta ko‘rib chiqish kerak**, desam, o‘ylaymanki, bu fikrga sizlar ham qo‘shilasiz. Fraksiyalar va deputatlar faoliyati yanada faol va mazmunli bo‘lishi, o‘z siyosiy partiyalari va ularning elektorati manfaatlari hamda ko‘rsatmalarini hisobga olgan holda yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Ayni paytda partiya va fraksiyalarning u yoki bu qonun bo‘yicha pozitsiyasi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim masalalariga doir fraksiyalararo bahs-munozaralar mazmun-mohi-

yatidan keng jamoatchilik va saylovchilarni har tomonlama to'liq xabardor qilib borish darkor. Hokimiyat, xalq hokimiyati va parlamentarizmni demokratik asosda tashkil etishning mohiyati ham shundan iborat.

Ana shu masalada ommaviy axborot vositalarining faolligi ham talab darajasida emasligini ta'kidlash ham, o'ylaymanki, ortiqcha bo'lmaydi.

Ayrim deputatlarning ommaviy axborot vositalari va televideniye vakillari bilan muloqotdan o'zini tortish holatlari ham, afsuski, uchrab turadi.

Yettinchidan. Konstitutsiyaviy islohotlar nuqtayi nazaridan Oliy Majlis palatalari va eng avvalo, fraksiyalarning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, qabul qilinayotgan qonunlar, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy davlat dasturlarining ijrosini so'zsiz ta'minlash borasidagi faoliyati sifat jihatidan yangi asosda qurilishi lozim.

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan besh yilda har ikki palata tomonidan turli davlat boshqaruvi organlariga ayrim ijtimoiy masalalar bo'yicha atigi 7 ta so'rov yuborilgan. Yangi konstitutsiyaviy sharoitda parlament eshituvlari, hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining qonunchilik talablarining ijrosi

bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarini **tizimli ravishda eshitib borish, deputatlarning so‘rovlariiga atroficha javob qaytarishni ta’minlash parlamentning kundalik ishi bo‘lmog‘i zarur.**

Deputatlarning saylovchilar bilan ishlashini tubdan yaxshilash, palatalar faoliyatiga parlament nazoratining zamonaviy usullarini tatbiq qilish, jumladan, davlat budgetini shakllantirish va mamlakatimizning ushbu muhim iqtisodiy hujjati ijrosini nazorat qilishning zamonaviy usullarini joriy etish muhim vazifalardan biridir.

Oliy Majlis palatalari tomonidan nazorat vazifasini amalga oshirishning ana shu va boshqa qator shakllari hamda usullarini **«Parlament nazorati to‘g‘risida»gi qonunda tizimli va aniq mustahkamlab qo‘yish zarur.** Bugungi kunda ushbu qonun loyihasi mamlakatimiz ekspertlar hamjamiyati tomonidan keng muhokama qilinmoqda.

Sakkizinchidan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining o‘zaro hamkorligi samarasi ni yanada oshirish masalasi e’tibor markazimizda turishi shart.

Bu haqda so‘z yuritganda, parlamentning ikki palatasi – bu yaxlit tizim, mamlakatimizning yagona qonunchilik organi ekanini ta’kidlash zarur,

deb hisoblayman. Ochiq aytish kerakki, ilgari, ikki palatali parlamentimiz ish boshlagan dastlabki paytlarda, o‘zaro hamkorlikda, qonunchilik faoliyatining ma’no-mazmunini belgilab beradigan umumiy maqsadlarga erishish uchun kelishib harakat qilish o‘rniga palatalar o‘rtasida ularning qaysi biri ko‘proq vakolatga ega ekani haqida, qabul qilinayotgan qonunlarning ahamiyati va mazmunini qaysi palata yaxshi tushunishi haqida o‘rinsiz tortishuvlar ham bo‘lgan edi.

Hozirgi kunda bunday muammolarning oldini olish maqsadida ikki palata vakillaridan iborat muvofiqlashtiruvchi kengashning tashkil etilgani va so‘nggi yillarda amalga oshirilgan boshqa qator tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar natijasida bunday tushunmovchilikka chek qo‘yildi. Lekin bunday vaziyatlar yangi tarkibdagi deputatlar va senatorlar orasida paydo bo‘lishining oldini olish zarur, deb o‘ylayman.

Hurmatli xalq deputatlari va senatorlar, majlis ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va

ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi, albatta.

Ko‘pchilik davlatlar qatorida O‘zbekistonimizda ham ayni mana shunday tahlikali vaziyatning oldini olish, ostonamizga qo‘ymaslik, yurtimizda bugun hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat muhitini asrash, shu bilan birga, **yuz berishi mumkin bo‘lgan har qanday xatarli burilishlarga tayyor bo‘lish maqsadida** o‘zimizning qat’iy pozitsiyamiz va siyosatimizni aniq belgilab olganimiz.

Shular qatorida 2012-yili qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunda belgilab berilgan, **bizning xavfsizligimiz bilan bog‘liq bo‘lgan prinsiplar va pozitsiyalarimiz bugungi kunda jahon jamoatchiliga yaxshi ayondir.**

Avvalambor, uzoq va yaqin qo‘snilarimiz bilan til topishib, ular bilan o‘zaro hamkor va hamjihat bo‘lib yashash va eng muhimi, **hech qanday harbiy bloklarga qo‘silmaslik**, muqaddas yurtimiz tuprog‘ida chet mamlakatlarning harbiy bazalarini joylashtirishga va harbiylarimizning chegaralarimiz tashqarisiga o‘tishiga yo‘l qo‘ymasligimiz shular jumlasidandir.

Bugun yuzaga kelayotgan xalqaro vaziyatda ayni shu yo'l, shu siyosat biz uchun maqbuldir.

Aziz deputatlar va senatorlar!

Yana va yana bir bor barchangizni ana shunday ulug' va sharaflı, shu bilan birga, o'ta mas'uliyatlı ishonch va vazifaga sazovor bo'lganingiz bilan tabriklab, oldingizga qo'yilgan yuksak maqsadlarga erishishda avvalo sihat-salomatlik, bardamlik, yangi zafar va omadlar tilayman.

Hurmatli deputatlar!

Muhtaram senatorlar!

Shu fursatdan foydalaniib, sizlar bilan yana bir masala bo'yicha fikr almashib olsak, o'rinni bo'ladi, deb o'ylayman.

Ma'lumki, saylovda eng ko'p deputatlik o'rinnarini olgan siyosiy partiya tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzodni taklif etish, ushbu nomzodni Prezident tomonidan ko'rib chiqish, yangi parlamentning qo'shma majlisida bu nomzodni muhokama qilish va tasdiqlash tartibi Konstitutsiyamizning 98-moddasida va shu asosda qabul qilingan tegishli qonunlarimizda aniq belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, Bosh vazirning vazifalari, uning qonuniy vakolatlari va mas'uliyati ham Asosiy Qonunimizda o'z aksini topgan.

Konstitutsiyamizga kiritilgan oxirgi qo'shimcha va o'zgartishlarga muvofiq, Bosh vazir va umuman,

ijro hokimiyatining vazifalari va shu bilan birga, va kolatlari, bir so'z bilan aytganda, mas'uliyati ancha kengaygani haqida barchamiz xabardormiz.

Hech kimga bu sir emas – Bosh vazir lavozimiga nomzod tanlash va uni tasdiqlab olish haqida gap borar ekan, albatta, bu o'ta murakkab va mas'uliyatli masala ekanini hammamiz o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Bu vazifaga har tomonlama chuqur bilim va aql-zakovatga, keng fikrlash qobiliyati, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan, turli sinovlarda toblangan, muxtasar aytganda, ko'pni ko'rgan, mamlakatimizni rivojlantirish, taraqqiy toptirishda, yirik loyihalarni amalga oshirishda talabchan, tashkilotchi va jonkuyar, mas'uliyatli, javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan, eng muhimi, har qanday vaziyatda ham odamlar bilan til topishishga, obro' qozonishga qo'dir bo'lgan, o'zining xususiyat va alomatlari bilan ajralib turadigan insonni topish – bu ancha murakkab va og'ir vazifadir.

Shu ma'noda, bugun sizlarning muhokamanligiga taqdim etiladigan nomzod o'z faoliyati va bajargan vazifalari bilan el-yurtimiz, Vatanimiz erishgan marralarni qo'lga kiritishda munosib hissa qo'shgan odam bo'lishi shart, desam, adashmagan bo'laman.

Ayni hozir tilga olingan xususiyat va alomatlariga to‘g‘ri keladigan, javob beradigan insonni topish qanday og‘ir bo‘lmasin, barcha-barcha fikrlarni, xulosalarni inobatga olgan holda, ushbu vazifaga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimida faol mehnat qilayotgan Mirziyoyev Shavkat Miromonovich nomzodini tavsiya etaman.

O‘ylaymanki, bu nomzodni siz, hurmatli deputat va senatorlar hammangiz yaxshi bilasiz.

Shavkat Mirziyoyev o‘z rahbarlik faoliyati davomida turli mas’ul lavozimlarda ishlagan, katta tashkilotchilik va amaliyot tajribasi bilan obro‘ qozongan. Uni mamlakatimiz viloyatlari va tumalaridagi barcha hokimlar, katta-kichik rahbarlar, xalqimiz yaxshi taniydi.

Siz xalq vakillari – hurmatli deputat va senatorlar ham bu nomzodni qo‘llab-quvvatlaysiz, deb ishonaman.

2015-yil 23-yanvar

BIZNING MAQSADIMIZ – ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK HAYOT QURISH

Hurmatli syezd qatnashchilari!

Muhtaram vatandoshlar!

Avvalambor, bugun O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi syezdining delegatlari va faollari bilan uchrashib, siz, azizlarni sog'-omon, yaxshi kayfiyatda ko'rishdan, barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va samimiylar tilaklarimni bildirishdan xursandman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga meni nomzod etib ko'rsatganingiz uchun siz, azizlarimga, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi a'zolariga, bu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan barcha yurdoshlarimga chin qalbimdan minnatdorlik bildirish men uchun katta baxtdir.

Menga bildirilgan bunday yuksak ishonch va mas'uliyat, hech shubhasiz, katta sharafdir.

2003-yilda tashkil etilgan bu partiya o'zining oldiga qo'ygan maqsad va dasturlari, amaliy tashabbus va harakatlari bilan, doimo xalqimiz g'am-tashvishlarini, muammolarini yechishda, el-yurtimiz farovonligini yanada oshirish yo'lida o'ziga tobora katta obro'-e'tibor qozonmoqda.

Bu haqiqatni 2014-yil 21-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bo‘lib o‘tgan saylov natijalari ham yaqqol tasdiqladi. Saylovda partiya nomzodlaridan 52 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanib, mazkur qonun chiqaruvchi organda eng ko‘p o‘rinni qo‘lga kiritganining o‘zi, hech shubhasiz, ushbu partiya erishgan marralarning amaliy namoyoni, desam, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida partiyaning 240 mingdan ziyod a’zosi bo‘lib, ular, asosan, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik harakati vakillari, ya’ni o‘rta sinf sifatida Vatanimiz kuch-qudratiga, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligiga, xalqimiz farovonligiga katta hissa qo‘shib, O‘zbekistonning hal qiluvchi kuchiga aylanmoqda, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Bugungi kunda dunyodagi ko‘pgina taraqqiy topgan, barqaror va badavlat yashayotgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, avvalo, o‘zining xususiy mulkiga ega bo‘lgan shaxs va bunday shaxslardan iborat toifa qo‘lga kiritgan boylikni yanada ko‘paytirishga intiladi. Shu asnoda o‘zining, oilasining turmush farovonligini oshirib borish bilan birga, davlat va jamiyat zimmasidagi ko‘plab

vazifalarni bajarishda ham faol ishtirok etadi. Kerak bo'lsa, ko'pgina masalalarda boshqalarga o'rnak va namuna ko'rsatadi.

Eng muhim – buni ham takror va takror aytishga to'g'ri keladi – mulkdorlar sinfi o'z yurtida tinchlik va osoyishtalik, erkin faoliyat yuritish muhitini saqlash va mustahkamlash uchun astoydil jon kuydiradi. Chunki hammamizga yaxshi ma'lum – faqatgina osuda hayot, tinch va osoyishta vaziyatdagina o'z ishini boshlash, tadbirkorlik, xususiy biznesni rivojlantirib, erkin yashash va daromad, boylik topish mumkin.

Yana bir muhim masala – xalqimizning tarixiy-ma'naviy o'ziga xosligi, azaliy qadriyat va an'analarimiz, el-yurtimiz hayotida asrlar davomida shakllanib kelayotgan ijtimoiy adolat tamoyillari-ning o'zi biz qurayotgan yangi jamiyatda o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasligini taqozo etadi.

Bugungi kunda bu talab milliy davlatchilik barpo etish borasidagi siyosatimizning muhim poydevoriga aylanganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Biz o'rta sinf deganda, yon-atrofimizdagi ayrim davlatlardagi kabi turli nopok, korrupsiya yo'llari bilan behisob mol-dunyo orttirgan o'ta boylarni emas, balki o'zining halol mehnati, aql-zakovati,

kuch-g‘ayrati bilan daromad topayotgan million-million tadbirdor va ishbilarmonlarni tasavvur qilamiz.

Biz o‘rtalik deganda, o‘zining, farzandlarining taqdiri va kelajagini shu zamin bilan uzviy bog‘-lagan, shu yurtda ozod, erkin va farovon hayot kechirish, shu yurtni ravnaq toptirish maqsadida ter to‘kib mehnat qilayotgan insonlarni ko‘z oldimizga keltiramiz.

Bu insonlar, avvalo, el-yurtimizning kuch-qudrati va boyliklarini bunyod etayotgan tadbirdor va ishbilarmonlar, fermerlik harakati va kichik biznes, xizmat ko‘rsatish sohasi vakillari, bir so‘z bilan aytganda, moddiy va intellektual mulk egalaridir.

O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining tashkil qilinishi va siyosat maydonida paydo bo‘lishidan ko‘zda tutilgan maqsad ham, birinchi navbatda, tez o‘zgarib borayotgan zamon talablarini hisobga olgan holda, ana shunday mulkdorlar, ya’ni nima uchun va kim uchun mehnat qilayotganini chuqur anglaydigan insonlarni yagona ezgu maqsadni amalga oshirish yo‘lida birlashtirishdan iborat edi.

Bu haqiqatni hech qachon esimizdan, xayolimizdan chiqarmasdan, mulkdorlar o‘rtasida shak-

langan munosabatlarni yanada mustahkamlash va yangi bosqichga ko‘tarish – partiyaning kundalik ustuvor vazifasiga aylanishi darkor.

Aziz do‘stlar!

Biz bugun mustaqil davlat va jamiyat qurish, xalqimiz uchun hech kimdan kam bo‘lмаган farovon hayot barpo etish yo‘lida tarixan qisqa davrda haqiqatan ham o‘n yillarga, balki asrlarga teng keladigan yo‘lni – masofani bosib o‘tdik, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘z vaqtida, bizning taqdirimiz hal bo‘layotgan o‘ta og‘ir va xatarli bir zamonda, turli xomxayollardan voz kechib, bizga ko‘rsatilgan tazyiq va zo‘ravonliklarga qaramasdan, bugungi kunda dunyoda taraqqiyotning «o‘zbek modeli» deb tan olingan, demokratik davlat, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish, xalqimizning hayot darajasini munosib bosqichga ko‘tarish bo‘yicha chuqur o‘ylangan rivojlanish yo‘limizni qat’iy belgilab olganimiz, hech shubhasiz, **tom ma’noda tarixiy yutug‘imiz bo‘ldi.**

Islohotlarning mashhur besh tamoyiliga asoslangan bu taraqqiyot modeli, avvalo, biz tanlagan tadrijiy – evolutsion yo‘l naqadar to‘g‘ri va samarali ekanini bugun hayotimizning o‘zi amalda isbotlab bermoqda.

O‘zbekiston tarixan qisqa muddatda bir vaqtlar iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, asosan, paxta xomashyosi yetkazib berishga moslashgan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan, sobiq SSSR tarkibida aholining hayot darajasini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng orqa o‘rinda, jar yoqasida turgan qashshoq o‘lkadan bugungi kunda tez va barqaror sur’atlar bilan, avvalo, zamonaviy tarmoqlar hisobidan rivoj topayotgan, xalqaro maydonda o‘ziga munosib o‘rin egallayotgan mamlakatga aylanib borayotgani ko‘pgina yaqin va uzoq qo‘shnilarimizni hayratda qoldirmoqda.

Haqiqatan ham, bir o‘ylab ko‘rganda – biz kecha kim edigu bugun kim bo‘ldik, degan savolni o‘zimizga berib, kechagi hayotimizni bugungi hayotimiz bilan qiyoslaganda, sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlarning asl ma’no-mazmuniga yetib borgandagina ko‘p narsa bizga yaqqol ayon bo‘ladi.

O‘zligimizni anglab, yurtimizning, taqdirimizning tom ma’noda egasi bo‘lib, erkin va ozod hayot kechirishning haqiqiy ahamiyati va mohiyatini chuqr tushunib olgan zahmatkash, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati bilan amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar, mamlakatimiz, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tubdan o‘zgargani, hayotimiz tobora farovon

bo‘lib borayotganini sezmaslik, ko‘rmaslik va kuzatmaslikning o‘zi qiyin, deb o‘ylayman.

Bunday ulkan yutuq va marralarning asosiy omili va mezonini biz, avvalo, odamlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi tobora o‘zgarib, ularning siyosiy faolligi, huquqiy madaniyati, fuqarolik saviyasi va burchi yuksalib borayotganida ko‘ramiz. Eng muhimi, eski, o‘zini oqlamagan tizimning qolip va aqidalaridan xoli bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan bellashuvga tayyor, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan kuch – yoshlarimiz maydonga chiqayotganida bu haqiqatni yaqqol anglamoqdamiz.

Ayni shular hisobidan biz duch kelgan og‘ir sinov va muammolarga, jahon miqyosidagi global iqtisodiy inqiroz davom etayotganiga qaramasdan, dunyoning sanoqli davlatlari qatorida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’atlari so‘nggi 10 yil davomida 8 foizdan ziyod bo‘lib kelmoqda. Joriy yilimizda ham, inshoollo, bundan kam bo‘lmaydi.

Mustaqil taraqqiyot yillarida O‘zbekistonimizning iqtisodiyoti 5 karradan ko‘proq, aholi daromadlari jon boshiga o‘rtacha 8,7 barobar o‘sganini, mamlakatimiz aholisi shu davrda 1,5 marta

ko‘payib, 2015-yilning boshida 31 million 500 ming kishini tashkil etganini inobatga oladigan bo‘lsak, ochig‘ini aytganda, biz erishgan yutuqlarni ba’zan odamlar tasavvur qilishi ham qiyin bo‘lmoqda.

Mamlakatimizning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15 foizdan oshmasligi, ichki qarzimiz, ya’ni aholimiz oldida qarzimiz umuman yo‘qligi, eksport hajmi, oltin-valuta zaxiralarimiz barqaror sur’atlar bilan ko‘payib borayotgani barchamizni, albatta, quvontiradi.

Hurmatli do‘sstar!

Biz hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmasligini, albatta, yaxshi anglaymiz. Agarki biz XXI asrda, tobora avj olayotgan globallashuv jarayonlari, internet va intellektual taraqqiyot hal qiluvchi rol o‘ynayotgan bir davrda yashayotganimizni hisobga oladigan bo‘lsak, hayotimiz naqadar shiddatli sur’atlar bilan o‘zgarib borayotganini, ayniqsa, chuqur his qilamiz.

Ana shunday sharoitda erishgan natijalarimizga mahliyo bo‘lmasdan, havolanish kayfiyatiga berilmasdan, shu paytga qadar bosib o‘tgan yo‘limiz – bu oldimizda turgan murakkab va og‘ir yo‘lning faqat bir qismi ekanini o‘zimizga aniq tasavvur etishimiz kerak.

Bugungi kunda bizni o‘rab turgan dunyo qanchalik tez o‘zgarib borayotgani, yaqin va uzoq

atrofimizda turli mojaro va qon to‘kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi ortib, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani haqida ortiqcha gaphirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. Albatta, bularning barchasi bizning har birimizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni sergaklik bilan bahoreshni talab qiladi.

Bu o‘rinda gap, birinchi navbatda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishni davom ettirish va chuqurlashtirishga qaratilgan e’tibor va sa’y-harakatlarimizni aslo kamaytirmaslik haqida bormoqda.

Ayni shu vaziyat va holatlarni inobatga olib, oldimizda turgan eng dolzarb va ustuvor vazifalar haqida gapirganda: **avvalo, biz uchun 2015-yilda va undan keyingi davrda eng ustuvor vazifa – bu tarkibiy o‘zgarishlar siyosatini olib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish hisobidan iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishni ta’minlashdan iboratdir.**

O‘z oldimizga qo‘ygan bu maqsadga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish,

iqtisodiyotimizning real sektorida eskirgan asbob-uskunalar va texnologik qoloqlikka barham berish kabi prinsipial masalalarni hal qilish, shuningdek, ochiq aytish kerak, islohotlarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, mulkdorlik masalasida chalaryim ishlarga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiyotni boshqarishda ma'muriy buyruqbozlik usullarining qoldiqlarini butunlay bartaraf etish zarur.

Barchamiz bir haqiqatni yaxshi tushunib olishimiz shart. Ya'ni, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmsadan, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilmasdan turib, mahsulotlarimizni tashqi bozorlarga olib chiqish bo'yicha eksport dasturini jadal rivojlantirish, valuta daromadlari tushumini ta'minlash va mamlakatimizda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish o'rinalarini yaratish haqida gapirishning o'zi mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida yuqori darajadagi raqobatga dosh bera oladigan va kelgusi davrda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikasiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoqlarni jadal rivojlantirish va aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash lozim.

Iqtisodiyoti, avvalo, xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan davlatning ertangi kuni gumon bo'lishi barchamizga ma'lum.

O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslari, masalan, paxta va boshqa xomashyo turlarining bahosi keskin tushib ketgan vaziyatlarni o'z misolida ko'p bor ko'rgan, boshidan kechirgan.

Shu bilan birga, agar ana shu paxta xomashyosining o'zini to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlab, chetga bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotno va matolar sotadigan bo'lsak, keyinchalik tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va dizaynni o'zlashtirib olsak, katta samaradorlikka erishishimiz mumkin.

Ana shu birgina misol asosida bizda hali-beri ishga solinmagan qancha-qancha imkoniyatlar borligiga ishonch hosil qilish qiyin emas, deb o'ylayman.

Bu o'rinda, **avvalambor**, dastlabki xomashyo va yarimtayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish haqida so'z bormoqda. Buning uchun neft-gaz, neft kimyosi va kimyo, yengil va elekrotexnika

sanoati kabi tarmoqlarda va, shuningdek, jahon bozorida, ichki va mintaqaviy bozorlarda talab katta bo‘lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farma-tsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnikasi, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida yangi majmualar, ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Ikkinchidan. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o‘sishi va istiqboli, aholining hayot darajasi va sifatini belgilab berishga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lgan **eng muhim ustuvor vazifa – bu xususiy multk va xususiy tadbirkorlik rivoji yo‘lidagi barcha g‘ov va to‘sirlarni olib tashlash va bu sohaga to‘liq erkinlik berishdan iborat.**

Ta’kidlash kerakki, mustaqillik yillarda mamlakatimizda xususiy multk va investitsiyalarning me’yoriy-huquqiy asosini yaratish va ularning daxsizligini himoya qilish, xususiy mulkdorlar uchun zarur shart-sharoit va kafolatlar tug‘dirib berish bo‘yicha ko‘p ish qilindi.

Qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish sohasi kabi ko‘pgina tarmoqlar va uy-joy fondi, iste’mol tovarlari ishlab chiqaradigan sohalar deyarli to‘liq xususiy multk shakliga o‘tkazildi.

Bugungi kunda hayotning o‘zi, mamlakatimizda xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti aynan mana shunday mulk shaklining davlat mulkiga nisbatan har tomonlama ustunligini ishonchli tarzda isbotlab bermoqda. Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o‘zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas’uliyat hissi butunlay boshqacha ekani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Xususiy sektorda mablag‘lardan tobora samarali foydalanimoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta’minlashga bo‘lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo‘lib, ishlab chiqarishning imkon qadar ko‘proq daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalari ham sezilarli ravishda yuqoridir.

Aynan kichik biznes, xususiy tadbirkorlikka xos bo‘lgan ana shunday tub va ustun jihatlar, shuningdek, mustaqillik yillarida yaratilgan rag‘batlanti-ruvchi omillar, imtiyoz va preferensiyalar ushbu sohaning O‘zbekistondagi jadal taraqqiyotini belgilab bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizi ana shu sohaga to‘g‘ri kelayotgani

va ish bilan band aholining 75 foizi mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hamon turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda. Eng yomoni, mansabdorlar tomonidan bu soha vakillarining qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog'liq ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Bunday holatlarni tag-tugi bilan bartaraf etish, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirishimiz va shu asosda davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy tayanchiga aylanadigan xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishga erishmog'imiz zarur.

Xususiy tadbirkorlar uchun resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish hisobidan xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq-oshkora bo'lishini ta'minlash lozim.

Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda **sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va**

moliyaviy faoliyatlariga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lishi lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida amalda hanuzgacha saqlanib qolayotgan muammolarni qayd etgan holda, ayni vaqtida, keyingi yillarda tadbirkorlarimizni har tomonlama rag‘batlantirish uchun yetarli darajada ko‘p ish qilinganini ta’kidlash lozim. Ana shu ishlarning davomi sifatida mamlakatimizda biznesning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun soliq yukini kamaytirish, imkon darajasida barcha zarur sharoit va kafolatlarni yaratish kerak.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus jamg‘arma tashkil etilganidan xabaringiz bor, albatta.

Ushbu jamg‘arma yordamida eksportga mahsulot yetkazib berish bo‘yicha xorijiy sheriklar bilan 1 milliard 250 million dollardan ziyod hajmdagi shartnomalar imzolangan bo‘lib, o‘tgan yili, birinchi navbatda, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermer xo‘jaliklari sohasida 840 million dollardan ziyod miqdordagi tovarlar eksporti amalga oshirildi.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni bevosita elektron shaklda amalga oshirmoqda. 2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so‘mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p kreditlar ajratildi.

2015-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlar uchun daromad solig‘i stavkasi 25 foizdan 15 foizga, qurilish sohasidagi korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi.

Imtiyoz va preferensiyalarning ushbu ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

Uchinchidan. Bugun O‘zbekistonda iqtisodiyotda ham, faoliyatimizning boshqa sohalarida ham **davlatning ishtirokini tanqidiy qayta ko‘rib chiqadigan vaqt keldi.**

Davlatning ishtiroki, avvalambor, elektr energetikasi, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasi singari davlat ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlayotgan, tabiiy monopoliyalarga asoslangan sohalarda saqlab qolinishi kerak.

Boshqacha aytganda, davlatning iqtisodiyotimizdagi ulushi iqtisodiy va strategik asoslangan

darajaga qadar qisqartirilishi va bu haqiqiy raqobat muhitini ta'minlashi hamda taqsimotga asoslangan ma'muriy buyruqbozlik tizimining o'z umrini o'tab bo'lgan illatlaridan xalos bo'lishga olib kelishi lozim.

Shu munosabat bilan xo'jalik faoliyatida davlat ulushini tubdan qisqartirish bo'yicha maxsus dasturni qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ushbu dasturda samarasiz davlat korxonalarini tugatib, ularni, jumladan, ochiq va oshkora savdolar orqali tegishli investitsiya majburiyatlari bilan «nol» qiymatida sotish orqali to'liq xususiy mulk shakliga o'tkazish darkor.

Korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash dolzARB masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Bu, birinchi navbatda, aksiya paketlariga davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatiga taalluqlidir. Bunday jamiyatlarda, aksiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar, kam hajmdagi aksiyalarga egaligi va aksiyalar paketlarining tarqoligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda.

Bugun, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik kompaniyalarining tajribasidan

foydalangan holda, mahalliy sarmoyadorlar qatorida xorijiy aksiyadorlar ham aksiya egalari bo‘ladigan vaqt keldi.

Ishonchim komilki, aksiyadorlik jamiyatlarini ayni shunday asosda tashkil etish bizning manfaatlarimizga ko‘proq mos keladi.

To‘rtinchidan. Ekologik muammolar chururlashib borayotgan, suv va yer resurslari cheklangan bizning sharoitimidza irrigatsiya va melioratsiya ishlarini davom ettirish, yerlarning unumdonligi va hosildorligini yanada oshirish, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, eng yangi agrotexnologiyalarni joriy etish – **aynan shu yo‘nalishlar qishloq xo‘jaligini isloh etishning hal qiluvchi masalalari bo‘lib, ular doimo bizning e’tiborimiz markazida bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi.**

Ana shunday dolzarb vazifalarning barchasini kompleks ravishda hal etish uchun biz **qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqishga kirishdik.** Bu dastur agrar tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va, shuningdek, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashni ko‘zda tutadi.

Shu borada oldimizda miqyosi va ko‘lamiga ko‘ra qanday ulkan ishlar turgani va buning uchun

qanday katta mablag'lar talab etilishini biz o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. **Bu masalada hayotning o'zi bir haqiqatni tasdiqlab, isbotlab bermoqdaki, qishloq xo'jaligi hisobidan mablag'larni tejash mutlaqo yaramaydi va biz hech qachon bunga yo'l qo'yaymiz.**

Agarki biz bundan 5 yil oldin yerlarning meliorativ holatini, birinchi navbatda, mamlakatimizning davlat budgeti hisobidan tubdan yaxshilashga kirishmasak – qani, aytinlar, bugungi kunda qishloq xo'jaligi qanday ahvolga tushib qolgan bo'lardi?

Hammamizga ayonki, bareha qishloq xo'jaligi tarmoqlarining samaradorligi, bizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligimiz, nafaqat qishloq ahli, balki butun xalqimizning moddiy farovonligi, oxir-oqibatda esa bozorlarimizda non va oziq-ovqat mahsulotlarining narxi qanday bo'lishi, avvalambor, bebaho boyligimiz bo'lgan yerlarning unumdarligi, ularning holatini doimiy ravishda yaxshilab borish bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi kunda amalga oshirgan choratadbirlarimiz natijasida 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga erishdik.

Sizot suvlari eng og'ir darajada, ya'ni 2 metr gacha yuzada joylashgan yerlar qariyb 500 ming

gektarga, kuchli sho'rlangan yerlar esa 100 ming gektarga qisqardi.

Melioratsiya ishlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 2–3 sentner, boshoqli don ekinlari bo'yicha esa 3–4 sentnerga oshgani bu borada erishgan eng muhim natijamizdir.

E'tiboringizni yana bir muhim masalaga, ya'ni hozirgi kunda paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish va boshoqli don ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan ekin maydonlari tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi islohotlarining samaradorligiga qaratmoqchiman.

Bu haqda gapirganda, Andijon, Kosonsoy, Chortoq, O'rta Chirchiq, O'zbekiston va Buvayda tumanlarida paxta ekin maydonlari qisqartirilganini, Asaka, Yangiyo'l va Jomboy tumanlarida esa paxta ekishdan butunlay voz kechilganini qayd etish joiz.

Paxtadan bo'shagan jami 30 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerda bog' va uzumzorlar tashkil etilib, boshoqli don, sabzavot va kartoshkadan mo'l hosil yetishtirilmoqda.

Buning natijasida 2012–2014-yillarda paxta xomashyosi tayyorlashning barqaror hajmi saqlangan holda, sabzavot yetishtirish – 16,3 foizga, poliz

mahsulotlari – 16,6 foizga, meva yetishtirish esa – 21 foizga ko‘paydi.

Beshinchidan. Qishloq xo‘jaligimizning, hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, butun mammalakatimizning taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib kirgan fermerlik harakati yangi tariximizda o‘chmas iz bo‘lib qolajak desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamon.

Bugungi kunda umumxalq boyligi bo‘lmish yermi ijara o‘sishiga olgan, bu yerga o‘z mulki va xizmatini qo‘shgan, zamonaviy texnikaga ega bo‘lgan **fermer xo‘jaliklari** – nafaqat qishloq xo‘jaligimizning asosiy mahsulotini ishlab chiqaradigan, balki qishloqning kelajagini, taraqqiyotini o‘z mas’uliyatiga olgan ijtimoiy-siyosiy harakatdir.

Shuni ta’kidlash zarurki, hozirgi sharoitda zamonaviy fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish, qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan, katta vazifalar va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan ko‘ptarmoqli xo‘jaliklarga aylanib bormoqda.

Eski dehqon va fermerlar uyushmasi O‘zbekiston fermerlar kengashiga, joylarda esa viloyat va tuman fermerlar kengashlariga aylantirildi. Bu haqda so‘z borganda, hozirgi vaqtida fermer xo‘jaliklarining

rivojlanishi va ularning faoliyatida yuzaga keladigan muammolarga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan biron-bir masala Fermerlar kengashining bevosita ishtirokisiz amalda hal etilmasligini qayd etish lozim.

Fermerlar kengashlari fermerlik harakati, qishloqlarning rivojlanishi va qishloq aholisining farovonligi o‘sishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib borishi muqarrar. Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, katta istiqbolga ega bo‘lgan, hozirgi vaqtida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 90–92 foizini ishlab chiqarayotgan fermer xo‘jaliklari mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi istiqomat qilayotgan qishloqlarimizning bugungi va ertangi farovonligini yanada oshirishni o‘z nazoratiga olishi zarur, deb o‘layman.

Xalqimizning hayot sifati va darajasini oshirish, jumladan, eng muhim ijtimoiy dasturlar doirasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar, oldimizda turgan keng ko‘lamli vazifalar haqida barchamiz yaxshi xabardormiz.

Faqat joriy yilning o‘zida 353 ta umumta’lim maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, shuningdek, 147 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseyda qariyb 400 milliard so‘m haj-

midagi kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

2020-yilgacha esa 500 ta umumta'lim maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, jumladan, 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylarni kapital ta'mirlash rejalashtirilmoqda.

Tibbiyot sohasida 2015-yilda 98 million dollar hajmidagi mablag' hisobidan 83 ta tibbiyot muassasasini, 2020-yilgacha esa – 180 million dollardan ziyod mablag' evaziga 230 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash nazarda tutilmoqda.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish ishlarini davom ettirishga alohida e'tibor qaratiladi, 2015–2016-yillarda 2 milliard 100 million dollar qiymatidagi 25 mingta uy-joy bunyod etish mo'ljallanmoqda. Buning uchun Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot bankining mablag'lari jalb qilinishi belgilanmoqda.

Qishloq infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida faqat tabiiy gaz va elektr tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 2020-yilgacha 530 million dollar, telekommunikatsiyalar tarmog'ini kengaytirish uchun esa – 136 million dollar miqdorida mablag' yo'naltirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Oltinchidan. Mahalliylashtirish va import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish – hozirgi bosqichda eng ustuvor vazifalarimiz qatorida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dasturni amalga oshirishning naqadar ulkan samara keltirishiga birgina fakt misolida ishonch hosil qilish mumkin. Ya’ni, biz bu dasturni joriy qilishga kirishgan 2000-yilning o‘zidayoq ilgari chetdan olib kelinadigan mahsulotlarni O‘zbekistonda ishlab chiqarishni boshlagan edik.

2000-yildan buyon mamlakatimizda import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 220 barobardan ziyod oshgani ham mahalliylashtirish va import o‘rnini bosishga qaratilgan ishlarimizning qanday katta samara berayotganini ko‘rsatadi.

Mahalliylashtirish va import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulkan imkoniyatlarga ega ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Hozirgi paytda mahalliylashtirilgan korxonalar nafaqat ichki bozorni to‘ldirmoqda, balki ular eksport bozoriga ham chiqmoqda. 2014-yilda umumiy qiymati 1 milliard dollardan ortiq hajmda 550 turdagи mahalliylashtirilgan mahsulot eksport qilindi.

Yurtimizda biz uchun butunlay yangi bo‘lgan avtomobil sanoatining tashkil etilgani import o‘rnini bosish bo‘yicha olib borilgan oqilonha siyosatning yorqin dalili hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 27 ta rusumdagи yuk va yengil avtomobillar, avtobuslar, minivenlar hamda 15 turdagи zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikalari ishlab chiqarilmoqda.

Ana shu tarmoqlarning barchasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar har yili 4 milliard dollardan ziyod hajmdagi import tovarlar o‘rnini bosish imkonini bermoqda.

Ushbu strategiyani yanada rivojlantirish maqsadida 2015–2019-yillarga mo‘ljallangan yangi Mahalliylashtirish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda umumiyligi 5 milliard dollardan ziyod 600 dan ortiq loyihami amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Yettinchidan. Bugungi kunda taraqqiyot, tub tarkibiy o‘zgarishlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlashning muhim sharti investitsiya jarayonlari bilan bog‘liq ekani haqida ortiqcha gapirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Faqat iqtisodiyotga investitsiya kiritish jarayoni uzluksiz davom etayotgan sohalardagina bar-

qaror iqtisodiy yuksalish, iqtisodiyotning diversifikasiya qilinishi va texnologik salohiyatning o'sishi kuzatilmoqda. Va aksincha, investitsiya hajmi kamayganda iqtisodiy o'sishning barcha ko'r-satkichlari pasayib, sanoat va boshqa tarmoqlarda orqaga ketish boshlanadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston taraqqiyoti uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi **190 milliard dollardan oshdi va bu mablag'ning 65 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi**.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish doirasida keng ko'lamli zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan loyihalar amalga oshirildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, o'nlab zamonaviy to'qimachilik komplekslari, meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlaydigan va oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlaydigan yuzlab korxonalar, eng ilg'or bug'-gaz va gaz turbinali texnologiyalarni joriy etgan holda ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilingani ana shunday yirik loyihalar qatoriga kiradi.

Birgina 2014-yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida 14 milliard 600 million dollar miqdoridagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi va bu

boradagi ko'rsatkich 2013-yilga nisbatan 11 foizga o'sdi. Ushbu mablag'larning 3 milliard dollardan ortig'i xorijiy investitsiyalardir.

Bugun qurilayotgan zamonaviy korxonalar qatorida Surg'il koni bazasida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda umumiyligi 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasining barpo etilayotgani xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning yorqin namunasidir.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosida amalga oshirilayotgan ushbu loyiha texnologik darajasi, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi va qurilish ko'lami bo'yicha o'ta noyob hisoblanadi va jahon gaz-kimyo tarmog'idagi eng yaxshi loyiha sifatida haqli ravishda ko'plab mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Tub tarkibiy o'zgarishlar, strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari sezilarli ravishda yordam ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ushbu institutlar tomonidan yo'naltirilgan kreditlar hajmi bugungi kunda 8 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda.

Investitsiya siyosati haqida gapirganda, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qishloq xo'jaligini

rivojlantirishga ham katta miqdorda investitsiya sarflamoqda. Misol uchun, faqat 2000-yildan 2014-yilgacha bo‘lgan davrda irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish, yirik va o‘ta muhim suv xo‘jaligi obyektlari faoliyati xavfsizligini va ulardan ishonchli tarzda foydalanish kafolatlarini oshirish uchun qariyb 1 milliard 300 million dollar hajmidagi mablag‘ yo‘naltirildi. Bu mablag‘ning 335 million dollari Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari hisobidan jalb etildi.

2015-yilda irrigatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish maqsadida 390 million 600 ming dollar hajmidagi markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan. Umuman olganda, 2020-yilgacha irrigatsiya tarmoqlarini yanada yaxshilashga markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan 1 milliard 480 million dollar, jumladan, qiymati 1 milliard 100 million dollarga teng imtiyozli chet el kreditlarini yo‘naltirish mo‘ljallanmoqda.

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda infratuzilmani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda qariyb 2 ming kilometr avtomobil yo‘llari, xususan, O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan 1,5 ming kilometr uzunlikdagi yo‘l tarmoqlari qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Temiryo‘l sohasida 342 kilometr uzunlikdagi yangi «Navoiy – Uchquduq – Nukus – Sulton Uvaystog‘» va 223 kilometrlik «Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on» tarmoqlari barpo etildi, 550 kilometrdan ziyod temiryo‘l liniyalari elektrlashtirildi. Ayni paytda, yangi «Angren – Pop» elektrlashtirilgan temiryo‘li va tog‘li hududlar orqali o‘tadigan 19 kilometrdan ziyod uzunlikdagi tonnel qurilishi nihoyasiga yetkazilmoqda.

Sakkizinchidan. Aholi bandligini ta’minlash, birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning eng muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Avvalambor, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik va xizmat ko‘rsatish sohasini, ayniqsa, qishloq joylarda yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash dasturlarini amalga oshirish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hisobidan keyingi paytda O‘zbekistonda yiliga qariyb 1 millionta ish o‘rni yaratilmoqda. Shuning 60 foizdan ko‘prog‘i qishloq joylarda tashkil etilayotgani, ayniqsa, ahamiyatlidir.

To‘qqizinchidan. Aholi hayot darajasi va sifatini yanada izchil oshirib borish masalasi

bizning doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Bu borada shuni qayd etish lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimiz davlat budgetining 59–60 foizga yaqini ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Faqat o'tgan 2014-yilning o'zida ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi 23,2 foiz, aholining real daromadlari 10,2 foizga ko'paydi.

Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda ushbu ko'rsatkich mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillaridagi 10,6 foizdan 52 foizga oshganini ta'kidlash lozim va bunday katta yutuq, albatta, barchamizga mammuniyat bag'ishlaydi.

Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rta sidagi farq 2000-yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, jamiyatimizning o'ta boylar va o'ta kambag'allarga keskin tabaqalanib ketishiga yo'l qo'ymaslik siyosatini amalga oshirganimiz o'z natijasini bermoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi har ikkinchi oila yurtimizda ishlab chiqarilgan shaxsiy avtomobilga ega. Deyarli har bir oilada kundalik zaruratga

aylangan mobil telefon, noutbuk, sun'iy yo'ldosh orqali ko'rsatadigan va kabelli televideniye, muzlatish kameralari va zamonaviy oshxonalar anjomlari kabi yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan jihozlar paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda uy-joy bilan ta'minlanish darajasi, jon boshiga hisoblaganda, 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshdi. Uy-joy fondining deyarli hammasi xususiy mulk shakliga o'tkazildi.

Aholining to'lov qobiliyati va iste'mol talabining ortib borayotgani ish haqi va pensiyalarining iste'mol narxlari o'sishiga nisbatan jadal oshishini ta'minlamoqda.

Masalan, 2000-yilda o'rtacha ish haqiga o'rtacha iste'mol savatining yarmini, ya'ni 50 foizini xarid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatkich tegishli iste'mol savatining 4,26 barobarini tashkil qilgani, ya'ni 2 barobardan ko'proq oshganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi.

Hurmatli syezd ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan keskinlik, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning tobora avj olib borayotgani, hamon davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari, radikalizm, terrorizm va ekstremizmning yanada

faollashayotgani, jahon bozorlaridagi beqaror vaziyat bizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi, albatta.

O‘zbekistonning bu boradagi prinsip va pozitsiyalari jahon hamjamiyatiga yaxshi ma’lum. Xavfsizligimiz asosini tashkil etadigan mazkur prinsip va pozitsiyalar 2012-yilda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlab qo‘yilgan.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman: **biz uzoq va yaqin atrofimizdagi barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.** Eng muhimi, hech qanday harbiy blokka qo‘shilmaymiz, O‘zbekiston hududida chet el harbiy bazalarining joylashuviga, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur, deb hisoblaymiz.

Uzoq va yaqin atrofimizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab vaziyatda aynan shunday yo‘lni, shunday siyosatni biz uchun eng to‘g‘ri va eng ma’qul deb bilamiz.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Biz oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarimiz – demokratik va fuqarolik jamiyati, barqaror sur’atlar bilan taraqqiy topayotgan iqtisodiyot, tinchosoyishta, badavlat hayat barpo etish, xalqaro maydonda davlatimizga obro‘-e’tibor va hurmat qozonish – bularning barchasi, albatta, qisqa davrda erishadigan, yetib boradigan qoyalar – marralar emas.

Buni hammamiz chuqur tushunamiz.

Lekin shu haqiqatni tan olgan holda, shu bilan birga, ta’kidlash kerakki, el-yurtimizga in’om etgan shunday omil va mezonlar borki, ular o‘z ta’siri, kuch-quvvatini mustaqillik yillarida mamlakatimiz qo‘lga kiritgan, boshqalar asrlar davomida erishadigan, dunyo hamjamiyatini hayratda qoldirayotgan yutuq va marralarda yaqqol namoyon etmoqda, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamан.

Yana bir muhim fikrni bildirishni zarur, deb hisoblayman.

Bugun O‘zbekiston deb atalmish qo‘rg‘onimiz tarixan qisqa davrda poydevori mustahkam, davr talabiga javob beradigan zamonaviy davlatga aylanib borayotgani, eng asosiysi, avvalo, odamlarimizning dunyoqarashi, fikri-zikri, siyosiy va huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotgani bu borada hal

qiluvchi omillardan biri ekanini hammamiz yaxshi anglamoqdamiz.

Takror-takror aytishga to‘g‘ri keladi – faqatgina xalqimizning mardligi va matonati, jonkuyarligi va qat’iyati, eng muhimi, kelajagimizni qurishda ertangi kunga bo‘lgan yuksak ishonchi oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishishda ulkan va qudratli zamin bo‘lishiga aminman.

Mana shunday oljanob, bag‘rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan, fidoyilik bilan xizmat qilish – barchamiz uchun eng yuksak sharaf, oliy saodatdir.

Muhtaram do‘stlar!

Sizlarga yana bir bor o‘zimning yuksak hurmat va ehtiromimni, samimiy tilaklarimni izhor etib, barchangizga sog‘lik-omonlik, baxt va omad, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, qut-baraka tilayman.

*Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati –
O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining
VII syezdidagi ma’ruza.*

2015-yil 6-fevral

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOVNING SAYLOVCHILAR BILAN UCHRASHUVLARI

Mamlakatimizda 2015-yilning 29-mart kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi milliy va xalqaro huquq normalari, demokratik standartlar asosida, ochiqlik, oshkorlik, tenglik va xolislik prinsiplariga to'la muvofiq ravishda o'tgani Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi, Islom hamkorlik tashkilotining kuzatuvchilar missiyalari hamda dunyoning 43 ta mamlakatidan kelgan xalqaro kuzatuvchilar tomonidan keng e'tirof etildi.

Haqiqatan ham, mazkur saylov xalqimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi, uning huquqiy ongi va tafakkuri, siyosiy partiyalar, fuqarolik institutlarning yetuklik darajasi tobora yuksalib borayotgani, jamiyatimizning demokratik qadriyatlarga sadoqatini yana bir bor namoyon etdi.

Hech shubhasiz, saylovnning ana shunday muvafiqiyatli o‘tishida saylovoldi jarayonlari, jumladan, Prezidentlikka nomzodlarning markazda va joylarda saylovchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlari muhim rol o‘ynadi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Islom Karimov ham, boshqa nomzodlar kabi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashdi.

2015-yil 19-fevraldan 18-martga qadar bo‘lgan vaqt mobaynida samimiylilik va oshkoraliq ruhida o‘tgan uchrashuvlarda Islom Karimov Prezident sayloving hayotimizda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha to‘xtalib, saylovchilarni o‘zining saylovoldi dasturi bilan yaqindan tanishtirdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur dasturda avvalo mustaqillik yillarda O‘zbekiston bosib o‘tgan g‘oyat murakkab, shu bilan birga, sharafli yo‘l chuqur tahlil qilinib, qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlar, amalga oshirilgan buyuk o‘zgarishlar misolida «Biz kecha kim edigu bugun kim bo‘ldik?» degan savolga atroflicha javob beriladi. Vatanimiz erishgan, jahon miqyosida tan olinayotgan yuksak marralarda har bir viloyatning munosib hissasi borligi ta’kidlanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik davrida 5

karradan ziyod o'sgani, aholi daromadlari qariyb 9 barobar oshgani, odamlarimizning o'rtacha yoshi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga uzaygani – bunday natijalar bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi, albatta.

Ayniqsa, keyingi o'n yil davomida jahondagi sanoqli davlatlar qatorida yalpi ichki mahsulotimiz 8 foizdan kam bo'lмаган sur'atlarda o'sayotgani va 2015-yilda ham shunday natija kutilayotgani chindan ham xalqaro jamoatchilikning, yaqin va uzoq yon-atrofimizdagi qo'shni mamlakatlarning hayrati va havasini uyg'otmoqda. Mana shunday yutuqlarga erishishda o'z vaqtida tanlangan, dunyoda «o'zbek modeli» deb nom olgan O'zbekistonning taraqqiyot yo'li beqiyos ahamiyatga ega bo'lgani uchrashuvlarda alohida qayd etildi.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi, yangi-yangi talab va vazifalarni, ilgari duch kelmagan turli o'tkir muammolarni oldimizga qo'yadi, dedi Islom Karimov.

Ayniqsa, biz bugun XXI asrda – intellektual salohiyat, internet va yuqori texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan globallashuv davrida yashayotganimizni, jahon bozoridagi keskin raqobat, dunyo miqyosida ziddiyat va "qarama-qarshiliklar tobora kuchayib, shiddatli tus

olayotganini hisobga oladigan bo'lsak, qo'lga kiritgan yutuq va natijalarimiz – bu biz tanlagan olis va murakkab yo'lning faqat bir qismi, ya'ni, dastlabki qadamlar ekanini chuqur anglab olishimiz darkor.

Mana shunday vaziyatda biz erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lmasdan, xotirjamlik va havolanish kayfiyatiga berilmasdan, hayot bilan hamqadam va hamnafas bo'lib yashash uchun tanlab olgan yo'limizdan qat'iyat bilan borishimiz, zamon qiyinchiliklariga taslim bo'lmasdan, ularni yengib yashashimiz kerak. Nega deganda, ezgu maqsadlarimizga erishish uchun bugun belni mahkam bog'lab mehnat qilmasak, o'zimizni qiynamasak, ertaga hayot bizni qiynab qo'yishi hech gap emas.

Islom Karimov o'zining saylovoldi dasturi ayni shu haqiqatni hisobga olgan holda ishlab chiqilganini, bizning vazifamiz aniq va ravshan – rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshirish, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson uchun erkin va farovon hayot kechirish imkoniyatlarini yaratib berishdan iborat ekanini ta'kidladi.

Bu maqsadga erishishning strategik yo'li sifatida 10 ta ustuvor yo'nalishni o'zida mujassam etgan eng muhim vazifalarga e'tibor qaratildi.

Islom Karimov mamlakatimizning istiqboldagi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti haqida to‘xtalar ekan, bu borada ishlab chiqilgan keng qamrovli ushbu dastur har bir mintqa va hududni uning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, mutanosib rivojlantirishni nazarda tutishini qayd etdi.

Uchrashuvlarda mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohot va modernizatsiya jarayonlari doirasida barcha hududlarimizni zamon talablari asosida taraqqiy ettirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish, odamlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Barcha sohalar bo‘yicha yaqin va uzoq kelajakda amalga oshiriladigan ishlar rejasи bayon qilindi.

Birinchi ustuvor yo‘nalish – iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil chuqurlashtirib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha barcha hududlarimizda yetarli iqtisodiy salohiyat mavjud ekani hamda o‘tgan davrda katta ishlar amalga oshirilgani, yaqin kelajakda yirik loyihalar mo‘ljallanayotgani aniq misol va raqamlar asosida ko‘rsatib berildi.

Masalan, Qashqadaryo viloyatida vohaning mavjud industrial salohiyatini yanada yuksaltirish maqsadida hozirgi vaqtida faqat neft-gaz, neft-kimyo sanoatining o‘zida qiymati salkam 10 milliard dollarga teng bo‘lgan 17 ta loyiha amalga oshirilmoqda. 2020-yilgacha viloyatda bu sohada 11 milliard dollar qiymatidagi 31 ta yangi loyiha joriy etiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa kelgusi besh yilda faqat sanoat sohasining o‘zida yana 500 ga yaqin yirik loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida 10 mingga yaqin odamni ish bilan ta’minalash imkonini paydo bo‘ladi. Shuningdek, Navoiy, Jizzax va Angren maxsus industrial zonalarida amalga oshirilgan katta hajmdagi bunyodkorlik ishlari, ularning mohiyati va ahamiyati haqida ham bo‘lib o‘tgan muloqlarda batafsil axborot berildi.

Ushbu industrial zonalar nafaqat Navoiy, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari, balki butun mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulkan qadam bo‘lgani, ana shu hududlarda qisqa muddatda zarur ishlab chiqarish tarmoqlari va infratuzilmalari barpo etilgani e’tirof qilindi. Yaqin vaqt ichida bu iqtisodiy zonalarda zamонавиy maishiy buyumlar, tikuv mashinalari, quyosh energiyasi uskunalari, yengil avtomobillar va qishloq xo‘jaligi texnikalari uchun

shinalar va konveyer lentalar, poyabzal, keramik plitkalar, santechnika vositalari, energiya tejaydigan lampalar, mobil telefonlar, telekommunikatsiya tarmoqlari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Bir vaqtlar – 90-yillarda sanoatimiz ulushi yalpi ichki mahsulotning 14,1 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, mana shunday keng ko‘lamli amaliy ishlarimiz hisobidan bugungi kunda bu ko‘rsatkich 25 foizni tashkil etmoqda.

Eng asosiysi, bunday loyihalar kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarini bitirgan minglab yoshlarni ish bilan ta’minalash imkonini bermoqda.

Mamlakatimiz istiqbolini belgilab beradigan sanoat sohasini jadal rivojlanadirish bilan bog‘liq islohotlarimizni amalga oshirish bundan keyin ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi, dedi Islom Karimov. Ayniqsa, to‘qimachilik, farmatsevtika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, avtomobilsozlik va yengil sanoat, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari kabi barcha tarmoqlarni yanada rivojlanadirish, shu asosda aholini doimiy ish bilan ta’minalash kelgusi rejalarimizda muhim o‘rin egallaydi.

Albatta, bugungi kunda yangi-yangi zamonaviy tarmoqlarga ega bo‘lib borayotgan sanoatimizning qiyofasini ko‘rsatadigan o‘zgarish va yangilanish-

lar, bu sohada amalga oshirilayotgan yirik loyi-halar haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin bu o‘rinda birgina muhim yo‘nalish – yurtimizda avtomobilsozlik sohasidagi loyihalarga alohida e’tibor qaratish o‘rinlidir. Jumladan, Samarqand viloyatining Jomboy tumanida Germaniyaning «MAN avto» kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilgan yirik zavodda yiliga 4 ming 600 ga yaqin yuk avtomobili va 1 ming 350 dan ortiq pritsep ishlab chiqarilmoqda.

Samarqand shahridagi yana bir yirik avtomobil zavodi – «Samavto» korxonasida esa 5 xil rusumdagι avtobuslar, 8 turdagι yuk avtomobillari, 35 xil kuzovlar tayyorlanmoqda. Ularning qatoriga yiliga 60 mingta «Damas» va «Orlando» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas’uliyati cheklangan jamiyati ham qo‘sildi.

Bu tarmoqda jahondagi yirik «Jeneral motors» kompaniyasi bilan erishilgan hamkorlik tufayli yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini yiliga 250 mingtaga yetkazish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Asaka shahridagi avtomobil zavodida bugungi kunga qadar 2 million 500 ming avtomobil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda yurtimizdagi har ikki oilaning biri o‘z yengil avtomobiliga ega, bularning

asosiy qismi ana shu zavodda ishlab chiqarilgan mashinalar ekani ayniqsa e'tiborlidir.

Islom Karimov bu haqda gapirar ekan, quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tdi.

Bu korxonada o'zimizning kollejlarimiz, oliy o'quv yurtlarimizni bitirib, chet elda malaka oshirib kelgan yoshlarimiz ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan, murakkab texnika va texnologiyalarni mohirona boshqarmoqda. Ular eng zamonaviy rusumdag'i, nafaqat ichki bozorimizda, balki xalqaro bozorda ham talab katta bo'lgan 8 turdag'i yengil mashinalarni ishlab chiqarayotgani, o'zingiz ayting, «Biz hech kimdan kam emasmiz va hech qachon kam bo'lmaymiz!» degan shiorimizning amaldagi yaqqol ifodasi emasmi?

Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik rivoji yo'lidagi barcha g'ov va to'siqlarni olib tashlash va bu sohaga to'liq erkinlik berish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bundan keyin ham izchil davom ettiriladi, deb qayd etildi saylovoldi uchrashuvlarida.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizi ana shu sohaga to'g'ri kelayotgani, ish bilan band bo'lgan aholimizning 75 foizi, ya'ni 10 millionga yaqin odam ayni shu sohada mehnat qilayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bu

masalaning biz uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanı yaqqol ayon bo‘ladi.

Shu bilan birga, ochiq aytish kerakki, joylarda kichik bo‘lsa ham o‘z ishini, o‘z biznesini ochishga intilayotgan xususiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash o‘rniga ularni ko‘rolmaslik, qo‘lidan ish keladigan odamlarning yo‘liga turli-tuman g‘ovo‘siqlar qo‘yish holatlari uchrab turganiga mutlaqo toqat qilib bo‘lmasligi, qonunga zid bo‘lgan bunday holatlarga butunlay chek qo‘yish muhim vazifa ekaniga alohida urg‘u berildi.

Saylovchilar bilan o‘tkazilgan muloqotlarda iqtisodiyotda ham, boshqa sohalarda ham **davlatning ishtirokini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish** lozimligi qayd etildi.

Davlatning ishtiroki, avvalambor, iqtisodiyotning barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlayotgan elektr energetikasi, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasi singari tabiiy monopoliyalarga asoslangan sohalarda saqlab qolinishi kerak. Ya’ni, zarar ko‘rib ishlayotgan davlat korxonalari va obyektlarini xususiy yoki korporativ mulk shakliga o‘tkazish, korxonalarda davlat ulushini kamaytirib, xususiy tadbirkorlik subyektlariga aylantirish, davlat aktivlarini ochiq savdolar orqali, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida sotish mo‘ljallanmoqda.

Bu borada Samarqand viloyatida keyingi besh yilda zarar ko'rib ishlayotgan 14 ta davlat korxonasi va obyekti xususiy yoki korporativ mulk shakliga o'tkazilgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida 21 ta ana shunday obyekt xususiy lashtirildi, 23 ta korxona «nol» qiymatida sotildi, avariya holatidagi 71 ta obyektga tegishli bo'lган yer maydonlari tadbirkorlarga berildi. Toshkent viloyatida esa ana shunday holatdagi 131 ta davlat korxonasi va obyekti xususiy yoki korporativ mulk shakliga o'tkazilgani bu murakkab va og'ir masalaning to'g'ri yechimini topishda hal qiluvchi qadamlar bo'lgani e'tirof etildi.

Barchamizga ayonki, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida **qishloq xo'jaligi** muhim o'rinni tutadi. Mazkur sohani barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdozligini oshirish, shu asosda hosildorlikni yuksaltirish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish masalasi bugungi kunda eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda Islom Karimov tomonidan muhim bir masalaga e'tibor qaratildi. Agar biz o'z vaqtida Sug'oriladigan yerkaring meliorativ holatini yaxshilash dasturini qabul qilmasak, 1 million 760 ming hektar yerning – e'tibor bering, agar respublika bo'yicha jami sug'oriladigan yerlarimiz 4 million

200 ming gektarni tashkil etishini inobatga oladigan bo‘sak, bu barcha ekin maydonlarining qariyb yarmi deganidir – meliorativ holatini yaxshilash mumkinmidi?

Mamlakatimiz bo‘yicha kelgusi 5 yilda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga 1 trillion 860 milliard so‘m, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun 3 trillion 144 milliard so‘m va 584 million dollarlik xorijiy investitsiyalarni yo‘naltirish rejalashtirilmoqda.

Ayni shu masala Sirdaryo viloyatida nihoyatda o‘tkir muammo bo‘lib, voha ahlini, avvalambor, zahmatkash dehqonlarni yillar davomida qiy nab kelgani haqida ko‘p gapisirishning hojati yo‘q. Viloyatdagi ekin maydonlarining 19 foizdan ortig‘i turli darajada sho‘rlangani, sizot suvlarining me’yоридан yuqori ekani, irrigatsiya inshootlarining yaroqsiz holga kelib qolgani ham bu boradagi ahvolni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘tgan davrda viloyatda 80 milliard 900 million so‘m mablag‘ hisobidan 11 ming gektardan ziyod yerning meliorativ holati yaxshilanishi natijasida hosildorlik g‘alla bo‘yicha 6 sentnerga, paxta bo‘yicha 5,5 sentnerga oshgani shu borada erishilgan eng muhim amaliy natija bo‘ldi.

Hozirgi kunda sug‘orish ishlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan Sardoba suv ombori barpo

etilmoqda. Bu yirik inshoot qurilishi 2017-yilda yakuniga yetkaziladi, shu tariqa Sirdaryo va Jizzax viloyatidagi minglab gektar yerkarni sug‘orish uchun qulay imkoniyat paydo bo‘ladi.

Buxoro viloyatida 233 ming gektardan ortiq yerning dardiga bamisol darmon bo‘lgan melioratsiya ishlari amalga oshirilganini alohida ta’kidlash zarur. Bu borada keyingi 7 yilda davlat budgetidan 133 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ ajratildi. Bu ayni shu maqsadda mamlakat bo‘yicha ajratilgan mablag‘ning 12,6 foizini tashkil etadi.

Xorazm viloyatida 160 milliard 800 million so‘m mablag‘ hisobidan 177 ming gektardan ziyod yerning meliorativ holati yaxshilangani ham hosildorlikning oshishi, pirovard natijada qishloq ahlining daromadi va turmush darajasi yuksalishiga zamin yaratdi.

Bu borada Urganch ekskavator zavodi bazasida xitoylik sheriklar bilan hamkorlikda 18 million 200 ming dollarlik investitsiya hisobidan ekskavator va buldozerlar ishlab chiqaradigan korxonaning ishga tushirilgani, hech shubhasiz, zamonaviy tarzda, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlarini qo‘llagan holda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda muhim qadam bo‘ldi. Kelgusi 5 yilda esa Xorazm viloyatida 264 milliard so‘m hajmidagi mablag‘lar evaziga 160 ming gektardan ortiq yerning meliorativ holatini yaxshilash rejalashtirilgan.

Islom Karimovning saylovoldi dasturida yana bir ustuvor yo‘nalish sifatida mamlakatimizda **fermerlik harakati** jadal sur’atlar bilan rivojlanib, odamlarning yerga, ishga bo‘lgan munosabati o‘zgarayotgani, eng muhimi, o‘z mehnatidan manfaatdorlik tuyg‘usi kuchayib, ularning dunyoqarashi, ong-u tafakkuri yuksalib borayotgani ta’kidlanib, bu boradagi dolzarb vazifalar o‘z ifodasini topgan.

Bu masalani Surxondaryo misolida olib qaraydigan bo‘lsak, hozirgi vaqtida viloyatda 5 mingdan ziyod fermer xo‘jaligi mavjud bo‘lib, ular tomonidan bugungi kunda yurtimizda yetish-tirilayotgan paxta xomashyosining 10 foizi, g‘allaning qariyb 6 foizdan ortig‘i tayyorlanayotganini ta’kidlash lozim. 2014-yilda viloyat bo‘yicha 335 ming tonnadan ziyod paxta, 495 ming tonna g‘alla, 575 ming tonna sabzavot, 185 ming tonna kartoshka, qariyb 90 ming tonna meva, 80 ming tonnaga yaqin uzum yetishtirildi.

Sirdaryo viloyatida esa 6 mingdan ziyod fermer xo‘jaligi tomonidan o‘tgan yili 580 ming tonna g‘alla, 243 ming tonnadan ortiq paxta, qariyb 346 ming tonna meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgani albatta mashaqqatli va katta mehnat natijasidir.

Shu bilan birga, fermerlik harakatini zamon talab qiladigan darajaga ko‘tarish, fermerlarni qishloqning haqiqiy tayanchi va ustuniga aylantirish, fermerlar kengashlarining faoliyati samarasini oshirish, ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini ko‘paytirish, qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnika, resurslarni tejaydigan texnologiyalar bilan ta’minlash, yangi avlod fermerlarini tayyorlash masalalariga dasturda alohida e’tibor qaratildi.

Saylovchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarda **mahalliyashtirish** va import o‘rnini **bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish** taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida eng ustuvor vazifalarimizdan biri ekani ta’kidlab o‘tildi.

Shu maqsadda mamlakatimizda 2015–2019-yil-larga mo‘ljallangan Mahalliyashtirish dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dasturda umumiyligi qiymati 5 milliard dollardan ziyod 602 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgani bu yo‘ldagi eng katta qadam bo‘ldi.

Toshkent viloyatida yaqin besh yilda shu borada 117 ta loyihani hayotga tatbiq etish rejalashtirilmoqda. Bu loyihalar energiyani tejaydigan yoritgichlar, temiryo‘l vagonlari va quyosh panellari uchun quyosh batareyalari, turli maishiy xizmat buyumlari kabi 146 turdagisi 465 milliard so‘mlik

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, 1 ming 700 ga yaqin yangi ish o‘rnini tashkil etish imkonini beradi. Yana bir muhim tomoni – yiliga 194 million dollar hajmidagi valutani tejashga erishiladi.

Andijon viloyatida yaqin 5 yilda avtomobil sanoati uchun butlovchi buyumlar, neft-gaz-kimyo mahsulotlari, sport anjomlari va boshqa tovarlar ishlab chiqarishga qaratilgan 45 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilmoxda. Ana shu loyihalarni hayotga joriy etish natijasida taxminan 1 trillion 500 milliard so‘m hajmidagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, 960 ta yangi ish o‘rni yaratish, yiliga 620 million dollarga yaqin valuta mablag‘larini iqtisod qilinishining o‘zi bu ishlarning miqyosi va ko‘lamidan dalolat beradi.

Bugungi kunda taraqqiyot, tub tarkibiy o‘z-garishlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlashning muhim sharti **investitsiya jarayonlari** bilan bog‘liq ekani haqida ortiqcha gapirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘y- layman, deya qayd etdi Islom Karimov o‘z das turining navbatdagi ustuvor yo‘nalishi haqida to‘xtalar ekan.

Bu yo‘nalishdagi ishlarimizning samarasi sifatida xorijiy investorlar ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 56 ta korxona tomonidan so‘nggi

7 yilda 3 milliard 700 million dollardan ziyod mahsulot va xizmatlar eksporti amalga oshirilganini ta'kidlash zarur.

Buxoro viloyati misolida oladigan bo'lsak, keyingi 7 yilning o'zida 9 milliard 500 million dollar hajmida investitsiya kiritildi. Shuningdek, Navoiy viloyati iqtisodiyotiga 9 trillion so'mdan ziyod investitsiya, jumladan, qariyb 1 milliard dollarlik xorijiy sarmoya kiritilganini alohida ta'kidlash zarur.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston taraqqiyoti uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 190 milliard dollardan oshdi. Dasturda bu boradagi ishlar kelgusida ham izchil davom ettirilishi belgilangan.

Aholi bandligini ta'minlash, birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi saylovchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlarda eng dolzarb mavzulardan biri sifatida qizg'in muhokama qilindi.

Ma'lumki, biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan aholi bandligini oshirish borasida har yili aniq reja asosida mamlakatimiz bo'yicha 1 millionga yaqin ish o'rni tashkil etilmoqda.

Birgina Qashqadaryo viloyatida o'tgan yili 89 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgani, jumladan, qariyb 45 ming nafar kollej bitiruvchisi ishga joylashtirilganini ta'kidlash lozim. Xorazm viloyatida

esa 60 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilib, 26 mingdan ziyod kollej bitiruvchisi ishga joylashtirilganini qayd etish joiz.

Nafaqat iqtisodiy, avvalambor, siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan bu vazifa, ya’ni, odamlarning, ayniqsa yoshlarning taqdirini, kelajagini hal qiladigan, ularni turli noma’qul, xatarli yo’llardan asraydigan bu masalaga e’tiborni yanada kuchaytirish, shu ishga mutasaddi bo‘lgan rahbar va xizmatchilarning mas’uliyatini oshirish lozim. Bir so‘z bilan aytganda, bu masala doimiy e’tiborimiz markazida turishi zarur.

Ayni shu muammoning to‘g‘ri yechimini topish, har qaysi odamning kuch-imkoniyati va qobiliyatiga yarasha ish topib berish, shu orqali ularni daromad bilan ta’minalash hisobidan xalqimiz, avvalo, qishloqda yashaydigan aholini hayotdan rozi qilish, ertangi kunga ishonchini mustahkamlash mumkin.

Dasturdan o‘rin olgan yana bir muhim ustuvor yo‘nalish – **xalqimizning hayot darjasи va sifatini yanada izchil oshirib borish** haqidagi amaliy fikr va g‘oyalar barcha uchrashuvlarda saylovchilar vakillari tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida aholi daromadlari qariyb 9 barobar o‘sganini inobatga oladigan bo‘lsak, bu

borada qanday katta o'sishga erishilgani yaqqol ayon bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi deyarli har bir oilada kundalik zaruratga aylangan mobil telefon, noutbuk, sun'iy yo'ldosh orqali ko'rsatadigan va kabelli televizorlar, muzlatish kameralari va zamonaviy oshxonalar anjomlari kabi yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan jihozlardan keng foydalanilayotgani ham aholi farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Keyingi 5 yilda mamlakatimizda **aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash** bo'yicha juda katta hajmdagi ishlar olib borilgani va dasturga ko'ra, bu masalaga kelgusida ham jiddiy e'tibor qaratilishi uchrashuvlarda alohida qayd etildi.

Yurtimizda yangi suv tarmoqlari va suv tozalash inshootlarini barpo etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va ularning quvvatini yanada oshirish borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini toza va sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash o'ta muhim vazifalarimiz qatoriga kiradi. O'tgan yillar davomida hududda shu borada 1 ming 400 kilometrlik suv tarmog'i qurilgani va rekonstruksiya qilingani natijasida 500 mingga yaqin aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi. Kelgusida 740

milliard so‘mdan ziyod mablag‘ hisobidan 5 ming 100 kilometr suv tarmog‘ini tortish va rekonstruksiya qilish ko‘zda tutilmoqda.

Navoiy viloyatida so‘nggi yillarda 275 ming aholining suv ta‘minoti yaxshilandi. Kelgusi 5 yilda viloyatda yana 1 ming 50 kilometrlik ichimlik suv tarmog‘i barpo etish rejalashtirilmoqda.

Saylovchilar bilan uchrashuvlarda yana bir muhim vazifa – **aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlashni** yaxshilash masalasiga e’tibor qaratilib, barcha shahar va qishloqlarimizda bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish va yaqin kelajakda amalga oshiriladigan rejalar haqida atroflicha ma’lumot berildi.

Ma’lumki, mamlakatimizning istiqboli va taraqqiyotini ta‘minlashda iqtisodiyotimizning quvvat manbai bo‘lgan **energetika sohasi** beqiyos o‘rin tutadi. Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining qariyb uchdan bir qismini yetkazib berayotgan Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida keyingi yillarda 60 million dollar investitsiya hisobidan 2 ta energiya bloki modernizatsiya qilingani, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida qiymati 512 million dollar hajmidagi bug‘-gaz qurilmasini 2015-yilda foydalanishga topshirish, Farg‘ona vodiysi aholisining elektr energiyaga bo‘lgan tala-

bini to‘laroq qondirish maqsadida To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stansiyasining birinchi va ikkinchi blokini yaqin 3 yilda ishga tushirish va 1000 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilayotgani ta’kidlandi.

Barchamiz yaxshi bilamizki, hozirgi kunda **zamonaviy transport va kommunikatsiya tarmoqlarini** rivojlantirmasdan turib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda yuksak marralarga erishib bo‘lmaydi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarning amaliy tasdig‘i sifatida temiryo‘l transportida Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib «Toshkent – Samarqand» yo‘nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilganini alohida e’tirof etish o‘rinli bo‘ladi.

Uchrashuvlarda bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish, yangi yo‘l va ko‘priklar qurish, shaharlar, qishloqlar, mahallalar hududlaridagi yo‘llarni ta’mirlash bo‘yicha ishlab chiqilgan aniq loyiha va rejalar haqida atroflicha so‘z yuritildi.

Bu borada yana bir o‘ta muhim loyiha – 123 kilometrlik «Angren – Pop» elektrlashtirilgan temiryo‘l tarmog‘i qurilishi jadal olib borilayotgani to‘g‘risida so‘z bordi. Bu temiryo‘lning 19 kilometri dengiz sathidan 1 ming 465 metr balandlikda

joylashgan murakkab tog‘ tizmalarini kesib o‘tadigan, Markaziy Osiyoda va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida eng uzun zamonaviy tonnel hisoblanib, dunyo miqyosida u 13-o‘rinda turadi. Hozirgi vaqtda ushbu temiryo‘lning 84 kilometrlik tarmog‘i qurib bitkazildi. U Yevropa bilan Osiyo qit’alarini o‘zaro bog‘laydigan transmilliy transport yo‘lagining uzviy bo‘g‘iniga aylanadi. Temiryo‘l ishga tushirilishi natijasida Toshkentdan Farg‘ona vodiysi viloyatlariga yuk tashish vaqt 2 barobar qisqaradi, yuk tashish tariflari esa salkam 4 marta kamayadi. Bu loyiha yiliga 20 million tonnadan ortiq yuk tashish va tranzit hisobidan 140 million dollar mablag‘ni tejash imkonini beradi. Yana bir muhim jihat – ana shu temiryo‘l tufayli 1,5 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi.

Kelgusi 3 yilda Qamchiq dovoni orqali o‘tadigan avtomobil yo‘li ta’mirlanadi, Namangan shahriga olib boradigan magistral yo‘lning Pop, Chust, To‘raqo‘rg‘on tumanlaridan o‘tadigan tarmog‘ini xalqaro standartlar darajasida rekonstruksiya qilish yakuniga yetkaziladi. 2017-yilda yana bir yirik loyiha – «Qarshi – Termiz» temiryo‘l tarmog‘ini elektrlashtirish nihoyasiga yetkaziladi va buning natijasida yuk tashish xarajatlari o‘rtacha 20 foizga kamayib, yo‘lovchi va yuk tashish tezligi 1,5 barobar oshadi.

Bu borada amalga oshiriladigan yirik loyihalar haqida gapirganda, birgina Surxondaryo viloyatida xalqaro standartlarga javob beradigan 336 kilometrlik avtomobil yo'llarini barpo etish, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan «Qarshi – Termiz» avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish belgilanganini aytish lozim.

Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda ham bu masala alohida tilga olinib, poytaxtimizda avtomobillar soni tobora ko'payib borayotgani, bu yerda transport qatnovini oqilona hal etish zarurligiga e'tibor qaratildi. Ayniqsa, poytaxtimizni aholining yashashi uchun eng qulay, obod va farovon maskanga aylantirish borasida qator tavsiya va fikrlar bildirildi.

Bu o'rinda Toshkent shahrida o'tgan 5 yilda 2 million 460 ming kvadrat metrdan ortiq uy-joy qurilgan bo'lsa, kelgusi 5 yilda 500 ta ko'pqavatli uy-joy barpo etish rejalashtirilganini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda Eski shahar hududida bunyod etilgan har tomonlama obod ko'chalar, shinam va ko'rkam binolar, maktab va poliklinikalar, mahalla guzarlari, ayniqsa, Eski Jo'va bozori, Abdulla Qodiriy nomidagi Madaniyat va istirohat bog'i, Bolalar ijodiyoti markazi, Milliy liboslar galereyasi Eski shahar qiyofasini tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi.

Birgina 2014-yilning o‘zida Beruniy ko‘chasi dan Xurshid ko‘chasi qurilgacha bo‘lgan masofada yangi Nurafshon ko‘chasi qurilgani, Labzak va Abdulla Qodiriy ko‘chalari kesishgan chorrahada yangi ko‘prik barpo etilganini ta’kidlash o‘rinlidir. Bir so‘z bilan aytganda, Eski shaharning bugungi kunda faqat nomi eski bo‘lib, u mutlaqo yangi qiyofa kasb etmoqda, dedi Islom Karimov.

2015-yilda Toshkent shahrining Eski shahar qismida qulay va shinam, zamonaviy uy-joylar barpo etish bo‘yicha qabul qilingan Prezident qarori asosida Nurafshon ko‘chasi bo‘ylab 5 ta 5 qavatli uy-joy qurilib, jami 162 ta oila yangi kvartiralar bilan ta’milanadi. Bundan tashqari, 2015-yilning oxiriga qadar Eski shahar hududida yana 258 ta kvartiradan iborat bo‘lgan, 3 va 5 qavatli 10 ta uy qurib foydalanishga topshirilishi ko‘zda tutilmoxda.

Ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholining mana shunday yangi uylarga ko‘chib o‘tishi hisobidan bo‘shab qolgan yer maydonlarida kelgusida, ya’ni 6–7 yil davomida 312 ming kvadrat metrdan iborat 160 ta 3 va 5 qavatli uylar bosqichma-bosqich barpo etilib, jami 4 ming 130 ta oila alohida kvartiralar bilan ta’milanadi.

Islom Karimov qurilish va obodonchilik ishlari yurtimizning barcha viloyat, shahar va tumanlarida,

olis qishloqlarda ham uzoqni ko‘zlab, aniq maqsad asosida amalga oshirilayotgani, ayniqsa, viloyat markazlari milliy va zamonaviy jihatdan uyg‘un qiyofaga ega bo‘lib borayotgani haqida to‘xtalib, bu xususda ham muhim taklif va tavsiyalarni bayon qildi.

So‘nggi vaqtarda iqtisodiyotimiz rivojlanib, odamlarimiz turmush darajasining yuksalib borishi tufayli nafaqat shaharlarda, balki qishloqlarda ham yangi uy-joylar qurish ko‘lamini kengayib borayotgani ayniqsa quvonchlidir. Bu haqda gapirganda, avvalo, 2014-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida 11 mingga yaqin uy-joy barpo etilganini ta’kidlash lozim. Masalan, Jizzax viloyatida o‘tgan yillarda jami 3 million kvadrat metr uy-joy qurildi. Ayniqsa, namunaviy loyihalar asosida qishloq joylarda 2 ming 292 ta uy-joy qurilib, o‘z egalariga topshirilgani qancha-qancha xonadonlarga zamonaviy qulaylik bilan birga, quvonch va shodlik olib keldi. Joriy yilda yana 690 ta ana shunday uy-joylar barpo etiladi. Kelgusi 5 yilda esa bu boradagi ishlar ko‘lamini yanada kengayib, 4 ming 295 ta uy-joy qurilishi belgilanmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa o‘tgan 5 yilda 3 million 380 ming kvadrat metr yangi turar-joylar, jumladan, qishloq joylarda namunaviy

loyihalar asosida 2 ming 332 ta uy-joy qurib foydalanishga topshirilganini qayd etish lozim.

Islom Karimov viloyatlardagi bunday ijobiy ishlarni ta'kidlar ekan, ayni paytda aholini uy-joy bilan ta'minlash, yakka tartibda uy-joy qurish, kommunal xo'jalik tizimini zamon talablariga ko'ra isloh etish va modernizatsiya qilish ishlarini takomillashtirish borasidagi dolzarb vazifalarga e'tiborni qaratdi. Chunonchi, joylarda aholining uy-joyga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojini o'rganib borish va shu asosda ko'pqavatli uylar barpo etish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, bu borada ayniqsa yosh oilalarning talab va ehtiyojlarini hisobga olish masalasi muhim ekani ta'kidlandi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida uy-joylar qurish sur'ati va ko'lami yil sayin kengaymoqda. Mustaqillik yillarida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,9 barobar oshgani ham shundan dalolat beradi.

Aholi soni ko'payib borayotganiga qaramasdan, odamlarni uy-joy bilan ta'minlashda jon boshiga to'g'-ri keladigan uy-joy maydonini 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshirishga erishildi. Uy-joy fondining deyarli barchasi xususiy mulk sifatida aholi tasarrufida ekanini aytish lozim. Vaholanki,

ko‘plab rivojlangan davlatlarda oilalarning yarmidan ko‘pi ijaraga olingan xonadon va uylarda yashaydi.

Saylovoldi uchrashuvlarida biz o‘z oldimizga qo‘ygan erkin va obod, farovon hayot qurishda zamonaviy bilim, yuqori kasb malakasiga ega bo‘lgan, o‘z yurti va xalqiga sadoqatli yosh avlodni tarbiyalash naqadar mas’uliyatli masala ekani qayta-qayta ta’kidlandi.

Bugungi kunda bu sohada amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida farzandlarimizning har tomonlama bar-kamol bo‘lib ulg‘ayishi uchun yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar tufayli yoshlarimizning jismoniy va ma’naviy jihatdan hech kimdan kam bo‘lmasdan voyaga yetayotgani barchamizga mam-nuniyat yetkazadi, dedi Islom Karimov.

1997-yilda qabul qilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim-tarbiya sohasida juda katta ahamiyatga ega bo‘lganini ta’kidlash lozim. Ushbu dastur nafaqat farzandlarimizning taqdirini, balki butun jamiyatimiz hayotini mutlaqo o‘zgartirib yubordi va bugungi kunda ijobiy ma’nodagi «portlash effekti» natijalarini biz amalda ko‘rmoqdamiz. O‘zbekistonning kelajagini belgilab beradigan ta’lim-tarbiya bundan buyon ham eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi dasturning

yana bir muhim yo‘nalishi ekani saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda ko‘p bor takrorlandi.

Bo‘lib o‘tgan muloqotlarda farzandlarimizni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish maqsadida ularni sport va musiqa olamiga keng jalg qilish, ulardan championlar, xalqaro musobaqalar g‘oliblarini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi.

Xalqaro maydonlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritadigan championlar faqat maktablardagi sport zallaridan yetishib chiqmasligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Biz barcha viloyatlarimizda, jumladan, Toshkent shahrida xalqaro sport ustalarini tayyorlaydigan yangi sport majmualarini barpo etishimiz kerak. Ularga xorijlik malakali trenerlarni jalg etishimiz lozim. Bu majmualar uchun bolalar yoshligidan saralab olinib, yillar davomida tayyorlanadi.

Ana shunday ishlarimizni kuchaytirish maqsadida, masalan, Farg‘onada xalqaro standartlarga javob beradigan 20 ming o‘rinli zamonaviy stadion barpo etildi. Andijon viloyatida esa kelgusi 5 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 65 ta obyektda qurilish, ta’mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Mana shunday ezgu ishlarning natijasi sifatida, misol uchun, birgina Namangan viloyatida keyingi

7 yilda 27 milliard 2 million so‘m mablag‘ evaziga 15 ta zamonaviy bolalar musiqa va san’at maktabi foydalanishga topshirilganini alohida qayd etish o‘rinlidir, deb ta’kidladi Islom Karimov.

Musiqa maktabining vazifasi – faqat bir asbob chalishni yoki nota savodini o‘rgatish degani emas. Bu maktablarning bosh vazifasi – avvalambor, bolalarimiz, yosh avlodimizning musiqa va san’atga bo‘lgan mehr-muhabbatini uyg‘otish va rivojlantirishdan iborat. Maqsadimiz – bolalarimiz jahon san’at olamiga chuqurroq kirib borsin, uning sir-asrorini, buyuk musiqa ijodkorlarining o‘lmas merosini – bu Betxoven bo‘ladimi, Shopen bo‘ladimi, Motsart bo‘ladimi – har tomonlama anglab yetsin.

Islom Karimov **aholi salomatligini mustahkamlash** borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida to‘xtalar ekan, sog‘liqni saqlash borasidagi islohotlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab aniq maqsadni ko‘zlab olib borilayotgani va bugungi kunda amaliy natijasini berayotgani haqida chuqur tahlilga asoslangan fikr va xulosalarmi bayon qildi. Faqat sog‘lom millat, sog‘lom xalq buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Shuning uchun ham aholi salomatligini mustahkamlash masalasiga mamlakatimizda ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Bugun nafaqat shahar va tuman markazlarida, balki yurtimizning olis va chekka hududlarida ham eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan tibbiyot maskanlari faoliyat ko'rsatayotgani ana shunday yuksak e'tibor samarasini ekani ta'kidlandi.

Mamlakatimizda sog'lijni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish maqsadida ko'ptarmoqli tibbiyot va diagnostika markazlari hamda tuman tibbiyot birlashmalari bosqichmabosqich kapital ta'mirlanmoqda, ular eng so'nggi zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanmoqda.

Bizning maqsadimiz eng rivojlangan davlatlardan zamonaviy asbob-uskunalarni olib kelish va o'zimizda eng murakkab operatsiyalarni amalgashirishdan iborat ekanini men ilgari ham ko'p aytganman, deb ta'kidladi Islom Karimov bo'lib o'tgan uchrashuvlarda. Bunday asbob-uskunalarni sotib olish emas, ishlatish muhim. Shifo istaganlarni, farzandlarimizni, qariyalarimizni Germaniya yoki Janubiy Koreyaga yubormasdan – bilasiz, bu qancha mablag' va ovoragarchilik degani – o'zimizda davolab, og'irini yengil qilishimiz kerak. Shunda ular hayotdan, bizdan rozi bo'ladi, qancha-qancha duo olamiz. Bu borada ham maqsadni, marrani baland qo'yishimiz lozim. Toki Germaniya va Janubiy

Koreyadan shifo istaganlar endi bizga kelsin, bizning klinikalarimizda o‘zlariga davo topsin!

Saylovchilar bilan muloqotlarda davlatimizning **tashqi siyosat** sohasidagi maqsad va vazifalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Bu borada O‘zbekistonning uzoq va yaqin atrofdagi barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shti mamlakatlar bilan do’stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashi, eng muhimi, hech qanday harbiy blokka qo’shilmasligi, mamlakatimiz hududida chet el harbiy bazalarining joylashuviga, harbiy xizmatchilarning, askarlarning mamlakat tashqarisida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmasligi yana bir bor qat’iy ta’kidlandi.

O‘zbekiston uzoq va yaqin atrofda vujudga kelayotgan bugungi murakkab va notinch vaziyatda aynan shunday yo‘lni, shunday siyosatni xalqimiz va uning istiqboli uchun eng to‘g‘ri va eng ma’qul deb biladi.

Islom Karimovning saylovoldi chiqishlarida ayniqsa yoshlarning qalbi va ongini turli zararli ta’sirlardan asrash, qadimiy va boy tariximiz, milliy qadriyatlarimizni soxtalashtirishga qaratilgan xavf-xatarlardan doimo ogoh bo‘lish, bugungi notinch va tahlikali dunyoda o‘zligimizni saqlab, sezgir va hushyor bo‘lib yashashimiz zarurligi alohida qayd etildi.

Bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda bugungi hayotimizning boshqa soha va tarmoqlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha hal qilishimiz lozim bo‘lgan vazifalar ham keng tahlil etildi.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan va ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishda barcha erishgan yutuq va g‘alabalarimizning ijodkori va bunyodkori bo‘lgan, bu hayotda ne-ne sinov va mashaqqatlarni boshidan kechirgan mard, oljanob va bag‘rikeng, bunyodkor xalqimizga tayanamiz va suyanamiz. Men butun O‘zbekiston xalqiga bundan buyon ham sidqidildan xizmat qilishni o‘zim uchun katta baxt, oliy sharaf deb bilaman, dedi Islom Karimov.

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI

Munis va muhtarama onaxonlar!

Qadrli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Barchamiz orziqib kutadigan, tabiat chiroy ochib borayotgan mana shu ilk bahor kunlarida, ayni shu shukuhli ayyomda siz, aziz qadrdonlarimni, sizlarning timsolingizda butun O'zbekiston xotin-qizlarini 8-mart bayrami bilan samimiy muborakbod etish menga katta quvонch bag'ishlaydi.

Biz hayotimizda turli-tuman sanalarni bayram sifatida keng nishonlaymiz. Shular qatorida ko'n-gillarimizga go'zallik va xursandchilik, fayz-u tarovat olib keladigan 8-mart bayrami alohida o'rin tutadi. Bu bayram agarki hayotimizda bo'lmasa, ana shunday bayramni albatta ta'sis etish kerak bo'lardi.

Nega deganda, ayni shu kunlarda Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lmish siz, muhtarama ayol-larning sha'niga yurak-yuragimizda, qalbimiz to'rida bo'lgan eng samimiy, eng olilianob so'zlarni, hurmat va ehtirom, mehr-oqibat, sevgi va sadoqat tuyg'ularini izhor etish uchun yana bir imkoniyat tug'iladi va barchamiz mana shu imkoniyatdan foydalanishga shoshilamiz.

Hech kimga sir emas, ayol zoti haqida, uning qanday tengsiz latofat va nafosat sohibasi ekani, ezgulik va fidoyilik ramzi, xonadonlarimizning fayz-u farishtasi ekani haqida tariximizda ne-ne ulug‘ mutafakkirlar, shoir va allomalar qancha-qancha dil so‘zlarini bayon etganlar.

Bu haqda gapirganda, avvalo, buyuk Alisher Navoiy bobomizning «Jannat onalarning oyog‘i ostidadir» degan mazmundagi hikmatli so‘zlarini yana bir bor eslaymiz va mehribon, muqaddas Ona siymosi oldida barchamiz bosh egib ta’zim qilamiz.

Mana shu bayram kunlarida har qaysi oila, har qaysi xonadonda qadrli opa-singillarimizni e’zozlash, ularni ulug‘lash uchun eng go‘zal va olajanob ta’riflarni keltirishga intilamiz. Shu o‘rinda men ayollarimiz shunga ishonishlarini istardimki, ayni mana shu 8-mart bayrami kelishi bilan biz hammamiz shoir bo‘lib ketishga tayyormiz. Albatta, shoirga aylanish juda qiyin, lekin men yurtimizning barcha mard o‘g‘lonlari nomidan avvalo siz, aziz-larga yuksak hurmat va ehtirom bildirib, qalblaringizda neki ezgu niyatlar, orzu-intilishlar bo‘lsa, ularning barcha-barchasi albatta ijobat bo‘lishini, ro‘yobga chiqishini chin yurakdan tilayman.

Bugun biz eng samimiyl dil so‘zlarimizni siz, azizlarga yo‘llar ekanmiz, ta’kidlash joizki, biz muhtarama onalarimiz, opa-singillarimizni, umr yo‘ldoshlarimizni hamma vaqt ham hurmat qilib

kelganmiz, lekin ularning biz uchun naqadar qadr-qimmatli, jondan aziz va mehribon ekanini anglash, ularni har tomonlama e'zozlash mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi.

Bunday qarashning sabablari haqida gapiradigan bo'lsak, aytish kerakki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bizning oilaga, ayol zotiga, umuman hayotga bo'lган munosabatimiz butunlay o'zgarib, tobora yuksalib bormoqda, hayotimizning ma'nomazmuniga, asosiy maqsadiga aylanmoqda.

Bu esa biz uchun juda muhim bo'lган bir fikrni, ya'ni «Kim edigu kim bo'lди?» degan haqiqatni yana bir bor tasdiqlab bermoqda.

Barchamizga ayonki, dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, demokratik tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini go'yoki oynadek aks ettiradigan shunday bir mezon borki, u ham bo'lsa, jamiyatning xotin-qizlarga bo'lган munosabati, hurmati bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va oljanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan xalq sifatida jahonda obro'-e'tibor qozonadi.

Unib-o'sib kelayotgan bolalarimizni, yosh avlodimizni mana shu ruhda tarbiyalab voyaga yetkazsak, shak-shubhasiz, hech qachon kam bo'lmaymiz.

Shu ma'noda, aynan istiqlol davrida biz ko'p narsalarni xuddiki qaytadan kashf etgandek bo'lmoq-damiz. Ayol go'zal bo'lsa – olam go'zal, ayol baxtli bo'lsa – oila, butun jamiyat baxtli bo'ladi, degan qarash ong-u shuurimizga chuqr kirib borayotgani va bizning hayotiy falsafamizga aylanayotganini har tomonlama anglab yetmoqdamiz.

Shular haqida gapirar ekanmiz, ayollarimiz xonadonlarimizda, mahallalarimiz, butun yurtimizda har doim o'zaro hurmat va hamjihatlik, mehr-oqibat muhitining, ta'bir joiz bo'lsa, hayot o'chog'ining eng kuchli posboni bo'lib kelgan va bugun ham ana shunday fazilatlari bilan insonni inson, oilani oila qilib kelmoqda, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Hurmatli do'stlar!

Biz o'tgan davrda mamlakatimizda erkin va farovon, demokratik hayot qurish yo'lida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini yuksaltirish, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, bir so'z bilan aytganda, ayollarni jamiyatimizning teng huquqli, faol va bunyodkor a'zosiga aylantirish borasida qanday ulkan ishlarni amalga oshirib kelayotganimiz haqida albatta barchangiz yaxshi xabardorsiz.

Bu haqda uzoq gapirmasdan, birgina o'tgan yilning o'zida «Sog'lom bola yili» dasturi bo'yicha qilgan ishlarimizga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak,

avvalo, 13 million 600 mingdan ziyod ayollar va bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, buning natijasida 2 million 800 ming ayol va 2 million 500 ming bola sog‘lomlashtirilganini alohida ta’kidlash zarur.

Shu bilan birga, yosh oilalarga uy-joy sotib olish, iste’mol tovarlarini xarid qilish uchun qariyb 215 milliard so‘mlik imtiyozli ipoteka kreditlari va 57 milliard so‘mlik foizsiz qarz mablag‘lari ajratilgani, sportchi qizlarimiz uchun 6 milliard so‘mlik sport kiyimlari bepul berilgani ham, o‘ylaymanki, ayollarimizga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yana bir amaliy namunasi bo‘ldi.

Muxtasar aytganda, birgina «Sog‘lom bola yili» Davlat dasturini amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan 4 trillion 795 milliard so‘m va 260 million AQSH dollaridan ziyod mablag‘ sarflanganining o‘zi, hech shubhasiz, bu boradagi faoliyatimizning ko‘lami va miqyosi naqadar ulkan ekanidan dalolat beradi.

Ayni paytda yurtimizda xotin-qizlarning siyosiy va huquqiy saviyasi, ijtimoiy faolligi tobora yuksalib borayotganini davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida, sud-huquq tizimida, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tuzilmalar faoliyatida, umuman, hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida yaqqol kuzatish mumkin.

Bu haqda gapirganda, Oliy Majlis Senati a’zolarining 17 foizini, Qonunchilik palatasi depu-

tatlarining 16 foizini ayollar tashkil etayotgani, shuningdek, xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarida yuzlab opa-singillarimiz faol ish olib borayotganini qayd etish o'rinnlidir.

Bugungi kunda xotin-qizlar o'zining bilim va tajribasi, professional malakasi va mahorati hisobidan ko'pgina jabhalarda yetakchi mavqelarni egallab kelmoqda. Hayotimizda tobora katta o'rinn olayotgan fermerlik harakati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar, ilm-u fan, tibbiyat, ta'limgartarbiya, madaniyat va san'at kabi o'nlab muhim soha va tarmoqlar rivojini ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu o'rinda hayotda ko'p bora o'z isbotini topgan bir fikrga e'tiboringizni qaratishni istardim.

Faqat sog'lom onadan sog'lom farzand tug'iladi. Faqat aql-zakovatli, ma'rifatli onalargina komil insonlarni tarbiyalashga qodir bo'ladi.

Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, mamlakatimizda xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan, uzoqni o'ylab, puxta ishlab chiqilgan va hayotga izchil joriy etilayotgan umummilliy dasturlarimiz bugungi kunda o'zining ulkan samarasini berayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu haqda uzoq gapirish, ko‘p-ko‘p misollarni olib kelish mumkin, lekin men faqatgina ba’zi bir raqamlarga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Keyingi uch yil mobaynida mamlakatimizdagi umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari jahon miqyosida o‘tkazilgan nufuzli fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lib, jami 110 ta medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, ularning 44 tasi qizlarimiz hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yoki san’at va musiqa sohasida dunyoning Parij, Rim, Berlin, Tokio, Moskva, Praga, Qohira, Seul, Dehli kabi yirik madaniyat markazlarida bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rik-tanlovlarda 530 dan ziyod o‘quvchi va talabalarimiz g‘oliblikka erishgani va ularning 240 nafarga yaqini qiz bolalar ekanini mamnuniyat bilan ta’kidlash o‘rinlidir.

Keyingi uch yilda 1 ming 850 dan ziyod iste’dodli sportchi yoshlarimiz xalqaro musobaqalarda zafar qozongan bo‘lsa, ularning 620 nafarga yaqini aynan qizlarimiz ekani albatta hammamizni quvontiradi.

Barchamizning suyanchimiz va tayanchimiz bo‘lgan farzandlarimizni, avvalo, qizlarimizni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan turli jabhalarda bellashuvga qodir bo‘lgan sog‘lom va barkamol avlod etib tarbiyalash, ularning qalbi va ongini zararli g‘oya

va ta'sirlardan himoya qilish yo'lida siz, jonkuyar opa-singillarimizning fidokorona xizmatlaringiz uchun har qancha tahsin va tasannolar aystsak arziydi, albatta.

Shu go'zal bayram kunlarida O'zbekiston xalq shoirasi, vafo va sadoqat kuychisi Zulfiya tavalludining 100 yilligi butun mamlakatimiz bo'y lab keng nishonlanayotgani ham davlatimiz, jamiyatimizning ayollarimizga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromining yana bir amaliy namoyoni sifatida bu yilgi 8-mart ayyomining mohiyati va ahamiyatini, ko'rk-u tarovatini yanada oshirmoqda, desam, o'y laymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Qadrli opa-singillar!

Aziz va go'zal qizlarim!

Sizlarni o'zingiz kabi chiroyli va dilbar bayramingiz bilan yana bir bor tabriklar ekanman, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xona donlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Farzandlaringiz va yaqinlaringiz baxtiga, el-u yurtimiz baxtiga hamisha omon bo'ling, azizlarim, mehribonlarim!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2015-yil 6-mart*

NAVRO‘Z BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Shu kunlarda tabiat uyg‘onib, bahor kelishi bilan ona-yurtimiz – O‘zbekistonimiz zaminiga Navro‘zi olam kirib kelmoqda.

Hammamiz orziqib kutadigan, yangilanish va yasharish, shod-u xurramlik ramzi bo‘lgan ana shunday eng ko‘hna, olijanob bayram bilan siz, azizlarimni, butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromimni bildirishdan baxtiyorman.

Qadrli yurtdoshlarim!

Barchamizga ma’lum, dunyoda bir-biridan bu-yuk, bir-biridan ajoyib bayramlar ko‘p. Lekin ular orasida Navro‘z ayyomi o‘zining qadimiyligi, tabiatimizga uyg‘unligi va go‘zalligi bilan, ma’nomazmunining teranligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Va ayni shuning uchun ham uyg‘onish va yasharish timsoli bo‘lmish bu buyuk ayyomni har bir xonodon, har bir oilada bag‘rini keng ochib,

uylarimizga kirib qolgandek, o‘zimizni esa atrof-tabiatimizning ajralmas bir qismidek his qilamiz.

Ana shu dilbar faslda insonlarning bir-biriga mehribonlik ko‘rsatishi, bemorlarga, muhtoj bo‘lganlarga beminnat yordam berish, tabarruk keksalarimizning duosini olish kabi noyob fazilatlar albatta odamning ko‘nglini yumshatadi, doim yaxshilikka intilishga, o‘zaro mehr-oqibatli bo‘lishga chorlaydi.

Navro‘zi olamning yana bir betakror xislati borki, u har qaysi uy, har qaysi yurda, butun Yer yuzida tinchlik va osoyishtalik bo‘lishiga da’vat etadi.

Bu ayyomda turli gina va arazlar unutiladi, urush va janjallar to‘xtaydi, murosayi madora, ahillik, odamiylik qaror topadi.

Aziz yurtdoshlar, qadrdonlarim!

Shular haqida gapirganda, Navro‘zning bunday o‘lmas g‘oyalari, ruhi va falsafasi hozirgi kunda tobora kuchayib borayotgan qarama-qarshiliklarni, turli mojaro va urushlarni faqatgina siyosiy va tinchlik yo‘li bilan yechish kerakligiga da’vat etishini, uni aynan bugungi hayotimizning eng o‘tkir, eng dolzarb muammolari bilan uzviy bog‘langanini yana bir bor tasdiqlab beradi.

Bizga, o‘zbek xalqiga nima kerak – tinchlik va omonlik kerak, degan da’vat el-yurtimiz orasida tobora keng tarqalib bormoqda. Buning asosiy

«Xush kelibsan o‘lkamizga Navro‘z, qadaming qutlug‘ bo‘lsin!» deb, eng katta orzu-niyatlar bilan kutib oladilar.

Haqiqatan ham, ming yillar avval – «Avesto» davrida paydo bo‘lgan Navro‘zi olam bizning xalqimiz uchun eng ko‘hna, asl milliy, sharqona yangi yil debochasi sifatida doimo sog‘inib, ardoqlab qarshi oladigan, har qaysi uyga shodlik va xursandchilik olib kelishi, o‘sha zamonlardan buyon xalqimizga mansub bo‘lgan an’ana va qadriyatlarni bezavol saqlab kelishi bilan **barchamizga – qadrli va azizdir.**

Ko‘klam ayyomi kelishi bilan ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz rizq-u ro‘zini tilab, qo‘sish haydab, dalaga don sochib, yam-yashil adirlarda ot choptirib, Navro‘z sayillarini o‘tkazgani xuddi kechagidek bo‘lib tuyuladi va barchamizni beixtiyor ana shu bayramona kayfiyatga berilib ketishga undaydi.

Ayni shu kunlarda mahalla-ko‘y doshqozonlar atrofida jamuljam bo‘lib, ayollarimiz, momolarimiz tunni tun demasdan, hech charchamasdan, ezgu niyat, zavq va xursandchilik bilan **insonga kuch-quvvat beradigan sumalak va halim, ko‘ksomsa va go‘ja kabi tansiq ne’matlarni tayyorlab,** ularni o‘z oilasi va do‘s-t-u birodarlari bilan baham ko‘rishi kabi ota-bobolarimiz, ajdodlarimizdan qolgan betakror an’ana va odatlarimiz yurtimizga,

ma’nosi – bugungi notinch, keskinlashib borayotgan zamon barchamizdan hushyor va ogoh bo‘lishni talab etayotganini, tinch va osuda hayot uchun, mana shu musaffo osmon uchun kurashish, butun dunyo bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashashni bildiradi.

Fursatdan foydalanib, bugungi Navro‘z shodiyonamizda ishtirok etayotgan barcha chet ellik mehmonlarimizga, xorijiy elchixonalar va xalqaro tashkilotlarning vakillariga sizlarning nomingizdan, butun xalqimiz nomidan chuqrur hurmat va minnatdorlik bildirib, ularning mamlakatlari va xalqlariga tinchlik-omonlik, farovonlik va ravnaq tilashga ijozat bergaysiz.

Bugun katta umid va ishonch bilan hayotga kirib kelayotgan, o‘z fikriga, zamonaviy bilimga ega, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan siz, navqiron o‘g‘il-qizlarimizga, sizlarning timsolingizda butun O‘zbekiston yoshlariga qarata aytmoqchiman: **biz hech qachon hech kimdan kam bo‘lmajanmiz va hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaymiz!**

Ko‘zlagan maqsad-muddaolarimizga albatta yetamiz!

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Barcha-barchangizni bag‘rimga bosib, yana va yana bir bor bugungi go‘zal ayyom bilan qutlab,

qalbimdan, yuragimdan chiqadigan samimiy tilaklarimni izhor etmoqchiman.

Navro‘z har bir oila, har bir xonadonga, butun yurtimizga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, fayz-u baraka olib kelsin!

Ezgu orzu-niyatlarimiz ushalsin, O‘zbekistonimiz yanada obod va farovon bo‘lsin!

Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

2015-yil 21-mart

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI LAVOZIMIGA KIRISHISH TANTANALI MAROSIMIGA BAG'ISHLANGAN OLIY MAJLIS PALATALARINING QO'SHMA MAJLISIDAGI NUTQ

Aziz vatandoshlar, muhtaram Oliy Majlis deputatlari!

Qadrli mehmonlar!

Avvalo, siz, hurmatli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolariga, sizlarning timsolingizda butun xalqimizga murojaat qilib, mening O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib saylanishimga o'z ishonchini bildirgan yurtdoshlarimga o'zimning samimi minnatdorligimni izhor etishdan baxtiyormen.

Ayni shu fursatdan foydalanib, siz, azizlarimga o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni bildirib, hammangizga sog'lik-omonlik, baxt-saodat tilayman, qalbimdagi eng ezgu orzu-tilaklarimni qabul qilishingizni so'rayman.

Menga bildirilgan ishonchni o'zim uchun, avvalo, ulkan mas'uliyat va katta sharaf deb bilaman va yana bir bor aytmoqchiman – bunday yuksak, hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan xalq ishonchini oqlashga, bajo keltirishga butun borlig'imni safarbar qilaman.

Qadrli do'stlar!

Biz eski, o'zini oqlamagan mustabid, zo'ravon tuzumdan butunlay voz kechib, taqdirimizni o'z qo'limizga olib, biz uchun yangi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, hech kimdan kam bo'lmaydigan ozod va obod hayot qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yib, amalga oshirayotgan qat'iy o'zgarish va islohotlar natijasida **bugun erishayotgan yuksak marra va yutuqlarimizni hech kim inkor etolmaydi.**

Bularning asosiy omili va mezoni sifatida, hech shubhasiz, biz tanlagan va dunyoda «o'zbek modeli» deb nom olgan, mashhur besh tamoyil – prinsipga asoslangan, tadrijiy – evolutsion, bosqichma-bosqich rivojlanishning O'zbekiston yo'li naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi bugun tasdiqlab bermoqda.

Bu modelning afzalligi va bugun o'zini butunlay oqlaganini O'zbekistonga xos bo'lgan turli tabiiy, tarixiy, milliy, demografik va ekologik xususiyatlarni to'la hisobga olganida ko'ramiz.

Misol uchun qishloq xo'jaligini oladigan bo'lsak, bu sohada arenda – ijara mulkiga asoslangan fermerlik harakatini rivojlantirishga katta e'tibor berganimiz, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaganimiz evaziga bu harakat, hech shubhasiz, yaqin tariximizda o'chmas iz bo'lib qoladi, de-

sam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman. Fermer xo‘jaliklarimiz bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining nafaqat 90–92 foizini ishlab chiqarmoqda, balki qishloq hayotining taraqqiyotini o‘z zimmasiga olgan ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanib bormoqda.

Yoki bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizini ishlab chiqarayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqida gapiradigan bo‘lsak, hozirgi vaqtda ish bilan band aholimizning 75–77 foizi bu sohada mehnat qilmoqda.

O‘z-o‘zidan ayonki, ko‘p narsadan dalolat beradigan ana shunday ko‘rsatkich va raqamlar biz olib borayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ertangi kunimiz, **taraqqiyotimiz yo‘lida mustahkam poydevor bo‘lishi muqarrar**.

Shuni to‘liq asos bilan aytishimiz mumkin – ayni shu kabi islohotlarni amalga oshirish hisobidan biz O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashga erishmoqdamiz. Ya’ni, oxirgi 10 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari 8 foizdan oshib kelayotgani va 2015-yilda ham – shunga ishonchimiz bor – bundan kam bo‘lmasligini inobatga olsak, barcha narsa o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Albatta, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining ana shunday yuksak sur’atlar bilan o‘sishi o‘z-

o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlangan chuqur tayyorgarlik ishlarimiz, avvalo – shuni yana bir bor aytishga to‘g‘ri keladi – taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning samarasidir. Biz yon-atrofimizdagi ba’zi mamlakatlar kabi, mana, o‘z yo‘limizni tanlab oldik, falon yilga borib, eng rivojlangan davlatlar ro‘yxatining boshiga chiqamiz, deb katta-katta minbarlardan maqtanganimiz yo‘q va hech qachon bunday qilmaymiz.

Bunday yutuqlarning sabablarini biz, avvalo, mard va matonatli, ko‘pni ko‘rgan xalqimizning, odamlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi va saviyasi tobora yuksalib borayotganida ko‘ramiz. Va eng muhimi, buning sababi bugungi kunda hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqayotgan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, **mustaqil va yangicha fikrlaydigan, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan navqiron yoshlarimizni** biz o‘zimizning ishonchimiz, tayanchimiz va suyanchimiz deb bilganimizdadir.

O‘zingiz ayting, azizlarim, qadrdonlarim, agar biz o‘z vaqtida, bundan 18 yil oldin Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilib, uni hayotga joriy etishga kirishmaganimizda, yoshlarimizning taqdiri, bugungi va ertangi kunimiz nima bo‘lar

edi? Milliy taraqqiyotimiz yo‘lida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan bu buyuk ishimiz umum-milliy harakatga aylanib, shu asnoda o‘z kela-jagimizni ko‘rganimiz eng katta yutug‘imiz bo‘ldi. Agar biz yoshlарimizni ana shunday yuksak darajada katta hayotga tayyorlab bormasak, hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlardan yurtimizga kelgan mehmonlar, yirik firma va kompaniyalarning vakillari «o‘zbek yoshlарining ko‘zi yonib, chaqnab turadi, ular har qanday murakkab vazifani bajarishga qodir» deb, bolalarimizga tan berarmidi? Har bir ota-ona, butun xalqimizga yuksak g‘urur bag‘ishlaydigan bunday gaplar qulog‘imiz ostida doimo jaranglab tursa va Vatanimiz kelajagi yoshlарimiz qo‘lida, degan shiorimiz qancha ko‘p amalga oshsa, haqiqatan ham, hech kimdan kam bo‘lmaymiz.

Ammo shular haqida so‘z yuritar ekanmiz, bir achchiq haqiqatni esimizdan chiqarmasligimizni istar edim. Agarki biz erishgan yutuq va marralari-miz bilan chegaralanib, xotirjamlik, havolanish va beparvolik kayfiyatlariga berilib ketsak, bunday holat barchamiz yo‘l qo‘ygan, kechirib bo‘lmaydi-gan katta xatoga aylanib ketishi mumkin.

Biz XXI asrda – intellektual mehnat va Internet davrida, globallashuv zamonida yashayotganimizni, hayot taraqqiyoti hech qachon bir joyda to‘xtab

turmasligini unutmasligimiz zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Buning ustiga, jahon miqyosida iqtisodiy-moliyaviy inqiroz davom etayotgani, raqobat, qarama-qarshilik tobora beshafqat tus olayotgani, radikalizm, terrorizm, ekstremizm kabi tahdidlar kuchayib borayotgani **barchamizdan, avvalo, bir yoqadan bosh chiqarib, safarbarligimizni yanada oshirishni talab qiladi.**

Shu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz qatorida hayotimizni keskin o'zgartirayotgan demokratik islohotlarni tezlashtirish, ularning samarasini oshirish bugungi kunda, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifamizga aylanmoqda, desam, yanglishmagan bo'laman.

Xorijlik hamkorlarimiz, dunyodagi eng taraqqiy topgan davlatlarning vakillari, bugungi majlisimizda ishtirok etayotgan chet mamlakatlarning muhtaram elchilari mustaqillik yillarida O'zbekiston barcha sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganini, ayni paytda oldimizda bundan ham katta vazifalar turganini o'zaro muloqot va suhbatlarda doim e'tirof etishadi.

Mana, yaqinda AQSH Prezidenti janob Barak Obamaning mening O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga qayta saylanganim munosabati bilan yo'llagan qutlov telegrammasi bilan butun xalqimiz

ommaviy axborot vositalari orqali tanishdi. Ana shu telegrammada ayni shu mavzu haqida ham so‘z yuritilgan.

Chindan ham, agar biz dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish yo‘lida yanada yuksak marralarni egallamoqchi, hayotimizni yangi bosqichga ko‘tarmoqchi, avvalambor, erkin, ozod va farovon yashamoqchi bo‘lsak, demokratiyani hayotimizga tatbiq etishda hech kimdan, hech qachon orqada qolmasligimiz kerak.

Men shuni istayman va barchangizni shunday maqsadlar sari da’vat etaman.

Shular haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo, biz uchun to‘sinq bo‘lib turgan, eski mustabid tuzumdan qolgan asoratlarga barham berish va bugun hamon o‘z yechimini kutayotgan turli muammolarni hal qilishimiz, qabul qilgan qonunlarimizni izchil amalga oshirish, olib borayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, birinchi navbatda, axborot va so‘z erkinligi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlan-tirish va himoyalash kabi islohotlarni yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish – aytish mumkinki, bu sohalarda hali qiladigan ishlarimiz ko‘p.

Hech kimga sir emas, iqtisodiyotimizning raqo-

batdoshligini ta'minlamasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilmasdan, texnologik va texnik nuqtayi nazardan yangilamasdan turib, biz ishlab chiqaradigan mahsulotlarni jahon bozori, ertaga esa ichki bozorimiz ham qabul qilmaydi.

Bu haqiqat hammamizga ayon bo'lishi kerak. Bu haqiqatdan biz hech qachon ko'z yuma olmaymiz.

Bugungi kunda dunyoda shafqatsiz kurash ket-yapti. Shunday ekan, hayotning o'zi talab qila-yotgan, har tomonlama asoslangan yangi strategik yo'lni hayotimizga joriy qilmasdan, barcha jab-halarda yangi g'alabalarni qo'lga kiritmasdan turib, bu kurashda yutib chiqa olmaymiz. Agar bizga bo'laveradi, degan kayfiyat bilan yashaydigan bo'l-sak, juda katta xatoga yo'l qo'yamiz va kelajak avlodlarimiz bizni hech qachon kechirmaydi.

Shuning uchun ham ertangi kunni, kelajak istiqbolimizni o'ylaydigan bo'lsak, bugun iqtiso-diyotimizda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarni, **avvalambor, tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish**, yangi, zamon talab qiladigan darajaga ko'tarish masalasini hal qilmasdan turib, ochiq aytishimiz kerak, biz o'z maqsadlarimizga – taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarilishimiz haqida gapi-rishning hojati qolmaydi.

Birinchi navbatda, Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan ko‘ptarmoqli iqtisodiyotimizning ustuvor sohasi bo‘lmish xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik yo‘lidan barcha g‘ov va to‘sqliarni yo‘q qilish – biz uchun hal qiluvchi, ustuvor vazifaga aylanishi darkor.

Aytish kerak – o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda xususiy mulk va mulkdorlarni himoyalashga qaratilgan ishonchli me’yoriy-huquqiy asos va kafolatlarni, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka zarur sharoit va imtiyozlarni yaratib berish bo‘yicha ko‘pgina ishlar bajarildi va bajarilmoqda. Lekin ming afsuski, xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan ustuvorligi barchamiz uchun ayon bo‘lishiga qaramasdan, bu yo‘nalishda amalga oshirayotgan ishlarimiz, **avvalo, mulkdorlarga erkinlik berish masalalari to‘la yechilmayapti, o‘zining kutilgan samarasini bermayapti.**

Erkinlik deganda, biz nafaqat insonning ozod yashashi, erkin nafas olishini, balki, avvalo, mulkdorlar va tadbirkorlarga haqiqiy erkinlik berishni, faoliyat erkinligini tushunamiz. Mulk egasi va tadbirkorlarning qo‘l-oyog‘iga turli bahonalar bilan kishan kiyadiradigan zo‘ravonlar – bu nazorat qiladigan vazirlik va idoralar bo‘ladimi, ruxsat beruvchi, bank, moliya hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatadigan tuzilmalar bo‘ladimi, yer ajratish,

zarur resurslarni olish yo‘lidagi hali-beri o‘z yechimini topmagan muammolar bo‘ladimi – bunday g‘ov va to‘sıqlar bu sohaga faqat zarar keltiradi, uning rivojini bo‘g‘ib, erkin harakat qilishiga qo‘ymaydi. Bundayadolatsizlikka endi chidash mumkinmi? Yo‘q, hech qachon.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi vakillari, mulkdorlar sinfi nafaqat o‘zini, oilasini boqayotgan, ayni paytda xalqimiz farovonligini ta‘minlashga, milliy armiyamizni qo‘llab-quvvatlashga, bir so‘z bilan aytganda, milliy taraqqiyotimizga hissa qo‘sheyotgan ekan, ular, avvalambor, erkin va yana bir bor erkin bo‘lishi shart. Bundan keyin mutasaddi vazirlik va idoralar, joylardagi boshqaruv idoralari faoliyatiga ayni shu talab va mezon asosida baho beramiz. Agar qayerda kimdir o‘z ishini halol va vijdonan bajarayotgan tadbirkorlarga ishonch bildirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash o‘rniga, ularga ola ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsa, bilib qo‘yinglar, biz bunga boshqa toqat qilmaymiz. Ba’zi bir odamlarning ongida shunday bir bema’ni tushuncha va tasavvur qotib, o‘rnashib qolganki, undan hanuzgacha qutula olmayapmiz. Ya’ni, tekshiruvchi, albatta, xato va kamchilik topishi va kimnidir, albatta, jazolashi kerak. Baraka topkur, bu – eski mustabid tuzumdan qolgan soxta qarash emasmi?

Aslida, tekshirishdan asosiy maqsad shunday bo‘lishi kerakki, u, avvalambor, kamchilikni topish va uni bartaraf etish, kelgusida bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun xizmat qilishi kerak.

Mutasaddi idoralar ayni shu fikrni o‘ziga shior qilib olishini istardim. Agar kimda-kim tekshirishlarni o‘zining shaxsiy manfaatini ko‘zlab tashkil qilayotgan va amalga oshirayotgan bo‘lsa, bunday odamlar bilan biz – rahbarlar, ya’ni davlat kurashtishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, **iqtisodiyotimizda davlatning ulushi va o‘rnini strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirishimiz darkor.**

Yana bir bor aytaman, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini sezilarli darajada qisqartirishimiz kerak. Nega deganda, iqtisodiyotda davlatning ulushi ko‘p bo‘lsa, bu faqat ziyon keltiradi. Men o‘sim davlat rahbari, davlatning vakili bo‘lib, shu gapni aytayotgan ekanman, buning uchun barcha asoslarim, ilmiy va amaliy jihatdan mustahkamlangan xulosalarim bor.

Bugun kim foydali ish qilyapti-yu, kimdir esa nomiga ishlab, buning uchun oylik olyapti – biz hammasini yaxshi bilamiz. Mansabdor odamlar orasida o‘z manfaatini davlat manfaatidan, xalqimiz manfaatidan ustun qo‘yayotgan odamlar bor ekan,

ularni mas’ul lavozimga, vazifaga qo‘yib, biz xato qilganmiz. Hali ham kech emas, biz bu boradagi ishlarni, albatta, tartibga olib, joyiga qo‘yamiz. Kim yangicha ishslashni xohlamayotgan, kun o‘tsa bo‘ldi-da, deb yurgan bo‘lsa, shuni bilsinki, ularning o‘rniga intiluvchan, ishga, mehnatga chanqoq yoshlarimiz keladi.

Farzandlarimiz – bizning ertangi kunimiz, deb ko‘p gapiramiz. Haqiqatan ham, qayerda, qaysi sohada, mana, men borman, bu ishni, bu mas’uliyatni o‘z zimmamga olaman, deb maydonga otilib chiqadigan yoshlar bo‘lsa, ular – ertangi kunimiz, ular – mening bolalarim. Agar shunday g‘ayrat-shijoat bilan o‘zingizni namoyon etmasangiz, o‘ylaymanki, vaqtingiz bekor ketayapti, aziz bolalarim. Sizlarga, mana, men Prezident sifatida aftyapman: siz – mening suyanchim va tayanchim, hech qachon qo‘rqmang, marrani baland olib, oldinga bosing.

Albatta, bugun bizning yanada jadal oldinga borishimizga xalaqit berayotgan, yo‘limizda to‘sinq bo‘layotgan g‘ovlar ko‘p. Ayniqsa, korrupsiya degan baloning oldini olish va unga qarshi qat’iy kurashish lozim. Dunyoda korrupsiyani yengib bo‘lmaydi, degan gap keng tarqalgan. Men bunga qo‘shilmayman. To‘g‘ri, korrupsiyani oxirigacha yengib bo‘lmaydi, degan gapda jon bor. Lekin hammamiz, butun xalqimiz bir yoqadan bosh

chiqarib, bir tan-u bir jon bo‘lib kurashsak, uni yengish mumkin.

Davlat idoralarida lavozimda o‘tirganlar, avvalombor, o‘zining manfaatini emas, balki davlat manfaatini o‘ylashi kerak. Ammo sovet davridagi xususiy mulkni butunlay rad etgan mafkuraviy qarash ham qaytmasligi kerak. O‘sha mustabid tuzum davrida davlat manfaati uchun ming-minglab odamlarning nafaqat mol-mulki, balki hayoti ham barbod qilingan. Bugun bu haqda misol keltirishning hojati yo‘q deb o‘ylayman.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Davlat manfaati yoki davlat mulkinning hukmronligi belgilab qo‘yilmagan. Davlat, avvalo, inson manfaati, uning huquqi va erkinliklarni ta’minalash uchun xizmat qilishi lozim. Boshqacha aytganda, birinchi navbatda, odamlar rozi bo‘lsa, boy bo‘lsa, shundan keyin davlat manfaati ham ta’milanadi, davlat ham boy bo‘ladi.

Oldimizda turgan yana bir muhim vazifa – ma’muriy buyruqbozlik tizimining hamon saqlanib qolayotgan har qanday shakllaridan voz kechib, davlat organlari, biznes va xususiy sektor o‘rtasidagi vazifa va vakolatlarni aniq belgilab qo‘yishimiz,

savdo operatsiyalarini, chakana savdodan tashqari, asosan, birja orqali amalga oshirish tizimiga o'tishimiz kerak.

Biz bu borada ko'p-ko'p yutuqlarni qo'lga kiritganimiz barchamizga qanot beradi, albatta. Shu yo'lida boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarib, birja savdosini rivojlantiradigan bo'lsak, byurokratiya, kerak bo'lsa, korrupsiyaning payi ancha qirqiladi.

Aksincha bo'lsa, deylik, xaridor va o'z mahsulotini taklif etayotgan tomonning vakili uchrashib, shaxsiy manfaati yo'lida o'zaro kelishishi mumkin. Birjada esa bunday o'zboshimchalik bo'lmaydi, faqat qonun asosida ish yuritiladi. Shunday ekan, biz bu boradagi ishni yana rivojlantirishimiz kerak, albatta.

Ayniqsa, kichik biznes sohasida bu o'zini to'liq oqlamoqda. Bugungi kunda kichik biznes subyektlarining kamida 50 foizi birja savdolarida qatnashib, zarur resurslarga ega bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qarab, biz bu masalada kichik biznesga bu borada yanada keng yo'l ochib berishimiz kerak.

Shular qatorida korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalar faoliyatiga ham ko'pgina xorijiy firma va kompaniyalar tajribasi asosida tegishli o'zgartirishlar kiritish zarur.

Bu boradagi amaliy tajribamiz shuni ko'rsatadiki, **O'zbekistonda mahalliy aksiyadorlar bilan birga, chet ellik investorlarning ham aksiyalarga ega bo'lishi mulkchilikning eng ma'qul, samarali, o'zini oqlayotgan yo'lidir.** Buning afzalligi, avvalambor, shundaki, xorijlik aksiyadorlar – muassislar qo'shma korxonalarga, avvalo, ilg'or, yuqori texnologiyalarni olib kelish bilan birga, ishlab chiqarishni zamonaviy asosda tashkil etish va boshqarishni joriy etadi.

Shu asnoda biz xorijiy davlatlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ochiqligimizni bildirib, bu borada yangi yo'l va imkoniyatlar ochib berishga tayyormiz, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

Ayni shu yo'lni biz o'zimizga ma'qul, deb bilamiz va bu borada amaliy ishlarni boshlaganmiz. Mamlakatimizda bu sohadagi hozirgi holat, afsuski, qoniqarli emas. Ko'pchilik kompaniya va birlashmalar nomigagina aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. O'ylaymanki, o'z vaqtida bu masalaga yuzaki qaralgani va chuqur tekshirmasdan turib ruxsat berilgani bunga sabab bo'lган.

Shunday ekan, mutasaddi vazirlik va idoralarining bu boradagi faoliyatini yana bir bor tanqidiy baholab, aybdorlarni, kerak bo'lsa, javob-

garlikka tortish kerak. Chunki O‘zbekistonda bunday o‘yinlar ketmaydi. Afsuski, biz bu masalada pala-partish ishlarga yo‘l qo‘ydik. Aksiyalar ham nomiga chiqarilgan, ular deyarli ish bermayapti.

Bu boradagi amaliy tajribamiz shuni ko‘rsatmoqdaki, mahalliy aksiyadorlar bilan birga chet ellik investorlar ham aksiyalarga ega bo‘lgan kompaniyalar o‘zini oqlayapti.

Shuning uchun biz barcha kompaniyalarni ana shunday shaklga o‘tkazishni eng to‘g‘ri yo‘l deb bilamiz. Chet mamlakatlarning vakillari o‘z sarmoyasi bilan kelib, kompaniyalarimizning aksiyalarini sotib olsa, aksiyador bo‘lsa, buning nimasи yomon? Shunday yo‘l tutsak, avvalambor, yurtimizga zamonaviy texnologiya keladi, ikkinchidan, mahsulotlarimizni jahon bozoriga chiqarish osonroq bo‘ladi.

Bugungi kunda dunyo bozorida raqobat shu darajada shafqatsiz tus olmoqdaki, unda mustahkam o‘rin egallash oson emas. Mayli, eng yuksak texnologiyani yurtimizga olib kelib, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqardik ham deylik. Lekin ularni ertaga qayerda sotamiz? Jahon bozorida bizni hech kim, keling, marhamat, deb kutib olmaydi. Bu bozor to‘liq bo‘lib olingan, unda bo‘sh joyning o‘zi yo‘q. Ammo biz bu bozorda o‘zimizga

xos va o‘zimizga mos o‘rin egallab, shuning hisobidan mahsulot sotib, valuta ishlashimiz zarur. Biz bunga qanday erishishimiz mumkin? Qachonki mahsulotimizga talab katta va u yuqori sifati bilan boshqalardan ustun bo‘lsagina jahon bozorida o‘z o‘rnimizni topishimiz mumkin. Sifatli mahsulot chiqarish uchun esa eng zamonaviy texnologiyalar kerak. Shu ma’noda, ana shunday texnologiyalarga ega bo‘lgan xorijlik investorlarni korxonalarimizga sherik sifatida jalb qilsak, ular aksiya egasi bo‘lsa, biz ko‘p narsa yutamiz.

Shular qatorida Internetning imkoniyatlaridan keng foydalanishimiz zarur. Bugungi kunda dunyo bozorida nima yangilik bo‘lyapti, qaysi mahsulotga qancha talab bor, narx-navo qanday, ertaga nima bo‘lishi kutilmoqda, degan savollarga javob berishga har birimiz – katta kompaniyalar rahbarlaridan tortib, menejerlar, fermerlar, har bir ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi tayyor bo‘lishi lozim. Bu – hayot talabi.

Ayni vaqtida shuni ham yaxshi bilib olish kerakki, jahonda yuksak texnologiyalarga ega bo‘lgan davlatlar ko‘p emas. AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi bu sohada katta salohiyatga ega bo‘lgan davlatlar bilan yaqin bo‘lib, ular bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalarini ko‘paytirsak, faqat foyda ko‘ramiz.

Bu borada har qanday mafkuraviy qarashlarni chetga surib qo‘yishimiz kerak.

Ruxsatingiz bilan yana bir muhim masala yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarimni bayon etmoqchiman. Hozirgi kunda jahonda iqtisodiy kurash bilan birga, mafkuraviy qarama-qarshilik ham kuchayib bormoqda. Mafkuraviy kurash – bu, avvalo, siyosiy kurash degani. Har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy nuqtayi nazardan manfaati bo‘lishi tabiiy hol. Bularning orasida ma’naviyat sohasidagi manfaat va kurash eng muhim jabha hisoblanadi. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» nomli kitobimda bu masalalar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Ma’naviyat aslida nima ekanini hammamiz churqur anglab olsak, uni bolalarimizga ham o‘rgatsak, biz kimmiz, qanday buyuk zotlarning avlodimiz, qanday beba ho ma’naviy merosning vorislarmiz, degan savollarni oldimizga qo‘yib, ularga javob berib yashaydigan bo‘lsak, hech narsadan qo‘rqmasak bo‘ladi. Chunki bunday ishonch va e’tiqod bilan yashaydigan xalqni hech kim yenga olmaydi.

Xalqimizning ezgu hayot talablariga javob beradigan, uning tub manfaatlari, orzu-intilishlarini har tomonlama aks ettiradigan milliy g‘oya, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir yurtdoshimizning

o‘z g‘oyasiga aylansa, ularning qalbi va yuragidan chuqur joy olsa, – men ishonaman – ana shunda biz ko‘zlagan yuksak maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Bugungi kunda biz, ertaga nima bo‘lishini oldindan aytib bo‘lmaydigan, ko‘p jihatdan noaniq, beqaror bir zamonda yashayotganimizni hisobga olgan holda, avvalo xalqimizning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi, iymon-irodasini yanada mustahkam qilish haqida o‘ylashimiz kerak.

Bir haqiqatni barchamiz, birinchi navbatda yoshlarimiz aniq-ravshan tushunib olishini istardim: mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat qurish maqsadida boshlagan ishlarimizni mantiqiy yekuniga albatta yetkazish – bu biz uchun tariximizning o‘zi isbotlab berayotgan eng to‘g‘ri yo‘l va biz shu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmasligimiz shart. Shuni unutmasligimiz kerakki, mustaqillik, bugungi erkin hayot, bugungi beqiyos imkoniyat har qaysi millat, har qaysi avlod tarixida faqat bir marta beriladigan ulug‘ va noyob ne’matdir.

Agarki biz uchun haqiqatan ham hayot-mamot masalasi bo‘lgan ana shu imkoniyatni boy bersak, zimmamizga yuklatilgan buyuk tarixiy mas’uliyat hissini yo‘qotsak, o‘z oldimizga qo‘ygan oliy maqsadlarga yetish uchun yurtimizda yashayotgan har qaysi ongli inson bor kuch-g‘ayrati, aql-zakovatini bag‘ishlashiga erisha olmasak, ochiq aytish

kerak, biz el-yurtimiz oldida, yosh avlodimiz, jondan aziz farzandlarimiz oldida xiyonat qilgan bo'lamiz. O'z-o'zidan ravshanki, bunga yo'l qo'yishga bizning hech qanday haqqimiz yo'q.

Bu fikrni barcha vatandoshlarimiz, yoshlariimiz ongiga chuqur singdirish avvalo biz – rahbarlar, yetakchilar uchun ham qarz, ham farz, deb hisoblayman.

Bugungi kunda amalga oshirayotgan va 2015-yil hamda kelgusi yillar uchun belgilab olgan islohotlarimizni ayni shu talablar asosida yanada churqurlashtirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini davom ettirishimiz, hech shubhasiz, davlat boshqaruvi tarkibini va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yangi bosqichga ko'tarishga, jahon miqyosida O'zbekistonimizning munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Qadrli do'stlarim, yurtdoshlarim!

Ruxsatingiz bilan yana bir o'ta muhim va barchamizni o'ylantiradigan masalaga to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Ya'ni, bugungi kunda barchamiz qanday o'ta tahlikali, tobora keskinlashib borayotgan, turli xavf-xatarlarni olib kelishi mumkin bo'lgan zamonda yashamoqdamiz.

Ayni shunday vaziyatni hisobga olib, bugun yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalikni, xalqimizning osuda hayotini, chegaralarimizning

daxlsizligini asrash maqsadida biz uzoq va yaqin atrofimizdagи barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning eng ustuvor vazifamiz, deb bilishimiz kerak.

Yana va yana bir bor aytishni o'zimning burchim, deb bilaman – **O'zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy blokka qo'shilmaydi, o'z hududida chet el harbiy bazalarini joylashtirishga, bizning harbiylarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'ymaydi.**

Bugun yaqin atrofimizda vujudga kelayotgan o'ta murakkab vaziyatda ayni shunday yo'lни, shunday siyosatni biz uchun eng to'g'ri, eng ma'qul, deb bilamiz. **Ilgari ham aytganimdek, bizga, xalqimizga tinchlik va omonlik kerak, buning uchun kurashishimiz kerak.**

Fursatdan foydalanib, bizga yaqindan yordam va ko'mak berib, hamkorlik qo'lini uzatib, doimo xayrixoh bo'lib kelayotgan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarga, ularning mana shu zalda o'tirgan vakillariga, barcha chet ellik mehmonlarimizga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy tashakkur izhor etishga ruxsat bergaysiz.

Men chet davlatlardan kelgan hamkorlarimiz, avvalambor, diplomatik korpus, biznes vakillari bilan ko'p uchrashaman. Ular orasida urush haqida,

qarama-qarshilik to‘g‘risida gapirgan bironta odamni uchratmadim.

Ayniqsa, diplomatlarga qoyil qolaman. Ular o‘zini shunday tutadiki, hech qachon birortasi bilan yomon kayfiyatda xayrlashganimni eslay olmayman. Elchilarning vakolat muddati tugagach, ular bilan xayrlashayotganimda o‘zimni bamisol yaqin do‘stimni kuzatayotgandek his qilaman.

Chunki xorijiy davlatlarning elchilari yurtimizda ishlagan vaqtłari mobaynida biz bilan shunday yaqinlashib, do‘stlashib ketadiki, xayrlashishning o‘zi og‘ir bo‘ladi. Bironta elchini ko‘rmadimki, mana, men nihoyat ketyapman, bundan mamnunman, degan bo‘lsa. Shu bois bugun yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan chet mamlakatlarning elchilariga butun xalqimizning hurmat va ehtiromini yetkazmoqchiman.

Menga qolsa, maxsus bir mukofot ta’sis etib, Vatanimizda o‘z faoliyatini yakunlayotgan diplomatlarni u bilan taqdirlasak, ayni muddao bo‘lardi.

O‘ylaymanki, bu zalda o‘tirgan katta-kichik barcha rahbarlar, parlamentimiz palatalari a’zolari muhtaram elchilar bilan uchrashsa, muloqotlar olib borsa yoki ular bilan hamkorlik to‘g‘risida kelishuvlarga erishish paytida ularning o‘rtasida ayni shunday kayfiyat hukmronlik qilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Diplomatning eng katta yutug‘i nima, deb so‘rasangiz, men ular ko‘p ishlata digan ibora bilan, urushni boshlamasidan turib uni yutishida, deb javob bergen bo‘lardim. Mana shunday xususiyat va alomatlarga ega bo‘lgan odamlar, albatta, tasodifan O‘zbekistonga kelmaydi.

Shularni hisobga olib, markazda bo‘ladimi, viloyatlarda bo‘ladimi, barchamiz chet davlatlarning muhtaram vakillariga shunday hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lsak, bu bizning qoidamizga aylansa, hammamiz, avvalambor, O‘zbekistonimiz uchun ma’qul ish bo‘lardi.

Mening O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishim munosabati bilan o‘z tabrik va qutlovlarini yo‘llagan barcha davlat rahbarlariga, siyosat va jamoat arboblariga chuqr minnatdorlik bildiraman.

Menga yuksak ishonch bildirgan ona xalqimga bosh egib, yana va yana bir bor ta’zim qilaman.

Mana shunday olajanob, bag‘rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan xizmat qilish – men uchun eng yuksak sharaf, oliy saodatdir.

Doimo sog‘-omon bo‘linglar, qadrdonlarim!

2015-yil 10-aprel

INSON, XALQ VA MILLAT XOTIRA BILAN TIRIK VA BARHAYOTDIR

Bugun Vatanimiz, xalqimiz Ulug‘ Vatan urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 70 yilligini keng nishonlamoqda.

Ana shu buyuk sana bilan, avvalo, urushda o‘zbek xalqining vakili sifatida qatnashgan, har tomonlama qahramonlik va botirlik ko‘rsatgan barcha urush faxriylarini, shular qatorida front ortida kunni – kun, tunni – tun demasdan fidokorona mehnat qilgan, g‘alaba uchun kurashgan yurtdoshlarimizni, butun xalqimizni tabriklash, jang maydonlarida bugungi mana shunday musaffo osmon uchun jon bergen aziz insonlarning muqaddas xotirasi, arvohlari oldida tiz cho‘kib ta’zim qilish, shu kunlarga yetib kelolmaganlarni eslash barchamiz uchun, hech shubhasiz, ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Bugungi kunda dunyoda kimki bu urush haqida gapirmasin, odamzod boshiga og‘ir judolik va qiyinchiliklar, musibat va azob-uqubatlar solgan bu qирг‘ин haqiqatan ham insoniyat tarixidagi eng qonli va dahshatli fofia bo‘lganini tasdiqlaydi. Bizning yurtimizda ham birorta inson, oila yo‘qli, bu qирг‘inning jabrini tortmagan bo‘lsa yoki uni

ko‘zda yosh bilan eslamasa. Bugun ana shunday iztirob yurtimizda yashayotgan har qaysi odamning xayolidan takror va takror o‘tadi.

Qisqacha aytganda, fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba xalqimiz uchun chindan ham juda katta mashaqqat evaziga qo‘lga kiritilganini va naqadar qimmatga tushganini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Bu haqda gapirganda, avvalambor, urush keltirgan yo‘qotish va ayriliqlar, farzandi, turmush o‘rtog‘i, aka-ukalari urushga ketib, qaytib kelmagan ming-minglab onalar, beva qolgan yosh-yosh ayollar, opa-singillarimizning motamsaro bo‘lib, butun umr o‘z jigarbandlari, bolalari, yaqinlarini eslab, ularning yo‘liga intizor bo‘lib yashagani, o‘ylaymanki, hozir ham hammamizning ko‘nglimizni bezovta qilishi tabiiy, albatta. Chunki bu faqat xotira emas, afsus-nadomatli, alamli bir kechinmadir.

Biz G‘alaba kunini, bir tomondan, katta g‘urur va xursandchilik bilan nishonlaymiz, ikkinchi tomondan esa, jurnalistlarimiz juda to‘g‘ri aytganidek, ko‘zda yosh bilan kutib olamiz. Bu fikr, bu so‘zlarni hech kim esidan chiqarmasligi kerak. Mana shunday bayram kunlarida bu g‘alaba bilan biz butun xalqimizni tabriklaymiz. Bu albatta xursandchilik, nega deganda, o‘zingiz o‘ylang, buning teskarisi bo‘lganida nima bo‘lardi? Bu fashizmga taslim

bo‘lish, qullik va xo‘rlik ostida yashash, oqibatini hatto tasavvur qilish ham qiyin bo‘lgan mudhish bir qismat, fofja bo‘lardi. Bu g‘alabaning ma’nomazmunini shunday tushunib, uning ahamiyatiga shunday baho berar ekanmiz, bu yo‘lda yuz minglab yosh, navqiron yurtdoshlarimiz jon olib, jon bergani, o‘ylaymanki, hech qachon xalqimizning xotirasidan o‘chmaydi.

Shu borada ba’zi raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, urushdan oldin mamlakatimiz aholisining soni 6,5 millionga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, uning 1,5 millioni urushda qatnashib, jasorat va qahramonlik ko‘rsatgan. Boshqacha aytganda, urush boshlanishi bilan O‘zbekistonning barcha mard o‘g‘lonlari fashizmga qarshi kurashga otlangan, yurtimizda qurol ko‘tarishga qodir bo‘lgan har qaysi odam shu urushda qatnashgan.

Ana shu jasur va fidoyi ota-bobolarimiz, akalarimiz ona yurtimizni yovuz dushmanidan himoya qildi va kerak bo‘lsa, o‘zbek xalqi, o‘zbek o‘g‘loni nimalarga qodir ekanini amalda yana bir bor namoyon etdi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Mana shu qonli urushda qatnashib, jang maydonlarida halok bo‘lgan vatandoshlarimiz haqida gapirish, albatta, juda og‘ir. Yarim millionga yaqin odam jang-u jadallarda qurban bo‘lib, o‘z uyiga qaytmadi.

Bu raqamlarni aytish oson. Afsuski, vaqt o'tgani sayin ba'zi odamlar bunga juda sodda, oddiy ko'z bilan qaraydi. Men o'ylaymanki, urushda qurbon bo'lgan har bitta jon, har bir halok bo'lgan inson – bu mislsiz yo'qotish, katta musibat. Agar ularning har birini orqasida oilasi, ota-onasi, sevgan yori, murg'ak bolalari bo'zlab qolganini hisobga oladigan bo'lsak, bu qancha-qancha insonlarning, kerak bo'lsa, butun el-yurtning fojiasiga aylanganini sezish, his etish qiyin emas.

Men bu voqealarni bolalik paytimda o'z ko'zim bilan ko'rghanman, mudhish qoraxatlar kelganida shahar va qishloqlarimizda, mahallalarimizda, yurtimizda yashayotgan har bir odam uchun bu katta motamga aylanganiga guvoh bo'lганman.

Bularning barchasini, o'ziga yaqin insonini yo'qotish naqadar og'ir musibat ekanini qalbidan, yuragidan o'tkazgan kishigina o'sha paytdagi umumxalq qayg'usini, qanday mudhish fojiani boshimizdan kechirganimizni tasavvur qila oladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, men bir fikrni yana takrorlab aytmoqchiman: faqatgina raqamlarning o'zi bilan urushning dahshatini ham, G'alabaning mohiyatini ham to'liq tushuntirib bo'lmaydi. Lekin har qaysi oila, avvalambor, har qaysi ona uchun farzandidan ayrilish haqiqatan ham shunday bir tengsiz judolikki, bu umrbod bitmas

jarohat bo‘lib qoladi. Bu haqiqatni hech kim inkor eta olmaydi.

Shu borada yana bir fikrni aytib o‘tish kerakki, urush yillarida front ortida mehnat qilgan yurtdoshlarimiz uchun ham oson bo‘lmagan. Ko‘pchilik yoshlariimiz balki bundan unchalik xabardor emasdir. Nega deganda, biz bu haqda, afsuski, ko‘p gapirmaymiz. Urush paytida sobiq Ittifoqning g‘arbiy o‘lkalaridan O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan zavodlarda kim mehnat qilgan, deb o‘zimizga bir savol berib ko‘raylik. Mana, misol uchun, Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinalari zavodi bo‘ladimi yoki «Il» samolyotlarini ishlab chiqargan aviatsiya birlashmasi bo‘ladimi, ularning barchasida o‘sha paytda qariyalarimiz, ayollarimiz, bolalar va o‘smirlar ishlagan. Men bu zavodlarning tarixini yaxshi bilaman, ularda shunday qattiq tartib o‘rnatilganki, agar kimda-kim ishga 5 daqiqa kech keladigan bo‘lsa, 5 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. 10 daqiqa kechikkanga 10 yillik jazo tayinlangan. Mana shunday nihoyatda og‘ir bir vaziyatda ba’zi odamlar sexlarning o‘zida yotib-turib, shu yerning o‘zida kecha-yu kunduz ishlashga majbur bo‘lgan. Bunday tartibda ishslash inson uchun qanchalik mashaqqat ekanini hozirgi yoshlarga journalistlarimiz aniq misollar bilan sharhlab, tushuntirib bersa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Tasavvur qilasizmi, o'sha zavodlarda ishlagan odamlar o'rtasida «Bundan ko'ra meni harbiy xizmatga yuboringlar, frontga borib jangga kiray», deganlar ham kam bo'lмаган. Bunday holatlarni o'z ko'zi bilan ko'рган va bugun yaxshi eslaydigan odamlar ham bor.

Yana bir muhim fikr shuki, O'zbekiston urush yillarida SSSRning g'arbiy hududlaridan, fashistlar Germaniyasi bosib olgan yerlardan ko'chirilgan ming-minglab odamlarni qabul qilgan, el-yurtimiz ularga o'z uyidan joy bergen, nafaqat boshpana bergen, o'z qalbini ochib, mehr-muruvvat ko'rsatgan. O'zbek xalqining jabrdiyda odamlarga boshipana bergani, ularga ko'rsatgan cheksiz mehr-oqibati, odamiyligi, insoniyligini unutishga hech kimning hech qanday haqqi yo'q. Men buni har qadamda takror va takror aytishga tayyorman. Nega deganda, 1 milliondan ortiq odamga, ayollar, keksa va nogiron kishilarga, yetim bolalarga boshipana berish, nafaqat boshipana berish, o'ziga yetishmagan, o'zi muhtoj bo'lган bir burda nonni ular bilan birga baham ko'rish – bu oddiy va oson ish emas. Bu hammaning ham qo'lidan kelmaydi.

Xalqimiz o'rtasida «Sen yetim emassan!» degan ibora ayni shu yillarda paydo bo'ldi. Buni butun o'zbek xalqi yaxshi biladi, desak, to'g'ri bo'ladi. El-yurtimiz ana shunday og'ir va musibatli damlarda

o‘zining mehr-muruvvatini, yuksak insoniy fazilatlarini namoyish etib, hayot sinovidan yorug‘ yuz bilan o‘tgani har qanday tafsinga munosibdir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘sha paytlarda yurtimizda birorta odam, birorta xonodon bunga qarshi chiqqani yo‘q. Birorta odam, biz nega ularga uyimizdan joy berishimiz, ularni boqishimiz kerak, ey bu qanday adolatsizlik, deb gapirgani yo‘q. Yoki ichida, yuragida ularga qarshi bir og‘iz so‘z aytgani yo‘q. Buni hatto xayoliga ham keltirgani yo‘q. Masalan, o‘sha paytda bizning oilamiz ham Belorussiya va Ukrainadan evakuatsiya qilingan odamlarni qabul qilgan. Uyimizni ularga bo‘shatib berib, o‘zimiz qanday qiynalib yashaganimizni men yaxshi bilaman. O‘sha vaqtida men esimni tanigan bola edim.

Bugun ayrim mamlakatlarda g‘alabaga biz juda katta hissa qo‘sghanmiz, deb maqtanib yurganlar ham topiladi. Mana, 9-may arafasida MDH mamlakatlari rahbarlari uchrashuvida ham shunday holat ko‘zga tashlandi. Bu uchrashuvda aytilgan gaplar balki Internetda chiqqandir, o‘qisangiz bo‘ladi. Ba’zi mamlakatlarning rahbarlari kimgadir yoqish, xushomadgo‘ylik qilish uchun 9-may bayramini, albatta, Moskvada o‘tkazish kerak, degan gaplarni ham aytди. Men bu haqda gapirishni ham istamayman. Biz bu borada o‘z vaqtida eng to‘g‘ri

javobimizni berdik va bizning fikrimizni ko‘pchilik eshitdi. Kimgadir malay bo‘lish o‘zbek xalqiga, O‘zbekiston rahbariga hech qachon yarashmagan va biz hech qachon, hech kimga bosh egganimiz yo‘q. Bu fikrni xalqimizga juda chuqur va atroficha yetkazish kerak.

O‘zbekiston – mustaqil davlat. Endi xalqimiz hech qachon kimgadir qul bo‘lishga rozi bo‘lmaydi va kimningdir buyrug‘ini bajarib yuradigan zamonga hech qachon qaytmaydi. Ozodlik, erkinlik havosidan bir bor to‘yib nafas olgan odam hech qachon qullikka ko‘nmaydi, qullikka qaytmaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, qahramonlik haqida gapiradigan bo‘lsak, bizning ota-bobolari-miz jang maydonlarida mardlik va matonat ko‘rsatgani uchun O‘zbekistonning 338 nafar o‘g‘loni Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan, ming-minglab yurtdoshlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan. Bularning barchasi xalqimizning fashizmga qarshi kurashda ko‘rsatgan jasorati va botirligining amaliy namoyishi deb bilamiz.

Shularni ham hisobga olib aytadigan bo‘lsak, bizga aql o‘rgatmoqchi bo‘lgan, G‘alaba kunini qayerda o‘tkazishni maslahat beradigan odam, o‘ylaymanki, avval yetti marta o‘ylab, keyin tovush chiqarishi kerak.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganiga yaqinda 24 yil bo‘ladi. Mustaqillik kuni – Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida abadiy muhrlanib qolgan qutlug‘ sana. Yurtimizda tug‘ilgan, endi 5 yoshga to‘lgan bolalar ham har qadamda «Men – O‘zbekiston fuqarosiman!» deb, faxrlanib, g‘ururlanib gapiradi. Kimki mamlakatimizga kelsa, bu haqiqatning tasdig‘ini har qadamda ko‘rishi mumkin. Lekin bunday darajaga erishish har qaysi xalqning o‘ziga, uning rahbariga havola. Buni tushunish kerak. Tushunish uchun esa odam shunday g‘oya bilan, ya’ni mustaqillik g‘oyasi bilan, g‘urur-iftixor bilan yashashi kerak.

Men g‘urur haqida ko‘p gapiraman. Negaki, g‘urur va iftixor bilan yashash o‘zlikni asrash, bu dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasdan barchaga teng munosabatda bo‘lish deganidir. Bunday hayot tarziga hamma ham erishavermaydi. O‘zbek xalqining bag‘rikenglik, mehr-oqibat, saxovatpeshalik kabi ko‘plab chin insoniy fazilatlari qatorida yana shunday ulug‘ xususiyati borki, u hech qachon, hech kimning oldida bosh egmagan. Buyuk ajdodlarimizni, Amir Temur bobomizni eslang, ularning o‘gitlariga qulqoq tuting. Har qaysi odam – u qanday yoshda bo‘lmisin, qayerda va qaysi lavozimda ishlamasin – boshiga qandaydir og‘ir ish yoki tashvish tushganida, men kimman, qanday

buyuk zotlarning avlodiman, degan savolni o‘ziga bersa, to‘g‘ri yo‘lni albatta topadi. Bu savolga javob tariqasida qalbida beixtiyor g‘urur va iftixor tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Albatta, biz boy tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Tariximiz – bitmas-tuganmas xazina, biz uchun cheksiz g‘urur manbai.

Yosh-u qari har qaysi vatandoshimiz yaxshi anglaydiki, 9-may sanasini yurtimizda Xotira va qadrlash kuni deb nomlaganimiz bejiz emas. Bundan 17 yil oldin bu borada qabul qilgan qarorimizning tub mohiyatini ham tarixiy ildizlarimiz, xususiyatlardan izlasak to‘g‘ri bo‘ladi. Ya’ni, xalqimiz Vatan uchun, yurt uchun jonini fido qilgan odamlarni hech qachon unutmaydi, bu fazilat bizning qon-qonimizga, suyak-suyagimizga singib ketgan.

Shu ma’noda, insoniyat tarixidagi eng qonli urushda shuncha qurban bergen xalq orqada qolgan o‘sha mudhish kunlarni, bugungi yorug‘ damlar uchun aziz jonini fido qilganlarni, bu yo‘lda azob-uqubat tortgan insonlarni aslo yodidan chiqarmaydi. Shuning uchun biz yurtimizda 35 jilddan iborat «Xotira kitobi»ni nashr etdik va xalqimizning ana shu asl farzandlarining barchasining nomlarini oltin harflar bilan tarixga muhrlab qo‘ydik. Poytaxtimizda va viloyatlarimiz markazlarida Xotira maydonlarini barpo etdik. Ana shu beshafqat urushda qatnashgan

birorta odam ham xalqimizning xotirasidan, e'tiboridan chetda qolgani yo'q. Ularning aziz nomlari hamma joyda esga olinadi, ezgu ishlari barchaga ma'lum.

Faraz qiling, agar biz ana shu «Xotira kitobi»ni chiqarmaganimizda, mana shunday Xotira maydonlarini tashkil qilmaganimizda nima bo'ldi? Ota-onasi, aka-ukalari, qarindosh-urug'lari urushda halok bo'lgan, bedarak ketgan insonlar o'z yaqinlarining qabrini ziyorat qilish uchun qayoqqa borardi?

Masalan, mening jiyanim umrbod otasini qidirib o'tdi. U otasini umuman ko'rmagan. Nega deganda, u 1939-yilning oxirida tug'ilgan bo'lsa, o'sha yilning boshida otasi Fin urushiga ketgan. So'ng 1941–1945-yillardagi urushda qatnashgan va qaytib kelmagan. Undan yodgor bo'lib ikki-uchta xat qolgan, xolos. Otasini tirikligida bir bor ko'rmagan o'g'il uni umrbod izladi, ko'plab mamlakatlarda bo'ldi. Lekin, afsuski, uning qabrini topolmasdan, o'zi ham olamdan o'tib ketdi. Bunday ayanchli taqdirlarni, jabr-sitamlarni tasavvur etadigan bo'lsak, insonning xayolidan nimalar o'tadi?

Shu nuqtayi nazardan qarab, yana bir bor aytmoqchiman: biz bugun tirik bo'lgan, oramizda hayot bo'lib yurgan urush qahramonlari oldida bir umr qarzdormiz, ularning oldida bosh egib ta'zim

qilamiz. Shu bilan birga, ularning umrini uzaytirish uchun nima kerak bo'lsa, hammasini qilishimiz lozim. Xalqimiz «Hayot – bu oqar daryo», deydi, ya'ni hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Hayotning qonuni shundayki, tug'ilish bor ekan, o'lim ham haq. Bu narsa insonning ixtiyoriga bog'liq emas. Demoqchimanki, bu dunyoga hech kim ustun bo'lмаган. Lekin Xudo odamga bu hayotni, bu umrni insoniy burchini ado etish uchun buyurgan. Umr mazmuni qilingan ezgu ishlar va yaxshiliklar bilan o'lchanadi. Ey inson, hayoting davomida bu burchingni qanday bajaryapsan, bu dunyoda sendan qanday iz qolyapti, degan savollarga biz har kuni, har daqiqa javob izlashimiz, xayolimizning bir chekkasida doimo shu masala turishi kerak.

«Hayot – oqar daryo» degan iboraning juda katta ma'nosi, to'g'rirog'i, da'vati bor. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, urushda qatnashgan, bugun hayot bo'lган insonlarning soni ham kamayib borayotganini katta afsus bilan aytishga majburmiz. Lekin, nachora, oqadigan daryoni to'xtatib bo'lmas ekan. Bu achchiq haqiqatni ongli yashaydigan har qaysi odam chuqur anglashi va yaxshilik qilishga shoshilishi kerak. Birovga yaxshilik qilgan odamga, albatta, yaxshilik qaytadi, o'ziga qaytmasa bolasiga, nabiralariga qaytadi. Bu fikr, bu g'oyani ayniqsa endi katta hayotga kirib kelayotgan yoshlаримиз

unutmasdan, umr bo‘yi bunga amal qilib yashasa, hech qachon kam bo‘lmaydi.

Shu ma’noda, 9-may kuniga, bu ulug‘ sanaga Xotira va qadrlash kuni deb nom berganimiz bugun mamlakatimizda yashayotgan 31 yarim million xalqimizning ajdodlarimiz xotirasi va tarix oldidagi ham qarzi, ham farzi edi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Aynan shunday: xalqimiz el-yurt tinchligi va obodligi, osmonimiz musaffoligi yo‘lida jon fido qilganlarni aslo unutmaydi, ularning xotirasini qalbida mangu saqlaydi, tirik bo‘lganlarni esa e’zozlaydi, ularning qadrini joyiga qo‘yadi.

Bugun uzoq va yaqindagi xorijiy davlatlarni kuzatadigan bo‘lsak, ularda ham, mana, asta-sekinlik bilan «xotira» degan so‘z ishlatila boshlandi. Lekin ular «qadrlash» degan so‘zni esidan chiqarganga o‘xshaydi. Demoqchimanki, bizning bu boradagi sa’y-harakatimiz, ishlarimizni boshqalar ham namuna sifatida ko‘rib, buning ma’nosini anglamoqda, mazmun-mohiyatini tushunib, mag‘ziga, tomiriga yetib bormoqda.

Yillar o‘tadi, zamonlar o‘tadi, lekin xotira va qadrlash degan ibora xalqimiz hayotida abadiy qoladi. Har qaysi inson, xalq, millat o‘zining tirikligi, barhayotligini xotira bilan o‘lchaydi. Barchamiz xotira bilan yashaymiz, xotira bilan tirikmiz. Xotirasini, o‘tmishini esidan chiqargan

inson, qo‘pol bo‘lsa ham aytish kerak, hayvonga aylanadi.

Bugun yurtimizda kechagi kunni eslamaydigan, ajdodlarini, bobolarini yodga olmaydigan odamning o‘zi yo‘q, desam, adashmagan bo‘laman. Dunyo tarixida qudratli sultanat yaratgan Sohibqiron Amir Temir bobomiz, o‘z aql-zakovati, ulkan ilmiy salohiyati bilan jahon tamadduniga beqiyos hissa qo‘sghan buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz bilan kim faxrlanmaydi deysiz? O‘tgan yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan «O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyada dunyoning 50 mamlakatidan kelgan atoqli olimlar bu tarixiy merosni butun insoniyat manfaati yo‘lida bирgalikda o‘rganish, uni targ‘ib-u tashviq qilish, amaliy hayotda yanada keng qo‘llash kerakligini alohida ta’kidlagani, aytinlar, hammamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlamaydimi?

Biz ko‘pincha bu borada ham kamtarlik qilamiz. Lekin mening tilagim, istagim shuki, bu haqda ko‘proq gapirish, merosimizni ko‘proq va chuqurroq o‘rganish kerak. Buyuk ajdodlarimizni, ota-bobolarimizni eslash degani – bu o‘zimizga tan berish deganidir. Men ana shunday fikrdaman. O‘zimizga tan beradigan bo‘lsak, avvalambor,

bizdan oldin o'tgan ajdodlarimizga tan beraylik. Ular qanday insonlar edi, qanday hayot kechirgan, o'zidan qanday nom qoldirgan edi, degan savollar haqida o'ylash lozim. Shu o'rinda dog'istonlik mashhur shoir Rasul Hamzatovning bir fikri yodimga tushdi. Ya'ni, u aytadiki, agar sen o'zingdan oldin o'tganlarni miltiq bilan otadigan bo'lsang, avlodlaring seni zambarakdan o'qqa tutadi. Bu gapda haqiqatan ham chuqur ma'no bor.

Shu borada yana bir fikrga e'tibor berishingizni istardim. Fashizmga qarshi jangga kirgan bizning ota-bobolarimiz qandaydir bir tepalik yoki qaysidir bir «ulug' dohiy» uchun jon bermagan. O'zbek o'g'lolnari, avvalambor, o'zi tug'ilgan shahar va qishloqni, o'z ona yurtini, o'z yaqinlarini, mehribon otasi va onasi, sevikli yori, jondan aziz farzandlarini ko'z oldiga keltirgan holda beomon jangga kirgan, shu muqaddas Vatanimiz uchun jonini fido qilgan.

Hozir ham ayrim mamlakatlarda «Za SSSR», «Za Stalina» degan gaplar aytilgan yangi-yangi badiiy filmlar namoyish qilinyapti. Bu gaplar, da'vatlarning barchasi yolg'on va uydirma gaplar. Bu borada asl haqiqat hali ham yuzaga chiqqani yo'q. Men o'ylaymanki, bu haqiqat endi oshkora bo'ladi. Yaqinda Rossiyada chiqadigan «Komsomolskaya pravda» gazetasida bir maqolani o'qidim. Maqola muallifi, urush faxriysi bo'lgan

90 yashar bir otaxon: «Men hech qachon «Stalin uchun» deb hujumga otilganim yo‘q, umrimda bunday gapni aytmaganman», deb yozibdi. Bunday fikrlar boshqa mamlakatlarda endi-endi yozilyapti va ishonchim komilki, haqiqat albatta qaror topadi.

Men yovuz dushman bilan ro‘baro‘ bo‘lib, dahshatli jangga kirgan askarlarimiz o‘sha lahza-larda nimani o‘ylagan, ularning xayolidan qanday fikrlar, kechinmalar o‘tgan ekan, deb o‘zimga ko‘p savol beraman, og‘ir bo‘lsa-da, ularning ruhiy holatini, o‘y-xayollarini o‘zimga tasavvur etishga harakat qilaman. Ana shunda «Qani endi, yurtimni, o‘zimning azizlarimni yana bir bor ko‘rsam, ularni bag‘rimga bossam», deb o‘ylagan o‘g‘lonlar ko‘z o‘ngimda gavdalanadi. Men aminmanki, ular aynan shunday o‘ylagan, avvalambor, o‘z yurtini eslab, aziz insonlarini yana bir marta ko‘rsam, deb jon bergen.

Ota-onasi, farzandi uchun, el-yurt, ona Vatan uchun o‘zini fido qilishga tayyor bo‘lgan insonni haqiqiy o‘g‘lon deydilar. O‘g‘lon degan so‘z bilan o‘g‘il degan so‘zning farqi bor. O‘g‘lon degan so‘zning ma’nosi juda katta. Ya’ni, o‘g‘illarning eng sarasini, mard yigitlarni xalqimiz o‘g‘lon deydi. Shu ma’noda, bugun unib-o‘sib kelayotgan yoshlарimiz ham o‘z yurtini mana shunday sevsа, unga fidoyi bo‘lib yashasa, biz bugun ham, kelajakda

ham hech qachon, hech kimdan kam bo‘lmaymiz, o‘z maqsad-muddaolarimizga albatta yetamiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yana bir fikrni takrorlab aytishni lozim deb bilaman. Hozir bu haqda gapirmasam, o‘zimni xuddiki qalbimda, yuragimda bo‘lgan so‘zlarni to‘liq ifoda etmagandek his qilaman. Ya’ni, bugun mana shu buyuk sanani nishonlayotgan yurtimizdagi har qaysi oila, har qaysi inson, avvalambor, bu mudhish urush boshqa hech qachon qaytarilmasin, deb niyat qiladi, boshqa bunday musibatlarni ko‘rmaylik, deb qo‘lini fotihaga ochadi. Bunga mening ishonchim komil. Bizning qariyalarimiz qachon duoga qo‘l ochmasin, Yaratganimizdan el-yurtimizga tinchlik va omonlik, farovonlik va ravnaq so‘raydi. Mana shunday hayotiy, hikmatga to‘la gaplarni takrorlashdan charchamaydigan qariyalrimiz xonadonlarimizning fayzi va barakasi, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Agar kimning uyida mana shunday qariyalar bo‘lsa, ular – baxtli insonlardir.

Shu o‘rinda biz bu tabarruk zotlar oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimizni istardim. Nega deganda, bu hayot, uning har kuni, har daqiqasi g‘animat. Mendan bu so‘zning zamirida qanday ma’no bor, deb so‘rasa agar, kelajakda pushaymon bo‘lmaslik uchun bizni asrab-avaylab

voyaga yetkazgan keksalarimiz hayot bo‘lgan paytida ularning oldidagi burchingni bajar, degani bu, deb javob bergen bo‘lardim.

Afsuski, biz ko‘p hollarda ota-onalarimizga, qariyalarimizga ular hayot bo‘lganida qandaydir e’tiborsizlik, bepisandlik bilan qaraymiz. Hali onamning yonida bo‘lishga vaqt, imkoniyat bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Biz osiy bandalar ana shunday fikrda bo‘lib, g‘animat damlarni o‘tkazib yuboramiz. Boshimiz devorga taq etib urilganida esa kech bo‘ladi. Shu ma’noda, ota-onalarimiz bilan ko‘proq suhbatlashish, ularning ko‘nglini ko‘tarish, maslahatini, duosini olish – bu bizning nafaqat burchimiz, balki, bu biz uchun ulkan baxt, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Men bizga, xalqimizga avvalo nima kerak, degan savolni ko‘p takrorlayman. Bugun ham shu so‘zлами aytishdan charchamayman: bizga, xalqimizga birinchi navbatda nima kerak? Bizga avvalo tinchlik kerak, omonlik kerak. Bu dunyoda har bir inson, har bir oila o‘zining muqaddas orzu va niyatlariga yetish uchun yashaydi. Agar har bir oila o‘z niyati yo‘lida bir musht bo‘lib harakat qilsa, albatta, unga erishadi. Bugun xalqimiz ana shunday ezgu niyatlar bilan yashayapti. Biz shu yo‘lda doimo kurashishimiz, qolaversa, bu kurashning amaliy tomonidan yanada foydali bo‘lishiga harakat qilishimiz kerak.

Ming afsuski, so'nggi paytlarda dunyoda, xususan, yon-atrofimizda turli xavf-xatarlar ko'payib bormoqda. E'tibor bering, bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining a'zosi bo'lgan qudratli davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar tobora kuchayib bormoqda. Bu holat ertaga qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining 5 ta doimiy va 10 ta yangilanib turadigan a'zosi bor. Agar 5 ta doimiy a'zo kelishib, bir yoqadan bosh chiqarib ish ko'rmasa, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Ana shu 5 ta davlatda veto huquqi, o'zbekcha aytganda, muayyan qarorni qabul qilmaslik huquqi bor. Vetonin taqiq, desak, ko'pchilik tushunmasligi mumkin-u, lekin qabul qilmaslik, deb ta'riflasak, to'g'riroq bo'ladi.

Oxirgi yillarda ushbu davlatlardan bittasi muayyan masalaning yechimi, misol uchun, Ukrainada tinchlikka erishish bo'yicha biron-bir taklif bersa, ikkinchisi bunga qo'shilmasdan, uni rad etmoqda. Agar BMTda ishlar shu taxlit davom etadigan bo'lsa, ertaga dunyodagi vaziyat qanday bo'ladi?

Dunyoda butun insoniyatning boshini qovushtiradigan, yuzaga kelgan turli mojaro va ziddiyatlarni hal qiladigan xalqaro tuzilma faqat va faqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti bo'lishi zarur.

Bir vaqtlar Millatlar Ligasi degan xalqaro tashkilot bo‘lgan. Ikkinci jahon urushidan so‘ng uning negizida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilgan. Lekin bugungi kunda BMT tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga uning a’zolari itoat qilmasa, hamma faqat o‘z manfaatini o‘ylasa, bu holat oxir-oqibatda mazkur tashkilotning obro‘sizlanishiga olib kelmaydimi?

Mana, ko‘ryapmiz, dunyoda turli salbiy jarayonlar kuzatilmoqda, xavf-xatarlar kuchayib bormoqda. Ana shunday vaziyatda bu nufuzli tashkilot o‘z kuchi – imkoniyatlarini ishga solib, mahkam turib bu voqealarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi, bir-biriga yaqin do‘sit, kerak bo‘lsa, qarindosh bo‘lgan millatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda o‘z o‘rni va ta’sirini kuchaytirishi darkor.

Shularning barchasini hisobga oladigan bo‘lsak, bu borada O‘zbekistonning siyosati aniq va ravshan. Bizning asosiy vazifalarimizdan biri – qo‘shti davlatlar, bizga uzoq va yaqin bo‘lgan mamlakatlar bilan til topishib yashash, hamkorlikni rivojlantirish. Bu dunyoda urush o‘rniga hamkorlik, hamkorlik, yana bir bor hamkorlik hukm surishi kerak.

Ikkinchidan, biz har qanday to‘qnashuv va mojaroni faqat tinchlik yo‘li bilan yechish, faqat siyosiy muzokaralar yo‘li bilan hal etish tarafdorimiz. Shundagina turli urush va to‘qnashuvlarning

oldini olish, endi uchqunlanayotgan ziddiyat va mojarolarni o‘z vaqtida bartaraf etish mumkin.

Uchinchi masala – O‘zbekiston hech qanday siyosiy-harbiy bloklarga qo‘silmaydi. Bu – bizning shiorimiz, desak, xato bo‘lmaydi. Biz kimningdir manfaati uchun yigitlarimizni chet mamlakatlarga yubormaymiz. Qayerdadir tinchlik o‘rnatish bahonasida soxta obro‘ topmoqchi bo‘lgan ba’zi bir «dohiy»larning xatti-harakatlari orqasidan bolalarimiz halok bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘ymaymiz.

To‘rtinchidan, biz o‘z ona tuprog‘imizda, mamlakatimiz hududida chet mamlakatlarning harbiy bazalarini joylashtirishga hech qachon ruxsat bermaymiz.

Eng muhimi, o‘zbek askarlarining chet ellardagi harbiy harakatlarda qatnashishiga hukumatimiz, Prezident hech qachon yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bu masala faqat menga, davlat rahbariga tegishli emas. Vaqti kelib, mening o‘rnimga keladigan odam ham shu fikrni qulog‘iga qo‘rg‘oshindek quyib olishi shart. Faqat o‘z Vatanimizni himoya qilish, mamlakatimiz chegaralari daxlsizligini ta’minlash Prezident uchun ham, harbiy xizmatchilar uchun ham, har qaysi yurtdoshimiz uchun ham muqaddas vazifa, shu bilan birga, insoniy burchdir.

Mamlakatimizda yaqinda bo‘lib o‘tgan Prezident saylovi oldidan viloyatlarda, saylovchilar bilan

uchrashuvlar paytida odamlar bilan bu haqda ko‘p fikr almashdik. Har qaysi rahbar zimmasiga qanday mas‘uliyatni, vazifani olayotganini bilishi, chuqr his qilishi kerak. Davlatning bo‘lg‘usi rahbari 31 milliondan ziyod xalqning – nasib etsa, aholimiz soni kelgusida bundan ham ko‘payadi – butun el-yurtning taqdiri, avvalo, unga bog‘liq ekanini chuqr anglashi zarur.

Bu vazifaga intilgan odam, avvalambor, men mamlakatga rahbarlik qilishga qodirmanmi yoki yo‘qmi, buning uchun mening aql-zakovatim, bilim va tajribam, salohiyatim yetarlimi, deb o‘ziga savol berishi kerak.

Xulosa shuki, agar sen odamlarni sevmasang, xalqingni, senga ishonch bildirgan odamlarni yuragingga yaqin olmasang, Prezident bo‘lishga haqqing yo‘q.

Men faqat O‘zbekiston emas, boshqa davlatlar haqida gapirganda ham shu fikrlarni esdan chiqarmaslik kerakligini aytmoqchiman. Nega deganda, O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lib bu dunyoda bir o‘zi yashamaydi, yolg‘iz bir o‘zi hech qachon rivojlanmaydi. Shunday ekan, O‘zbekistonning atrofida qanday davlatlar, xalqlar yashayotgani, ularning ham xohishi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi, orzu-intilishlari borligini hisobga olishimiz lozim. Shundagina bizning betakror yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lishi mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz manfaati, uning ertangi taqdiriga daxldor bo‘lgan har qanday qarorni qabul qilishda yetti o‘lchab, bir kesishimiz zarur.

Men Ollohning o‘zi insonni baxt uchun yaratgan, deb ko‘p gapiraman. Yaratganimiz insonga hayot ato etibdimi, qolgani ko‘p jihatdan insonning o‘ziga bog‘liq.

Mana, e’tibor bering, biz haqiqatan ham qanday go‘zal bir yurtda yashayapmiz. Bugun mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida, hatto, eng chekka joylarida ham katta-katta o‘zgarishlar bo‘lyapti. Misol uchun, azim poytaxtimizning Eski shahar qismida amalga oshirilayotgan ishlarni ko‘z oldingizga keltiring. Endi bu hududni Eski shahar degan nom bilan atashning o‘zi haqiqatga to‘g‘ri kelmay qolmoqda.

Yaqinda men Toshkent shahri saylovchilarini vakillari bilan uchrashib, muloqot qilganimda ham shu fikrni aytdim. Ya’ni, odamlar ilgari qiynalib yashagan eski uylar o‘rnida zamon talablariga har tomonlama javob beradigan muhtasham uy-joylarni barpo etyapmiz. Bu ishlarni oxiriga yetkazish uchun bizga yana 6–7 yil muddat kerak bo‘ladi.

Muxtasar aytganda, ozod va obod yurtda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarning uylari ham, ularning hayoti, turmushi ham go‘zal va farovon bo‘lishi kerak.

Yaqinda gazetalarimizda bir yaxshi xabar e'lon qilindi, lekin, afsuski, bu mavzu ommaviy axborot vositalarimizda yetarli darajada keng yoritilmadi. Ya'ni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida AQSHning Kolumbiya universiteti olimlari tomonidan «Dunyoning eng baxtli mamlakatlari» degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi va uning natijalari matbuotda e'lon qilindi. Ana shu tadqiqot natijasiga ko'ra, O'zbekistonimiz 158 mamlakat orasida 44-o'rinni, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari o'rtasida esa birinchi o'rinni egallagan.

Bizning jahon miqyosida ana shunday natijaga erishishga, shunday yuksak marraga ko'tarilishga qurbimiz yetgani, mustaqillik yillarida mamlakatimiz naqadar ulkan rivojlanish yo'lini bosib o'tganini, qanday ezgu maqsadlarni ro'yobga chiqarayotganimizni yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramasdan, 8 foizdan kam bo'lmasdan o'sayotgani ham shuning dalilidir.

Boshqalar havas qilayotgan bunday ko'rsatkich-larga erishish oson bo'lgani yo'q. Buning uchun biz mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab chuqur tayyorgarlik ko'rganmiz. Biz oldimizga aniq maqsadlar qo'yganmiz. Shu maqsad yo'lida bugun erishayotgan natijalarimiz dunyo ahlini hay-

ratda qoldirayotgani hech kimga sir emas. Hech bir ishda shoshilmasdan, ayni paytda sustkashlikka yo‘l qo‘ymasdan, faqat va faqat o‘zimizning kuchimizga ishonib, tayanib yashashimiz kerak. Ana shunda biz, albatta, o‘z murod-maqsadimizga yetamiz.

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu zamin oddiy yurt emas, Ollohnning nazari tushgan yurt. Faqat barchamiz ertalab pok bo‘lib, Yaratganimizdan so‘rashimiz kerak. El-yurtimizni o‘z panohida qanday asrab kelayotgan bo‘lsa, bundan keyin ham marhamatini bizdan darig‘ tutmasin, eng muhim, yo‘limizni doimo ochib bersin, barcha yutuqlarimizda o‘zi madadkor bo‘lsin!

*Xotira va qadrlash kuni
munosabati bilan ommaviy axborot
vositalari uchun berilgan intervyu.*

2015-yil 9-may

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, hurmatli jurnalistlarni, nashriyot va matbaa, radio va televide niye sohasi fidoyilarini, muhtaram faxriylarimiz, yurtimizdag'i barcha mushtariylarni Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan tabriklab, sizlarga o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni bildirishdan mamnunman.

Barchamizga yaxshi ma'lum, bugungi hayotimizni sizlarning murakkab va mas'uliyatli faoliyattingizdan, ommaviy axborot vositalaridan ayri holda aslo tasavvur etib bo'lmaydi.

Sizlarning mashaqqatli mehnat mahsulingizni millionlab odamlar qayerda bo'lmasin, doimo katta qiziqish va e'tibor bilan kutadi. Dunyoda kechayotgan turli-tuman voqe'a va jarayonlar haqida sizlar yetkazadigan tezkor va xolis axborotning, hayotiy muammolar, kundalik tashvishlar va ularni hal qilish yo'llari haqida jurnalist ahli bildiradigan ta'sirchan so'zning ahamiyati va salmog'i hozirgi zamonda tobora ortib bormoqda.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning «**Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,**

ham jonlarig‘a moyayi darmon bo‘lg‘il» degan hikmatli so‘zları avvalo sizlar kabi zahmatkash va fidoyi insonlar sha’niga aytilgan, desak, o‘ylaymanki, yanglishmagan bo‘lamiz.

Haqiqatan ham, sizlarning mustaqilligimizni mustahkamlash, odamlarimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish, ularni Vatanimiz oldida turgan ulkan maqsadlar sari safarbar etish yo‘lida qilayotgan ezgu xizmatlaringizni xalqimiz, jamoatchiligimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz bugun qanday shiddat bilan o‘zgarayotgan va rivoj topayotgan, ilgari uchramagan, yechimi o‘ta og‘ir va murakkab bo‘lgan turli-turli muammolarni tug‘dirayotgan XXI asrda yashayotganimizni hech esimizdan chiqarmasligimizni istardim.

Shular qatorida, avvalambor, globallashuv jaryonlari tobora tezlashib, dunyoning bir chekka-sida yuz bergan voqeа-hodisalar uning ikkinchi bir chetida zudlik bilan aks sado berayotgan bir paytda, bu holatning o‘zi barchamizdan zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, xorijiy tillarni mukammal egallahshi, bir so‘z bilan aytganda, professional malakamizni oshirish uchun o‘z ustimizda muntazam ishlashni talab qilayotgani hech kimga sir emas.

Shuni alohida ta’kidlashimiz zarur – hozirgi vaqtda nafaqat hayot, balki insonning o‘zi, uning

ichki dunyosi, hayotga munosabati va talabi ham tubdan o‘zgarmoqda. Ana shunday ko‘pqirrali sharoitda bugungi jurnalist, bugungi matbuotchi bu haqiqatni chuqur anglagan taqdirdagina samarali faoliyat ko‘rsata olishi mumkinligi haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo‘q.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimiz aholisini, zamondoshlarimizning hayoti va dunyo-qarashini kechagi – 90-yillardagi odamlarning hayoti va dunyoqarashi bilan solishtiradigan bo‘lsak, o‘rtada yer bilan osmoncha farq borligini ko‘rish, kuzatish qiyin emas.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bugun biz yashayotgan yangi davr, yangicha ijtimoiy munosabatlar ommaviy axborot vositalarining oldiga tez sur’atlar bilan o‘zgarib, rivojlanib borayotgan jamiyatimizning talablariga har tomonlama munosib bo‘lish, odamlarni o‘ylantirayotgan, bezovta qilayotgan muammolarga javob izlash, ularni kun tartibiga qo‘yib, jamoatchilik fikrini shakllantirish bo‘yicha o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Shularning barchasini inobatga olgan holda, keyingi yillarda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining demokratik islohotlar jarayonidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish, ularning huquqiy, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish,

jurnalist kasbining ijtimoiy maqomi va nufuzini yuksaltirish, soha xodimlarining mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida amalga oshirgan ishlarimiz haqida albatta ko'p gapirish mumkin.

Men bu borada faqatgina ba'zi bir misollarga e'tiboringizni qaratishni o'rinli, deb bilaman.

So'nggi yillarda yurtimizda ommaviy axborot vositalari sohasida 10 ga yaqin qonunlar qabul qilinib, ko'plab qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelayotganini ta'kidlashni xohlardim. Buning tasdig'ini oxirgi 7 yilda soha rivoji uchun davlat budjeti hisobidan kreditlar, ijtimoiy buyurtmalar va davlat grantlari shaklida qariyb 13 milliard so'm mablag' ajratilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining soni 3,6 karra ko'payib, hozirgi vaqtda 1 ming 400 dan ortiqni tashkil etayotgani, ularning moddiy-texnik bazasi tubdan yaxshilangani bizning bu borada qanday katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimizni ko'rsatadi.

Mamlakatimizda an'anaviy axborot vositalari bilan bir qatorda, internet jurnalistikasi ham jadal

rivojlanmoqda. Keyingi 5 yilning o‘zida veb-saytlarning soni 2 barobar ortib, 300 dan oshib ketgani mamlakatimiz milliy axborot makonining mazmuni va manzarasini tubdan o‘zgartirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda 66 ta telekanal, 34 ta radiokanal faoliyat ko‘rsatayotgani elektron media tarmoqlarning samarasi va salmog‘i ham tobora yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Keyingi paytda amalga oshirgan keng ko‘lamli ishlarimiz natijasida hozir O‘zbekiston aholisining 54 foizi raqamli televide niye imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Joriy yilning o‘zida mamlakatimiz bo‘yicha yana 84 ta yuqori quvvatga ega bo‘lgan teleuzatgich moslamalari o‘rnataladi va shu tariqa barcha hududlarimizni 100 foiz raqamli televide niye bilan qamrab olishga erishamiz.

Hozirgi vaqtida birgina O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqtiga 520 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, yaqin o‘tmishda bu raqam bor-yo‘g‘i 24 soatga teng edi. Ayni paytda milliy teledasturlarimiz sun’iy yo‘ldosh orqali dunyoning yuzdan ortiq davlatlariga uzatilib, jahon jamoatchiligini O‘zbekistonning qadimiy tarixi, boy madaniyati, bugungi sermazmun hayoti bilan tanishtirishda katta rol o‘ynamoqda.

Ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lgan nodavlat ommaviy axborot vositalari ham hayotimizga chuqur kirib bormoqda. Yurtimizdagi bosma nashrlarning 60 foizga yaqini, teleradiokanallarning 67 foizi, internet nashrlarining esa 95 foizi davlatga qarashli bo'limgan ommaviy axborot vositalari ekani buning amaliy tasdig'i idir.

Qadrli do'stlar!

Bugungi xursandchilik kunda matbuot va axborot sohasida erishgan yutuqlarimiz, oldimizda turgan vazifalar bilan birga sohaning kelajak istiqbollari xususida fikr yuritishimiz albatta o'rinnlidir.

Bu haqda gapirganda, «Biz kecha kim edigu bugun kim bo'ldik, ertaga qanday yangi marralarni egallahimiz kerak?» degan da'vat avvalambor hech kimdan kam bo'lmasdan, doimo hayotning oldingi saflarida bo'lishga intilib yashaydigan siz, hurmatli matbuot ahliga daxldor ekanini barchangiz yaxshi tushunasiz.

Biz o'z oldimizga dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishdek ulkan va sharaflı vazifani qo'ygan ekanmiz, mamlakatimizning jahon maydonidagi keskin raqobatga har tomonlama qodir bo'lishini bunday yuksak marraga erishishning asosiy sharti va garovi sifatida ko'ramiz. Shu ma'noda, milliy jurnalistikamiz xalqaro

media makonida o‘zining munosib va mustahkam o‘rnini egallashi bugungi kunda eng dolzarb vazifamiz bo‘lib qolmoqda.

Shu borada keyingi paytda bir qator rivojlangan davlatlar, dunyoda nom qozongan nufuzli media-kompaniyalardan malakali mutaxassis va jurnalistlar yurtimizga taklif qilinib, ular ishtirokida matbuot xodimlari uchun o‘quv seminarlari va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgani e’tiborga loyiqidir. Bu tajribaning keng qo‘llanishi tufayli o‘tgan yilning o‘zida 650 dan ortiq matbuot xodimlarimiz o‘z malakasi va mahoratini oshirishga erishganini, shu bilan birga, ko‘plab o‘zbek jurnalistlari ham xorijiy davlatlarga borib, tajriba almashib kelganini qayd etish lozim. Kelgusida ham bunday samarali ijodiy aloqalarni davom ettirish ommaviy axborot vositalarimiz rivojiga yangi turtki berishi shubhasiz.

Jurnalist kadrlarning yangi avlodini, o‘z kasbi-ning ustasi bo‘lgan yetuk tahlilchi va sharhlovchilarni tayyorlash bo‘yicha ham mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, yaqinda O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakultetining zamonaviy yangi binosi qurib foydalanishga topshirilganini ta’kidlash kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini, ijodiy mahorat sirlarini puxta egallash uchun

barcha zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma tarmoqlariga ega bo‘lgan ushbu oliv o‘quv maskani mamlakatimiz jurnalistlarining intellektual va ijodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Hurmatli vatandoshlar!

Hammamizga ayonki, inson bu hayotda baxt uchun dunyoga keladi. Lekin baxt degani faqat moddiy boylikka intilib, mol-u davlatga, havoyi orzularga berilib yashashni anglatmaydi. Baxt – bu, mening nazarimda, avvalo tinch-osoyishta hayot, oila, el-yurt obodligi, o‘z yurti, o‘z Vataniga muhabbat, har qanday og‘ir sinovlar qarshisida ham o‘zini, o‘zligini yo‘qotmasdan, asl insoniy qiyofasini saqlab qolish, yuksak ma’naviy qadriyatlarga sadoqat bilan yashashdir.

Xalqimiz, millatimiz asrlar davomida odamiylik, insonni qadrlash, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi ezgu fazilatlarni ko‘z qorachig‘idek asrabavaylab, necha-necha avlodlarga bezavol yetkazib kelayotgani tariximizdan yaxshi ma’lum.

El-yurtimizni ming yillar osha turli to‘fon va bo‘ronlardan omon saqlab, barchamizga kuch-qudrat bag‘ishlab kelayotgan, hayotimizni har tomonlama yuksaltiradigan bunday olajanob qadriyatlar, o‘ylaymanki, ommaviy axborot vositalari-

miz uchun hech qachon ahamiyatini, qadrini yo‘qotmaydigan bosh mavzular bo‘lib qoladi. **Chun-ki ma’naviyatni asrash – avvalo insoniylikni, insonning o‘zini asrash demakdir.** Ma’naviy dunyomizga qarshi qaratilgan tahdid va xurujlar tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda bu o‘tkir haqiqatni barchamiz aslo unutmasligimizni istardim.

Shular haqida gapirganda, ruxsatingiz bilan, ilgari ham aytgan fikrimni yana bir bor eslatmoq-chiman. Biz moddiy tomondan rivojlangan mamlakatlardan balki hozircha biroz orqadadirmiz, lekin ma’naviy jihatdan manaman degan davlatlardan o‘tib ketganmiz, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. **Bugungi kunda boshimizni baland ko‘tarib, g‘urur va iftixor bilan yashashga imkon beradigan bunday beba ho boylikni qo‘ldan chiqarmasdan, yoshlarimizga ham yetkazsak, ularning ongi va qalbiga chuqur singdirsak, aziz farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida bar-kamol insonlar etib tarbiyalasak, hech shubhasiz, ertangi kun, kelajak biznikidir.**

Ana shunday o‘ta muhim va dolzarb vazifani ado etishda jamiyatimiz, barchamiz avvalo sizlarga, sizlarning bilim va tajribangiz, professional mahoratingiz, grajdaniqlik pozitsiyangizga tayanamiz.

Fursatdan foydalanib, el-yurt manfaati,adolat va
ezgulik yo‘lida hamisha o‘zini ayamasdan mehnat
qiladigan siz, aziz jurnalistlarni men doimo qo‘llab-
quvvatlashga, har tomonlama yordam va ko‘mak
berishga tayyor ekanimni, sizlarni o‘zimning eng
yaqin hamfikr va maslakdoshlarim deb bilishimni
yana bir bor izhor etmoqchiman.

Aziz do‘sstar!

Bugungi qutlug‘ ayyomda sizlarni kasb bayra-
mingiz bilan samimiy muborakbod etib, barchan-
gizga sihat-salomatlik, baxt va omad, ijodiy kamolot
tilayman.

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2015-yil 27-iyun*

MUNDARIJA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING YIGIRMA UCH YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI. <i>2014-yil 31-avgust</i>	3
SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIGA A'ZO MAMLAKATLAR DAVLAT RAHBARLARI KENGASHINING KENGAYTIRILGAN MAJLISIDAGI NUTQ. <i>2014-yil 12-sentabr</i>	15
O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA. <i>2014-yil 30-sentabr</i>	21
BMT JAHON SAYYOHLIK TASHKILOTI IJROIYA KENGASHI 99-SESSIYASINING OCHILISH MAROSIMDAGI NUTQ. <i>2014-yil 2-oktabr</i>	28
MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHINING MAJLISIDAGI NUTQ. <i>2014-yil 13-oktabr</i>	48
O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA MEHNATKASHLARIGA. <i>2014-yil 24-oktabr</i>	56
«OROL DENGIZI MINTAQASIDAGI EKOLOGIK OFAT OQIBATLARINI YUMSHATISH BO'YICHA HAMKORLIKNI RIVOJLANТИRISH» MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA TABRIK SO'ZI. <i>2014-yil 29-oktabr</i>	64

«O'ZBEKISTON TEMIRYO'LLARI» DAVLAT AKSIYADORLIK KOMPANIYASI JAMOASIGA. 2014-yil 6-noyabr	73
TERMIZ SHAHRIGA AMIR TEMUR ORDENINI TOPSHIRISHGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ. 2014-yil 28-noyabr	81
O'ZBEK MILLIY AKADEMİK DRAMA TEATRI JAMOASIGA. 2014-yil 28-noyabr	97
MAMLAKATIMIZNI DEMOKRATIK YANGILASH VA MODERNIZATSIYA QILISHGA QARATILGAN TARAQQIYOT YO'LIMIZNI QAT'IYAT BILAN DAVOM ETTIRISH – BOSH MAQSADIMIZDIR. <i>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagisi ma'ruza.</i> 2014-yil 5-dekabr	101
O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI. 2014-yil 31-dekabr	148
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING BIRINCHI TASHKILIY YIG'ILISHIDAGI NUTQ. 2015-yil 12-yanvar	157
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 23 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI. 2015-yil 13-yanvar	172
2015-YILDA IQTISODIYOTIMIZDA TUB TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH, MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSİYA JARAYONLARINI IZCHIL DAVOM ETTIRISH HISOBIDAN XUSUSIY MULK VA XUSUSIY	

TADBIRKORLIKKA KENG YO'L OCHIB BERISH – USTUVOR VAZIFAMIZDIR. <i>Mamlakatimizni</i> 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruba.	181
2015-yil 16-yanvar	181
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY MAJLISI SENATINING BİRİNCHİ MAJLISIDAGI NUTQ. 2015-yil 22-yanvar	232
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI VA SENATINING QO'SHMA MAJLISIDAGI MA'RUDA. 2015-yil 23-yanvar	240
BIZNING MAQSADIMIZ – ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK HAYOT QURISH. <i>Tadbirkorlar va</i> <i>ishbihalarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik</i> <i>partiyasining VII syezdidagi ma'ruda.</i> 2015-yil 6-fevral	265
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTLIGİGA NOMZOD ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARİMOVNING SAYLOVCHILAR BILAN UCHRASHUVLARI.....	299
O'ZBEKİSTON XOTIN-QİZLARIGA BAYRAM TABRİGI. 2015-yil 6-mart	381
NAVRO'Z BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI. 2015-yil 21-mart	309
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİ LAVOZİMIGA KIRISHISH TANTANALI MAROSIMIGA BAG'ISHLANGAN OLİY MAJLIS PALATALARINING QO'SHMA MAJLISIDAGI NUTQ. 2015-yil 10-aprel	344

INSON, XALQ VA MILLAT XOTIRA BILAN TIRIK VA BARHAYOTDIR. <i>Xotira va qadrlash kuni</i> <i>munosabati bilan ommaviy axborot vositalari</i> <i>uchun berilgan intervyyu. 2015-yil 9-may</i>	367
MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA. <i>2015-yil 27-iyun</i>	392

Rasmiy nashr

Islom Abdug'aniyevich Karimov

**Erişgan marralar bilan chegaralanmasdan,
boshtagan islohotlarimizni yangi bosqichga
ko'tarish – bugungi kundagi eng
dolzarb vazifamizdir**

23-jild

Nashr uchun mas'ul *G. Azizova*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *G. Eraliyeva*

Musahhihlar: *M. Ishonxonova, D. Xusanova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2015-yil 23-sentabrda ruxsat etildi.

Qog'oz formati 84x108^{1/2}. Ofset qog'ozи.

«Tayms» garniturada ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 21,42. Nashr tabog'i 17,39.
Adadi 2000 нусха (1-zavod). Buyurtma № 15-597.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Karimov, Islom Abdug‘aniyevich.

K 25 Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. 23-jild/I.A. Karimov. – T.: «O‘zbekiston», 2015. – 408 6.

ISBN 978-9943-28-371-8

UO‘K: 323(575.1)
KBK 66.3(50‘)